

76. Objegts
T-28

Z.T. TAXIROV

ADABIY TUR, TERMIN, TAHRIR VA MUHARRIRLIK MAHORATI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.T. Taxirov

**ADABIY TUR, TERMIN,
TAHRIR VA MUHARRIRLIK
MAHORATI**

(5220100 – Jurnalistika yo'nalishi va 5A220104 – Noshirlik ishi
va muharrirlik mutaxassisligiga tavsiya etilgan)

TOSHKENT
«NOSHIR»
2019

UO'K 070(075.8)

KBK 76.01ya73

T 28

Taqrizchilar:

A. Boboniyozov – Filologiya fanlari nomzodi, «O'zbekiston»

NMIU bosh muharriri.

M.E. Isroil – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Z.T. Taxirov.

T 28 Adabiy tur, termin, tahrir va muharrirlik mahorati [Matn]: o'quv qo'llanma / Z.T. Taxirov; – Toshkent, «Noshir» nashriyoti, 2019. 208b.

ISBN 978-9943-5485-5-8

UO'K 070(075.8)

KBK 76.01ya73

Ushbu qo'llanma 5220100 – Jurnalistika yo'nalishi bo'yicha Adabiy tahrir, 5A 2201104 – Noshirlik ishi va muharrirlik ixtisosligi bo'yicha Adabiyot ayrim turlari tahriri fanlaridan jurnalistika fakulteti bakalavriantlari, magistrantlari hamda oliy jurnalistika kurslari tinglovchilariga mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
buyrug'iiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-5485-5-8

© Z.T. Taxirov, 2019

© «Noshir» nashriyoti, 2019

KIRISH

Terminlarni shartli ravishda kasb-hunarga oid va ilmga oid – ikki guruhga ajratish mumkin. Har bir kasb, har bir fan o‘z terminlariga ega (masalan, matematika, geografiya, ekologiya, tibbiyot, tilshunoslik va b. terminologiyasi), hamon shunday ekan terminlarni tadqiq etish nihoyatda keng ko‘lamli va ko‘p mehnat talab ishdir. Shunga ko‘ra ularni muayyan soha bo‘yicha o‘rganish maqsadga muvofiqdir va bu hol ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi. Ammo masalaning yana boshqa bir tomoni bor, u ham bo‘lsa, terminlarning qo‘llanilishini, ular tegishli soha bilan, faqat soha mutaxassislari doirasi bilan chegaralab qo‘yish juda ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Vaholanki, ayni bir sohaga oid terminlarning muayyan qismi soha bo‘yicha mutaxassis bo‘lmaganlar uchun ham tushunarli bo‘ladi, ular nutqida ham uchraydi. Shu bilan birga soha mutaxassislari uchungina tushunarli bo‘lgan terminlar ham mavjud va ular faqat soha mutaxassislari tomonidangina qo‘llanadi.

Terminlarni qo‘llash masalasini tadqiq etishda yana bir jihatga e’tiborni qaratish kerak bo‘ladi. Xususan, barcha uchun tushunarli bo‘lgan, ya’ni umum iste’moldagi bir turkum so‘zlar muayyan sohaga oid tushunchani ifoda etuvchi terminlarga aylanishi mumkin. Bunday holatda ayrim so‘z tub ma’nosi bilan umum iste’moldagi so‘zlar qatorida tursa, maxsus ma’nosi bilan soha termini hisoblanadi.

Tahrir jarayonida, albatta, bunday holatni ilg‘ay bilish tahrir bilan shug‘ullanuvchidan til hodisalaridan yaxshi xabardor bo‘lishni talab etadi.

Adabiy asar qo‘lyozmasini tahrir qilishga kirishishdan oldin muharrir tomonidan adabiy tahrir ilmi talablari asosida baholanadi. Qo‘lyozmani baholashda unga qo‘yiladigan talablar ichida muallif tomonidan terminlarning qo‘llanilishiga alohida e’tibor beriladi.

Har qanday asarda, uning qaysi turga mansubligidan qat'iy nazar, muayyan miqdorda terminlar uchraydi.

Ularni adabiy tahrir nuqtai nazaridan tahlil qilish faqat adabiyot turi bilangina emas, balki uslub bilan adabiy asar qaysi auditoriyaga mo'ljallanganligi bilan ham bog'liqidir.

Adabiy tahrir hamon til va uslub bilan jips bog'liq ekan, demak termin (maxsus so'z va so'z birikmasi)ning o'rinni qo'llanilganligi hamda uslubga muvofiqligi masalasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa ilm, fan-texnika jadal rivojlanayotgan, axborot ayirboshlash sur'ati mislsiz oshgan bugungi kunda ushbu masala alohida dolzarblik kasb etadi.

Termin shu kungacha faqat tilshunoslik fani nuqtai nazaridan o'rganilgan ayrim maqolalar e'lon qilingan. Bundan tashqari o'zbek adabiy tilidan universitetlarning filologiya fakultetlari, pedagogika universitetlari uchun yaratilgan darsliklarning leksikologiya qismida ma'lumotlar beriladi¹. Mavzu magistrlik dissertatsiyasi darajasida birin-chi marta tadqiq etilmoqda.

Matn tahririda terminlarning berilishi ilmiy-ommabop, ommaviy-siyosiy, o'quv adabiyotlarida, shuningdek ensiklopedik adabiyotlar doirasida berilishi adabiy tur va uslub nuqtai nazaridan ko'rib chiqilmoqda.

Adabiyot ayrim turlarining matnlarini tahlil va tahrir qilishda terminlarning qo'llanishi va ulardan asar turi, tili va usludiga ko'ra foy-dalanish bo'yicha ko'rsatmalar misollar (terminlar) tahlili jurnalistika yo'nalishi bakalavriantlari, noshirlilik ishi va tahrir ixtisosligi magistratlari uchungina emas, balki ilmiy, ilmiy-ommabop, ommaviy-siyosiy, o'quv adabiyoti, ensiklopedik matnlar tahriri bilan shug'ullanuvchi muharrirlar, terminshunoslik, kitobshunoslik bilan shug'ullanuvchi mu-taxassislar uchun ham foydadan holi emas.

Noshirlilik ishi, matbuot, radio va televideniyedagi faoliyatni matnsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, matn bor ekan u albatta tahrirdan

¹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M., Hojiev A. va b. Hozirgi o'zbek adabi tili. II qism. – T.: O'qituvchi, 1980. – 127-131-b. O'zbek tili leksikologiyasi. – T.: Fan, 1981. 17-40-b.

o'tishi lozim, zero tahrirsiz matnni e'lon qilish mumkin emas. Chunki muharrir tahriridan o'tmagan qo'lyozma nashriyot, jurnalistik asar hisoblanmaydi. Bugungi internet orqali ketayotgan xoh ilmiy, xoh jurnalistik materiallar imloviy, uslubiy, mantiqiy jihatdan mutlaqo tabag'a javob bermaydi. Bu materialarning mualliflari, balki, o'z sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin muharrir emas. Malaqali muharrir bo'lishi uchun tahrir ilmiy nazariyasini puxta egallagan, amaliy malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.

Muharrirlik mahoratiga ega bo‘lish uchun to‘rt bosqichdan o‘tish, shuningdek, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishi tabab etiladi.

Qo'llanmaning 1-2-3-boblarida asosan qanday nazariy bilimlarni o'zlashtirish zarurligi, 4-bobda esa matn tahriri bo'yicha malakaga ega bo'lishi uchun misollar (matnlar) berildi va qanday tahliliy va tahririy ishlarni amalga oshirish usullari ko'rsatildi.

Qo'llanmadagi mavzular bo'yicha bakalavriant va magistrlarga maxsus kurs o'qish, kurs ishi yozishni topshirish mumkin.

I QISM

ADABIY TUR, TERMIN VA TAHRIR

1-b o b . MATN, ADABIY NUTQ, USLUB VA ADABIY TAHRIR

- Matn nima?
- Matnda tinish belgilarining o'rni.
- Matn tuzishda sintaktik birliklarning o'rni va ahamiyati.

1-§. Matn nutqning yozuvdag'i ifodasi

Matn tushunchasiga turli adabiyotlarda berilgan ta'riflarni ayni bir xil deb bo'lmaydi. Bu holni qanday izohlash mumkin? Bizningcha bunda sabab matnlarga xos jihatlar ayni bir xil emasligidadir. Ular hajmiy, ma'noviy va vazifasiga, tuzishdan maqsadga ko'ra farqlanishi ham sabab bo'lsa kerak. Masalan, adabiy tahrir darsligida berilgan izohli lug'atda u shunday ta'riflanadi, aynan keltiramiz:

«Matn (ar. mundarija) – 1) muallifning o'z so'zi; 2) yozilgan yoki bosilgan maqola, undagi chizmalar, tasvirlar, ilovalar va boshqalar bundan mustasno; 3) musiqa asari (opera, romans va hokazolar) ga tegishli so'z¹.

Endi boshqa manbalardagi ta'riflarga e'tibor beraylik:

«Tekst (lot.) 1) muayyan tilning qonun, qoidalari, muayyan tilning sistemasiga muvofiq tuzilib, axborot beruvchi gaplar, so'zlar (semiotikada – belgilar) izchilligi. 2) So'z asari: badiiy adabiyotda tabiiy til belgilari (so'zlar) va murakkab estetik belgilari (poetik til, syujet,

¹ Tohirov Z.T. Adabiy tahrir. Darslik–T.: Tafakkur Bo'stoni, Cho'lpox nomidagi NMU, 2012.– 306-b.

kompozitsiya va h.k) dan tuzilgan to‘la asar yoki uning parchasi. 3) Muallifning ilova va tushuntirishlardan holi asari. 4) Nashrda T.ning rasm, chizma va formulalaridan farqli ravishda so‘z bilan ifodalangan qismi. 5) Bosmaxona shrifti, kegли (o‘lchami) 20 punkt (taxm. 7,5 mm) ga teng»¹.

Matn ta’rifi turli manbalarda ayni bir xil emas, degan fikrimizning isboti uchun yana misollar keltiramiz. «Matn [(yelka), nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan muallifik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrnning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi².

Matn xususidagi fikrlarni umumlashtiririb shunday xulosaga kelish mumkin. Demak, avvalo, matn – nutq egasining o‘z so‘zi, nutqning yozuvdagi aksi, tugallangan asar, nashr etish uchun barcha talablarga rioya etib tayyorlangan qo‘lyozma, muallif nusxasi, nashriyot asl nusxasi, asarning chizma, rasm, tenglama, ilova, izoh, sharh, nota belgilari va boshqalardan holi qismi va nihoyat, tahrir ob’ekti. Albatta, bu ta’riflarimizni yuz foiz mukammal deya olmaymiz. Boisi matnga tuzatish kiritish deganda matn so‘zi butun emas qism ma’no ifodasini beradi, demak asarning ayrim qismi, bo‘lagi ham matn deyiladi.

Adabiy tahrir ilmida, har qanday matn tahrirga muhtoj ekanligi ta’kid etiladi. Tahrir nuqtai nazaridan matn quyidagi talablarga to‘liq javob berishligi lozim: Asar, birinchidan, adabiy nutq me’yorlariga to‘la amal qilingan holda yozilishi, ikkinchidan, tuzilishi (kompozitsiyasi) asar qaysi adabiy turga mansub bo‘lsa, shunga mos tanlangan bo‘lishi, uchinchidan, adabiy tur uslubiga va so‘zlardan o‘rinli foydalilanilganligi, terminlar har jihatdan asarning sohaviyligiga ko‘ra to‘g‘ri tanlangan bo‘lishi shart.

Adabiy nutq me’yorlariga rioya etilganlik matn (asar) qaysi tur o‘quvchiga mo‘ljallanganligiga qaramay barcha uchun birdek tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi.

¹ Ensiklopedik lug‘at. O‘zbek ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 254-b.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.– 557-b.

Matnga qo'yiladigan bunday talab quyidagilar imkonini beradi:

- muallif nima haqda yozayotganini chuqur idrok etish;
- tushuncha hosil qilishda muallif qanday shartli belgilardan foydalanganligini tasavvur etish;
- matn o'z mazmuni va shakliga ko'ra o'quvchilarning qaysi turiga mo'ljallanganligini aniqlash;
- tayin o'quvchi matnni qanday tushunganligini anglash;
- matnda nima deyilmoqchi va undan maqsad nima ekanligini belgilash.

Matnning adabiy nutq me'yorlari (til fonetikasi, leksikologiyasi morfologiyasi va sintaksisi) ga mosligi, garchi adabiy asar muayyan sohaga taalluqli bo'lsa-da, shu sohadan mutaxassis bo'limgan, yoshidan qat'iy nazar o'rta ma'lumotli yoki o'rta maxsus, oliv ma'lumotli barcha kitob o'quvchilar uchun tushunarli bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi:

– asar, u – adabiy bo'ladimi, matbuot, radio, televideniye uchun mo'ljallangan bo'ladimi, qonunchilik hujjati matni va boshqa tur bo'ladimi, badiiy, siyosiy, ilmiy, ommaviy-siyosiy, ilmiy-omma-bop, ma'lumotnomha, ensiklopedik, bundan qat'iy nazar, adabiy nutq me'yorlariga rioya etilgan bo'lishi kerak. Faqat badiiy asar matnidagini o'rni bilan, obrazlilik tamoyiliga ko'ra istisno mavjud. Bunda, albatta, personaj nutqi nazarda tutilmoqda, boshqa hollarda qoida yagona!

Matn hajmidan qat'iy nazar ma'lumotga ega bo'lishi kerak, shunga ko'ra, uni tashkil etuvchi unsur, avvalo, so'z, qolaversa, so'z birikmasi, jumla hisoblanadi. Demak, matn muallifi adabiy nutqda qabul qilingan (adabiy nutq lug'atiga kiritilgan) so'zlar yozilishi, jumla tuzish, qoidalalarini yaxshi bilishi kerak. Lekin matn tuzishda bular ham hammasi emas, matn to'liq adabiy nutq talablariga mos bo'lishi uchun matn muallifi so'zlarning me'yoriy talaffuzi, ularga turli morfologik unsurlarning qo'shilishi, so'z birikmasi hosil qilishda birikmaga kirishayotgan so'zlar, jumla tuzishda gap bo'laklari o'z o'rnida, mantiqan to'g'ri ekanligiga alohida e'tiborni qaratishi lozim.

Demak, «... asar matni til unsurlari yordamida yozuvda aks etgan nutq»¹. Shunga ko'ra u so'z, so'z birikmasi, jumla (gap) va iboralardan

¹ Мильчин А.Э. Методика редактирование текста –Москва: Книга, 1980. – 37-б.

tashkil topadi, so‘zlar, jumlalar, sintaktik birikuvga kiradi. Aytish joiz-ki, asar matni, bu – yozuvda ayonlashgan fikr. Fikr esa so‘zlar, ularning birikmaga kirishishi va ulardan tuzilgan jumlalarda yuzaga chiqishi. Agar nutq unsurlari yozuvda adabiy nutq me’yorlariga amal qilingan holda qo‘llanilmasa, unda fikr mujmal, mantiqdan yiroq bo‘ladi, matning axboriylik xususiyatiga putur yetadi.

Ayrim so‘zlearning til egasi bo‘lgan xalq nutqidagi talaffuzi adabiy nutq me’yorlarida talaffuz etilishi va yozilishida farqlanadi. Masalan, to‘ppi (qarluq dialekti) – do‘ppi, boxcha – boqcha, tovcha – tokcha va h. Ba’zi so‘zlar tildagi turli dialektlarda shaklan bir xil bo‘lsa-da, ma’nosi boshqa-boshqa. Masalan, shoti (farg‘. shevasida – narvon), shoti (toshk. shevasida – arava shotisi). Adabiy nutqda do‘ppi, boqcha, tokcha, narvon qabul qilingan. Qo‘srimchalar xususida ham shunday holni kuzatamiz. Masalan, o‘g‘iz shevasida adabiy nutqdagi o‘rin kelishigi qo‘srimchasi -da, o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘srimchasi -ga keladi: poezda keldim – poezga keldim. Shevalarda tushum va qarat-qich kelishigi qo‘srimchasi vazifasini – ni bajaradi: bizni mahalla – bizning mahalla. Ot so‘zga qo‘silib sifat yasovchi qo‘srimcha bilan sifatga qo‘silib mavhum ot yasovchi, otga qo‘silib tegishlilik, joy bilan bog‘liqlik ma’nosi ifodasini beruvchi -li, -lik, -liq, vazifasini birgina -li bajaradi. Masalan, suvli, tinchlik, (tinchlili), tog‘liq (tog‘li).

Ayni bir narsa tillarda turlicha nomlansa-da, adabiy nutqda bittasi qo‘llanadi. Masalan, yumurta – tuxum; guppi – chopon va b.

Matn tuzish ancha murakkab ish. Uni tashkil etuvchi unsurlar birgina emas, balki bir qancha belgilarga ko‘ra tanlanadi. Zero matn iborallarning tasodifyi yig‘indisi emas, balki *adabiy nutq me’yorlariga to‘liq bo‘ysundirilgan hamda tinish belgilariidan o‘rinli foydalanilgan yozuvdagi nutqdir*. Matnni barcha jihatdan talab darajasida bo‘lishida vergul, nuqta, undov, so‘roq belgilari, tire va chiziqcha (defis) kabi unsurlar ham muhim ahamiyatga molik. Matn tuzuvchi ularni matn tarkibida nima uchun qo‘llanilishini yaxshi bilishi kerak. O‘rinsiz qo‘llangan tinish belgilari matn mantiqiga, albatta ta’sir etadi.

2-§. Tinish belgilarining matn tuzishdagi ishtiroki

Vergulning vazifasi qo'shma gaplar qismlarini, undalmalarni va gapdagi uyushiq bo'laklarni ajratishdan va b. dan iborat. Masalan, *Tong yorishib, atrof jonlandi. Do'stlar, keling birgalikda harakat qilaylik. Bog'imizda olma, o'rik, nok va boshqa mevali daraxtlar bor.*

Nuqta darak gapdan va ohista aytildigan undov gapdan, keyin shuningdek shartli qisqartmalarda qo'llanadi. Masalan, *Kuni-kecha fakultetimizda konfirensiya bo'lib o'tdi. Erkin, obod, baxtli yurtimiz dunyo turguncha tursin.* – T. (Toshkent). H.y. (hijriy yil). Mil. 400-yil (milodiy 400-yil).

So'roq belgisi tinglovchini biror narsa, hodisa va voqeа haqida ma'lumot, ishga undovchi – so'roq gaplardan keyin qo'yiladi. Masalan: *Olgan topshiriqlarni bajardingizmi?*

Undov belgisi biror bir harakatni amalga oshirishga da'vat etuvchi gaplardan, buyruq ohangidagi gaplardan, gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytildigan undalmalardan so'ng qo'yiladi. Masalan: *Ne uchun dunyoga kelding, yashading goldirmasang yaxshi ot! Inson bo'lib tug'ilding, insonlarcha qiliq qil! Yurtim! Hamisha tinch va obod bo'lgin.*

Tire fransuzcha so'z bo'lib, *chiziqcha* ma'no ifodasini beradi. Yozma nutqda undan tinish belgi sifatida foydalananadi. Adabiy nutq me'yoriga ko'ra undan gaplar, ko'chirma gap qismlari, gap bo'laklari orasida sintaktik munosabatlarni ko'rsatishda qo'llanadi. Masalan: *Toshkent – Sharq darvozasi. Malakaviy bitiruv ishi, magistrlik, doktorlik dissertatsiyasi yozish – bular barchasi mashaqqatli mehnat samarsi. O'zingda yo'q – olamda yo'q.*

- Xo'sh, nega kelding?
- Sizdan xabar olish uchun.

Defis lotincha so'z bo'lib *bo'linish* ma'no ifodasini beradi. Adabiy nutqda juft, takroriy so'zlarda, so'z hamda unga qo'shilib keladigan ba'zi unsurlar, tartib son bilan keyin kelgan so'z o'rtasida qo'llanadigan chiziqcha. U tiredan ko'ra qisqa (yarim tire uzunligida) bo'ladi. Defis

oldidan va ketidan yozuvdagi ikki harf oralig‘ida bo‘shliq qoldirilmaydi, asta-sekin, uzun-qisqa, shirin-shirin, qadamma-qadam, rang-barang, pora-pora, 23-uy, 14-bet va h.

3-§. Matnda sintaktik konstruksiyalar tuzish tartibi, matnni baholash

Hozirgi o‘zbek adabiy nutqida so‘z birikmalarining hosil bo‘lish, gap tuzish tartibi tilshunoslik ilmi aniq belgilib qo‘yilgan.

So‘z birikmasini hosil qiluvchi so‘zlar bir-biri bilan tobelanish asosida birikadi.

«Ma’no va grammatic jihatdan birikkan so‘zlar yaxlit, biroq qism-larga ajraladigan tushunchani ifodalovchi ikki va undan ortiq so‘zlar bog‘lanmasi»¹ so‘z birikmasi deyiladi. *Katta shahar, uchinchi bosqich tolibi, chinni piyola, teshada chopmoq* va b.

Matn tarkibidagi so‘z birikmalari tilshunoslik ilmida, belgilangan tartibda bo‘lishi adabiy tahrirda albatta, e’tiborga olinishi kerak.

Gap nutq birligi bo‘lib, tilshunoslik qonuniyatlari asosida ham grammatic, ham intonatsiyaga ko‘ra shakllanadi. Matndagi vazifasi fikrni ifoda etish. Muayyan tur asar yaratilar ekan turlicha tuzilishdagi gaplardan foydalananiladi. Gaplar tuzilishiga, aloqa vositasi ekanligiga va boshqa belgilariga ko‘ra farqlanadi; xususan:

– tarkibida kesimlik vazifasida keluvchi birliklar miqdoriga ko‘ra.

Bunday jihatga asosan gaplarni ikki xilga ajratish mumkin: sodda gap; qo‘shma gap. *Dars soat 9 da boshlanadi* (sodda gap), *O‘z ishidan ko‘ngli to‘lmadi chog‘i, chuqur uf tortdi* (qo‘shma gap). Sodda gap bo‘ladimi yoki qo‘shma gap bo‘ladimi, albatta adabiy nutq me’yorlariga asoslangan bo‘lishi kerak.

Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan, tilshunoslik ilmi nuqtai nazaridan belgilangan fonetika, punktuatsiya, leksikologiya, morfologiya hamda sintaksis qoidalariiga asoslangan adabiy nutq me’yorlari barcha tur asarlar matnnini tuzishning bosh mezoni hisoblanadai. Agar bu me’yorlardan

¹ Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985. – 81-b.

chetga chiqilsa (agar bu uslub talabiga ko‘ra bo‘lmasa) xatolik hisoblanadi.

Ilmiy, ilmiy-ommabop, siyosiy, ommaviy-siyosiy asarlar, qonunlar matnida so‘zlar (atamalar, terminlar) o‘z atash ma’nosida qo‘llanadi. Adabiy nutqqa o‘zlashgan so‘zlar (asosan terminlar) tilshunoslik ilmida qabul qilingan tartibda adabiy nutqqa kiritilishi lozim. Agar so‘z o‘zlashtirish qoidalariga rioya etilmassa, unda adabiy nutqning milliylik xususiyati pasayadi, til esa o‘z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanish imkonini yo‘qota boradi. Bular barchasi matnning kommunikativlik va axboriylik darajasini pasaytiradi.

Matn – muallifning yozuvda aks etgan o‘z so‘zi tayyor bo‘ldi, deylik. Lekin bu degani qo‘lyozmani to‘xtovsiz nashr etish mumkin degani emas. Matnni nashrga tayyorlashning eng mas’uliyatli tahrir bosqichi boshlanadi. Lekin matnni tahrir qilishga kirishishdan oldin uni nashr etish maqsadga muvofiqmi yo‘qmi ekanligi aniqlanadi, ya’ni baholanaadi.

Matnni baholashda, albatta, u adabiy nutq me’yorlari asosida yaratilganiga e’tibor beriladi. Bu jihat qoniqarli bo‘lsa, baholashning keyingi bosqichiga o‘tiladi, ya’ni matn uslub nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Biz bu masalani keyingi faslda ko‘rib chiqamiz.

2-b o b . ADABIY NUTQ USLUBIYATI VA SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

- Adabiy tur.
- Uslub va uning turlari.
- Oddiy so‘zlashuv.

1-§. Adabiy tur va uslub

Adabiy asar tahriri, uning turi, janridan qat’iy nazar umumiyligi va maxsus maqsadlarda amalga oshiriladi.

Har qanday asarda uning uslubiy jihatdan savodliligi, soddaligi, aniqligi, tushunarligi, qisqa va lo‘ndaligi, o‘qimishliligi, mantiqan izchilligi, bayondagi o‘ziga xoslik alohida e’tiborga molik sifatlar hisoblanadi. Yozma adabiy nutqning me’yorlariga, talab etilayotgan uslubga rioya etishlik har bir matn yaratuvchi uchun majburiyidir. Undan chetga chiqishga ayrim hollardagina, agar muallif biror-bir ijodiy maqsadni ongli ravishda ko‘zlagan taqdirdagina yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Shuni aytish joizki, turli adabiyotlar tili va uslubini tahlil etish ancha chuqur hamda maxsus maqsadlarni ko‘zda tutadi. Buning boisi, muloqotning turli sohalarida til va uslubdan turlicha foydalaniladi. Bu hol faoliyat bilan bog‘liq uslublar mavjudligidan guvohlik beradi.

Muloqotning mohiyati, asarning maqsadi va o‘quvchilarining o‘ziga xosligi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, adabiy tahrirning asosiy vazifasi nutq vositalarini to‘g‘ri tanlash hamda ulardan to‘g‘ri foydalanishdan iboratdir.

Muharrir asar matnnini tahrir qilish jarayonida muallif bilan hamkorlikda ishlab muayyan asarga adabiyotning muayyan turi sifatida qarab,

iloji boricha uslubiy jihatdan uning o‘ziga xosligi to‘liq saqlanishiga erishishi kerak.

Uslubga quyidagicha ta’rif beriladi.

- til unsurlarining ma’lum vazifa bajarishiga bog‘liq holda birlashadigan, til birikmalarini o‘ziga xos tanlanishi, birikishi va bular bilan tavsiflanadigan tizim;
- til vositalaridan foydalanishning muayyan yozuvchi, asar, janr uchun xos bo‘lgan usullar majmui;
- til vositalarining ekspressiv-uslubiy belgilari asosida tanlanishi;
- nutqning so‘z qo‘llash va sintaksis me’yorlariga mos holda tuzilishi¹.

Faoliyat u yoki bu turi bilan bog‘liq uslublar tilshunoslik fanida funksional uslublar deyiladi. Bular – so‘zlashuv uslubi, rasmiy – ish yuritish uslubi, ilmiy uslub, badiiy uslub, publisistik uslub.

2-§. Oddiy so‘zlashuv uslubi

So‘zlashuv uslubi odatda kitobiy (adabiy) uslubga zid qo‘yiladi. U muloqotning vositasizligi, til vositalarining tanlab qo‘llashning yo‘qligi, verbal bo‘lmagan vositalar – imo-ishora, ko‘z, qosh, burun, qo‘l, oyoq, lab, yuz, tana a’zolarining harakatidan, shuningdek, intonatsion vositalar keng foydalilishi bilan, oddiy nutqiy va iboraviy belgilarning ishlatilishi, ekspressiv-hissiy vositalarning ishlatilishi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Nutqning mazkur turi suhbattoshlar orasida to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ladi. Suhbat (muloqot) erkin, rasmiylikdan mutlaqo holi kechadi. Til sohalari – fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis bo‘yicha ham bu nutq o‘ziga xos xususiyatga ega. Agar fonetika bo‘yicha bu xususiyat o‘ziga xos talaffuzda ko‘rinsa, leksikada esa o‘ziga xos so‘zlar mavjudligida namoyon bo‘ladi. Masalan: *galdim, nechuk, kelutti, etvotti; oyi, ada, guppi, qizilcha* va h. Bularidan tashqari so‘zlashuv nutqida adabiy nutq lug‘atiga kirmaydigan kasb-hunarga oid terminlar, vul-

¹Hojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1985.

garizm, jargon, haqorat so‘zlar uchraydi. Masalan, *gazan*, *biliski* (kosibchilikda), *jumbosh*, *kallali valaqlamoq*, *itvachcha*, *manjalaqi*, *dori* (aroq), *quda tomon* (xavsizlik xizmati hodimi) va h.

3-§. Kitobiy uslub

Faoliyat uslubining bir turi bo‘lgan ilmiy uslub terminlar va mavhum so‘zlardan, murakkab sintaktik konstruksialardan keng foydalanilganligi, so‘zlarning asosan tub ma’noda qo‘llanilishi, maxsus iboralarga egaligi va boshqalar bilan tavsiflanadi. Ilmiy uslub o‘z ichida yana bir qator muayyan mayda – ilmiy-texnika, ilmiy-tadqiqiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-publisistik uslublarga bo‘linadi. Uning bunday bo‘linishi terminlarni qo‘llashga ma’lum darajada ta’sir etadi. Masalan ilmiy-texnika, ilmiy-tadqiqot uslubida terminlar keng qo‘llanilsa, ilmiy-ommabop, ilmiy-publisistik uslubda ayrim, omma uchun deyarli notanish bo‘lgan terminlardan kam foydalaniladi, ularning ma’no ifodasini beruvchi so‘z birikmalari, hatto jumlalardan foydaliniladi yoki termindan so‘ng qavs ichida uning izohi keltiriladi.

Rasmiy-ish yuritish uslubi rasmiy, idoralarda ish yuritishda qo‘llanadigan uslub bo‘lib, maxsus so‘z va iboralarga ega. Unga qolip (shtamp) so‘zlar, shartli qisqartmalar, turli-tuman nomlar, so‘zlar tub ma’noda, to‘g‘ri atash ma’nosida qo‘llanishi, hissiy-emotsional nutq vositalarining deyarli bo‘imasligi xosdir.

Kitobiy uslub umumiy nom bo‘lib, ilmiy adabiyot, publisistik asar, rasmiy-ish hujjatlar va shu kabilar uslublarini o‘z ichiga oladi.

Diniy – ma’rify matnlarda uchraydigan terminlar, nomlar, alohida diniy uslubga xos bo‘lib, diniy narsa, hodisa va voqealarni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *masjid*, *mufitiy*, *asr*, *bomdod*, *amazon*, *hayit*, *tilovat*, *bandalik*, *taqdiri azal*, *oxirat* va b.

4-§. Badiiy uslub

Badiiy uslub umumxalq tiliga asoslangan, shu bilan birga ilmiy, xususan, matbuot tili hisoblangan adabiy nutq bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Til vositalaridan boshqa barcha uslublarga nis-

batan unumli va erkin foydalanish imkoniga ega, ammo shunda ham ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi. Badiiy uslubda adabiy nutq me'yorlaridan, grammatika qoidalaridan chetga chiqish, personaj nutqini individuallashtirish, arxaizm, argo, tabu, jargon, iboralar, maqol, matal, hatto vulgarizm, varvarizmlardan foydalanish kabi hollar uchraydi¹. Bundan tashqari badiiy uslub boshqa faoliyat uslublaridan ekspressiv-hissiy, tasviriy-ta'sirchan vositalarining keng qo'llanilishi, so'zlarning obrazlilik, ko'chma-o'xshatish imkoniyatlaridan foydalanishligi bilan farqlanadi. Badiiy uslubning yana bir jihatni mazkur uslubga oid asar yaratishda boshqa barcha uslublarga mansub termin va atamlardan o'rinni bilan, maqsadli foydalanish imkoni mavjud.

5-§. Publitsistika uslubi

Publitsistika uslubi ham faoliyat uslublaridan biri hisoblanadi, u ijtimoiy-siyosiy so'z, birikmalar va iboralarning qo'llanilishi bilan, shuningdek, publitsistikadagi janrlarning xilma-xilligi, shunga ko'ra til vositalaridan uslubiy foydalanishning rang-barangligi va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Publitsistika uslubi ijtimoiy-siyosiy asarlarda, ommaviy axborot vositalarida, siyosiy yig'inlar, tadbirlarda, majlis, matbuot konferensiyalarida o'z ifodasini topadi. Mazkur uslubdan ayniqsa tashviqot-targ'ibot, saylovlarga tayyorgarlik ishlarida keng foydalaniladi.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha publitsistika uslubining rivojida ikki bir-biriga qarama-qarshi yo'nalish kuzatiladi. Yo'nalishlarning birinchisi «mazkur uslub uchun adabiy bo'lgan konstruksiya va so'z qo'llashning namunaviylashuvi bo'lib, bu o'z navbatida faoliyat bilan chambarchas bog'lanib qolgan «qoliplar» yuzaga chiqishiga olib keladi»².

¹ Tohirov Z.T. OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti .-T.: Universitet, 2006. – 20-b.

² Редактирование отдельных видов литературы. Под.ред. Н.М. Сикорского. – Москва: Высшая школа, 1983. – 49–50-б.

Ikkinchи yo‘nalish «qoliplar»ni bartaraf etish, yangi so‘z va konstruksiyalar bilan bayon qilishga erishish’dir.

Publitsistika uslubi til vositalarini tanlash va ulardan foydalanishda boshqa uslublardan ikki asosiy maqsadga ko‘ra ajralib turadi: birinchisi, *mantiqiy aniqlik* va *bir xildalikka erishish*, ikkinchisi, *hissiy ta’sirchanlikka ega bo‘lish*.

Publitsistika uslubida ko‘pgina terminlardan foydalaniladi. Matnni tahrir qilishda qo‘llanilgan terminlar ommaga qay darajada tanish va bayon, qay darajada tushunarli ekaniga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Matn muallifi ham terminlarning keng ommaga tushunarli bo‘lishiga intilishi lozim. Buning uchun tor sohaga oid ayrim terminlarning ma’no ifodasini keltirish, ayrimlarini qavs ichida yoki sahifa oxiridan izohlash, ayrimlarini asarga ilova etilgan izohli lug‘at tarkibiga kiritish lozim.

Uslub va tahrir deganda qo‘lyozma (muallif) uslubini aniqlash-u, imloviy va tinish belgilari bo‘yicha xatolarni bartaraf etishgina emas, balki uslubni to‘g‘irlash, tinish belgilarini qo‘yish ham tushuniladi.

6-§. Adabiy tahrir – mustaqil fan

Adabiy tahrir tilshunoslik va adabiyotshunoslik oraliq‘ida turuvchi filologik fan hisoblanadi. Mazkur faoliyat tahrirni amalga oshiruvchi uslubiyatning mohir (mutaxassisona) bilimdoni bo‘lishini talab etadi.


Adabiy tahrir muallifning fikri muayyan matn, qo‘lyozmada mantiqiylik, hissiy-ekspressivlik jihatidan (agar badiiy asar bo‘lsa) aynan o‘z ifodasini topganligi masalasini hal etishga qaratilgan bo‘ladi.

«Adabiy tahrir mustaqil fan sifatida XX asrning 50-yillarida shakllanadi»¹.

Tahrir qilinishi talab etiladigan qo‘lyozmani tahrirdan chiqarish yo‘sini ishlab chiqiladi.

¹ Редактирование отдельных видов литературы. Под.ред. Н.М. Сикорского. – Москва: Высшая школа, 1983. – 50-б.

² Стилистика и литературное редактирование. Под ред. проф. В.И. Максимова. – Москва: Гардарики, 2008. – 18-б.



Ulardan asosiyлари quyidagicha:

– tahrir – matnni tekshirish va qayta ishlashdan iborat bir butun jarayon;

– har bir matnni adabiy yaxlitlikda olib tekshirish;

Tahrirga tortilgan har bir qo‘lyozma ilmiylik, ma‘lumotlarning amalda ishonchli bo‘lishi; bayon etilayotgan nazariy fikrlar haqiqatligi, farazlar va talqinlar ilmiylikka egaligi, muallif bayonida mantiqiy tadrijiylik kabi talablarga to‘liq javob berishi shart.

Qo‘lyozmaga muharirlik ishlovi berish quyidagilarni nazarda tutadi:

1) matnga uslubiy ishlov berishni amalga oshirib, adabiy shaklga keltirish;

2) tahrir qilinayotgan matnning unga berilayotgan uslubiy ishlovga mos kompozitsiyaviy tuzatishga erishish.

Qo‘lyozmaga uslubiy jihatdan ishlov berib, undagi ayrim juziy imloviy hamda tinish belgilari bo‘yicha xatolarnigina tuzatishdan iborat emas, balki quyidagilar ham bajarilishi kerak:

– til birliklari uslubiyati (shu jumladan, nutq madaniyati)ga, so‘z tanlashdagi ma‘noviy aniqlik, uslubiy asoslanganlik masalasidan tortib, to sodda va qo‘shma gaplarning ichki tuzilishi va boshqaga tegishli bo‘lgan tavsiyalar;

– adabiy nutq asosiy ko‘rinishlari, nutqiyligi tuzilishi uslubiy qonuniyatlariga ko‘ra belgilangan talablar. Bular quyidagilar:

a) adabiy nutq muayyan turiga ko‘ra tanlangan matnga xos bayondagi umumiylar;

b) boshqa uslubga xos unsurlarning maqsadga muvofiq qo‘llanilganligi;

v) foydalilaniladigan so‘zlar va frazeologizmlarning matndan mo‘ljallangan maqsad, matn vazifasiga, uning uslub yoki janriy-nutqiyligi jihatlariga to‘la mos kelishi. Masalan, ularning ilmiy uslubda miqdoriy jihatdan muqobilligi, terminlarning ilmiy, rasmiy-ish yuritish, so‘zlashuv vanihoyat badiiy uslubda qo‘llanilishiga rioya qilish;

g) jumlalarni har bir uslubda shu uslubga xos bo‘lgan shaklda tuzish.

d) tahrir qilinadigan matnga uslubiy jihatdan ishlov berishda uslub va janr bilan bog'liq talablar (masalan, matematikaga oid matnda isbotlar modeliga leksik va sintaktik to'ldiruvchilarni kiritish, darslikka oid matnlardagi definitsiyalar va ayni shu matndagi definitsiyalar nisbati hamda ularning izohi).

Yuqorida qayd etilganlardan ko'rinaridiki, matnga uslubiy jihatdan ishlov berish qo'lyozmani tahrir qilishda muhim ilmiy-ijodiy jarayon ekan. Shunga ko'ra bu bosqichda, avvalo, asarning janri, maqsadi, kim-larga mo'ljallanganini aniqlash talab etilar ekan. Bundan tashqari agar asar badiiy bo'lsa, unda muharrir muallifning individual uslubini ham aniqlab olishi kerak bo'ladi. Aks holda matn tahriri uslubiy jihatdan qoniqarli chiqmaydi.

Adabiy tahrir – filologiyaning amaliy fanlararo tarmoqlaridan biri. Bu fan uslubiyatni, uning asosiy tuzilmaviy qismlarini, shuningdek nutq madaniyatini, asosiy tasviriy lingvistik fanlarni, chuqur bilimni talab etadi.

Adabiy tahrir matn, qo'lyozma maqsadga muvofiqligi, aniq maqsadga qaratilganligi masalalari bilan ular intellektual, ekspressiv (ham estetik, agar matn badiiy bo'lsa), mazmuni, muallifning o'ylagani, muayyan matn, qo'lyozma nimaga mo'ljallanganligi, hammasi to'g'ri bo'lish masalalari bilan shug'ullanadi.

Mustaqil fan sifatida o'tgan asarning 50-yillarida shakllangan adabiy tag'rir mug'arrirlik ishlovi berilishi lozim bo'lgan qo'lyozmalarga nisbatan o'z yondashuvni belgilab olgan. Shular dan asosiysi:

- tahrir – yaxlit ijodiy jarayon, matnni tekshirish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi;

- har bir matnni adabiy jihatda yaxlit matn sifatida tekshirish va unga tuzatishlarni kiritish.

Tahrirga tortilgan matn, qo'lyozmaga bir qator talablar qo'yiladi:

- keltirilayotgan ma'lumotlar, berilayotgan xabarlar ham ilmiy, ham asosli bo'lishi kerak;

- bayon etilayotgan nazariy fikrlar, farazlar yoki talqinlar, hodisalar, voqealar va boshqalar ilmiy yoki aqlan sog'lom bo'lishi lozim;

– muallif bayoni mantiqan ketma-ketlik (uzviyilik)ka ega bo‘lishi shart.

Qo‘lyozmaga muharrir tomonidan ishlov berish deganda matniga uslubiy jihatdan ishlov berib, uning adabiyligini ta‘minlash nazarida tutiladi. Bundan tashqari uslubiy jihatdan ishlov berish bilan birga qo‘lyozma tarkibiy tuzilishi (kompozitsiyasi) ham aniqlanadi va to‘g‘irlanadi.

Adabiy tahrir fanida «matn, qo‘lyozma tili ustida ishslash» degan ibora borligi sababsiz emas.

Tahrir qilinishi kerak bo‘lgan qo‘lyozmaga uslubiy ishlov berish faqat matndagi imloviy hamda tinish belgilari bo‘yicha xatolarni tuza-tishdan iborat emas, balki:

– sodda va qo‘shma gaplarning ichki tuzilishi grammatik me’yor-larga mosligi tekshiriladi;

– funksiyaviy uslubiyat qonuniyatlariga to‘liq amal qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

Xullas, matn, qo‘lyozmani tahrir qilish jarayonida uslubiy talablarning barchasi so‘zsiz amalga oshirilishi shart.

Birinchi talab matnlar bayonidagi adabiy nutqning muayyan funksional turiga xos izchillik, ifodaviylik, ikkinchichi – g‘ayriuslubiy unsurlarni qo‘llashning asosli ekanligini, uchinchisi – fikrni ifodalash shaklining mazkur uslubga mosligi, to‘rtinchidan – funksiyaviy taa-luqligiga ko‘ra so‘zlar va iboralardan matn uslubi (yoki janr-nutq) ga mos holda foydalanilganligi, beshinchidan – rasmiy-ish yuritish, ilmiy uslublarda, so‘zlashuv nutqida, badiiy matnda matn shu tur asarlarga xos tuzilganligi.

Demak matn, qo‘lyozmani adabiy tahrirdan chiqarish turdosh fanlar-tavsifiy tilshunoslik (leksikologiya, frazologiya, grammatika, punktuatsiya va b.), funksiyaviy uslublar (umuman uslubiyat), semantologiya, ortologiya va nutq madaniyati kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq ekan. Adabiy tahrir sifatila shulardan chuqr bilimli bo‘lish bilan belgilanadi.

Bundan tashqari so‘zlashuv nutqini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Funksiyaviy chegarasini izohlash so‘zlashuv nutqining va kitobiy nutqning asosiy vazifasini aniqlash imkonini beradi.

Bu kitobiy nutq turlari bo‘lgan rasmiy ish yuritish, ilmiy, publitsistik uslublar, badiiy asar tili, og‘zaki ommaviy nutq, radionutq, kinonutq va telenutqlarga xos xususiyatlarni farqlashda muhim ahamiyatga ega- dir.

So‘zlashuv nutqi ikki ko‘rinishga ega. Birinchisi – rasmiy, ikkinchisi – norasmiy. Muloqotning rasmiy vaziyati bayon (so‘zlash) ning jiddiy (ko‘pincha uni mantiqli deb ta’kid etadilar), nutqiy muloqot ishtirokchilarining muloyim, odobli bo‘lishini taqozo etadi, boshqacha aytganda, nutqiy odobga rioya etishni nazarda tutadi.

Nutqiy odob, bu – so‘zlovchining nutqi.

Rasmiy nutqqa quyidagi xislatlar xos:

- adabiy me’yorlarga rioya qilish, asoslanganlik;
 - aniqlik, til birlklari – so‘z, grammatik shakl, so‘z va so‘z shakllarni talaffuzining tanlanganligi, sintaktik konstruksiyaning me’yoriyligi;
 - nutqning qisqa, aniq, iboralarning aniq ma’noviy bog‘langanligi, ularning mantiqiy izchilligi;
 - nutqning bosiq, xotirjam ohangdaligi;
 - so‘zlash tarziga ko‘ra nutq sur’ati me’yoriy, tezlashgan, sust.
- Norasmiy nutqqa quyidagi belgililar xos:
- adabiy nutqqa rioya etilmaydi;
 - muayyan maqsadsiz;
 - mavzular aniq belgilanmagan;
 - me’yorlashmagan birliklar qo‘llaniladi (oddiy so‘zlashuv, jargonlar, lahjalar) uslubiy xoslanmagan unsurlar;
 - til birlklari – so‘zlar, grammatik shakllar aniqmas (tahminiy) talaffuz erkin (tabiiy);
 - sintaktik konstruksiylar me’yorlashmagan (uzuq-yuluq, to‘mtoq gap bo‘laklari tartiblanmagan).

– nutq tuzilishi: sintaktik jihatdan yaxshi tashkillashtirilmagan, xusan, ma’noviy jihatdan, so‘z tanlash tartibsiz, so‘zlarining bog‘lanishi, so‘z birliklari gap tarkibida grammatik qoidadan chetlashgan holda keladi.

- nutq jo‘shqin yoki emotsional;
- nutq uzuq-yuliq, takallufsiz, tortinishsiz, quruq rasmiyatchilikdan iborat;
- tinglovchiga hurmat ifodasi rasmiylikka bo‘ysunadi: notqlik, ko‘rsatuv olib boruvchining tashqi ko‘rinishi, adabiy nutq me’yorlari nuqtai nazaridan nutqning sifati (elektron OAV dagi nutq, og‘zaki ommaviy nutq matni) nutq madaniyati talablari dara-jasida bo‘lishi kerak.

Yozma nutq (bosma OAVdagi, ish yuritishga aloqador, ilmiy, badiiy va b.) ga ham shunday talab qo‘yiladi.

Matnni yaratishda vaziyatning rasmiy tavsifdaligi tufayli shuni yodda tutish kerakki, uning ekspresiv, his-hayajonliligi, shuningdek, uslublashmagan, adabiy me’yorlar doirasiga kirmagan nutq vositalari matn ta’sirchanligini oshirishga yohud uni «jozibala», «jonli» bo‘lishini ta’minlaydi.

Muayyan guruuh doirasidagi muloqot (notiqning nutqi, ma’ruza, il-miy mavzudagi chiqish) hamda ommaviy muloqot (matbuot, radio, televide niye, kino) barchasi (og‘zaki, yozma) ommaviy tavsifda va rasmiy vaziyatda o‘tadi. Nutq ko‘pchilikka qaratilgan bo‘ladi. So‘zlovchi bilan tinglovchilar o‘rtasidagi qaytma muloqot juda süst. Guruhiy muloqot bevosita qaytma muloqot – auditoriyaning fikr-mulohaza bildirishi, tinglovchilarning luqma tashlashi, savol berishlari – barchasi notiq ma’ruzachi o‘z chiqishini tugatgandan so‘ng yuz beradi. Bular, albatta, yuzma-yuz amalga oshadi. Ommaviy muloqotda esa qaytma muloqot bilvositadir, ya’ni telefon orqali gaplashiladi, pochtada xat jo‘natiladi, tahririyatga, muallifga peyjer, faks, elektoron pochta orqali jo‘natiladi va h.

Shaxslararo muloqot «yuzma-yuz» so‘zlashuvni taqozo etadi, suh-batdosh tayin, bunday vaziyatda qaytma muloqot zudlik bilan, ochiq-oydin kechadi, dialog ishtirokchilari bir-birlarining nutqini tezda qabul qiladi va aks munosabat bildiradi.

To‘satdan yuzaga kelgan nutq so‘zlash jarayonining o‘zidayoq fikr-lash oqibati hisoblanadi, hech qanday tayyorgarliksiz tilda (so‘zda) shakllanadi, fikrga aylanadi.

So'zlashuv nutqida fikrning shakllanish va nutqqa aylanish jarayoni o'z-o'zidan, oldindan o'ylanmagan tarzda kechadi. Fikr uzuq-yuluq, tugallanmagan (tinglovchining o'zi «aytilmaganni idrok etishi mumkinligi tufayli), «til ostda tilcha» tarzida bo'ladi.

Kitobiy nutqda esa har ikki jarayon, ya'ni ham fikrlash, ham uni tilga chiqarish dabdurustdan emas, ongli ravishda, atroflicha o'ylangan tarzda yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra birinchisi – tayyorlanmagan, ikinchisi – tayyorlangan nutq ataladi.

Kitobiy va so'zlashuv nutqi uchun ularning nutqiy tuzilishi, ya'ni matn tuzilishi nazariy ahamiyatga molikdir.

Matn tuzilishi ikki xil – monolog va dialog ko'rinishida bo'ladi.

Monolog (yun. monos – bir, logos – so'z, nutq), monologik nutq – nutq ko'rinishi. Mazkur tarzdagi muloqotda tinglovchining shu zahoti so'z bilan munosabat bildirishi nazarda tutilmaydi.

Monologik nutq; uchun matnning qismlari hajmiga ko'ra uzun bo'ladi. Qismlar bir biri bilan mantiqan, mazmunan (ma'noviy) jihatdan, shuningdek, sintaktik bog'langan jumlalarda barcha sintaktik qismlar ishtirok etadi (ya'ni gapning asosiy darajali bo'laklar zarur holdagina ishtirok etadi). Sodda gaplar murakkab kesimli (sifatdoshli, ravishdoshli) tuziladi. Qo'shma gaplar ham murakkab sintaktik tuzilishga ega bo'ladi.

Dialog (yun. dialog – so'zlashuv, suhbat), dialogik nutq – nutq ko'rinishi. Dialogda so'zlashuv suhbat ishtirokchilarining fikri almashinib turadi, ular bir-birlarining nutqi vaqtida gap qistirib, luqma tashlab qo'yadilar. Bunga og'zaki muloqotning norasmiyligi sabab bo'ladi.

«Luqma» (replika)lar deyarli qo'shimcha gaplardan tashkil topmaydi ... tovush tushib qolishi, kutilmagan shakl yasalishi g'ayrioddiy so'z yasalishi, ayrim so'zlarning quloqqa erish tuyulishi, nihoyat sintaktik me'yorning buzilishi luqmalarga xosdir»¹.

Demak, shaxslararo muloqot sharoitida kechadigan, norasmiy, dabduristda yuzaga keladigan dialog tarzidagi so'zlashuv nutqining

¹ Шерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. –Москва, 1986.–115–6.

tavsifi uning asosiy vazifasini ham anglatadi va bu vazifaviy jihatlar quyidagicha:

- so‘zlovchi va tinglovchining nutq jarayonida bevosita ishtirok etishi;
- nutqiy muloqotning takallufsiz ekanligi;
- og‘zaki shakldaligi;
- dialog tarzidaligi;
- nutqning aniq shaxsga qaratilganligi;
- to‘g‘ridan to‘g‘ri, bir zumdag'i qaytma muloqot mavjudligi;
- vaziyatga bog‘liqlik, ya’ni dialog kechadigan vaziyatga asoslanganlik (yo‘nalishli taksi kutib o‘tirgan buvaning nabirasiga aytgani – «O‘g‘lim, damas!»);

Buvaning nabirasidan «O‘g‘lim, damas» iborasida nabira ular kutowatgan, boradigan manziliga qatnayotgan, o‘zлari uchun kerakli «damas» (boshqa har qandayi emas) tushiniladi. Bu nutq ko‘rinishi ilmiy adabiyotlarda appersepsiya deyiladi.

Appersepsiya – zehnda saqlanib qolgan tasavvurlarni eslash asosida buyum va hodisalarни tanish, aniqlash, bilish; shaxsiy tajriba; nuqtai nazar.

Demak yuqorida misoldan ko‘rinadiki, buva mavjud tajriba asosida qisqagina «o‘g‘lim damas» deya qoladi. Nabira esa bu ibora nima anglatishini idrok etadi, chunki, avvalgi vaziyatlardan u so‘z nima haqida ekanligini zehnga olib qolgan. Ana shu zehnda qolgan har keyingi galda qayta tiklanadi.

Bunga yana bir misol keltiramiz. Bizning xalqimizda «Xo‘sh qalay?», degan savol bor. Bunday savol bilan har kimga ham mu-rojaat qilinmaydi. Faqat, savol nima uchun berilganini idrok eta biluvchigagina shunday murojaat etiladi. Quyidagi javoblarga e’tibor bering:

- *A’lo* (imtihon topshirganda, muayyan topshiriq, yumush, vazifa va h. bajarilganda):
 - *O‘ziga kelib qoldi* (kimdir betob bo‘lganda)
 - *Bitdi* (ishi bajarilganda);
 - *Yaxshi* (barcha holatlarda natija ko‘ngildagidek bo‘lganda);

- *Epladim* (ishni uddalaganda);
- *Zo'r* (natija kutgandan ortiq ijobiy bo'lganda).

Yuqoridagi holatlardagi javob, albatta, ijobiy.

Tabiiyki, vaziyatga ko'ra javoblar salbiy bo'lishi mumkin:

- *Pachava* (natija ko'ngilsiz bo'lganda);
- *Bo'Imadi* (natija chiqmaganda);
- *Yaxshimas* (to'liq amalga oshmaganda);
- *Yiqildim* (imtihondan o'ta olmaganda) va h..

Bunday savol javoblar (nutq ko'rinishi muayyan til, madaniyatga ega yoki muayyan hududda yashovchi, qaysidir bir ishxonada ishlovchi, ta'lim muassasida o'quvchi, biror klub, to'garakda ishtirok etuvchi shaxslararo muloqotda yuzaga chiqadi.

3-b o b . MATN TAHLILIDA TERMINHLAR BILAN ISHLASH

- Terminologik leksika.
- Jargon so‘zlar, argolar.
- Kasb-hunarga oid terminlar.
- Ilm-fanga oid terminlar.

1-§. Sohaga oid leksika

Tildagi so‘zlarni umumiy nomda ataydigan bo‘lsak, ular *atamalar*. Lekin ular orasida kasb-hunarga, ilmga oid so‘zlar va birikmalar ham borki, ular maxsus so‘z va birikmalardir. Tilshunoslik fanida bular alohida qayd etiladi va o‘rganiladi, ular «terminologik leksikani tashkil etadi»¹.

Ayrim tilshunoslikka oid adabiyotlardan ilm, fan-texnika, qurilishme’morlik, kasb-hunarga oid tushunchalarni ma’noviy jihatdan aniq ifoda etuvchi so‘z va so‘z birikmasi termin deb ataladi.

Terminlar ham garchi atash maqsadida qo‘llansa-da ularning atamalardan farqi mavjud. Agar atamalar barcha sohalarda birdek qo‘llanaversa, terminlar muayyan sohaga taalluqli bo‘ladi va maxsus atash uchun xizmat qiladi. Har bir fan, ilm, kasb-hunar, texnika o‘z terminiga ega. Ana shu terminlar majmui qaysi sohaga oid bo‘lsa shu sohaning leksikasi hisoblanadi. Masalan tilshunoslik terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, fizika terminologiyasi va h.

Terminlar garchi muayyan sohaga oid tushunchalarni aniq ifoda etuvchi so‘zlar hisoblansada, ammo ularning ko‘pginasi faqat shu soha

¹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili I qism –T.: O‘qituvchi, 1980. – 129-b.

mutaxassislari uchungina emas, balki boshqa soha mutaxassislari hatto mutaxassis bo‘lmaganlar uchun ham tushunarli bo‘lishi mumkin. Bu terminning qo‘llanish doirasi bilan bog‘liq. Agar termin umumxalq iste’mol – so‘zlashuv doirasida qo‘llansa, u barcha uchun tushunarli, lekin tor soha doirasida qo‘llansa faqat shu soha mutaxassislari uchun tushunarli bo‘ladi. Masalan, tibbiyotga oid *kasallik varaqasi*, *vitamin*, *klinika*, *shpris*, *novakain*; botanikaga oid *tok*, *tut*, *arpa*, *rayxon*, *nok*, *olma*, *o‘rik*, *do‘lana*; san‘atga oid *teatr*, *konsert*, *raqs*, *artist*, *aktyor*, *sahna*; qurilishga oid *tom*, *bo‘g‘ot*, *ayvon*, *bostirma*; me’morchilikka oid *machit*, *minora*, *gumbaz*, *madrasa*, *peshtoq*; kasb-xunurga oid *avra*, *astar*, *charx*, *qo‘shsinch*, *randa*, *moki*, *tanda*, *jiyak*.

Tor doirada, yangi terminlarning ma’lum qismi shu terminlar taalluqli bo‘lgan soha mutaxassislari doirasida qo‘llanadi va ular uchun tushunarli bo‘ladi. Masalan, tilshunoslikka oid: *agens*, *aktualizator*, *formant*, *fonema*, *sinkopa*, *proteza*, *apakopa*; kimyoga oid *katalizator*, *indinator*, *boksid*, *javel suvi*, *lipoidlar*, *neyrin*, *tiokislotolar*, *difuziya*, *sian*, *kvant*; iqtisodga oid: *abilitsiya*, *kart-blansh*, *revers*, *trast*, *tratta*, *fraxt*, *charter*.

Umumiste’moldagi so‘zlar muayyan sohada qo‘llanishi, sohaga oid tushunchani ifoda etishi mumkin, natijada u terminga aylanadi. Uning terminga aylinishiga tub, ya’ni dastlabki ma’nosи bilan umumiste’moldagi leksikaga, maxsus ma’nosи bilan cheklangan (terminologik) leksikaga oid bo‘ladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, cheklangan, ya’ni iste’mol doirasi chegaralangan so‘zlar barchasi ham termin hisoblanmaydi.

2-§. Iste’mol doirasi cheklangan so‘zlar

Iste’mol doirasi chegaralangan so‘zlar uch turga ajraladi:

- jargon va argolar;
- shevaga oid so‘zlar;
- terminologik so‘zlar.

Jargonlar jamiyatdagi ayrim guruuhlar vakillari uchun tushunarli so‘zlardir. Bunday so‘zlar o‘zbek tilga oid so‘zlardan iborat bo‘ladi,

shuningdek, boshqa tillardan olib qo'llanadi. Tarixan forscha, arabcha so'zlar – *shoyon, sarafroz, bisyor, xushnud, illo-billo, inshoollo, marnabobo, muntazir, xasanot, xoki poy, kalom, taqsir, mavlono, mashvarat* va boshqalar.

Faoliyatları, dunyoqarashları, qiziqishlari bir xil bo'lgan, yoshlari ham teng, juda kichik doira (guruh)ni tashkil etuvchilar nutqida qo'llanadigan so'zlar *argolar* deyildi. Garchi argolar keng omma tiliga oid so'zlar bo'lsa-da, ular ma'no ifodasini tor doiradagilardan tashqaridagilar tushunmaydilar. Chunki ular barchaga tanish so'zlarni asl ma'nosida emas, balki o'zлari nazarda tutgan ma'noda qo'llaydilar. Shu jihatdan argolar jargonlarga o'xshaydi. Masalan, *ko'k – dollar, apparat – yengil mashina, yakan – pul, sar – ming, nim sar – yarim ming, loy – pul, dori – spirtli ichimlk, molva – xat* va boshqalar. Agar guruh yo'qolib ketsa ular nutqiga oid jargon va argolar ham yo'qolib ketadi.

Terminlarning jargon va argolardan farqi shundaki, ular muayyan soha, kasb, hunarga taalluqli hamda doimiydir. To'g'ri ayrim terminlar ham vaqt o'tishi bilan iste'moldan chiqadi. Bunga ilm-fan rivoji, ayrim kasb-hunar bilan kishilar shug'ullanmay qo'yishi, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizim o'zgarishi sabab bo'ladi. Masalan, o'tmishda yulduzlarga oid ilmga doir *falakiyot, usturlob, munajjim, rasadxona* terminlari o'rnida bugungi kunda zamonaviy *astronomiya, teleskop, astronom, observatoriya* terminlari qo'llanadi. Davlat qurilishiga oid terminlar *ministr, minstrlar kengashi, rayon, oblast, ijroiya kengashi raisi* terminlari o'rnida *vazir, vazirlar mahkamasi, hokim* terminlari; *si-poh, qo'rishi, parvonachi* o'rnida *askar, komandir, bosh ko'mondon* terminlari qo'llanadi.

3-§. Maxsus – kasb-hunarga oid so'zlar

O'zbek tilida kasb-hunarga oid bo'lgan talay terminlar borki, ular asrlar osha qo'llanib kelmoqda. Bular ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, bog'dorchilik, kulolchilik, duradgarlik, binokorlik, kosib-poyab-zalchilik, do'ppi tikish, naqqoshlik, me'morlik va boshqa kasblar bilan

bog‘liq o‘ziga xos tushunchalar ifoda etib, hanuz qo‘llanib kelinmoqda. Bunday so‘z – terminlar doirasi ancha keng. Quyida misollar keltiramiz.

1. Binokorlikka oid terminlar: *to’sin, toqi, sinch, havoza, betonqolip, hovon*.
2. Kosibchilikka oid terminlar: *ulton, poshna, so’zan, bigiz, shon, qolip, rezgi*.
3. Me’morlikka oid terminlar: *muqarnas, sharafa, guldasta, toq, ravoq*.
4. Kulolchilikka oid terminlar: *sopol, charx, koshin, angob, gulbuta, xumdon*.
5. Kashtachilikka oid terminlar: *jiyak, iroqi, popop, yo’rma*.

4-§. Ilmiy terminlar

Ma’lumki, o‘zbek xalqining fani, san’ati va adabiyoti uzoq tarixga ega. Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Alisher Navoiy asarlarida arabcha so‘z – terminlar ko‘pgina uchraydi. Zero arab tili ilmiy til vazifasini o’tagan. Masalan, *aljabr, muqobala, burj, rasadxona, riyoziyot, handasa* va boshqalar; *aruz, ruboil, muxammas, musaddas, hadis, risola, rivoya* va h. Vaqt o‘tishi bilan Sharq ilmi o‘rnini G‘arb ilmi ola boshladi. Shunga muvofiq XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek ilmiy tiliga ko‘plab lotin, yunon, fransuz, ingliz va boshqa tillardan terminlar o‘zlashtirila boshlandi. Bular asosan falsafa, tilshunoslik hamda deyarli barcha tabiiy fanlarga oid edi. Adabiy nutqimizda ba’zan ayni bir tushunchani ifoda etuvchi ikki, uch tilga oid terminlar yonma-yon qo‘llana boshladi. Masalan, *nerv, asab, inqilob, revalyusiya, doston, epos, afsona, mif* va boshqalar. Natijada o‘zbek tili lug‘at tarkibi terminlar bilan jadal boyiy boshladi. Bunga misolar keltiramiz.

1. Falsafiy terminlar: *sub’ekt, ob’ekt, predikat, materiya, kategoriya, substantia, ideal, atribut, ideya*.
2. Tilshunoslik terminlari: *pragmatika, semema, sema, valentlik, fonema, morfema, implitsit, eksplitsit, evfemizm, disfemizm, kontakt, distant, sinkopa, proteza, epinteza, eliziya, ad’ektivatsiya, substantivatsiya*.

3. Adabiyot terminlari: *esse, realizm, romantizm, lirika, sarbast, in-versiya, ritm, intonatsiya, oq she'rif, janr*.

4. Tarixshunoslik terminlari: *era, milodiy, imperiya, epoxa, format-siya, kapitalizm, antik, qabila, urug', elat, millat*.

5. Fizikaga oid terminlar: *zaryad, kuchlanish, anod, optika, qarshi-lik, quvvat, transformator, akkumulyator, richag, lyuks, volt, megavatt, tranzistor, elektrod*.

6. Matematikaga oid terminlar: *tenglama, formula, ildiz, maxraj, surat, kub, kvadrat, differensial, integral, kvintillion, sekstillion, plyus, minus*.

7. Fiziologiyaga oid terminlar: *glanda, miya, ilik, xaramag'iz, nutq organi, nerv tuguni, halqum, adashgan nerv, bronx, traxeya, qalqonsi-mon, tog'ay, diafragma, inspiratsiya, ekspiratsiya*.

8. Harbiy terminlar: *leytenant, kapitan, mayor, polkovnik, okop, dot, dzot, harbiy operatsiya, aylanma mudofaa, qurshovni yorib o'tish, di-versant, taktika, strategiya, asosiy yo'nalish, zarba, chekinish, mator-lashgan qism, havo hujumi, bombardimon*.

9. Jurnalistikaga oid terminlar: *informatsiya, korrespondensiya, intervyu, eksklyuziv intervyu, matbuot xizmati, brifing, press reliz, om-maviy axborot vositasi, davriy nashr, axborot globallashuvi, axborot maydoni, axboriy xuruj, matniy muloqot, verbal, auditoriya, jurnalist surushtiruvi, shou, korrespondent, respondent, lid, moderator*.

10. Noshirlik ishiga oid terminlar: *matn, kursiv, razryad, interval, abzas, muqova, titul, shmus titul, annotatsiya, musahhih, dizayner, so'zlik, definitsiya, abriviatura, korrektura, granka, maket, garnetura, bosma taboq, muallif taboq, nashr taboq, mualliflik huquqi, qalam haqi, chiqarish ma'lumoti, grif, mavzuli reja, asl nusxa*.

11. Oliy ta'limga oid terminlar: *akademik litsey, kollej, apel-lyatsiya, attestatsiya, grant, guruh, trening, magistr, modem, modul, monitoring, ta'lim tizimi, ta'lim usuli, ustoz-shogird tizimi, ta'limni individuallashtirish, ta'limni standartlash, tayanch so'z, tayanch konspekt, test, innovatsion pedtexnologiya, ekologik ta'lim, masofadan o'qitish, ilmiy xodim, elektron jurnal, bakalavriat, reyting, ball, yakuniy nazorat*.

Har bir adabiy asar o‘z oldiga takrorlanmas, o‘ziga xos va muayyan maqsadga, o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. Ikkita ayni bir xil usulga ega bo‘lgan muallif uchramaganidek adabiy asarlar ham individuallikka ega hisoblanadi. Ayni shu individuallikda mualliflarning ham individualligi namoyon bo‘ladi.

Qo‘lyozmani baholash muharrir faoliyatida eng muhim, ma’suliyatli vazifa sanaladi. Zero qo‘lyozmani baholay olish tahrir sifatini belgilovchi omildir. Agar muharrir qo‘lyozmani baholay olmasa, demak uni tahrir ham qila olmaydi. Ilmiy bilim qo‘lyozmani baholashda asosiy mezondir. Muharrir hamisha qo‘lyozmani bir qator bir-biri bilan jips bog‘liq va aloqador talablarga ko‘ra baholaydi. Ana shunday talablarдан бирни адабий асар турини аниqlash hisoblanadi. Адабий асар турни аниqlanganan so‘ng til va uslub masalasi ko‘rib chiqiladi. Agar асар badiy bo‘lsa muallifning individual uslubi, so‘zlardan foydalanish yo‘sini aniqlanadi.

4-b o b . MUAYYAN TUR ASARLAR VA ULARDА TERMINLARNING BERILISHI

- Ilmiy matnlarda terminlarning berilishi
- Ilmiy-ommabop asarlarda terminlarning qo'llanishi.

1-§. Ilmiy asarlardagi terminlar tahlili

Adabiyotlarni ma'lumki, ilmiy asar o'quvchiga muayyan sohaga oid bilim berishga mo'ljallangan bo'ladi. Ilmiy-ommabop asar esa ilm haqida umumiy tushuncha beradi. Agar ilmiy adabiyot o'quvchi ilmiy ixtisoslikka ega bo'lishi, malaka oshirishi uchun mo'ljallangan bo'lsa, ilmiy-ommabop adabiyot bunday maqsadni ko'zlamaydi. Unda fan mavjud hayotdagi u yoki bu hodisaning mohiyati haqidagi tizimlangan bilim sifatida bayon etiladi.

Masalan:

«Hosila sememaning pragmatik semaga ega bo'lishi metonimiya sodir bo'lgan leksema qanday birikmaning eksplitsit ifodalangan komponenti va bu komponent denotatining hayotida ahamiyati bilan bog'liqdir. Eksplitsit ifodalangan komponent denotati kishi hayotida ahamiyatli bo'lsa, pragmatik sema ijobjiy, aksincha bo'lsa, ya'ni salbiy o'r'in tutsa, pragmatik sema salbiy sub'ektiv munosabat ifoda etadi»¹.

Yuqorida keltirilgan matn sof ilmiy nutqqa xos. U faqat tilshunos mutaxassislar uchun, xususan tilshunoslikning semasiologiya qismi mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

Ilming boshqa sohalaridan mutaxassis bo'lgan (fizik, matematik, biolog va b.)lar uchun, garchi ular oliy ma'lumotli bo'lsalar ham matn tarkibidagi terminlar tanish bo'lmaganidan matn tushunarsizligi, tabi-

¹ Tohirov Z.T. Pragmatik sema. –T.: Zarqalam, 2004. 42-b.

iy. Vaholanki, *semema*, *sema*, *hosila sema*, *pragmatika*, *metonimiya*, *eksplitsit*, *denotat*, *leksema* sof tilshunoslik ilmi terminlari hisoblanadi. *Komponent* termini tanish, lekin bitta terminning ayonligi matnda nima deyilmoqchi ekanligini tushunishi uchun kamlik qiladi.

Demak, ilmiy matnni ilmiy-ommabop matnga aylantirish sof ilmiy terminlarni ular ma'no ifodasini beruvchi so'zlar bilan almashtirish lozim bo'ladi.

Semema – so'z ma'nosi, *sema* – so'z ma'nosini tashkil etuvchi mucha, *pragmatika* – ko'chim, *metonimiya* – *boshqacha atash*, *eksplitsit* – *ochiq, ravshan, oshkora, denatat* – so'zning tub ma'nosi, *komponent* – *tarkibiy qism, leksema – nutq birligi*.

Mana terminlar ma'no ifodasini aniqlab oldik. Endi ilmiy-ommabop (ommaviy) matn tuzamiz:

Hosila (hosil bo'lgan) ma'noning ko'chma muchaga ega bo'lishi boshqacha atash sodir bo'lgan nutq birligi (so'z) qanday birikmaning ochiq ifodalangan tarkibiy qismi va bu qism tub ma'nosining hayotdagi ahmiyati bilan bog'liqdir. Ochiq ifodalangan qism tub ma'nosi kishi hayotida ahamiyatli bo'lsa, ko'chma mucha ijobi, aksincha bo'lsa, ya'ni salbiy o'rinn tutsa, ko'chma mucha salbiy sub'ektiv munosabat ifoda etadi.

Ko'rindiki ilmiy va ilmiy-ommabop matn mazmuni bir xil, lekin til va uslubga ko'ra farqlanadi.

Demak ilmiy matn ilmiy uslubda, o'quvchiga terminlar asosida bilim yetkaziladi, ilmiy-ommabop matn ilmiy-ommabop uslubda, o'quvchiga tushuncha yetkaziladi.

Ilm-fan rivoji faqat mualliflar oldigagina emas, balki muharrirlar oldiga terminologiya bilan jiddiy shug'ullanish muammosini qo'yadi. Muallif biolog, ximik, fizik, sotsiolog bo'ladimi terminlarsiz churur ilmiy tadqiqotlar olib borolmaydi. Ayniqsa XXI asrda ilm-fan jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan, ilmiy nutqda yangidan yangi terminlar paydo bo'layotgan davrda arzigulik ilmiy natijaga erishish mushkil.

Tahrir ilmi ham bu jarayondan chetda qola olmaydi. Istaymizmi, istamaymizmi muharrir matn tahririda terminlar bilan to'qnash keladi. Agar matnda berilishi lozim bo'lgan terminlar o'z o'rnida qo'llanmas

ekan matn, birinchidan, ilmiylikdan mahrum bo‘ladi, ikkinchidan, matn o‘quvchi uchun «bosh qotirma»ga aylanadi. Shuning uchun muharrir qaysi tur (soha) adabiyotni tahrir qilishga ixtisoslashgan bo‘lsa, shu sohaga oid terminlarni yaxshi bilishi, fanga kirib kelayotgan yangi terminlar bilan muntazam tanishib borishi talab etiladi.

Muharrirning terminshunoslik masalasi bilan muntazam shug‘ullanishini, ayniqsa ensiklopedik asarlar (universal ensiklopediya, sohaviy ensiklopediya, ensiklopedik lug‘atlar) tahriri bilan shug‘ullanuvchi muharrirlar tom ma’noda terminshunos bo‘lishi lozim. Ma’lumki, ensiklopedik nashrlar qisqa muddatda (ikki, uch, hatto, besh yilda) qayta nashrdan chiqarilmaydi. Qayta nashr uchun 20–30 va undan ortiq yillar talab etiladi. Bu vaqt ichida qancha terminlar eskiradi, qancha yangi terminlar paydo bo‘ladi. Qayta nashr vaqtida bu holni hisobga ola biliш uchun terminologiya bilan shug‘ullanish ensiklopedik faoliyatning zaruriy jabhasiga aylanishi lozim.

Xullas, terminlar bilan ishslash adabiy asarlar nashr jarayonining muhim jabhasi hisoblanadi, muharrirning tahriri mahoratini belgilovchi muhim faoliyat turi sanaladi.

Adabiyotlarni turlarga ajratish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

«Noshirlik va tahrir ishi asosida turuvchi turli bilimlar orasida adabiyotlarning tipologiyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Mazkur bilim sohasi adabiy asarlarni tizimlashtirish tamoyillarini o‘rganadi¹. Bu o‘z navbatida adabiyotlarning turi va janrlarini tasdiq etish imkonini beradi.

Bugungi kunda kitob do‘konlariga nazar soladigan bo‘lsak, adabiyotlar nihoyatda rang-barangligining guvohi bo‘lamiz. Adabiyotlar ayrim turlarini tahrir qilishda nazariy jihatdan ikki asosiy masala ko‘ndalang turadi. Bu ikki bir-biri bilan jips bog‘liq masalaning birinchisi, turli tavsiyadagi asarlar muharrirlik tahlilining ilmiy asoslangan usulini ishlab chiqish. Ikkinchisi, muharrir qo‘lyozmani baholashda

¹ Редактирование отдельных видов литературы. Под.ред Н.М. Сикорского. Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальности «Журналистика». – Москва: Высщ. школа, 1983. – 5-б.

foydalana olishi mumkin bo‘lgan mezonlarni tanlash, tartibga keltirish va aniqlashtirishdan iboratdir.

Adabiyot ayrim turlarini tahlil qilishda terminologiya masalasi ham jiddiy e’tiborga loyiqidir. Zero terminlarni qo‘llash adabiyotlar tavsifiga ko‘ra keskin farqlanadi.

Ilmiy asarlarda, u qaysi sohaga oid bo‘lsa, asosan shu soha mutaxassislari uchun tanish terminlar uchraydi. O‘quvchida terminlar bilan bog‘liq hech bir tushunmovchilik – muammo tug‘ulmaydi. Sababi asar muayyan tor sohaning mutaxassis-xodimlari uchun mo‘ljallanganidadir. Muallif tavsiya etgan qo‘lyozmaning aniq tavsifi muharrir tahlilining asosiy maqsadlaridan biridir. Asarning turi, janri, kompozitsiyasi, asos materiallardan qay darajada foydalilanligani, bayoni va nihoyat terminlardan foydalaniilganlik darajasi, maqsadi, kimlarga mo‘ljallanganligi va boshqalar tahlil predmeti hisoblanadi. Matn tuzishda terminlardan foydalanish, albatta, asar turiga bog‘liq. Asar siyosiy, ilmiy, ishlab-chiqarish, texnikaga oid, rasmiy-idoraviy tavsifda bo‘lishi mumkin. Bunda, tabiiyki, terminlardan foydalanish matn talabi darajasida bo‘ladi. Chunki ilmiy, siyosiy, rasmiy fikr to‘laqonliligi, maqsadi shunga bog‘liq.

Agar asar ommaviy-siyosiy, ilmiy-ommabop bo‘lsa, unda, matn tuzishda terminlardan foydalanish yuqorida tur adabiyotlardagidan ko‘ra muayyan darajada farq qiladi. Sababi, bu tur asarlar tor soha mutaxassislari uchun emas, balki o‘quvchilarga mo‘ljallanadi. Ular boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus ma’lumotli, shuningdek oliv ma’lumotli-yu, lekin boshqa soha vakili bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra muharrir mazkur tur matnlar tahlili va tahririda bu holni, albatta, hisobga olishi lozim.

Qo‘lyozmani baholash muharrir faoliyatida eng mas’uliyatlari bosqich sanaladi. Baholash mezoni bo‘lib, bilim hisoblanadi. To‘g‘ri barcha tur adabiyotlarning matnnini baholashda umumiylar mezonlar ham mavjud. Masalan, albatta materialning hajmi qanday – kattami kichikmi, bundan qat’iy nazar, kirish, asosiy qism, xulosadan iborat bo‘lishi lozim. Bundan tashqarari adabiy nutq me’yorlariga rioya etilishi, bayon qisqa, lo‘nda va tushunarli, har bir so‘z, xususan termin o‘z o‘rnida qo‘llanishi talab etiladi.

Matnda uchraydigan terminlarning barchasi ham muharrir uchun «tanish» bo‘imasligi mumkin. Bunday paytda termin haqiqatda shu tur asar matni uchun o‘rinlimi, ayni, o‘z tub ma’nosida qo‘llangan ekanligini muharrir idroki (sezgisi), amaliy tajribasi yordamida payqashi mumkin. Lekin, faqat shulargina terminlarning tahlili uchun kamlik qiladi.

Qo‘lyozmani ilmiy baholash terminlar, mezonlar asosli ekanligi bilan chegaralanmaydi, balki, ular tizimlanganligini ham nazarda tutadi.

Ayni bir sohaga oid ham ilmiy, ham ilmiy-ommabop asar qo‘lyozmasida terminlar bir miqdor va me'yorda bo‘lishi adabiy tur tushunchasiga mos emas. Agar shunday bo‘lsa, unda tur o‘z ma’nosini yo‘qotadigina emas, balki o‘quvchilarining (ayniqsa, ommaviy o‘quvchilar doirasini) toraytiradi.

2-§. Ilmiy-ommabop asar mohiyati va terminlar tahlili

Ilmiy-ommabop adabiyot o‘z mohiyatiga ega bo‘lib, u ilmni mavjud hayotdagи muayyan hodisaning mohiyati haqidagi tizimlashtirilgan bilim sifatida bayon etadi. U ilmiy adabiyotdan farqli o‘larоq dunyo-qarashni shakllantiradi, ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik bilimlarni o‘zida aks ettiradi, ya’ni o‘quvchiga ijodiy fikrlash va faoliyatga undovchi bilimga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. Ilmiy-ommabop matnlarda terminlar ustida ishlashdan maqsad o‘quvchi bunday asarni o‘qib muayyan ilmiy ixtisoslikka ega bo‘lishligi, soha bo‘yicha o‘z malakasini oshirishida emas.

Chunki ilmiy-ommabop asar na darslik, na ishlab chiqarish yo‘riqnomasi emas.

Shunga ko‘ra tor ixtisoslikka oid, amaliyotda faqat muayyan sohadagina qo‘llanadigan bilimlar ilmiy-ommabop asarlarga kiritilmaydi. Ilmiy-ommabop kitoblar ommaviy o‘quvchiga tabiatga, jamiyat va insonga keng miqyosda nazar tashlashga imkon beradi. Shunga ko‘ra terminlar kitobni o‘quvchi uchun tanish emas, balki tushunarli bo‘lishi lozim. Ular ommaviy kitobda targ‘ib, tashviq, ommalashtirish, o‘rganish, xabardor qilish va hakozolarga xizmat qiladi. Lekin jamo-

atchilikning onglilik darajasi, uning ko‘rinishlari haqidagi asoslangan ilmiy ma’lumotlarsiz bunga erishib bo‘lmaydi. Kimlarga atalganligi adabiyotning nima maqsaddaligini, mohiyatini belgilab beradi, matnni tuzish, bayon etish shakli va usuliga ta’sir etadi.

Agar ilmiy adabiyot fanning turli sohalariga taalluqli bo‘lib, ilmiy bilish uchun xizmat qilsa, ilmiy-ommabop adabiyot kitob o‘quvchilarni u yoki bu narsa, hodisa xususida umumiyligi xabardor qiladi. Ilmiy adabiyotning asosiy vazifasi ma’lumot – ilmiy xulosalangan informatsiya berishdir. Bu tur matnda ko‘plab ilmiy terminlar, so‘z birikmalaridan foydalaniladi. Ular barchasi mantiqiy idrok etilgan tushunchalarni belgilashga xizmat qiladi hamda katta hajmda mantiqiy xabar tashiydi. Bu adabiyotda asosan umumilmiy va mavhum (abstrakt) ma’noli terminlar (so‘zlar) qo‘llanadi. Ilmiy matnda ot turkumiga mansub so‘zlar (zero barcha terminlar ot turkumida bo‘ladi) ko‘p uchraydi.

Rasmiy, ish yuritishga oid matnlarning asosiy vazifasi axborot berish. Mazkur soha adabiyotlari janrlar xilma-xilligi bilan ham ajralib turadi (masalan qonunchilik hujjatlari, yo‘riqnomalar, hisobotlar, qatorlar, arizalar, ma’lumotnomalar, buyruqlar, dalolatnomalar, tushuntirish xatlari, bildirish va boshqalar). Mazkur tur adabiyotlarda nutqiy mezonlar, matn bayonining umumiyligi qabul qilingan shakkiali, terminlaridan keng foydalaniladi. Ularda hissiy-ekspressivlik, tildagi tasviriy-ta’sirchan vositalardan foydalanish mutlaqo uchramaydi.

3-§.Ommaviy nashrlarda terminlarning o‘rni

Ommaviy adabiyotni, ommaviy nashrdan farqlash lozim. Agar ommaviy kitob keng o‘quvchilar jamoasiga mo‘ljallangan bo‘lsa (masalan ommaviy-siyosiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar), ommaviy nashr deganda adabiyot turidan qat’iy nazar ko‘plab nusxada chiqarilgan kitoblar tushuniladi.

Masalan, badiiy nashrlar ommaviy nusxada bosiladi. Ular ilmiy-ommaviy adabiyotlardan ancha farq qiladi. Badiiy matnda ham adabiy nutq me’yorlariga amal qilinsa-da, lekin boshqa tur adabiyotlarga xos termin (so‘z)lardan ham foydalaniladi, biroq ularidan foydalanish mut-

laqo boshqa-boshqa. Agar ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarda terminlar ilmiy xulosalar chiqarish, mulohaza yuritish va hukm chiqarishga, ilmiy ma'lumot berish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun xizmat qilsa, badiiy asarda tasvir, obraz yaratishga xizmat qiladi. Badiiy matn yaratishda adabiy nutq me'yordan chetga chiqish, grammatika qoidalaridan chekinishda, shevaga xos so'zlarni qo'llashda erkinlik mavjud. Masalan, shevaga xos so'zlar badiiy asarda nutqni shaxslantirish – obraz yaratishga xizmat qilsa, ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotda (masalan tilshunoslikka oid asarlarda) muayyan shevaga xos jihatlarni ilmiy asoslash hamda axborot berishga xizmat qiladi. Demak, badiiy adabiyot maqsadi obrazlar orqali fikr yuritish, informatsiya yetkazish bo'lsa, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar maqsadi terminlar orqali fikr yuritish, ilmiy ma'lumot yetkazish hisoblanadi.

Quyidagi matnga e'tibor beraylik:

«O'xshatish konstruksiyasi uch komponentli bo'lishi ham mumkin. Bunda uning asosi ellipsisiga uchraydi. Xususan, u o'xshatish formanti, o'xshatish etaloni va sub'ektdan tarkib topadi. O'xshatish konstruksiyasi asosining ellipsisiga uchrashi ham mayjud qonuniyatga ko'ra bo'ladi. Odatda birikmalar komponenti ellipsisiga uchrar ekan, u hamma vaqt hokim komponent hisobiga bo'ladi. Tobe komponent esa aktualizator sifatida hokim komponentning semantikasi va grammatik vazifasini o'z ustiga oladi. O'xshatish konstruksiyalarda absolyut tobe komponent esa sub'ekt uchun tobe, etalon uchun hokimdir. Shuning uchun etalon aktualizator bo'lib, uning hokim komponenti – asos ellipsisiga uchraydi. Natijada etalon sub'ekt bilan boshqaruв bog'lanishiga kirishadi. Boshqaruв uchun grammatik vosita vazifasini o'xshatish fermentining o'zi o'taydi»¹.

Tilshunoslikning semasiologiya qismiga oid yuqoridagi matnda sohaga oid bir qancha terminlar uchraydi. Bular – *konstruksiya, komponent, asos, ellipsis, formant, etalon, sub'ekt, aktualizator, semantika, grammatika; birikmalar – o'xshatish konstruksiyasi, o'xshatish formanti, o'xshatish etaloni, hokim komponent*.

¹ Tohirov Z.T. Pragmatik sema. – T.: Zarqalam, 2004.– 13-b.

Mazkur terminlar asosan tilshunoslikning semasiologiya qismi bo'yicha mutaxassislar uchun tushunarli bo'lishi mumkin. Keng doiradagi, hatto ma'lumoti boshqa soha bo'yicha oliv bo'lganlar ham gap nima xususida ekanligini anglay olmasliklari mumkin.

4-§. Terminlarning sohalararo qo'llanishi

Muayyan sohaga oid terminlarning ayrimlari boshqa sohalarda ham uchraydi. Masalan, *konstruksiya* (muhandislik, arxitektura va b.da) etalon (o'Ichov bilan shug'ullanuvchi sohada), *sub'ekt* (falsafa, iqtisodiyot va b.), *komponent* (ximiya, dorishunoslik va b.), hokim (siyosat, davlat qurilishi, qonunchilik va b. sohalarda) ham qo'llanadi. Ulardan faqat o'z atash ma'nosidagini foydalaniladi (ko'chma ma'noga ega bo'lmaydi) va qo'llanilayotgan sohasigagina aloqador ma'lumot (xabar) ni yetkazishga xizmat qiladi.

Mobodo matn tarkibidagi tilshunoslikda ham qo'llanadigan terminlarning ma'no ifodasini berish yoki terminlarni kalkalash orqali matnni ilmiy-ommabop uslubga o'tkazishga to'g'ri kelsa, shunga muvaffaq bo'linsa ham ular (terminlar) o'z vazifasini o'tamagan, ya'ni tub axboriylik xususiyatini yo'qotgan bo'ladi. Quyidagi terminlar ma'no ifoda-siga e'tibor beraylik:

Konstruksiya – lotincha, aynan – *tuzilish*. Tilshunoslikda – «til birliklarining nutqda grammatik xususiyatlari asosida o'zaro birikishi bilan tashkil topgan sintaktik butunlik»¹:

Konstruksiya – tuzilish, qurilish.

1) qurilma, biror tuzilma, mexanizm va sh.k.larning qismini tashkil etuvchilarining o'zaro joylashuvi; shunday tuzilishli qurilma, mexanizm va sh.k. (mas., ko'prik k. temirbeton k.);

2) tilshunoslikda – sintaktik (kamdan kam holda morfologik) butunlik, muayyan grammatik xususiyat mavjudligiga ko'ra, qoidalar asosida til birliklarining nutqda birikishi natijasi².

¹ Ҳоясиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли лугати. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 45-б.

² Энциклопедик лугат. – Москва: Энциклопедия нашриёти, 1984. – 621-б.

Ellipsis – yunoncha, tushish, tushirilish. Tilshunoslikda – nutq unsurining tushib qolishi. Nutqda ellipsis turli maqsadlar bilan (mas, tejam talabi bilan) yuz beradi. Undan, odatda uslubiy vosita sifatida foydalaniladi. Masalan: *Ilmlilar ko'paysin, ilmsizlar yo'q bo'lsin.* Yuqoridagi jumlada *odam* so'zi tushib qolgan. So'zlashuv nutqiga xos tovush tushish hodisasi ham ellipsis ataladi. Masalan, *burni* (buruni), *Salimpa* (Salima opa), *opke* (olib kel).

Demak, ayrim terminlar ham ilmiy, ham ilmiy-ommabop adabiyotlarda birdek qo'llanar ekan. Agar ilmiy matnni ilmiy-ommabopga aylantirish yoki soha mutaxassis uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun chet tiliga xos terminni o'quvchining o'z ona tilisida berish, ya'ni *konstruksiyani – tuzilish; ellipsisni tushish* tarzida berish umuman matnni tushunarsiz ahvolga keltirib qo'yadi. Shunga ko'ra terminni aslicha qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Ba'zi terminlar bo'ladiki, ular ilmiy matnda asl holda qo'llaniladi, lekin ilmiy-ommabop matnda ularni tarjima qilib yoki ma'no ifodasini (ayni u keltirilayotgan jumla tarkibidagi) berish mumkin. Bunda matn axboriyligiga putur yetmaydi, bildirilayotgan fikr ham soha mutaxassislari, ham soha mutaxassis bo'lмаган о'quvchilar uchun ham birday tushunarli bo'ladi. Masalan, iqtisodiyotga oid terminlar *investitsiya, kapital* nemis tilidan, nemis tiliga esa lotin tilidan o'tgan. Agar ularni kalkalab o'z tilimizga qabul qiladigan bo'lsak, umuman hozirgi moliya sohasiga oid ma'no ifodasini yo'qotadi. Ya'ni:

Investitsiya – lotincha – *kiyintiraman*;

Kapital – nemischa – *boshlang'ich, asosiy mulk*; lotincha – *bosh*.

Ko'rindaniki, yuqoridagi ikkala termin ilmiy adabiyotda ham, ilmiy-ommabop adabiyotda ham aslicha qolgani ma'qul. Lekin, iqtisodiyotdagi maqsadga ko'ra ayrim hollarda ilmiy-ommabop matn kontekstidagi ma'no ifodasiga ko'ra *investitsiyani mablag'lash, mablag'ajratish, mablag' kiritish* kabi birikmalar bilan almashtirish mumkin. Xuddi shuningdek *kapital* terminini *boshlang'ich mablag'*, *sarmoya* (forscha – *sar-bosh*, turkiycha – *moya*, ya'ni *sarmoya – bosh moy*) tarzida qo'llash mumkin.

Ilmiy adabiyot asosan soha o‘quvchilari tomonidan o‘qiladi, shunga ko‘ra matn tahlili va tahririda asosiy e’tibor terminlarning to‘g‘ri berilganligiga qaratilsa, ilmiy-ommabop adabiyotlarda shu tur asarlarning o‘quvchilari qay darajada tushuna olishlari e’tiborga olinadi.

Ilmiy-ommabop asar o‘quvchisi deganda katta yoshdagi, ma’lumotli, lekin kitobda yoritilayotgan bilim sohasiga oid maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lImagen kishi tushuniladi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda ommabop asarlar chop etish ancha jonlandi, ommaviy o‘quvchi shakllana boshlandi.

Telekanallar orqali ilm-fanning turli sohalariga oid ilmiy-ommabop, hujjatli telefilmlar (o‘zimizda va horijda ishlangan) keng namoyish etilmoqda. Bular barchasi ommaviy o‘quvchi va tomoshabinga o‘z dunyoqarashi, ilmiy saviyasi va madaniylik darajasini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa yoshlarning ongini o‘stirish, zamon bilan barobar qadam tashlash, mamlakatda, umuman, dunyoda, fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, biznes, tadbirdorlik va h. sohalarda yuz berayotgan jarayonlarni to‘g‘ri idroklash va munosabatda bo‘lish imkonini beradi.

Bugungi kun noshirlik ishida ilm fanning barcha sohalariga oid o‘zida eng ilg‘or tajriba va yangiliklarni mujassam etgan ilmiy adabiyotlarni chop etish bilan birga ulardan kam bo‘lImagen (balki ko‘proqdir) ilmiy-ommabop adabiyotlarni chop etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu vazifani uddalash esa nashriyotlarning shunday asarlar yaratishga qodir mualliflarni izlash, topish va ular bilan yaqindan birga ishlashga bog‘liq.

5-b o b . OMMAVIY-SIYOSIY MATNLARDA TERMINLARDAN FOYDALANISH VA UALAR TAHRIRI

- Ommaviy-siyosiy matn va ularning o‘ziga xos jihatlari.
- Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi adabiyotlar.
- Tashviqiy-targ‘ibiy adabiyotlar mohiyati va vazifasi.

1-§. Ommaviy-siyosiy asarlar – adabiy tur siratida

Ommaviy-siyosiy matnning o‘ziga xos jihatlarini belgilash bir qator metodologik murakkablik bilan bog‘liq. Bir qarashda, uning o‘ziga xosligi mavzular rang-barangligida, materiallarning turli-tumanligida namoyon bo‘ladi. U ilmiy bilishni ommalashtiradi, keng ommaning, partiyalar, davlatlarning faoliyatini, shuningdek, yakka shaxslar – jamoatchi-siyosiy arboblar, olimlar, din arboblari, fermerlar, biznes bilan shug‘ullanuvchilar va boshqalar faoliyatini ham yoritadi.

Ommaviy-siyosiy nashrlar ichida falsafa, siyosat, partiyalarga bag‘ishlanganinigina emas, balki, jamiyat, oila, shaharsozlik, turizm, sport va boshqalarga oidlarini ham ko‘rish mumkin.

Mavzu turli-tumanligiga qaramay ommaviy-siyosiy asarlar ning umumiyligi ichki jihatni ham borki, ularni alohida tur asarga birlashtirish mumkin. Bunga o‘ziga xos mohiyat, maqsad va kimlarga mo‘ljallanganligi imkon beradi.

Ommaviy-siyosiy adabiyotlarning mohiyatini o‘zaro jips aloqada bo‘lgan mafkura va siyosat tashkil etadi.

Mafkura va siyosatning o‘ziga xosligi, vazifasi, ijtimoiy ongning turli ko‘rinishlari, ijtimoiy munosabatlarni sohasi, jamoatchilik faoliyati bilan munosabati ommaviy-siyosiy adabiyotlarning mohiyatini tushunish imkonini beradi.

Siyosat partiyalar, guruhlar, tabaqalarning faoliyati bo‘lib, ularning maqsad va manfaatlari bilan belgilanadi, shuningdek davlat, hokimiyat idoralari faoliyatida, davlat boshqaruvida namoyon bo‘ladi, muayyan mamlakatning ijtimoiy tuzumi va iqtisodning shaklida aks etadi.

Hokimiyat tepasiga kelgan (hokimiyatga ega bo‘lgan) kuchlar, guruh (lar), partiya (lar) ijtimoiy harakat (lar) siyosat vositasida jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisod, moddiy ne’matlarning taqsimlanishi, axloq, madaniyat, turmush tarziga ta’sir o‘tkazishga intiladi. Iqtisodiyot, madaniyat, aholi sonining oshishiga, ta’lim, sog‘liqni saqlash, oilaviy munosabat, sanoat ishlab chiqarishi, agrar va h. siyosatlar haqidagi gapirish mumkin.

Mafkura ma’naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi. U muayyan ijtimoiy manfaatlar va siyosat bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqligiga ko‘ra ajralib turadi. Bundan tashqari milliy mafkura ham borki, u boshqalar manfaatiga zid bo‘lmagan holda asosiy milliy manfaatlarni o‘zida aks ettiradi, davlat siyosati bilan jips bog‘liklikda bo‘ladi.

Mafkura ilmiy yoki g‘ayri ilmiy bo‘lishi mumkin. Siyosat va mafkura ijtimoiy hayotning barcha sohalariga chuqr kirib boradi, jamiyat a’zolarining ongiga kuchli ta’sir o‘tkazadi.

2-§.Ommaviy-siyosiy adabiyot – ijtimoiy ongi shakllantiruvchi

Ommaviy-siyosiy matnlar ijtimoiy turmushdagi qonunlar va voqeя, hodisalarni o‘zida aks ettiradi. Buning uchun albatta maxsus terminlar dan foydalanadi. Tahrir jarayonida muharrirlar buni yodda tutishi lozim bo‘ladi. Zero ommaviy-siyosiy asarlarning o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biri terminlar hisoblanadi.

Ommaviy-siyosiy adabiyot jamiyatni boshqarishda, ijtimoiy ongi shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ommaviy-siyosiy adabiyotlarning maqsadi tashviqot va targ‘ibotdan iboratdir. Bugungi kunda uning vazifasini uchinchi bir termin bilan atash o‘rinli desak xato bo‘lmaydi. U ham bo‘lsa, «da’vat»dir. To‘g‘ri, mazkur termin, yaqin-yaqingacha, diniy, undan zamonaviy faoliyatda foydalanishdan

saqlanish kerak degan fikr hukmron edi. Vaholangki, so'z na dinga, na dunyoviy siyosatga mutlaqo farqsiz. Uni kim (lar) nima maqsad-da qo'llayotgani muhim. Shunga ko'ra *tashviq*, *da'vat* terminlarining ma'no ifodasi *undamoq*, *targ'ibot* terminining ma'no ifodasi *tarqatmoq*, *yoymoq*. Shuni e'tiborga olgan holda ommaviy-siyosiy matnlarda ularni farqlash ham to'g'ri, o'z o'rniда qo'llash talab etiladi.

Ommaviy-siyosiy asarlar, agar, mafkuraviy bo'lsa, ularning asosiy maqsadi shaxsda muayyan qadriyatlarga ishonch hosil qilish (ishontirish) dan iboratdir.

Shaxsning ishonchi nimalarga asoslanishi – ilmiy bilimgami, tur-mush tajribasigami yoki e'tiqodiy (ko'r-ko'rona) ishontirishlargami ekanligiga ko'ra ilmiy, tajribaviy va aqidaviyga ajratiladi.

Shaxs ongiga ilmiy mafkurani singdirish siyosiy tashviqot va targ'ibot tufayli mumkin bo'ladi. Albatta, bunday adabiyotni hamma birday tushunavermaydi. Chunki, unda ilmiy, siyosiy termin (so'z) va birikmalar ko'plab uchraydi. Shunga ko'ra ommaviy-siyosiy asar qo'lyozmasini tahrir qilishda har bir termin barchaga birday tushunarli bo'lishi uchun ilmiy-ommabop uslubdan foydalanish, ba'zi terminlar ma'no ifodasining izohini berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, *elek-torat* – ovoz beruvchilar, saylovcilar; *legitim* – qonuniy; *ekstremizm* – o'ta qarshi (mafcura, siyosatda)

Targ'ibot mavzularidagi adabiyotlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhnini mafcura, siyosat bilan hali yaxshi tanish bo'lmagan o'quvchilar – asosan yoshlar, yuqori sinf o'quvchilari, tala-balari, ma'lumoti oliy bo'lmagan katta yoshdagilar tashkil etadi. Yuqorida qayd etilganidek terminlarning izohini berish ana shu guruhdagilar uchun muhimdir.

Ikkinchini guruhnini tashviqot, targ'ibot ishlari bilan shug'ullanuvchilar, siyosiy o'quvni olib boruvchilar, ziyyolilar, falsafa, huquq, ma'naviyat-ma'rifat, davlat va jamiyat tuzilishi bo'yicha malaka oshirish muasssalari, matbuot xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, fuqarolik jamiyatni qurilishi institutlari xodimlari tashkil etadi.

Shu narsa ayonki, ommaviy o'quvchini ijtimoiy-siyosiy muammo-lar, albatta, qiziqtiradi. Ular iqtisodiy, ijtimoiy masalalar bo'yicha olib

borilayotgan joriy siyosat xususida ma'lumotlarni adabiyotlardan ko'ra ancha tezkor bo'lgan manbalardan – gazeta, jurnal, radio, televideeniye, internetdan oladilar. Lekin, ular ommaviy-siyosiy adabiyotdan chuqur, mazmundor ma'lumotga ega bo'lishni istaydi.

Bundan shunday xulosa chiqadi, demak ommaviy-siyosiy adabiyotlar gazeta, jurnallardan, axborot elektron vositalaridan sezilarli darajada farqlanishi lozim.

3-§. Tashviqiy-targ‘ibiy adabiyotlar ilmiy mafkura yetkazuvchi tur sifatida

Tashviqiy-targ‘ibiy adabiyotlar, garchi ommaviy-siyosiy atalsa-da, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan umumiy jihatlarga ega, chunki u om-maga ilmiy mafkurani yetkazadi. Jamiyatda mafkuraviy vazifani bajaruvgachi fanlar – falsafa, siyosatshunoslik (politologiya), jamiyatshunoslikka xos ko‘p jihatlar boshqa nazariy fanlar tarkibida uchraydi. Ular ham targ‘ibiy mazmunga ega.

Shuni alohida ta'kidlash joizki ommaviy-siyosiy adabiyot ham, ilmiy-ommabop adabiyot ham o‘z tarkibiy qismlari – mohiyati, usuli, asos materiallari, nazariyasini terminlarda ifoda etadi.

Ommaviy o‘quvchiga mo‘ljallangan adabiyot terminlar va ular orqali bayon etiladigan nazariy materiallalar bilan to‘ldirib yuborilgan bo‘lmasligi kerak. Berilayotgan material mohiyatiga ko‘ra ikki xil – tavsifiy va nazariy bo‘lishi mumkin. Har ikki holda ham matn o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Buning uchun u – matn ommabop usulda bayon etilishi lozim.

Muharrir ommaviy-siyosiy asar matnining tahriri bilan shug‘ullanar ekan barcha terminlar o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishiga erishishi shart. Shundagina mohiyati, maqsadi, auditoriyasiga ko‘ra o‘zi taalluqli bo‘lgan turga mansubligini saqlaydi.

Keng ommada g‘oyaviy-siyosiy e’tiqodni shakllantirish mualliflar-dan (xususan, muharrirdan) mavjud hayotga to‘g‘ridan to‘g‘ri nazar tashlashni, avvalo, uning siyosiy tomonini to‘g‘ri idrok etishni talab qiladi.

Har qanday tur adabiyotni adabiy tahrir qilish umumiy va maxsus maqsadda amalga oshiriladi. Qaysi tur adabiyot bo‘lishidan qat’iy nazar uslubiy savodlilik, soddalik, aniqlik, tushunarllilik, lo‘ndalik, qiziqarllilik, mantiqiylik, bayondagi o‘ziga xoslik muhim jihatlar hisoblanadi.

Ommaviy-siyosiy adabiyotda, albatta, ilmiy material – dalil, tushuncha, qonunlar, nazariy fikrlar aks etadi. Ular ommaviy o‘quvchi uchun birday tushunarli bo‘lishini uslubiy betaraf, kitobiy so‘zlar, iboralar, terminlar ta’minlaydi. Bayon asosan uchinchi shaxs tilida boradi. Mafkuraviy, siyosiy terminlar asosiyligi til unsurlari bo‘lib hisoblanadi: *milliy qadriyatlar, mentalitet, gumanitar, fuqarolik jamiyat, huquqiy davlat, parlament, senat, spiker, teng huquqlilik, ijtimoiy himoya,adolatli, qonun ustivorligi, ijtimoiy manfaat, ishsizlik, marginal shaxs, muholifat, tolerantlik, yashash minimumi, ilg‘or, suverenitet, ombudsmen* va h.

Yuqorida keltirilgan so‘z va so‘z birikmalarining barchasi ommaviy o‘quvchilar uchun birdek tushunarli bo‘lmasligi mumkin: Masalan, *mentalitet, spiker, marginal shaxs, tolerant, yashash minimumi, ombudsmen*. Mazkur terminlar yoki birikmadan so‘ng qavs ichida ularning o‘z tildagi muqobilini berish yoki izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni: *mentalitet* (milliy urf-odat, milliy xususiyat), *spiker* (inglizcha, aynan – notiq), *marginal shaxs* (arosatda qolgan shaxs), *yashash minimumi* (iste’mol korzinkasi, tuzliq to‘rvanining qiyatlardagi bahosi), *ombudsmen* (lavozimdar shaxs, uning zimmasiga hukumat, muassasa faoliyatini nazorat qilish yuklatiladi).

Ommaviy-siyosiy adabiyot, asosan, hayotiy narsa, voqeа va hodisalarni yoritadi, ularga hissiy, axloqiy-siyosiy baho beradi.

Mafkuraviy va siyosiy terminlar matnga kiritilar ekan, ular o‘z mantiqiy vazifasini bir qadar yo‘qotadi va ommaviy o‘quvchi shuuriy, hissiylik asosida idrok etadi.

Ommaviy-siyosiy adabiyot oldiga qo‘yilgan maqsad – tashviqiy-targ‘ibiy vazifasini bajarishga, nutqning mazmunan chuqur, hissiy jihatdan ko‘tarinkiligiga ko‘ra erishadi. Shunday asarni tahrir qilishda muharrir terminlar qay darajada ommaviyligiga alohida e’tibor berishi lozim.

Agar terminlar ommaviy o‘quvchiga tanish, ya’ni kundalik hayotida gazeta materiallarida, teleko‘rsatuvlarda, radioeshittirishlarda uchrab tursa, muharrir asosiy e’tiborini yangi, hali ommalashib ulgurmagan terminlarga qaratishi kerak. Ta’bir joiz bo‘lsa, matnni tahlil qilish yoki baholash mezonlaridan biri ham ana shudir. Agar «notanish» termin izohlansa, demak, o‘quvchiga, avvalo, so‘zning atash ma’nosи, qolaversa, aytimoqchi bo‘lgan fikr ravshanlashadi. Ma’lumki ommaviy-siyosiy asarlarda ko‘plab termin uchraydi ular ma’no ifodasining aniqligini soha terminlari izohli lug‘atidan yoki ensiklopedik lug‘atlardan tekshirish kerak.

Asar haqiqatda ommaviy-siyosiy turga xosligini aniqlashda matn bayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bayon ommabopligrini ta’minalash uchun muallif, birinchidan, terminlar tushunarligini, ikkinchidan, kitobda yoritilayotgan mavzu ilmiylik darajasi auditoriya saviyasiga mos bo‘lishini ta’minalay olishi kerak.

4-§. Ilmiy-ommabop matnlarda terminlar tahlili va tahriri

Ilmiy-ommabop matn tahriri jarayonida terminlar muharrir uchun birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi. Terminlar sifatida, masalan, falsafada o‘quvchi termin deb hisoblamagan, o‘zi uchun go‘yo tushunarli bo‘lgan so‘zlar qo‘llanadi (*materiya, ong, miqdor, sifat, mohiyat, hodisa, davlat, qonun, hokimiyat, hukm, mulohaza, tahlil, predikat, subekt, kategoriya, sillagizm*, va b.). Tahrirni qiyinlashtiruvchi yana bir jihat bor. U ham bo‘lsa, yuqoridaq terminlarning bir qismi G‘arb falsafasiga, bir qismi Sharq falsafasiga taalluqli. Muharrir ularni qorishtirib yubormasligi kerak. Masalan Sharq falsafasidagi terminlar: *hukm, mulohaza, tahlil, ong*. Muvofiq tarzda bular G‘arb falsafasida quyidagicha: *kategoriya, sujdenie, analiz, soznanie* (yunoncha, ruscha va b.).

Ba’zan ayni bir ma’noda qo‘llanadigan har ikki falsafaga oid terminlar sinonim tarzida keladi. Albatta, bu o‘quvchini chalg‘itadi. Adabiy tahrir qoidasiga ko‘ra qaysi termin birinchi bo‘lib qo‘llanilgan bo‘lsa, asar oxirigacha bir xillik saqlanishi kerak. Mobodo, o‘quvchi

uchun ikkisidan biri notanish bo'lsa, unda tanish terminni notanish termindan so'ng qavs ichida, birinchi o'rinda qayd etib o'tish kerak bo'ladi: *kategoriya* (hukm), *analiz* (tahlil). Qolgan barcha o'rinnlarda *kategoriya*, *analiz* beriladi yoki aksincha.

Ayrim terminlar borki, garchi ularning o'z tilda muqobili bo'lsa-da, lekin uni almashtirib bo'lmaydi. Masalan, *predikat*, *sub'ekt* bular tilshunoslikda *kesim*, *ega*.

Agar *predikat* o'rnida *kesim*, *sub'ekt* o'rnida *ega* qo'llanilsa, unda falsafiy ma'no anglashilmaydi. Shunga ko'ra falsafaga oid matnda soha terminlari qoldirishi kerak. Bu holat muharrirdan matnni maqsadga muvofiq tahlil qilishni, terminlarni tushuntirish usulini shuningdek, ularni matnga mantiqan to'g'ri kiritishni talab qiladi. Vaholanki, muallif ham, muharrir ham o'quvchiga terminni shunchaki tushuntiribgi-na qolmaydi, balki uni o'zi uchun notanish, tushunarsiz bo'lgan termin bilan tanishtiradi, tadrijiy suratda uni ijtimoiy siyosiy hayot bilan tanishtira boradi.

Masalan, *ekstremizm* so'zi bugungi kunda o'quvchini o'ta xavfli, shavqatsiz qora kuchlar bilan hayolan to'qnashtiradi. O'quvchi garchi shunday kuchlarni amalda ko'rmagan bo'lsa-da lekin termin orqali uni idrok etadi. Ammo uning tushunchasi termin ifoda etgan ob'ekt haqidagi umumiy, qaysidir darajada yuzaki bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ommaviy-siyosiy adabiyotda terminni o'zini berish bilan kifoyalanib qolmay, misollar, dalillar yordamida termin ifoda etgan ob'ekt bilan to'liq tanishtirish lozim.

Agar muallif matnda faqat terminni keltirish bilan kifoyalangan bo'lsa, ya'ni o'quvchi ilg'ab olishi kerak bo'lgan narsani dilda qoldirgan bo'lsa, uni oshkor etish muharrirning zimmasiga tushadi.

Bir asar miqyosida terminni turli ma'noda qo'llashga zinxor yo'l qo'yib bo'lmaydi. Mobodo muallif tomonidan matnga fanning o'zida turli ma'noda qo'llanayotgan termin kiritilgan bo'lsa, unda muharrir qanday yo'l tutishi kerak? Bunday hollarda muharrir terminning izohini berishi yoki qaysi manbalarda, qaysi ma'noda qo'llanishini ko'rsatishi lozim.

Ommaviy-siyosiy asarlarda odatda mantiqan ta'kidlash ko'proq uchraydi. Bunda termin yordamida yetkazilayotgan tushunchani ya-

nada bo‘rttirish, kuchaytirish maqsadida turli nutqiy usullar va til vositalaridan foydalaniladi (*vaholanki, zero, faqat, shunga ko‘ra, shunday qilib, ayitish mumkinki, xususan*). So‘z va birikmalardan tashqari iboraldan ham foydalaniladi, hikmatlar keltiriladi. Masalan biror-bir mamlakat yoki davlat rahbarining xalqaro huquq va me’yorlarga zid xatti-harakatiga baho berilganda ayni shunday usuldan foydalaniladi. Masalan, Rossiya prezidenti Putin Turkiya harbiy samolyoti Suriya huddida Su-24 bombardimonchi samolyotini urib tushirganligiga munosabat bildirib, o‘z chiqishlaridan birida Islom olamida mashhur iborani keltiradi: «*Aftidan, Allah Turkiyaning noshud hukumatini jazolamoqchi bo‘lgan shekilli, uni aqldan ozdirib qo‘ydi*» (tarj. bizniki). Ibora aslida «Alloh bandasini jazolamoqchi bo‘lsa, avvalo, uni aqldan urib qo‘yadi». Bu usul mantiqni nihoyatda kuchaytirishga, ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ommaviy-siyosiy matnlar garchi ilmiy-ommabop (OAV) matnlariga o‘xshab ketsa-da, ulardan ko‘ra o‘quvchi uchun tushunarliroq bo‘lishi bilan farq qiladi. Agar ommaviy axborot vositalaridagi matnlar «*nima?*», «*qaerda?*», «*qachon?*» so‘rog‘iga javob bo‘lishli talab etilsa, ommaviy-siyosiy matnlar «*nima uchun?*», «*qanday?*», «*nega?*», «*qanday qilib?*», «*qanday tarzda?*», «*qanday maqsadda?*» kabi savollar yechimini ta’minlashi lozim. Ayni mana shular o‘quvchining asosiy e’tiborini siyosiy fikrlararo bog‘liq ekanligiga qaratadi. Lekin mualliflar savollardan har doim ham o‘rinli foydalanavermaydilar. Ba’zan matnda savollar qatorlashib ketadi, bundan mualliflar o‘quvchining diqqat-e’tiborini bir nuqtaga qaratish uchun foydalanadilar. Lekin, bunday usul o‘quvchi matnni idrok etishini qiyinlashtiradi. Savol o‘rinsiz bo‘lsa yoki muvaffaqiyatsiz chiqsa, ommabopligrini yo‘qotadi.

Mantiqiy ta’kid uchun terminlarni ajratib ko‘rsatish maqsadiga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun termin kursivda, qora, qoramitir bo‘yoqlarda beriladi. Albatta, barcha terminlar emas, balki, mantiqiy surg‘u tushganlarigina shunday berilishi o‘quvchiga asosiy e’tiborni nimaga qaratish lozimligini anglatadi.

Obrazli ifodalash ommaviy-siyosiy asarlarda ham uchraydi. Chunki quruq terminlar bilan bayon etish, fikrni ifodalash matnni o‘quvchi

uchun zerikarli bo‘lishiga olib keladi. Obrazli ifodalashga quyidagi hollardagina yo‘l qo‘yish mumkinligini muharrir doimo yodda saqlashi kerak:

- 1) o‘rinli bo‘lsa. Bu – asarning turi, janri, maqsadiga ko‘ra aniqlanadi;
- 2) obrazlilik vositasi savodli tanlangan bo‘lsa. U obraz bilan uni yaratuvchi o‘rtasidagi bog‘liqlik soxtalashtirilmasligi, ya’ni zo‘rmazo‘raki bo‘lmasligi kerak;
- 3) obrazli ifodalovchi vosita yordamida narsa, voqeа, hodisaga berilayotgan tavsif aniq bo‘lsa. Ommaviy-siyosiy asarda obrazning aniqligiga qo‘yiladigan talab narsa, hodisalar mohiyatini idrok etilgan ilm-fan yordamida ochib berilishiga imkon beradi;
- 4) obrazli ifodalash vositasi ijodiy (yangi) bo‘lsa. Ommaviy-siyosiy asarlarda obrazli ifoda qolip (forma)ga aylangan vosita bo‘lmasligi kerak.

Xullas, ommaviy-siyosiy asarlar mafkuraviy, siyosiy mavzularda bo‘ladi, ularda mafkura va siyosatga oid terminlar ko‘plab uchraydi. Shunga qaramay ular ilmiy asarlardan farq qiladi.

Agar ilmiy asarlar o‘quvchiga sof ilmiy g‘oyalar, qonuniyatlar, farazlar bilan tanishish imkonini bersa, ommaviy-siyosiy asarlar o‘quvchini amaldagi mafkura va siyosat haqida tushunchaga ega qilishdan iborat. Bunga erishish uchun u tashviqiy, targ‘ibiy tavsifga ega bo‘ladi. Shu jihatdan ham u ikki maqsadga qaratiladi. Birinchisi, muayan mafkura va siyosatga ishontirish (tashviq), ikkinchisi informatsiya berish, xabardor qilish (targ‘ib). Terminlardan ham ana shu maqsadda foydalaniлади, ular ommaviy lashtiriladi.

6-b o b . O'QUV ADABIYOTLARIDA TERMINLARNING BERILISHI

- Darslik – adabiy tur sifatida.
- O'quv adabiyoti tahriri.
- Darsliklarda til va uslubning o'rni va ahamiyati.

1-§. Darslik va qo'llanmalar – adabiyotning alohida turi

Darslik o'quv adabiyotlarining shunday turiki, unda ilm va madaniyatning zamonaviy darajasida muayyan sohaga oid bilimlar asosi tadrijiy ravishda bayon etiladi.

Darsliklar muayyan yoshdagi va ijtimoiy guruhlarga beriladigan ta'lim va tarbiyaning maqsad hamda vazifasiga javob beradigan tarzda yaratiladi.

Darsliklar ta'larning har bir bosqichi va ta'lim muassasasining tutriga mo'ljallangan bo'ladi. Shunga ko'ra umumta'lim maktablari, littersey, kollej, institut, universitetlardagi ta'limga mo'ljallangan darsliklar mazmun, mundarijasi, ilmiylik darajasiga ko'ra farqlanadi.

Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimiga o'tilgandan so'ng darsliklar differensiyasi yuz berdi. Endi bakalavriatura hamda magistratura bosqichida tahsil oluvchilar uchun darsliklar yangi avlodini yaratish boshlandi. Bugungi kun darsliklari uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Uning tarixi Shumer loy taxtachalaridan boshlanadi. Miloddan 4,5 ming (bugungi kundan 6,5 ming) yil avval loy taxtachalarga darslik vazifasini o'tovchi matnlar bitilgan. Bitiklar ilmiy bilimlar tizimidan iborat bo'lib, undan darslik sifatida foydalanganlar. Ilk darsliklar bugungi kundagi geometriya, arifmetika deb atalmish fanlarning ibtidosi, bundan tashqari diniy ta'limatga oid bo'lgan. Fanlarda tobora soha-

viylashuvning yuz berishi natijasida geometriya, algebra, astronomiya, tilshunoslik, ritorika va b. dan darsliklar yuzaga kela boshlaydi.

Hozirgi zamon darsliklari fanning o'quv programmasiga qat'iy amal qilingan holda yaratiladi. Boshqacha aytganda o'quv programma-si darslik rejasi hisoblanadi. Har bir darslik qoidaga ko'ra oliy ta'lif vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etiladi.

O'quv adabiyoti deganda muayyan ta'lif tizimi sharoitida bilim berish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi nashriy asarlar majmui tushuni-ladi. O'quv adabiyotlarining mavzu doirasi shu qadar kengki, u barc-ha fanlarnigina emas, balki jamiyat amaliy faoliyatining ham barcha turini qamrab oladi. Aytish mumkinki, miqdoriy jihaddan o'quv ada-biyotlar mamlakatdagi barcha nashrlarning uchdan bir qismini tashkil etadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, o'quv adabiyotlari qaysidir darajada ilm yoki amaliy faoliyat bilan bog'liqdir. Shunga ko'ra unda ilmiy va kasb-hunar yoki faoliyat sohasiga oid terminlar bo'lishi tabiiy. Lekin, o'quv adabiyotlarining maqsadi (vazifasi) ilmiy yoki ishlab chi-qarish – texnikaviy adabiyotlarnikidan farq qiladi.

O'quv adabiyotining vazifasi o'quvchiga o'quv fanini o'rgatish, butun ilmni emas, fan, birinchi navbatda, o'zida ilmnинг asosiy qonunlari va usullarini aks ettiradi. Ularni bilish keyingi keladigan materialni o'zlashtirish imkonini beradi.

O'quv adabiyoti faqat ta'lif berish uchun emas, balki tarbiyaviy vazifani bajarish uchun ham xizmat qiladi. Quyidagilar uning asosiy tarbiyaviy vazifalaridan bo'lib hisoblanadi:

- o'quvchilarda fikrlash (mulohaza yuritish)ning muayyan shaklini rivojlantirish;

- muayyan estetik qarashlarni yuzaga chiqrish;
- an'anaviy, milliy, axloqiy me'yirlarni o'stirish;
- fahm-farosatli, didli, bo'lishga erishtirish va h.

O'quv adabiyotining ilmiy adabiyotdan yana bir farqi shundaki, u mutaxassis bo'lmaganlarga mo'ljallangan bo'ladi.

Ilmiy-ommabop adabiyotdan farqi esa muayyan fanga yaqinligi, bobning aniq tizimga egaligi, materialni tushuntirishdagi o'ziga xos usulida ko'rindi. Darslikdagi biror-bir mavzu (qism)ga ilmiy-omma-

bop asardagidan farqli o‘laroq o‘qituvchi tomonidan qo‘shimchalar qilinadi.

Darslikdagi ilmiy terminlar ilmiy-ommabop adabiyotlardagi singari izohlanmaydi, muqobili bilan almashtirilmaydi. Ular matnda asl holicha beriladi va tushuntiriladi. O‘quvchi ularni yodida mustahkam saqlashi uchun har bir qism, bob yoki fasldagi terminlar tayanch so‘z va birikmalar tarzida ayrimlangan qism boshida ro‘yxat tarzida beriladi.

Bundan tashqari darslik yoki o‘quv qo‘llanma so‘ngida umumiy holda, alifbo tartibida terminlar izohli lug‘ati ilova etiladi.

2-§. O‘quv adabiyoti va uning tahriri

O‘quv adabiyotlarini tahrir qilishda ularning turiga alohida e’tibor berish talab etiladi. Chunki o‘quv adabiyotining mazmuni ta’lim tizimiga bog‘liqdir. Aytaylik, maktablarda ham, litsey, kollejlarda ham, filologik va jurnalistik yo‘nalishidagi oliy ta’limda ham adabiy til (ona tili) o‘qitiladi. Lekin har to‘rttala ta’lim muassasasida ular kimlar ga mo‘ljallanganiga ko‘ra farqlanadi.

Ta’limning shakliga ko‘ra (boshlang‘ich, umumiy, universitet va h.) o‘quv adabiyotlarida materiallarni saralash ko‘zda tutiladi. Terminlar ham fan uchun umumiylikka ko‘ra tanlanadi. Masalan, maktablar, litseylar, kollejlarda o‘qitiladigan ona tili darsliklarida til haqida umumiy tushuncha hosil qiluvchi terminlar – *ega, kesim, ikkinchi darajali bo‘lak, ot, sifat, fe’l, ravish, kelishik, qo‘sishma, o‘zak, negiz* va b. terminlar uchrasha, oliy ta’limda o‘qitiladigan adabiy til fanida tilning ancha tor ixtisosliklariga xos terminlar beriladi. Masalan, *leksema, frazema, fonologiya, fonema, sema, semasiologiya, otning sifatlashishi, sifatning otlashishi, konversiya, assimilyatsiya, dissimilatsiya, denotativ, konjunktiv, substantivatsiya, okkozionalizatsiya, uzial ma’no, denotativ ma’no* va b.

Albatta, oliy ta’lim darsliklariga xos terminlar ifoda etgan til hodisasi haqida maktab darsligida ham ma’lumot uchraydi. Masalan, fonetikada elipsis hodisasi qayd etiladi. Maktab o‘quvchisi mazkur terminni yodda saqlab qolishini osonlashtirish maqsadida termin anglatadigan

ma'noni shu hodisa qanday ekanligini umumiy tarzda izohlab ketish, ya'ni uni *tovush tushish* hodisasi deb atash maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqa fanlar – arifmetika, matematika, oliv matematika, tarix va b. xususida ham ayni yuqoridagilarni aytish mumkin. Buni ta'limning quyi bosqichlarida o'quvchilarga ilm emas balki ilm haqida umumiy tushuncha – bilim berish maqsadi bilan izohlash mumkin.

Albatta, u yoki bu darslik muayyan maktab turiga mo'ljallangan bo'ladi. Agar oliv va o'rta maxsus hunar ta'limi muassasalari oliv va o'rta maxsus ma'lumotga ega mutaxassislar tayyorlaydi. Ular ancha keng nazariy bilim hamda amaliy malakaga ega bo'ladilar. Ular uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotlari Davlat ta'lim standartlari, Oliy ta'lim vazirligi tasdiqlagan fan programmasi asosida yaratiladi.

Oliy maktab darsliklari tolib va tolibalarga «ilmning tili»ni o'rgatishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun unda muayyan fanga taalluqli nazariyalar uchraydi, ularni ifoda etish uchun terminlardan unumli foydalilaniladi. Lekin na nazariy fikrlar, na terminlar muntazamlikka ega emas, chunki ilm doimo rivojlanishda, yangilanishda. Shunga ko'ra uzog'i bilan 4–5 yilda o'quv adabiyotlari qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi, shuningdek, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish talab etiladi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni faqat, darslik va o'quv qo'llanmalar bilan cheklanib qolmaydi. Tolib va tolibalarga ilm be-rishda ma'ruza matnlari, ma'ruza konsepti, tezislari, to'plamlar, ilmiy maqlalardan ham keng foydalilaniladi. Mazkur holda asosiy e'tibor fanning so'nggi yutuqlaridan foydalanib darslik va o'quv qo'llanmalarni to'ldirish kerak. Bundan terminlarni qo'llashda, qaysi tur o'quv materiali bo'lmasin bir xildalikka erishish talab etiladi. To'g'ri davr o'tishi bilan ayrim terminlar eskiradi, yangilari paydo bo'ladi, bu tabiiy hol. Darslik va boshqa o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda buni, albatta, e'tiborga olish lozim. Agar terminlar almashinuvni yuz bergen-u, lekin yangisi hali ommalashib ulgurmagan bo'lsa, unda fikr tushunarli bo'lish uchun avvalgi muqobili eslatib o'tilishi kerak. Masa-lan, *mentalitet – milliy odat, tolerantlik – murosaviylik, murosasozlik, lizing – ijara turi, barter – muvoza, birja – ulgurji yoki xalqaro savdo shakli, ko'tara bozor, fermer – ferma egasi* va h.

Albatta, ilmiy nutqda o'zlashgan va o'zlashayotgan barcha terminlarning izohini matn ichida berilishi o'quvchini chalg'itadi, uning asosiy e'tibori terminlarni o'zlashtirishga jalg bo'ladi. Shuning uchun bugungi kunda o'quv adabiyotiga izohli lug'at ilova qilish yo'lga qo'yilgan.

Muharrir tahrirni o'quv adabiyotining muallif tomonidan tugallangan qo'lyozmasida amalga oshiradi. Lekin uni hali darslik yoki o'quv qo'llanma deyish juda to'g'ri emas. U hali nashriyot xodimlarining birgalikdagi ishlashlariga muhtoj.

Ayniqsa darslik tahrir jarayonidan o'tishi alohida ahamiyatga ega. Darslik ta'limning qaysi turiga mo'ljallanganligi, bayoni, uslubi va nihoyat terminlarning qo'llanishiga ko'ra maqsadga muvofiqligi ayni mana shu tahrir jarayonida ayon bo'ladi.

Muharrir darslikni tahrir qilishga kirishishdan oldin uning fan programmasiga mos ekanligini baholaydi. O'quv rejada ko'rsatilgan soatga asosan hajmi tekshiriladi, hajm ortib ham ketmasligi, kam bo'lmasligi ham kerak. Terminologiya masalasi ham muharrir e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Ba'zan o'z tilga oid termin o'zga tildagi termin bilan izohlanadi. Masalan:

Navkar (mo'g'..) – 1) mo'g'ullarda jamoa tuzumi buzilib, feodal munosabatlar rivojlana boshlagan davr urug' va qabila boshliqlarining drujinachilari. Bora-bora N. yirik feodallarning vassallari bo'lib qolganlar; 2) navkarlar mo'g'ul xonlari va beklarining shaxsiy soqchilarini bo'lib, ularning turli xizmatlarini, masalan, otga mindirib-tushirib qo'yish, o'tovga kirganda namatni ochib turish ishlarini bajarar edi. Navkarlar xonning boqimida bo'lib, bora-bora uning yordamchisiga aylanar va urushga chaqirilgan ko'chmanchilardan tuzilgan ayrim otr-yadlarning boshlig'i bo'lib olar edi; 3) Navkar oldingi va O'rta Osiyoda XII–XIV – asrlarda «xizmatkor» ma'nosida ishlatilgan¹.

Darslikdan olingan mazkur parchada ayrim terminlar o'rinsiz qo'llangan. Abriviaturaga chaqirilgan *navkar* termini birinchi izoha *drujinachilar* termini bilan izohlanadi. Har ikkisi ayni bir ma'no ifoda-

¹ Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. Pedagogika institutining filologiya fakulteti studentlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1980. – 158-bet.

siga ega emas bo‘lib, yana biri (*navkar*) birlikda, ikkinchisi (*drujinachilar*) ko‘plikda. Bundan tashqari navkarlar turkiy hukmdorlarning xos soqchilari vazifasini bajarganlar. Drujinachilar esa yevropalik hukmdorlar qurolli otryadi bo‘lgan.

Matndagi otryad termini ham o‘rinsiz. Vaholanki, umuman, turkiylarda *otryad* bo‘lman. Xullas, har ikki termin muallif tomonidan, hech bir o‘ylab o‘tirmay, matnga kiritilgan. Bundan tashqari «*xizmatkor*» termini ham *navkar* terminini almashtirmaydi, izohlay olmaydi, *navkar* boshqa vazifani bajargan, *xizmatkor* boshqa vazifani bajargan.

Darslik fan programmasiga muvofiqligini baholashda quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

- darslikni o‘rganishdan maqsad programmada bayon etilganlarga mos kelishiga;
- programmada ko‘rsatilgan mavzular darslikda to‘liq qamrab olinganligiga;
- fanga oid barcha terminlar to‘g‘ri qo‘llanilganliga;
- belgilangan hajmga to‘g‘ri kelishiga;
- material bayoni ilmiy darajasiga;
- adabiy jihatdan (lug‘at tarkibi, uslubi va h.) savodliligiga.

Mazkur tartibdagi tahlil muharririga muallif bilan hamkorlikda darslik qo‘lyozmasidagi ayrim nuqson va kamchiliklarni bartaraf etishga, ayniqsa terminlar ustida muvaffaqiyatlari ish olib borishga imkon beradi.

Darslikning ilmiy-nazariy jihatdan yuqori darajada bo‘lishiga turli vositalar bilan erishish mumkin. Lekin har qanday holatda ham quyidaqidalar asosiy mezon bo‘lib qoladi:

- asosiy ilmiy g‘oyalar tadrijiy va aniq-ravshan bo‘lishi;
- terminlar darslik maqsadiga muvofiq keladigan mazmunda va miqdorda bo‘lishi;
- tor sohaga oid, o‘ta ilmiy terminlar iloji boricha kamroq bo‘lishi, agar bermaslikning iloji bo‘lmasa, izohlanishi;
- asosiy tushunchalar va qonunlar bilimning hozirga zamon darajasida to‘g‘ri va asosli tarzda ochib berilishi;
- tayanch so‘z va birikmalar ko‘rsatilishi;
- terminlar izohli lug‘ati ilova etilishi;

– nazariy fikrlar misollar tahlili yordamida asoslangan bo‘lishi;

Darslikda faqat ishonarli, isbotlangan ilmiy bilimlar beriladi. Ilmiy munozaraga sabab bo‘ladigan, tahminiy fikrlar, ilmiy farazlar, ilmiy asoslanmagan mulohazalar, fanga aloqasi yo‘q terminlar bo‘lmashligi kerak. Bundan tashqari ilmiy g‘oyalarni o‘quv-pedagogik va metodik muammolar bilan aralashtirib yuborilmaslik lozim.

Matnda mantiqiy xatolikka zinhor yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Buning uchun muharrirdan matnni mantiqiy tahlil qila olish mahoratiga ega bo‘lish talab etiladi. Afsuski bugungi kunda chop etilayotgan ko‘pgina darsliklarda bu qusur sezilib qolmoqda. Matnda mantiqiy xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, avvalo, darslik til va uslubga ko‘ra talab darajasida bo‘lishiga erishish lozim.

Aniqlik, tushunarllilik, ifodalilik kabi umumiy talablar qaysidir darajada bajarilmas ekan, kamchiliklar tuzatilmas ekan, demak muharrir o‘z vazifasini qoniqarli darajada bajarmagan bo‘ladi. Darslikning tili va uslubi ustida ishlash boshqa har qanday adabiyotlarda o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Darsliklar tahririda terminlar va sintaktik vositalarni baholash muharrirdan alohida mahorat talab etadi. Zero darslikda har bir so‘z (termin), sintaktik konstruksiya aniq-ravshan va tushunarli bo‘lishi kerak. So‘zlar o‘z genetik (tub) ma’nosida qo‘llangan, so‘z birikmalarini tashkil etuvchi so‘zlar uslubiy emas, balki grammatik asosda bo‘lishi, gap bo‘laklari o‘z o‘rnida turishi shart. Asosan sodda gaplardan foydalanish lozim. Chunki, qo‘shma, ergashgan qo‘shma va aralash turdagи qo‘shma (murakkab) gaplar fikrni anglashni qiyinlashadiradi.

Muharrir faqat foydalanilgan terminlargagina emas, balki, umuman so‘zlarning qo‘llanilganligini ham diqqat bilan kuzatishi kerak. Ayni bir termin yoki so‘z barcha o‘rinlarda ham shaklan, ham ma’no jihatidan bir xil bo‘lishi, ya’ni adabiy tahrirning qonuniga rioya etilgan holda berilishi lozim. So‘z alohida holatda ham, matn holatida ham bir ma’no ifodasiga ega bo‘lishi kerak.

3-§. O‘quv adabiyoti tahririda til va uslubga rioya etish

Darsliklar uslubi masalasi ham ancha murakkab hisoblanadi. U qanday bo‘lishi kerak? Ilmiymi yoki ilmiy-ommabop?

Bu masala, avvalo, darslik kimlarga mo‘ljallanganligiga bog‘liq. Darslik boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilariga mo‘ljallangan bo‘lsa, uning uslubi obrazli va his-hayajonli (emotsional) bo‘lishi kerak. Bayon o‘quvchilar yoshiga yarasha uslubiy bo‘yoqdor bo‘lishi bilan birga matnda umumiste’moldagi so‘zlar asosiy o‘rinni egallashi kerak. Darslikda xalq iboralari, og‘zaki ijod namunalari (maqollar, matallar, ertak, rivoyat)dan foydalaniladi. Masalan: *Kunlardan bir kuni..., shunday qilib, bundoq qarasa, gap desa qop-qop.., so‘rab o‘rgangan olim, izla-ganga tole yor va h.*

Maktabning yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan darsliklarda (gumanitar fanlarda umumiyligi ma’no ifodasiga ega so‘zlar, terminlar ko‘proq uchraydi. Adabiyot va boshqa gumanitar fanlar bo‘yicha darsliklarda uslubiy bo‘yoqqa ega ma’noli so‘zlarni anchagina uchratish mumkin. Ular, albatta, fanning turiga muvofiq tarzda miqdor jihatidan farqlanadi.

Boshqa tur, ya’ni tabiiy fanlardan darsliklarda bunday so‘zlar toborra kamayadi, uslub faoliyat bilan bog‘liq uslubga, hatto, ilmiy uslubga, «ilm tili»ga yaqinlashadi (terminlar, ramziy unsurlar qo‘llanadi, asar tili muayyan shaklga tushgan tilga aylanadi). Masalan, *tenglama, formula, eritma, qarshilik kuchi, ishqor, xlomidomonada, qo‘ltiq, burun, katalizator* va h. Terminlar matematika, ximiya, fizika, biologiya, geografiyadan darsliklarda, faqat, o‘zi taalluqli fanga oid fikrni ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi terminlardan *qo‘ltiq* va *burun* anatomiyada ham geografiyada ham terminlik vazifasini o‘taydi. Masalan, *inson burni, qo‘ltig‘i, Fors qo‘ltig‘i, Djnev burni*.

Muharrir darslik qo‘lyozmalarini tahrir qilishda til va uslubga alohida-alohida yondashmog‘i kerak.

Darsliklarda so‘z (termin) yasalishi, sintaktik konstruksiya tuzishda umume’tirof etilgan adabiy nutq tamoyillaridan chetga chiqmaslik lozim. Yana shuni ta’kidlash joizki, so‘z va terminlar bir-biri bilan aloqador fanlar bo‘yicha barcha fanlarda bir xilda bo‘lishiga e’tibor qaratilishi kerak. Agar fanlararo ayni bir terminni qo‘llashda xilmayxillikka yo‘l qo‘yilsa, birinchidan, fanlararo bog‘liqlik yo‘qoladi, ikkinchidan, o‘quvchida ikki xil tushuncha paydo bo‘ladi, fanning mohiyatidan uzoqlashadi. Masalan jurnalistika fakulteti 4-kurs bakalavriantlariga o‘tiladigan adabiy tahrir fani bo‘yicha darslikdagi tahrirga (adabiy asarlar bo‘yicha) oid terminlar «Noshirlilik ishi va tahrir» ixtisosligi bo‘yicha 1-2-kurs magistrantlariga o‘tiladigan «Adabiyot ayrim turlari tahriri», «Nashr jarayoni asosiy bosqichlari», «Matn tahlili va tahriri», «Tahrir mantiqi» «Kitobshunoslikka kirish», «Sarlavhalar tahlili va tahriri» va b. fanlar bo‘yicha ma’ruza matnlari, o‘quv uslubiy majmualar, o‘quv qo‘llanma va darsliklarda bir xil shaklda qo‘llanishi lozim.

Agar darsliklarda chizmalar, jadvallar, tasvirlar uchraydigan bo‘lsa, muharrir tasviriy materiallar ham mantiqan, ham joylashtirilishiga ko‘ra matn bilan uyg‘unlikka ega bo‘lishiga alohida e’tibor berishi lozim. Muharrir matndagi termin bilan tasvirdagi ifoda mutanosibligini e’tibordan chetda qoldirmasligi zarur.

Darsliklarda asos materiallar berilishi, ularning miqdori fanning turiga bog‘liq. Agar darslik tarixga, geografiyaga oid bo‘lsa asos materialarga boy bo‘ladi. Asos materiallar ko‘pchiligi esa terminlarda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ular aniq-ravshan, shaklan va mazmunan to‘g‘ri berilishi kerak.

Darslik mualliflari, albatta, darslik yaratishda terminlardan unumli foydalanishga intiladilar. Bu sababsiz emas. Chunki ayni terminlar aytilmoqchi bo‘lgan fikrning asosli, ilmiy bo‘lishini ta’minlamaydi. Bundan tashqari matn bayonida muallifning individual uslubi ham sezildi. Muharrirlar shuni yaxshi bilishlari kerakki, agar muallif uslubi o‘quv adabiyotlari uslubiga to‘g‘ri kelmasa, uni saqlab qolishga majbur emaslar.

Darsliklar barchasi ilmiy uslubda bo‘lishi shart. Lekin ilmiylik darajasi darslikdan foydalanuvchilarga, ta’limdan maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra o‘rta maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalari uchun yaratilgan o‘quv adabiyotlari til va uslubga ko‘ra farqlanishi kerak. Hatto, bakalavriantlar va magistrantlar uchun mo‘ljallangan fanlar bo‘yicha dasrliklar ham ilmiyligi, tili, uslubiga ko‘ra alohidalikka ega bo‘lishi lozim. Darsliklar qo‘lyozmasi tahriri bilan shug‘ullanuvchi muharrirlar, albatta, ta’limlar tavsifi haqida chuqur bilimga ega bo‘lishlari talab etiladi.

7-b o b . ENSIKLOPEDIK ASARDAGI TERMINLAR USTIDA ISHLASH

1-§. Ensiklopediya bilimlar majmuasi

Ensiklopediya yunoncha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida «barcha bilmlarni o‘rgatuvchi» ma’no ifodasini beradi. Ensiklopediya ilmiy yoki ilmiy-ommabop ma’lumotnoma hisoblanadi. Uning quyidagi turlari mavjud:

- barcha fan sohasi bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zida jamlagan (universal);
- ayrim fan sohasi bo‘yicha (sohaviy).
- amaliy faoliyat bo‘yicha.

Ensiklopediya tabiat va jamiyat haqidagi barcha tushunchalarni o‘zida mujassam etadi.

Ensiklopediyalar o‘zida faqat muayyan davr ilmiy va madaniy darajasining emas, balki mafkurani ham o‘zida aks ettiradi.

Shunga ko‘ra ensiklopediyalar muayyan millatning, uning milliy madaniyatining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatuvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi. Ensiklopedik nashrlar millat ilmiy-madaniy hayotida g‘oyat ulkan ahamiyatga ega.

Ensiklopedik asarni tom ma’noda bilimlar xazinasi deyish mumkin. Agar biror termin yoki fikr xususida bir qator manballarda turlicha qarash uchrasa va qay biri chin ekanligini aniqlashga to‘g‘ri kelsa, albatta tegishli ensiklopediyaga murojaat etiladi. Ensiklopediyada qayd etilgan termin yoki fikr to‘g‘ri deb qabul qilinadi.

Jahon ensiklopediyalar nashri tajribasidan ma’lumki, bunday asarlar ma’lumot olishning eng ishonchli manbai hisoblanadi. Kerakli terminni yoki biror shaxs, narsa, hodisa haqidagi ma’lumotni

oson topilishi uchun ensiklopediyalar tuzilishiga ko‘ra farqlangan. Ba’zi ensiklopediyalarda materiallar (terminlar)ni berish alifbo tartibida (material, terminlar alifbo asosida joylashtirilgan), muayyan tizimga ega bo‘ladi.

Hajmiga ko‘ra ensiklopediyalar shartli ravishda, katta (bir necha o‘n jildli), kichik (10–12 jildli), qisqa (4–6 jildli) va 1–3- jildli, bular ensiklopedik lug‘atlar deb atalgan.

Har bir ensiklopediya uchun maxsus mavzuli reja tuziladi. Maqolalar umumiy hajmi turli fanlar hamda maqola turlariaro taqsimlanadi. Mavzuli rejadan tashqari so‘zlik (maqola bag‘ishlangan terminlar ro‘yxati) ham tuziladi. Ensiklopediyadagi maqolalar quyidagi turlarga ajratiladi: muayyan mavzu yoritilgan maqola; ma’lumot beruvchi maqola; izohlovchi maqola (faqat definitsiyadan iborat bo‘ladi, agar termin boshqa tildan o‘zlashtirilgan bo‘lsa, etimologiyasi berilgan bo‘ladi); havola maqola (boshqa terminga havola qilinadi). Birinchi va ikkinchi tur maqolalar bir-biridan hajmiga ko‘ra farqlanadi. Bular sof ensiklopedik bo‘lib, masalaning mohiyati haqida asosiy ma’lumotni yetkazadi. Ularda ilmiy nazariyalar, tarixiy hodisalar, geografik, biografik, statistik va boshqa ma’lumotlar bayon etiladi. Ancha chuqur va to‘liq ma’lumot ko‘rsatilgan adabiyotlardan olinadi. Adabiyotlar maqola ichida, oxirida, shuningdek jild oxirida berilishi mumkin.

Ensiklopediyalar, ayniqsa, universal ensiklopediyalar mavzular bo‘yicha eng xilma-xil ma’lumotnomaga turi hisoblanadi. Ensiklopedik nashrlarni tayyorlash, maqolalarini mualliflarga buyurtma qilishdan avval keng hajmli ilmiy-metodik tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Universal ensiklopediya (boshqa tur ensiklopediyalar ham) o‘z tavsifiga ko‘ra ilmiy nashr hisoblanadi. Shuning uchun e’lon etiladigan materiallarga yuqori saviyada ilmiy yondashish kerak. Buning uchun ilmiy mezonlar ishlab chiqiladi. Ilmiy mezonlar esa mualliflar uchun ham muharrirlar uchun ham qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Mazkur qo‘llanmada ensiklopedik maqolalar, beriladigan terminlarga qo‘yiladigan asosiy talablar o‘z ifodasini topadi. Bular barchasi maqolalar, terminlar berilishiha yagona tarzda yondashuvni taminlaydi.

Terminlarning belgilanishi (definitsiya), ular ma’no ifodasini olib berishdagi tarixiylik tamoyili, mavzuga ko‘ra turkum maqolalar aro bog‘liqlikni ta’minlash, maqolalarni, tahrir qilish va tartibga solish va yana boshqa ko‘pgina tayyorgarlik ishlari amalga oshirilishi lozim bo‘ladi.

Universal ensiklopediya so‘zligini tayyorlash nashrga tayyorgarlikning eng muhim bosqichi hisoblanadi. So‘zlik, aytish mumkinmi, ensiklopediyaga kiritiladigan barcha maqolalar (terminlar, so‘zlar) ro‘yxati hisoblanadi. So‘zlikda har bir maqolaning hajmi ko‘rsatiladi, shuningdek maqolalar haqida qisqacha ma’lumot (annotatsiya) berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Annotatsiya nashrning yo‘nalishini ko‘rsatishdan tashqari uning hajmiy tuzilishi va sohasini ham belgilash imkonini beradi.

Ensiklopediya ilmiy bilimlar to‘plamigina emas, balki terminshunoslik hamdir. Zero unda fanning barcha sohalariga oid terminlarni uchratish mumkin.

Ensiklopediya kuchli g‘oyaviy quroq hamdir. Undagi maqolalar (terminlar, so‘zlar izohi) faqat ilmiy ma’lumotlar beribgina qolmaydi, balki milliy ruh, milliy g‘urur, nihoyat milliy mafkurani ham ifoda etadi.

2-§. So‘zlik – ensiklopedik asar, mavzu, reja

Universal ensiklopediyadagi har bir termin, atamaning asosiy vazifasi O‘zbekistonning buyuk tarixini, kelajagini targ‘ib qilishdan iborat. Shunga ko‘ra so‘zlikni tuzishda mavzu (termin)ni tanlash, qaysi tushunchani, hodisani, tarixdagi shaxsni va h.ni berish kerak, qaysilarini so‘zlikka kiritmaslik kerakligi masalasi ilmiy, g‘oyaviy va milliy mafkuraviy jihatdan puxta ko‘rib chiqilishi tabab etiladi. Bundan tashqari turli fanlar, ayrim maqolalar alohida tahlildan o‘tkaziladi.

So‘zlikning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchiga nashrning boshidan to‘xirigacha materialni qat’iy belgilangan tizimda berishdan iborat. So‘zlik tuzishda maqolalar turli guruhlararo, ayrim maqolalar mat-

niy hajmi mutanosib taqsimlanishi, kompleks maqolalarni aniqlash, terminlarni saralash, havolalar tizimini ishlab chiqish va boshqa masalalar hal etiladi. So‘zlikni keng doirada talqin qilish tabiiy, texnikaviy ijtimoiy-gumanitar fanlardan beriladigan terminlararo mutanosiblikni butun nashr miqyosida belgilash imkonini beradi, bundan tashqari har bir termin izohiga ajratiladigan belgi miqdorini oqilona bo‘lishiga erishiladi.

Bugungi kundagi ilm-fan, texnika, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jadal rivojlanayotgan, axborot ayriboshlash sur’atini nihoyatda oshib borishi kuzatilayotgan bir davrda ham universal, ham sohaviy ensiklopediyalar so‘zligiga kiritilishi mumkin bo‘lgan terminlar miqdori to-bora ortib bormoqda. Lekin ular barchasini kiritish ham hajmiy, ham ilmiy-amaliy jihatdan ma’qul bo‘lavermaydi. Shunga ko‘ra so‘zlik tu-zish jarayonida ularni saralashga to‘g‘ri keladi. Bunda qanday yo‘l tutish kerak degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Ma’lumki, noshirlik ishida izohli lug‘atlar salmog‘i ortib bormoqda. Bundan tashqari darslik va o‘quv qo‘llanmalar yangi avlodini yaratish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rtal maxsus ta’lim vazirligi tomonidan qo‘yilgan talablardan biri tayanch so‘z (termin va birikma)lar ro‘yxatini hamda izohli lug‘at berish hisoblanadi. Shunga ko‘ra universal va soha ensiklopediyalarida o‘ta tor ixtisosliklar, fan sohasiga oid terminlarni berish maqsadga muvofiq emas. Bunday terminlarni so‘zlikni tahlil qilish jarayonida tushirib qoldirish kerak. Bu bilan universal ensiklopediya, shuningdek, soha ensiklopediyasi birinchidan, ommaviylik kasb etadi, ikkinchidan, haqiqiy ensiklopedik terminlar to‘liq qamrab olinishiga erishiladi. Hajm masalasi, xususan, terminlar uchun ajratiladigan belgi miqdori ortiqcha qisqartirishlarsiz hal etiladi.

O‘n to‘rt va undan keyin o‘n ikki jildli universal ensiklopediyalar ning mavzuli so‘zligini tuzishda bir qator ilmiy tahririyatlar ishtiroy etgan. Masalan til va adabiyot ilmiy tahririyatida til, adabiyot, folklor va jurnalistikaga oid so‘zlik, fizika, matematika va texnika ilmiy tahririyatida fizika, matematika va texnikaga oid so‘zlik, xullas, boshqa fanlar bo‘yicha ilmiy tahririyatlar o‘zları ixtisoslashgan fanlar doirasida mavzuli so‘zlik tuzadilar.

Mavzuli so‘zlikka kiritilgan terminlar (so‘z, so‘z birikmalari) soha mutaxassislari muhokamasidan o‘tkaziladi. Sohalar bo‘yicha ilmiy tahririyatlar mavzuli so‘zliklarni tayyorlash bo‘yicha barcha ishlarni tugatgach ular umumiy alifboga solinadi, ya’ni umumiy so‘zlikga aylantiriladi.

Soha ensiklopediyalari so‘zligini tuzish ensiklopediya qaysi soha ga oid bo‘lsa, shu soha bo‘yicha ilmiy tahririyat tomonidan amalga oshiriladi. Soha ensiklopediyasi so‘zligidan universal ensiklopediya so‘zligiga kiritilmagan tor sohaviy terminlar ham joy oladi.

Tarmoq sohaviy so‘zligi quyidagi muhim terminlar guruhini o‘z ichiga oladi: asosiy nazariy tushunchalar va muammolarni aks ettiruvchi; muayyan fanga to‘liq yoki uning qismiga taalluqli terminlarni belgilangan tasnifga muvofiq; tadqiqot usullarini aks ettiruvchi terminologiyani; yordamchi vositalar va usullar (uskuna, apparat va b.) ni ifodalovchi terminlarni; muhim ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari, davriy va boshqa nashrlarni; biografik (shaxs haqidagi) maqolalarni.

Tarmoq tahririyatlari o‘z so‘zligi qismlariaro terminlar va belgilar miqdorini taqsimlashda hodisalar, muayyan bilim sohasidagi rivojlanish, yangi tushunchalar, tadqiqot usullari ancha to‘liq yoritilishini hisobga ola bilishi lozim.

So‘zlikdagi har bir termindan so‘ng quyidagicha ma’lumotlar beriladi:

- maqolaning aniq nomi («qora so‘z»);
- qisqacha annotatsiya (faqat umumma’lum terminlarga tushuntirish berilmaydi);
- maqolaning hajmiy belgisi (maqola hajmini belgilashda maqola ga taalluqli bibliografiya belgilari miqdori ham maqola umumiy belgiga qo‘shiladi).

Bundan tashqari so‘zlikda beriladigan tasvirlar, xarita va bibliografiya ko‘rsatiladi.

Ensiklopediyalar nashriyotida terminshunoslik jamg‘armasini yaratish bo‘yicha ham ishlarni olib boriladi. Turli ensiklopediyalar so‘zligini tuzishda u boshlang‘ich manba vazifasini o‘taydi. Masalan O‘zbekiston

ensiklopediyalar nashriyotida shunday jamg‘arma bo‘lgan. Terminlarni to‘plash, saralash va tartibga solish ishi bilan so‘zlik tahririyati shug‘ullangan, fan-texnika va barcha sohalarga oid terminlar tegishli tahririyatlar tomonidan kartochkaga olinib, so‘zlik tahririyatiga topshirilgan.

Sohaviy terminlar so‘zligini tuzishda muayyan soha terminlarini sohaga yondosh fan, texnika, san’at, siyosat, ilmiy sohalar bilan kelishib olish muhim ahamiyatga ega. Masalan, falsafa va tarix, tilshunoslik va etnografiya, matematika va mantiq, iqtisod va texnika, fizika va ximiya, biologiya va tibbiyat, ekologiya va tabiatshunoslik, ekologiya va botanika fanlariga oid terminlarning ko‘pgina guruhi bir-biri bilan jips bog‘liq. Ayrim terminlar borki, ular fanning qaysi sohasiga oidligini aniqlash qiyin. Bunday terminlarni umumiylar sifatida qarab, uni qisimma-qism izohlash uchun tegishli tahririyatlarga topshirish lozim.

Universal yoki sohaviy ensiklopediyalar so‘zligiga kiritish mumkin bo‘lgan, ya’ni ensiklopediya terminlar jamg‘armasida uchramaydigan yangi terminlarni aniqlash maqsadida sohalarga oid ilmiy-tadqiqot, ta’lim muassasalariga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Terminlar so‘zligi tahlil etilgandan, taklif va tavsiyalar o‘rganib chiqilgandan so‘ng tasdiqlanadi.

Universal ensiklopediya terminologik so‘zligini tuzishda xususiyidan umumiyya boriladi. Har bir tahririyat o‘zi ixtisoslashgan soha (lar) bo‘yicha terminlarning alifboli so‘zligini tuzadi. Har bir termin alohida varaqchada qayd etilib, alifbo tartibida joylanadi. So‘ng ular birlashtirilib umumiylar alifboga solinadi, natijada har bir tahririyat ixtisoslashgan soha (lar) ga oid (universal ensiklopediya qismi bo‘yicha) umumiylar kartoteka – alifbolangan so‘zlik yuzaga keladi.

3-§.So‘zlikni takomillashtirish va to‘ldirish

Universal ensiklopediya barcha jiddlariga oid alifbolangan so‘zlikning tayyor bo‘lishi – ish tugadi, degani emas. Ensiklopediya jiddlarini nashrdan chiqarish jarayonida ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish-tex-

nologiyalar muntazam rivojlanib borishi tufayli yangi-yangi terminlar paydo bo‘ladi. Bularni ham o‘z vaqtida hisobga olish, navbatdagi jildlarni chiqarishda ularni kiritib borish zarur.

Ko‘p jiddli universal ensiklopediyalarni nashrga tayyorlashda maxsus bo‘lim – so‘zlik tahririyati tuzilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur tahririyat universal ensiklopediya umumiy so‘zligini tahrirdan chiqaradi, keyinchalik ensiklopediyani to‘liq nashrdan chiqarish mobaynida boshqa ishlar bilan bir qatorda ayrim terminlarni so‘zlikdan chiqarish, yangi terminlarni so‘zlikka kiritish ishlarini ilmiy tahririyatlar bilan bargalikda olib boradi.

Tabiiyki, tahririyatlarning o‘z sohaviy mavzuli so‘zliklariga yangi materiallar (terminlar)ni kiritishlari tufayli so‘zlikning umumiy hajmi oshib ketadi. Agar oshgan hajm tahririyat o‘zining so‘zligi hajmidan ba’zi qisqartirishlar hisobiga bo‘lmasa, unda universal ensiklopediyaning ham jiddlararo, ham umumiy qismi hajmi oshishiga olib keladi. Bu hol jiddlararo mutanosibsizlikka sabab bo‘ladi hamda universal ensiklopediyadagi tizimni izdan chiqaradi. Tahrir jarayonida, albatta, qisartirishlar, qo‘srimcha qilishlar, yangi terminlar kiritish uchun zahira belgi ko‘zda tutiladi. Ensiklopedik asarlar nashri tajribasidan ma’lumki, zahira belgi nashr umumiy hajmi 10-15% dan oshib ketmasligi kerak.

Ensiklopediyalarda ayrim terminlar boshqalariga havola qilinadi. So‘zlikni yoki maqolalarni tahrir qilishda, albatta, havolalar tekshiriladi. Bunda asosiy e’tibor havolaning berilganligi (maqolaning borligi), havolalardagi maqolalar nomi so‘zlikdagi bilan aynan ekanligi va h. aniqlanadi. Eng muhim havola qilingan termin u havola qilingan maqoladagi atalishi bilan bir xil bo‘lishidir.

4-§. Terminlar ta’rifi – tahrir ob’ekti

Ensiklopedik asarlarni tahrir qilishda ilmiy muharrirlar alohida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan yana bir muhim jihat, bu – terminlar ta’rifidir. Ensiklopediyadan foydalanuvchilar unga, asosan, terminlar ta’rifi bilan tanishish uchun murojaat etadilar. Har bir maqola, qoidaga

ko‘ra termin *definitsiyasi* (lot. ta’rif) bilan boshlanadi. Ta’rif maqolaga nom sifatida olingen hodisa, ism va h. mohiyatini belgilaydi. Termin ta’rifi tushuncha mohiyatini ochib beruvchi hisoblanadi va u ensiklopediyaning o‘quvchilari turli guruhi uchun birdek tushunarli bo‘lishi kerak. Agar ilmiy abadiyotlarda yangi terminlarning ta’rifi aniqlashtirilmagan bo‘lsa, bu haqdagi turli (asosiy) nuqtai nazarlar qisqacha bayon etib o‘tiladi.

Mabodo, maqolaning boshida terminning umumiyligi ta’riflarini berishning iloji bo‘lmasa, unda maqolani 1).....; 2).....; 3)..... va h. raqamlangan qismiga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

Alvon – 1) qizil rang, qizil tus; 2) qizil rang mato; 3) turli ranglar majmui ; 4) chaqiriq, da’vat yozilgan qizil mato.

Agar ayni bir termin bilimning turli sohalarida turlicha ma’no ifodasiga ega bo‘lsa, bu holda ham maqolani qismlarga ajratish lozim. Masalan:

Konstitutsiya – 1) huquqda asosiy qonun; 2) anatomiyada – tuzilish, inson tanasining fiziologik, anatomik o‘ziga xosligi.

Matn (ar. – mundarija) – 1) muallifning o‘z so‘zi; 2) yozilgan, yoki bosingan maqola, undagi chizmalar, tavsiflar, ilovalar va boshqalar bundan mustasno; 3) musiqa asari (opera, romans va h. ga tegishli so‘z).

Maqola nomini bildiruvchi termin (so‘z) boshqa tildan o‘zlashtirilgan bo‘lsa, termin ma’nosini ochib berish uchun uning kelib chiqishi (qaysi tildanligi), tub ma’nosini ko‘rsatiladi. Masalan:

Tahrir (ar. harrara – qutqarmoq ozod qilmoq).

Termin (lot. – had, chegara).

Etimologik ma’lumot termin ma’nosini ochib berish maqsadida keltiriladi. Ma’lumotda til va termin yuzaga kelishiga asos bo‘lgan tub – genetik ma’no keltiriladi.

5-§. Havola – maqolalararo mantiqiy bog‘liqlik asosi

Maqolalararo jips bog‘liqlik ensiklopediyalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Turli va bir-biridan nari-beri joylashgan o‘zaro aloqador maqolalarni yaxlit bir butunlikka keltirish

uchun havolalar tizimidan foydalaniładi. Havolalar asosiy terminlardan tushuncha mohiyatini očhib beruvchi maqolalarga, shuningdek katta axboriy materiallarga qaratiladi. Havolalar maxsus – alohidalangan va matn ichidagi turlarga bo'linadi.

Havolada maqolaning ikki turi mavjud: yig'iq va yoyiq. Yig'iq havola hech qanday tushuntirishlarsiz, faqat terminning o'zidan iborat bo'ladi va o'quvchi e'tibori qaratilayotgan terminga havola qilinadi.

Agar termin haqida to'liq ma'lumot olish ko'zda tutilgan bo'lsa. Unda faqat terminning o'zi havola qilinadi. Mabodo qo'shimcha ma'lumot olish ko'zda tutilgan bo'lsa, o'quvchiga *yana qarang* deya ko'rsatma beriladi.

Xullas, ensiklopedik nashrlarda terminlarni har tomonlama churqur očhib berishga erishish zarur. Buning uchun maqolalar tahriri jarayonidagina emas, balki jildni bosishga tayyorlash, granka korrekatura o'qish jarayonida ham terminlar bo'yicha ishlar davom etadi. Bunda faqat imloviy, uslubiy kamchiliklar bartaraf etibgina qolmaydi, shu bilan birga ba'zi terminlar qisqartiriladi, yangilari kiritiladi, maqola hajmi kichraytiriladi yoki oshiriladi. Ensiklopediya yaratish ishi uzlucksiz, muntazam davom etadigan ilmiy-ijodiy faoliyatdir.

6-§. Boshqa tillardan termin olish

Hozirgi o'zbek tilining so'z boyligi turkiy til butun tarixi mobaynida ulkan tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan hodisadir. Undagi termin (so'z)larning paydo bo'lishi va kelib chiqishi turli davrlar bilan bog'liqidir.

Tabiiyki, har bir milliy til bugungi kun tilshunosligida rasman tan olingan barcha so'z turkumlariga oid so'zlarga ega bo'lgan. Yangilari shu til ichki imkoniyatlari asosida, grammatik vositalar yordamida yasalgan. Bundan tashqari, turli vositalar yordamida hosil bo'lgan. Shu jumladan terminlar ham.

Ma'lumki, terminlar mansubligiga ko'ra ot turkumi doirasida bo'ladi. Til tarixidan shu narsa ayonki, til egasi bo'lmish xalq hamisha qo'shni, hatto, hududiy jihatdan tutash bo'lmagan xalqlar, elatlari uzoq tarixiy davrlar mobaynida davom etadigan iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarda bo'ladi. Ana shunday aloqadar jarayonida til lug'at tarkibiga boshqa qardosh va qardosh bo'lmagan tillardan ularga xos fonetik, leksik va boshqa til unsurlari, xususan, terminlar o'tib, o'zlashib turgan: Bunday so'z o'zlashishi asosan ot turkumidagi so'z (termin) lar hisobiga ko'ra sodir bo'ladi.

O'zbek tili lug'at tarkibida ana shu hodisa tufayli yangi qatlama hosil bo'lgan. U tilshunoslikda o'zlashgan qatlama deb ataladi. Mazzkur qatlama paydo bo'lishiga o'zbek tili o'tmishda juda ko'p qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqada bo'lganligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Natijada o'zbek tiliga yot tillardan ko'plab terminlar kirib keladi. Tilda, ba'zan, shunday hodisa yuz beradiki, biror narsa, voqeа, hodisani atash uchun sabab bo'lmaganligi tufayli nom topilmaydi, ya'ni atash imkonli bo'lmaydi, shunday paytda o'sha narsa, voqeа va hodisani atovchi tayyor so'z (termin) o'zga tildan olinadi, ba'zan esa narsa, hodisa va voqeа o'z nomi bilan iste'molga kirib keladi.

To'g'ri, tilimizda o'z qatlama oид so'z (terminlar) ko'p. Ammo, jahon miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish, bulardan tashqari ilm, fan, texnika va ishlab-chiqarish texnologiyalari jadal rivojlanishi tufayli sodir bo'layotgan yangi narsa, voqeа va hodisalar ni atash uchun til ichki imkoniyatlari yo yetmaydi yoki ulgurmaydi. Xo'sh, shunday holatda tildagi qanday terminlar ichki qatlama oидligini aniqlash adabiy tahrir ishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn tahriri jarayonida muharrir qaysi tur adabiy asar qo'lyozmasi bo'lishidan qat'iy nazar muayyan terminlarga duch keladi. Amaliyatda shunday hollar ham uchraydiki, o'z qatlama oид so'z (termin) bo'la turib, muallif ham, undan keyin muharrir ham yot so'z (termin)ni o'tkazib yuboradi. Bu holni na til, na uslub va na adabiy tahrir nuqtai nazaridan oqlab bo'lmaydi. Ana shunday asossiz yo'l qo'yishlik yuz bermasligi uchun o'z qatlamiga oид so'z (termin)lar, ularning paydo bo'lishi yoki yasalishi haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi.

O‘z qatlamiga oid so‘z (termin)lar o‘zbek tilining o‘ziniki, shuningdek turkiy tillar uchun umumiy bo‘ladi. Hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibida umumturkiy so‘z (termin)lar ancha qismi tashkil etadi. Bunday so‘zdar barcha so‘z turkumida mavjud. Masalan, *til*, *tog‘*, *suv*, *cho‘l*, – *ot*; *ko‘k*, *qizil*, *yaxshi*, *iliq* – *sifat*; *tur*, *kel*, *sol*, *ol* – *fe‘l*; *o‘sha*, *bu*, *men*, *siz* – *olmosh*; *tez*, *ildam*, *erta*, *ilgari* – *ravish* va boshqalar.

Bular asli tub so‘zlar bo‘lib, ulardan tashqari o‘zbek tili-da o‘z so‘zdan til ichki imkoniyatlari asosida yasalgan, hosil bo‘lgan so‘zlar ham o‘z qatlamga oid bo‘ladi. Masalan, yasov-chi qo‘simechalar yordamida, *suv+chi*. Otdan shaxs oti yasaladi. *Suvchi+lik*. Shaxs otidan kasb nomi yasaladi. Agar yuqoridagi usul bilan yangi so‘z yasalgan bo‘lsa, quyidagi usul bilan yangi so‘z hosil bo‘lgan: o‘simlik turi – *sadarayxon*, *oshko‘k* va *gultojixo‘roz*. Mazkur so‘zlar kompozitsion usulda hosil bo‘lgan, yasalmagan. O‘z tilda shunday terminlar borki, ular tarkibida ma’noli qism bor bo‘lib, undan boshqasi hech qanday ma’no ifodasiga ega emas. Masalan, *o‘roq* (*o‘r+oq*), *chopqi* (*chop+qi*). Har ikki termin tarkibidi-gi ma’noli qism *o‘r*, *chop fe‘l* (buyruq fe‘li), – *oq*, – *qi* mazkur termin tarkibida yasovchi ma’nosiga ega emas. Shunga ko‘ra bular sodda so‘z (termin).

O‘zlashma qatlamga oid terminlar yasalishiga o‘zlashma so‘zlarga o‘z til vositalarini qo‘silishi ham sabab bo‘ladi. Masalan, *charx-chi* (*charx+chi*) – *chi* o‘z qatlamga oid, *charx* (fors.). *Andishali* (*andisha+li*) – *andisha* (*ar.*), – *li* o‘z qatlamga oid.

O‘z tilga oid so‘zga o‘zga til yasovchi vositasi qo‘silishidan ham termin yasaladi. Masalan, *tilshunos* (*til-shunos*) – *til* o‘z qatlamga, –*shunos* (fors.) o‘zlashgan qatlamga oid; *infratuzilma* (*infra+tuzilma*) – *infra* (lot. - osti) – o‘zga til vositasi, *tuzilma* – o‘z qatlamga oid.

Yuqorida aytilganlardan ko‘rinadiki, yasama termin (so‘z) tarkibiy unsurlari yoki unsurlardan biri garchi o‘zga tilga oid bo‘lsa-da, ammo yasalishi (yasama termin) shu o‘z tilda yasalgan, hosil qilingan bo‘lsa, bu termin o‘z qatlamga xos termin hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tilida yuqorida aytib o‘tganlarimizdan boshqa qardash bo‘lмаган tillardan o‘tgan terminlar ham bor va ular anchagini. Tarixiylik nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, avvalo, ular fors va arab tilidan o‘zlashgan. Keyinchalik Turkiston chor rossiyasi tomonidan bosib olingan, hamda 1917 yilgi oktyabr davlat to‘ntarishidan so‘ng o‘zbek tiliga rus tili va u orqali boshqa tillarga xos so‘z (termin)lar kirib kela boshladi.

Forscha so‘z (termin)lar: *bahor, oftob, daraxt, jild, serob, obro‘, shogird, osmon, bemor* va boshqalar.

Arabcha so‘z (terminlar): *shoir, kitob, tanqid, kashf, adabiyot, oila, amal, mahkama, hukm, mulk, san‘at* va boshqalar.

Ruscha so‘z (terminlar): *ruchka, samolyot, xolodilnik, kosmonavt*.

Rus tili orqali o‘zlashgan so‘z (termin)lar: *beton, bank* (fr.), *futbol* (ing.) *televideniye* (tele – yun. *vizio* – lot. *videnie*), *termin* (lot.), *sement* (nem.), *transport* (lot.), *avtomobil* (avto – yun. *mobil* - lot) va boshqalar.

O‘tmishda o‘zbek tiliga fors, arab tillaridan so‘z kirib kelishi tarixan faol bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda fransuz, ingliz, nemis tillariga o‘zlashgan lotincha, yunoncha terminlar to‘g‘ridan to‘g‘ri, qisman rus tili orqali kirib kelmoqda. Bunga sabab O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng qardosh bo‘lмаган til egasi bo‘lgan millatlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy aloqaga kirishmoqda. Natijada o‘zbek tili terminologiyasi yangi-yangi terminlar bilan boyimoqda. Masalan, *bakalavr, magistr, fiskal, dekloratsiya, divident, investitsiya, tok shou, tranzit, bankrot* va boshqalar.

Aytish mumkinki chet tillardan o‘zbek tiliga bugungi ijtimoiy faoliyatning barcha sohalariga oid terminlar kirib kelmoqda. O‘zga tildan o‘z tilga terminlarning kirib kelishi ikki yo‘l bilan bo‘ladi;

- yozma manba orqali;
- og‘zaki – so‘zlashuv orqali;

Tilimizga arabcha terminlar asosan yozma manbalar vositasida o‘zlashgan. Forscha so‘z (termin)lar aksariyati og‘zaki – so‘zlashuv jarayonida o‘zlashgan, bunga sabab turkiy til egalari hududan eroniy tillarda so‘zlashuvchilar bilan chegaradosh bo‘lganlar.

Bugungi kunda o'zbek milliy adabiy nutqiga chet tillardan yangi dan yangi terminlar kirib kelmoqda. Ular turli sohalarga mansub. Mavzu jihatdan bir necha guruhni tashkil etuvchi terminlar adabiy hamda o'zaki nutqda o'zlashmoqda.

1. Iqtisodiyotga oid terminlar: *dekloratsiya, divident, transfert, investitsiya, kontrakt, biznes, kichik biznes* va b.

2. Ijtimoiy-siyosiy terminlar: *senat, spiker, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat* va b.

3. Qishloq xo'jaligiga oid terminlar: *fermer, fermerlik xo'jaligi, fermerlar uyushmasi* va b.

4. Sanoat sohasiga oid terminlar: *qo'shma korxona, ishlab chiqarish mulki, sanoat dizayni, sanoat tresti* va b.

5. Fan va texnikaga oid terminlar: *kreativ, klaster, nanotexnologiya, elektromobil, notbuk, uyali telefon*.

6. Savdo va moliyaga oid terminlar: *barter, plastik kartochka, terminal, bankomat, market, birja, moliyaviy lizing, moliyaviy krizis, moliyaviy risk, moliyaviy vosita* va b.

7. Oziq-ovqatga doir terminlar: *xotdog, lavash, grill, kola, gamburger, chupa-chups* va b.

8. Ta'limga oid terminlar: *bakalavriat, magistrat, elektron darslik, innovatsion pedtexnologiya, elektron jurnal*.

Xullas, chet tillardan terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi bugungi kunda faollashmoqda. Termin o'zlashtirish asosan quyidagi yo'llar bilan bo'ladi:

– chet so'z fonetik jihatdan o'z talaffuzga moslashtiriladi:

Mizoj – mijoz, masjid – machit, podnos – patnis, kravat – karavat, obro'y – obro', boloxona – bolxona, ustuxvon – ustuxon va b.

– chet so'z aynan olinadi: *metro, kran, depozit, ipoteka, bizness, market, pitsa, litsey* va b.

– chet so'z kalkalab olinadi, ma'nosi o'zlashtiriladi: *ledokal – muz yorar, istrebitel – qiruvchi, sputnik – yo'ldosh* va b.

– chet so'z qisman kalkalab olinadi: *infrastruktura – infra – tuzilma, biznes plan – biznes reja, podemnyiy kran – ko'tarma kran, telebashnya –*

teleminora, televideniye – teleko 'rsatuv, radioveujanie – radioeshittirish va b.

– chet so‘zlearning o‘z tildagi muqobili beriladi: *arenda – ijara, ssuda – qarz, ispol’nitel – ijrochi, uchastnik – qatnashchi* va b.

– o‘zga tildagi so‘z o‘z tildagi so‘z yangi ma’nosini yuzaga chiqaradi:

– *politicheskoe techenie – siyosiy oqim, park – bog’, tross – po ‘lat arqon, putyovka – yo ‘llanma, krovyanne davlenie – qon bosim* va b.

So‘z o‘zlashtirishni so‘z qo‘llashdan farqlash lozim. O‘zlashgan so‘zlar o‘zlashgan tilning lug‘at boyligi hisoblanadi va undan ham yozma, ham og‘zaki nutqda birdek foydalaniladi.

Lekin og‘zaki nutqda, shuningdek, yozma nutqda ham ma’lum maqsad yoki sababga ko‘ra o‘z tilga o‘zlashmagan so‘zlarni qo‘llash ham uchraydi. Og‘zaki nutqda bu hol yo o‘z nutqiga e’tiborsizlik oqibatida yuz beradi. Bugungi kunda chet so‘zlarni aralashtirib so‘zlovchilar nutqida quyidagi chet so‘z va birikmlar uchraydi: *abitga boramiz, sapsem esimdan chiqipti, sentrdagi domga ketvomman, voopshe yoqmadni, mujeli aqling yetmadi, enb qo ‘yip qo ‘y, bir para bo ‘madi, darsga zuvanay chaldi, o ‘zim zvonit qilaman, karochchisi.* Bunday qo‘llash yozma nutqda ham uchraydi. Lekin ularni muallif ma’lum maqsadni ko‘zlab matnga kiritadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda xarakter yaratish maqsadida personaj nutqida qo‘llaydi.

– *Ha, og‘ayni, avzoying buzuq?*

– *He, nimasini aytasan. Mamashani etganini qimovdim, paxan nakalene qo ‘ydi.*

Shunisi achinarlikи, bugungi kunda chet so‘zlar, ta’bir joiz bo‘lsa «bojxona»ni chetlab kirib kelmoqda.

Vaholanki, mamlakatimizga kirib kelayotgan dori-darmon, oziq-ovqat mahsulotlari orasida aholi sog‘ligi uchun zararlari bo‘lganidek terminlarning ham hammasi maqbul bo‘lavermaydi.

Chet so‘zlarni o‘zlashtirish masalasi bilan shug‘ullanuvchi terminologiya qo‘mitasi, mustaqilligimizning dastlabki yillarda mayjud edi. Lekin negadir keyingi yillarda u o‘z-o‘zidan tugab ketdi. Aftidan uni

qayta tiklash, faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab turish maqsadaga muvofiq bo'lardi.

To'g'ri, ensiklopedik asarlar nashri bilan shug'ulanuvchi davlat ilmiy nashriyoti ham terminologiya masalasi bilan shug'ullanadi. Ammo bu nashriyotning asosiy faoliyati hisoblanmaydi. Nashriyot terminologik muammolarni faqat o'z nashrlari miqyosida hal etishga harakat qiladi, ammo u ham to'liq emas. Chunki nashriyotda terminlar bilan shug'illanuvchi maxsus mutaxassis lavozimi ko'zda tutilmagan. Bo'lim muharrirlari bu masalani hanuzga qadar imkon doirasida hal etmoqda.

Hamon XXI asr axborot asri deb e'tirof etilgan ekan, axborot ayirboshlash sur'ati jadallahsgani bois chet tillardan tilimiz uchun yot unsurlar kirib kelishi va g'ayriimiy tarzda o'zlashishining oldini olish uchun maxsus, leksikologiya va semasiologiyadan yuqori bilimga ega mutaxssislardan iborat terminologiya qo'mitasini tiklash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

“...shug'ullanuvchi terminologiya qo'mitasi” nomi bilan yaroqchilik

qo'mitasi bo'lib, 1997-yil O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy

Ministrining qarribozligida tashkil etilgan shug'ullanuvchi terminologiya

qo'mitasi bo'lib, shug'ullanuvchi terminologiya qo'mitasi nomiga

shug'ullanuvchi terminologiya qo'mitasi nomiga qo'mitasi nomiga

II QISM

MUHARRIRLIK MAHORATI NAZARIYASI VA AMALIYOTI

1-b o b . Til, sheva, lahja, so‘zlashuv, talaffuz va adabiy nutq

Reja

1. Xalq tili, milliy til, uning o‘ziga xos jihatlari.
2. Adabiy nutq xalq tili asosida yuzaga chiqqan nutq ko‘rinishi.
3. Xalq tilidagi lahja, shevalar oddiy so‘zlashuv uslubi sifatida.
4. Talaffuzning ikki turi – ikki nutqiy ko‘rinishi.
5. Adabiy nutq umummilliy ham og‘zaki, ham yozma nutq sifatida.
6. Adabiy nutq lug‘at tarkibining boyish imkoniyatlari.

1-§. Til – tabiiy til, insonlarga tangri taolo tomonidan berilgan mo‘jizaviy muloqot, muomala vositasi. Til tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. U nutqda ayonlashadi va mavjud bo‘ladi. Muayyan xabar, ma’lumotni saqlash va yetkazishning muhim ijtimoiy vositasi hisoblanadi. Inson ongiga ta’sir etish, uni boshqarish vositalaridan biri. Jahondagi tillar tuzilishi, lug‘at tarkibi va boshqa jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Zamonlar o‘tishi bilan til ham o‘zgaradi, ayrimlari (o‘lik tillar) iste’moldan qoladi.

2-§. Turkiy-o‘zbek tili – turkiy tillar oilasiga mansub. O‘zbek tili ko‘p sheva va lahjalarga ega. Shulardan eng asosiysi qarluq shevasi. O‘zbek tili deganda uning barcha shevalari, shevalar ichidagi lahjalar, ayrim shahar, qishloqqa xos so‘zlashuv tili, jargonlar

nazarda tutiladi. Hozirgi o'zbek tili o'z taraqqiyoti tarixida uchta bosqichni o'tagan va nomlangan: qadimgi turkiy til; eski o'zbek tili; hozirgi o'zbek tili. Qadimiy turkiy til, eski o'zbek tili tarqalish darajasiga ko'ra ulkan hududda iste'molda bo'lgan, hozirgi o'zbek tili 1924 yildan boshlab bugungi O'zbekiston respublikasi hududi bilan cheklanib qolgan.

3-§. O'zbekiston respublikasi hududidagi tub aholining ko'pchiligi qarluq-chigil-uyg'ur lahjasida va uning shevalarida so'zlashadi, o'g'iz va qipchoq lahjasi va uning shevalarida so'zlovchilar ozchilikni tashkil etadi. O'zbek tilining bunday ko'p lahja, shevalarga bo'linishiga asosiy sabab bugunda o'zbeklar deb atalishi xalqning o'tmishda turli etnik tarkibga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

4-§. O'zbek tili lahjalari orasida qarluq-chigil lahjasi va uning shevalari O'zbekiston aholisi so'zlashuvida yetakchilik qiladi. Qarluq-chigil lahjasiga «Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Qarshi, O'sh, Marg'ilon, Jalolobod va boshqa shaharlarning shevalari kiradi»¹.

5-§. Qipchoq lahjasining shevalari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Unda qadimiy turkiy so'z va terminlar anchagina saqlanib qolgan. O'zbekiston hududida asosan viloyatlar tumanidagi kichik shaharlар va qishloq joylarda tarqalgan.

6-§. O'g'iz lahjasi ham o'zbek tilidagi asosiy lahjalar qatoriga kiradi. U ham bir qancha shevalarni o'z ichiga oladi. Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari hududlaridagi aholi so'zlashuvida kuchli seziladi.

7-§. So'zlashuv nutqida lahjalar va ularning shevalari to'liq namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining so'zlashuv nutqi nutqi ega-si qaysi lahja yoki uning muayyan shevasi vakili bo'lsa, erkin, asrlar mobaynida tabiiy, hech qanday cheklovlar, shakllar-

¹ Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Xojiev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1 qism . –T.: O'qituvchi, 1980.–21-b.

ga bo‘ysunmaydigan shu lahja, shevaga xos talaffuzda so‘zlaydi. Masalan:

1. Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining Toshkent – poytaxt shahar shevasi o‘z unsurlari bilan alohida ajralib turadi. Xususan bu shevada singarmonizm hodisasi deyarli uchramaydi. 7-8 ta unli tovush saqlanib qolgan. Talaffuzda *h* tovush yo‘q, *x* tarzida talaffuz etiladi, *ba’zi* tovushlar ayrim so‘zlar tarkibida boshqa tovushga aylanadi: *a* tovushi *e* ga (*oldimde, qaytdimde, yozdimde* va h.); *a* tovushi *i* ga – *yur midi, bormidi, bo’midi* va h.); *k* tovushi *y* ga (*katay, ermay, ko’lmay* va h.; *k* tovush *ba’zan v* ga (*yeduv, ichduv, ko’rduv* va h.). Birinchi shaxs *ko’plik qo’shimchasi vuz* tarzida (*boravuz, kelavuz, olavuz* va h.) Hozirgi zamon fe’l shakli – *vot* tarzida (*yozvotti, ishlavotti, ba’zan – pot* ga aylanadi *choppotti* va h.) va b.

2. Qipchoq lahjasi va uning shevalarida sogarmonizm hodisasi saqlanib qolgan, unli 9 ta tovush mavjud. Talaffuzda *f* tovushi umuman uchramaydi. So‘z boshidagi *y* tovush *j* talaffuz etiladi (*jo’q, jo’l, jop* va h.); *x* tovush *q* ga aylanadi (*baqt, voqit* va h.) *o* tovush *a* ga o‘tadi (*chach, chay, jay* va h.), *i* tovush *ba’zan o* va *a* ga (*qana, keldima, bordima* va h.), *e* tovushi *o’* ga ayladadi (*to’ba, bo’dana* va h.) Bularidan tashqari mazkur lahjada *ko’pgina qadimgi turkiy tilga* xos so‘zlar (*checha – yanga, tulun – po’stin, bo’la – xolayachcha, lochira, kulch hatoy* va h.) saqlanib qolgan.

3. O‘g‘iz lahjasi va shevalarida ham o‘ziga xos talaffuz hamda qadimgi turkiy tilga oid so‘zlar uchraydi: *galdim, qarago’z, qaydin, o’g’lan, yoshulli, ae* (*qo’l*) va b.

Demak so‘zlashuv va talaffuzga *ko’ra turkiy-o’zbek tili asosiy lahjalari orasida sezilarli tafovut* mavjud. Shunga *ko’ra har bir lahja* va uning shevalari vakili *bo’lmish nutq egasi*, avvalo o‘z lahjasini va boshqa lahjalarga xos xususiyatlarni yaxshi bilishi shart. Bu, ayniqsa, badiiy matn tahriri bilan shug‘ullanuvchi muharrirlar uchun kerak.

8-§. Adabiy nutq. Tilga bag‘ishlangan barcha adabiyotlarda nutqning bu turi *adabiy til* deb ataladi. Shu kungacha nashrdan

chiqqan barcha o'zbek tilshunosligiga bag'ishlangan darslik, o'quv qo'llanma va boshqa tur adabiyotlarda mazkur termin qo'llanilgan.¹

Adabiy nutqqa turli manbalarda deyarli bir xil ta'rif beriladi: «Adabiy til umumxalq tilining ishlangan, sayqallashtirilgan va ma'lum normaga solingan formasidir». «Adabiy til. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normalarga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi formasi». «Muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlovchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli» (Izohda qayd etilgan adabiyotlarga qarang).

Hamon adabiy nutq umumxalq tilining **ishlangan**, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan shakli ekan, demak *umumxalq tili asosida yuzaga kelgan nutq ko'rinishi* hisoblanadi.

Hozirda adabiy til termini bilan ataluvchi ijtimoiy hodisa aslida, mantiqan, **adabiy nutq** atalishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero shu mantiqqa asoslanib, biz *adabiy til* o'rniда *adabiy nutq* terminini qo'llash ilmiy jihatdan to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz.

9-§. O'zbek adabiy nutqi. Hozirgi turkiy-o'zbek tili taraqqiyoti tarixi 3 nutqiy ko'rinish davrini o'z ichiga oladi: *qadimiy turkiy adabiy nutq; eski o'zbek adabiy nutqi; hozirgi o'zbek adabiy nutq.*

10-§. Qadimgi turkiy adabiy nutq «...milodning beshinchasiidan o'ninchi asrigacha bo'lgan uzoq vaqtini o'z ichiga olgan davrda shakllangan. Umumxalq turkiy-o'zbek tilining tarixi oltoy davridan boshlangan bo'lsa, o'zbek adabiy nutqining tarixi yozma yodgorliklari yaratilgan qadimgi turk davridan boshlangan².

Ayrim adabiyotlarda «Qadimgi turkiy adabiy nutq X–XI asrlarini o'z ichiga oladi»³ deb ko'rsatiladi. Lekin bu davr faqat hozirgi o'zbek

¹ Qarang: Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1980; Lingvistik terminlarning izohli lug'ati.- T.: O'qituvchi, 1985; O'zME.- T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1 jild, 2000. 124; OAV reklamalari uslubiyati nazariyasi va amaliyoti. – T.: Universitet 2006. – 18-b. va b.

² Abduraxmonov G'. Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O'qituvchi, 1982.- 3-b.

³ Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili, 1 qism. –T.: O'qituvchi, 1980. –7-b.

deb atalmish millatningina adabiy nutqi emas, balki Markaziy Osiyodagi barcha turkiylarning adabiy nutqi bo‘lgan. Shunga ko‘ra unga umumturkiy adabiy nutq sifatida qaraladi va tadqiq etiladi.

11-§. Eski o‘zbek adabiy nutqi «XIII–XV asrlarda shakllangan...»¹. Mazkur davr adabiy nutqining shakllanishi va rivojiga Nizomiddin Amir Alisher Navoiy ulkan hissa qo‘shgan. Alisher Navoiy o‘z nazmiy asarlari bilangina emas, balki nasriy asarlari, xususan, «Muhokamat ul-lug‘atayn» («Ikki til muhokamasi») ilmiy asari bilan eski o‘zbek adabiy nutqi, badiiy nutq usulubiyatini ilk bora ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi. O‘z davridagi adabiy nutqning ichki imkoniyatini boshqa hech bir adabiy nutqdan qolishmasligini, hatto, ko‘p ma’nolilik, tasviriylilik va obrazlilikda ustun jihatlarga egaligini amalda isbotlab berdi.

To‘g‘ri eski o‘zbek adabiy nutqi Alisher Navoiygacha (XIII–XIV) shakllanib ulgurgan. Bunga Durbek, Atoiy, Lutfiy va boshqalarning ijodi yaqqol misol bo‘ladi. Shuni alohida ta‘kidlash o‘rinlik, yuqoridagi ijodchilar adabiy nutqi oddiy xalq tili-ga yaqin, u bilan hamohang bo‘lgan. Bunga ularning asli turkiy bo‘lgan aholi zinch joylashgan hududda yashaganliklari ham sabab bo‘lgan, deyish mumkin. Alisher Navoiy asarlaridan ko‘ra ular asarlaridagi so‘zlar bugungi o‘zbeklar uchun yaqin va tu-shunarliroqligi ham shundadir. Ammo ular va Alisher Navoiy ijodiga chuqur nazar tashlansa, shu narsa ayon bo‘ladiki, Alisher Navoiy o‘z ijodida ularga nisbatan ulkan muammolarni ko‘tarib chiqqan, inson hayotining juda ko‘p qirralarini yoritishga erishgan. Albatta, muammolarning murakkabligi, keng qamrovligi, hayotning falsafiy mushohadasi nihoyatda chuqurligi, shoirning arab, fors tillarini yaxshi bilganligi uning asarlari lug‘at boyligida namoyon bo‘ladi.

To‘g‘ri, «malik-ul kalom» deya ulug‘langan Lutfiy asarlarida va boshqa turkiy ijodkorlar she’riyatida forscha, arabcha so‘zlar deyarli uchramaydi. Ularda bunga ehtiyoj ham sezilmaydi. Ular o‘z

¹ O‘sha joyda.

ijodiy maqsadlariga o‘z ona tili – turkiy til yordamida erisha olgalar.

Alisher Navoiy XIII–XIV asrlarda shakllanib ulgurgan eski o‘zbek adabiy nutqini yanada takomillashtirib, uni eng yuqori cho‘qqiga ko‘taribgina qolmadi, balki uning lug‘at tarkibini yanada boyitdi.

Tilshunoslik ilmida ta’kidlanishicha har bir tilning lug‘at tarkibi boyishi ikki omilga tayanadi. Birinchisi ichki omil, ikkinchisi – tashqi.

Alisher Navoiy turkiy-o‘zbek tili ichki imkoniyatlarini hali hech bir ijodkor ilg‘ay olmagan qirralarini ochib berib, uni «she’riyat osmoniga ko‘targan» bo‘lsa, o‘z niyati, maqsadlarini to‘liq ifoda etish uchun forscha, arabcha termin (so‘z)larni ham mohirona qo‘llaydi, ularni turkiy-o‘zbek adabiy nutqiga singdirib yuboradi, ya’ni o‘zining tili bo‘lmish turkiy-o‘zbek tili lug‘atini tashqi omil hisobiga yanada boyishiga olib keladi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, eski o‘zbek adabiy nutqining adabiy nutq sifatida to‘la-to‘kis shakllanishi va keyingi rivojining ta’milanishida Alisher Navoiyning xizmati va ahamiyati nihoyatda yuksakdir. U bu nutqda jahon ijodiyoti xazinasini tengsiz durdona asarlari bilan boyitdi. O‘z asarlari bilan eski o‘zbek adabiy nutqini o‘sha davrdagi eng rivojlangan til hisoblangan fors, arab tillari darajasiga ko‘tardi, hatto, ulardan ustun jihatlarini ko‘rsatib, ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab berdi (q. Muhokamat ul-lug‘atayn).

«Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilida juda ko‘p yangi formalar, yangi uslublar yaratdi, shimol, sharq va janubdagagi tarqoq holdagi adabiy tilning formalarini birlashtirib, uning xizmat qilish doirasini yanada kengaytirdi. U o‘z davrining mukammal adabiy til normasini yaratdi»¹.

12-§. Hozirgi o‘zbek adabiy nutqi ham uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tadi. Alisher Navoiydan so‘ng eski o‘zbek adabiy nutqi uzoq vaqt shaklan deyarli o‘zgarishga uchramadi. « Bobur, Muhammad Solih, Nishotiy, Muhammad Xoksor singari shoirlar asarlari-

¹ Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, –T.: O‘qituvchi, 1980. -8-b.

ning tilida eski o'zbek adabiy nutqidan deyarli farq yo'q¹. Ammo, deyarli so'zi, bu – *to'liq* degani emas. Qaysidir darajada hozirgi o'zbek nutqining kurtaklari o'sha vaqtarda nish ura boshlagandi. Keyinchalik shoirlar ijodida umumxalq nutqiga yaqinlashish, asarlarda xalq nutqida keng iste'molda bo'lgan so'z, birikmalar, so'z yasovchi va o'zgartiruvchi qo'shimchalar ko'plab uchray boshlaydi. Bir qator shoirlar – Mashrab, Nodira, Uvaysiy va ular zamon-doshlarining asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

13-§. Eski o'zbek adabiy nutqining rivoji XIX asr oxirlari – XX asr birinchi choragigacha davom etdi. Lekin bu davrda ijod etgan «Muqimiy, Furqat, Maxmur, Avaz O'tarlarning asarlari-da eski o'zbek adabiy nutqi murakkabliklari saqlanib qolganligi kuzatiladi².

14-§. Ko'rinaradiki xalqning hayotidagi chuqur madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar uning tiliga va shu bilan birga adabiy nutqqa ham o'z ta'sirini o'tkazar ekan. Tilda o'z ichki imkoniyatlari asosida, shuningdek, qardosh va qardosh bo'lman tillardan so'z o'zlashtirish tufayli yangi so'zlar, shakllar yuzaga keldi hamda lug'at tarkibi boyib bordi. Xuddi shu hol XX asr 30-yillarida kuzatiladi. Unga-cha ham chet so'zlarni o'zlashtirish holati bo'lgan, lekin bu juda sust kechgan. Rus tilidan va u orqali boshqa (yevropa xalqlari) til-laridan ayrim so'zlar o'zbek adabiy nutqiga kirib kela boshlagan. 1924 yilda yagona Turkiston deb atalmish yurt sun'iy tarzda par-chalanadi. Natijada jahon siyosiy xaritasida O'zbekiston deb atal-gan yurt paydo bo'ladi, uning tub aholisi o'zbeklar, xalqning tili o'zbek tili deb ataladi^{3*}.

¹ Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: O'qituvchi, 1980. -9-b.

² Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: O'qituvchi, 1980. -9-b.

³ 9*Aslida qadimgi turkiy adabiy nutq o'rnida shakllangan adabiy nutqni eski o'zbek adabiy nutqi deyish mantiqan to'g'ri emas. Lekin shunday atalib ketdi, biz ham shu an'anadan chetga chiqishlikdan o'zni tiyish yo'lidan bordik. Bu masalaga ilmiy asosda keyinroq qaytish niyati ham yo'q emas.

Hozirda o‘zbeklar deb atalgan bir qator urug‘lar, elatlar, ya’ni xalq millat maqomini oladi. Natijada xalq tiliga – millat tili, milliy til sifatida qaraladi va bu tilga O‘zbekistonning davlat tili maqomini berish uchun harakat boshlanadi, hatto, bu haqda qonun loyihasi ham ishlab chiqiladi. Ammo 1927-28 yillarda sobiq sho‘rolar markaziy hukumatining yangicha ko‘rinish olgan mustamlaka siyosati bu harakatga qattiq zarba bera-di, «Davlat tili to‘g‘risida»gi O‘zbekiston qonuni amalga oshmay qoldi. Lekin shunga qaramay o‘zbek tili ichki va tashqi omillar asosida jadal rivojlanib, lug‘at tarkibi boyiy boshladi. Buning natijasida o‘zbek milliy adabiy nutqi yuzaga keldi. O‘zbekistonda milliy davlatchilik barpo bo‘lgach turli davlat va hokimiyat institutlari yuzaga keldi. Garchi davlat tili to‘g‘risida qonun qabul qilinmagan bo‘lsa-da, O‘zbekiston xalq xo‘jaligining barcha sohalarida milliy adabiy nutqda ish yuritish (rus tiliida ish yuritish majburiy tarzda kun tartibiga qo‘yilgan bo‘lsa-da) ha-yot taqozosiga aylandi. O‘zbekistonda fan-texnika, ta’lim, adliya, qonun ijodchiligi rivojlanishi, yangicha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar yuzaga kelishi adabiy nutq qo‘llanish ko‘lamini nihoyatda kengaytirdi. Ishlab chiqarish, boshqarish, ta’lim va boshqa sohalarda keng qo‘llana boshladi, ijtimoiy ahamiyati cheksiz oshdi. Bu nutqda yuzlab gazeta va jurnallar chop etila boshladi. Ilm-fanga bag‘ishlangan asarlar, darsliklar, qo‘llanmalar, turli lug‘atlar, ma’lumotnomalar, yo‘riqnomalar, qonunchilik hujjatlari va boshqalar yaratildi, tahrir qilindi. Ilm-fan, madaniyat, ta’lim, qishloq xo‘jaligi, iqtisod, huquq, harbiy va boshqa sohalarga oid, asarlar, xorijiy mashhur adiblarning badiiy nasrdagi va nazmdagi ijod namunalari tarjima qilindi.

Asl nusxa (ilmiy, badiiy) asarlar yaratilishi, mumtoz ijodchilar asarlarining nashr, qayta nashr etilishi, darsliklar) yaratilishi, tarjima asarlar dunyoga kelishi va ular tahriri bilan shug‘ullanish hozirgi o‘zbek adabiy nutqi rivojlanishiga juda katta turtki bo‘ldi. Mazkur jarayonda shevalardan so‘z olish, so‘zlarni yangi ma’noda qo‘llash, yasovchi qo‘srimchalar yordamida yangi so‘zlar yasash, xorijiy tillardan termin (so‘z)lar o‘zlashtirish natijasida, ayniqsa, o‘zbek tili lug‘at boyligi yana-nada oshdi va oshmoqda.

15-§. Adabiy nutqdagi (umuman tildagi) «...o‘zgarishlar haqida gap borar ekan, lingvistik va ekstralolingvistik...»¹ omillar nazarda tutiladi. Tilni ichki tuzilishidagi o‘zgarishlar lingvistik o‘zgarishlar, vazifaviy o‘zgarishlar, ya’ni ijtimoiy ma’noda olganda, ish ko‘rish, qo‘llash kengayib borishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ekstralolingvistik o‘zgarishlar deyiladi. Bu ikki jarayon bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Birining rivojlanishi ikkinchisining rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

16-§. Kino, teatr san’ati, radio, televide niye singari axborot vositalarining rivojlanishi adabiy nutq qo‘llanish ko‘lamini yanada kengaytirdi. Lekin hozirgi o‘zbek adabiy nutqi tom ma’nodagi rivojlanish bosqichiga 1989 yilda «Davlat tili to‘g‘risida»gi qonun qabul qilingandan va 1991 yilda O‘zbekiston mustaqil deb e’lon qilingandan so‘ng o‘tdi. O‘zbekiston barcha sohalarda – moliyaviy, ichki, tashqi siyosat, harbiy, madaniy-ma’rifiy, diniy, aloqa, transport, til, sog‘liqni saqlash, ichki-tashqi savdo, xullas, o‘z hayotining barcha sohalarida mustaqil faoliyat olib borish huquqiga ega bo‘ldi. Bu hol adabiy nutq rivojida cheksiz imkoniyat ochdi. Shunday imkoniyatlardan biri bo‘lib O‘zbekiston dunyoning istalgan davlati bilan o‘z tili – Davlat tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni, madaniy, ilmiy, texnikaviy, iqtisodiy, siyosiy hamkorlikni amalga oshirishidir. Bu albatta o‘zbek adabiy nutqi nufuzini yanada oshiradi. Adabiy nutqning dunyoga tanilishida sportning ahamiyati, ayniqsa, katta bo‘ladi. O‘zbek kurashini dunyo tan oldi, kurash bilan bog‘liq terminlar (so‘zlar) dunyo xalqlari nutqida yangray boshladи.

17-§. O‘zbek xalqi hayotida yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlar, bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan boshqasiga o‘tish – bular barchasi adabiy nutqda ham o‘z aksini topmoqda, ya’ni ijtimoiy hayotda yangi-yanги tushunchalar vujudga kelmoqda. Adabiy nutq ana shu tushunchalarni ifoda etishdek vazifani bajarishi davr taqozosiga aylandi. Adabiy nutq bu vazifani bajarishida, avvalo, ichki imkoniyatiga tayanishi, o‘z so‘zlar bilan yangi tushunchalarni ifodalash bilan birga o‘zga tillardan termin (so‘z)lar o‘zlashtirish zarurati yuzaga keladi. Bugungi kunda

¹ Shoabduraxmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, –T.: O‘qituvchi, 1980 –11-b.

matn tahriri bilan shug‘ullanuvchilargina emas, balki, tilshunoslar orasida ham adabiy nutq lug‘at tarkibining rivojlanishi, boyishi qonuniyatlarini tushunmaslik tufayli adabiy nutq leksikasi sohasida sun’iylik, chet so‘zlarga ruju qilish bilan birga, o‘zbek adabiy nutqini «tozalash»ga samarasiz urinishlar kuzatilmoxda. Ammo nima bo‘lganda ham til taraqqiyot qonuniyatları asosida rivojlanadi. Til ham misoli oqar suv kabi o‘z-o‘zini tozalab boraveradi. Turli sun’iyliklar, chaqirilmagan kelgindi chet so‘zlar ist’emoldan chiqib qolaveradi.

18-§. Adabiy nutq rivoji, avvalo, ichki imkoniyatlari, qo‘s Shimchalar yordamida yangi so‘zlar yaratadi (mas. *-chi* yasovchi qo‘s Shimcha yordamida: *sportchi*, *avtomatchi*, *motorchi*, *kuzatuvchi* qo‘riqchi va h.). So‘zlar (ikki va undan ortiq) qo‘s hilib yangi ma’no ifodasiga ega so‘z hosil bo‘ladi (mas. *Simto* ‘siq, *betonqolip*, *havo xujumi*, *infratzilma* va h.). So‘zlarda ma’no kengayishi tufayli yangi ma’no ifoda topadi (mas. *bog* – uzumzor *bog*; istirohat *bog*‘i, bolalar *bog*‘chasi; *jang* – qo‘l *jangi*, tanklar *jangi*; *xuruj* – itning *xuriji*, dushman *xuriji*, *axboriy xuruj*).

19-§. O‘zga tilga mansub so‘zlar kalkalab o‘zlashtiriladi (mas. *iskusstvennyiy sputnik* – sun’iy yo‘ldosh, *broneboynaya* – *bronteshar*, *ognestrelnyiy* – o‘q otar, *dom perestarelxix* – *qariyalar uyi*, *salon krasoti* – go‘zallik *uyi*, *istrebitel* – *qiruvchi* va h.).

20-§. O‘zga tildagi yasama so‘zlar o‘zagiga saqlanadi; yasovchi qo‘s Shimchasi kalkalanadi (mas. *tankist* – *tank+chi*, *kranovçik* – *kran+chi*, *aptekar* – *aptekachi*, *informator* – *informatsiya+chi* va h.).

21-§. O‘zga tildagi yasama so‘zning o‘zagiga ham, yasovchi qo‘s Shimchasi ham kalkalanadi (mas.: *diversant* – qo‘poruv+chi, *zaxvatchik* – *bosqin+chi*).

22-§. O‘zga tilga xos so‘zlar aynan olinadi (mas.: *lizing* – *lizing*, *bron* – *bron*, *investitsiya* – *invstsitsiya*, *texnologiya* – *texnologiya*, *millioner* – *millioner*, *parlament* – *parlament*, *bakalavr* – *bakalavr* va h.).

23-§. Chet so‘zlar o‘z nutq talaffuziga moslab o‘zlashtiriladi (mas.: *sellofan* – *salafan*, *krovat* – *karavot*, *masjid* – *machit*, *sirk* – *sirk*, *konser* – *konsert*, *kolledj* – *kollej* va h.).

24-§. Chet tillarga xos iboralar ham ba'zan kalkalanib o'zlashtiriladi (mas.: *I na nashem ulitse budet prazdnik – Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak. Skolko by ne kormyi volka, vsyo ravno v les smotrit – Bo'rini har qancha parvarish qilma, o'rmonni ko'zlaydi. Durnaya golava nogam pokoy ne dast – Ahmoq kalla oyoqqa tinim bermaydi* va h.).

25-§. Hozirgi o'zbek adabiy nutqiga, ayniqsa, iqtisodiy, ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy sohaga oid yangi so'zlar kirib kelmoqda. Bu tabiiy hol. Chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish, bir tomondan, axborot globallashuvchi ikkinchi tomondan buni taqozo etmoqda.

26-§. Ta'lif sohasida esa o'rta mahsus va oliv ta'limgagi o'zgarishlar adabiy nutq rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Litsey, kollej, ikki bosqichli oliv ta'lif – har biri adabiy nutqqa yangidan yangi termin (so'z) lar kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

27-§. O'zbekistonning dunyodagi turli davlatlar bilan diplomatiya, savdo, madaniy, ilmiy, texnikaviy va boshqa sohalardagi aloqalari rivojlanib borgani sari adabiy nutq leksikasiga yangi atama va terminlar kirib kelaveradi. Ular orasida, hatto, o'zga tilning so'z yasovchi qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlar ham bor va ular to'liq o'zlashmoqda (mas.: *jurnalist, operator, mashinist, investor, briefing, kofe brek* va h.).

28-§. Chet tillarga xos shakllar yoki aslicha, yoki tarjimada o'zbek adabiy nutqiga o'zlashmoqda, shuningdek, sof o'z tilimizda yasalmoqda. Mas.: BMT (OON), NATO, YUNESKO, GFR, MRB (markaziy razvetka boshqarmasi), O'zMAA – O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zME – O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, O'zMU – O'zbekiston Milliy universiteti OO'MTV – Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi.

29-§. Chet so'zlarning kirib kelishi adabiy nutqqa xos bo'limgan talaffuz me'yorlarini yuzaga keltiradi. Ma'lumki, qadimgi turkiy va o'zbek adabiy nutqida so'z boshida, ayrim hollarda so'z oxirida undosh tovushlar qator kelmasdi. Lekin chet so'zlarni aynan o'zlashtirish ana shunday talaffuzga olib keldi: *internet, trast, ekskovator, attashe,*

kreativ va h. Aslida bu so‘zlar jahonning ko‘pgina xalqlari adabiy nutqida uchraydi va ular xalqaro terminlar hisoblanadi, shunga ko‘ra ular tovush tomoni o‘zgartirilmay qo‘llanadi.

30-§. O‘zbek adabiy nutqida rus tili orqali o‘zlashgan ayrim so‘zlar ruscha talaffuz shaklida hanuz qo‘llanib kelmoqda. Masalan, ismlar, joylar atalishi va geografik nomlar: *Gannibal* (Xannibal), *Genrix Geyni* (Xenrix Keyni), *Gannover* (Xannover), *Gamburg* (Xamburg), *Gruziya* (Georgiya), *Koreya* (Quriya), *Yaponiya* (Japan).

Adabiy nutqqa o‘zlashgan va faol qo‘llangan ko‘pgina chet so‘zlar iste’moldan chiqib, istorizmlarga aylangan. Masalan, *soviet*, *ministr*, *kommunist*, *raykom*, *selsovet*, *ZAGS*, *KPSS*, *komsamol*, *pionervojatyi*, *kolxoz*, *sovxozi*, *veteran*, *gastronom*, *RayPO*, *tiraj*, *ekonomist*, *univermag*, *stajyor* va b.

31-§. Rus tili va u orqali Yevropa xalqlari tilidan o‘zlashgan ayrim terminlar o‘rniga eski o‘zbek adabiy tiliga arab, fors tilidan o‘zlashgan so‘z (termin)lar tiklandi. Masalan: *vazir* (ministr), *devon* (apparat), *majlis* (soviet), *hokim* (rayon ijroiya komiteti raisi), *mahkama* (kabinet), *kotiba* (sekretar).

32-§. Bir qator chet so‘zlar o‘z leksik qatlamaq oid so‘zlar bilan almashtirildi. Masalan, *tuman* (rayon), *shohsupa* (pedestal), *shohko ‘cha* (prospekt), *bog’* (park), *oromgoh* (lager), *qorovul* (oxrannik), *muzqaymoq* (morojennoe).

33-§. O‘zbek adabiy nutqida chet tillarga xos unsurlar qator uchraydigan so‘zlar ham o‘zlashgan va adabiy nutq talaffuzida shunga muvofiq nutqiy me’yor yuzaga kelgan. Masalan, *saodat*, *qiroat*, *teorema*, *diagramma*, *muammo*, *aerodrom*.

34-§. Adabiy nutqda urg‘uning ahamiyati oshdi, tabiatni o‘zgardi. Masalan, *akademik* (sifat), *akademik* (ot), *atlas* (mato), *atlas* (xarita turi), *partiya* (firqa), *partiya* (qur).

35-§. Adabiy nutqda so‘z yasash imkonini oshdi. *-ov*, *-yev*, *-ova*, *-yeva* – familiya yasovchi qo‘sishchalar kirib keldi. *-ovich*, *-yevich*, *-ovna*, *-yevna* kabi ota ismiga qo‘shiluvchi yasovchi qo‘sishchalar o‘zlashdi.

36-§. Chet so‘zlarga *-la*, *-lash*, *-lashtir*, kabi o‘z tilga oid yasovchi qo‘shimchalar qo‘shib so‘z yasash yuzaga keladi. *Loyihala*, *ta’mirla*, *meliyoratsiyalash*, *irrigatsiyalash*, *faollashtirish*, *investitsiyalashtirish*, *moliyalashtirish*, *elektrlashtirish* va b. Chet so‘zlardan analitik shakl yasash ancha faollashdi. *Sintez qilish*, *razvedka qilmoq*, *bombardimon qilmoq*, *tasarruf etish*, *is’temol qilish*, *andoza olish*, *benzin quyish*. Adabiy nutqda yangi sintaktik konstruksiyalar paydo bo‘ldi: *ekran qarshisida*, *omma oldida*, *zamon talabi*, *davr bilan hamnafas*, o‘z usti-da ishladi¹.

37-§. Jins tushunchasini ifoda etish shakli paydo bo‘ladi: Umid (a), Salim(a), Latif(a), To‘raeva Nazokat Hamidovna. «Yilning eng faol jurnalisti – 2008», «Hamma – hasharga», «Dalada – ish qizg‘in», «Paxta – 2016», «Diqqat – bolalar» va h.

Yuqorida ayтиб о‘tilganlardan shu narsa ayон bo‘ladiki, muharrirlik mahoratini belgilovchi omillardan, ya’ni komil tahrirchi bo‘lishning birinchi sharti, boshqacha aytganda, komillikning birinchi bosqichi, bu – adabiy nutq sohasi. Vaholanki, hozirgi o‘zbek adabiy nutqi o‘z rivoji tarixida qadimgi turkiy adabiy nutq, eski o‘zbek adabiy nutqi kabi rivojlanish bosqichlaridan o‘tib takomillashib kelgan.

Demak, komil tahrirchi bo‘lishni istagan har bir muharrir yoki matn tuzish, tahrir bilan shug‘ullanuvchi qadimgi turkiy adabiy nutq leksikasi, uning yangi so‘z yasalishidagi ichki imkoniyatlari (xususan, unga xos yasovchi qo‘shimchalarni) yaxshi bilishi, bugungi kundagi adabiy nutqda qo‘llanayotgan qadimgi turkiy adabiy nutqqa xos termin (so‘z)larning tub ma’nosidan yaxshi xabardor bo‘lishni talab eti-ladi. Bundan tashqari eski o‘zbek adabiy nutqi leksikasi, so‘z yasovchi qo‘shimchalari, yangi so‘z hosil qilish usullari, umuman, o‘z qatlamga oid barcha til hodisalari va ularning adabiy nutqni yuzaga kelishidagi ahamiyatini yaxshi o‘zlashtirishi kerak. Shuningdek, eski o‘zbek ada-

^{1*}...so‘z berdi, tomonlar kelishib olishdi, ... masala ko‘rib chiqildi, jahon andozalarini asosida, innovatsion texnologiyalarga tayanib, yilning eng yaxshi filmi, fuqarolik jamiyatni, huquqiy davlat, aybsizlik pridumpsiyasi, parlament boshqaruvi, prezidentlik boshqaruvi va b.

biy nutqiga boshqa qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardan o‘zlashgan termin (so‘z)lar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar etimologik ma’nosidan yaxshi xabardor bo‘lishi lozim. Bundan tashqari ular bizning adabiy nutqimizda qo‘llanishi o‘rinlimi yoki o‘rinsizmi, qay darajada maqsadga muvofiqligini anglay bilishi kerak.

Nihoyat hozirgi o‘zbek adabiy nutqi, uning fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiysi va sintaksisidan chuqur bilimga ega bo‘lishi shart. Vaholanki, hozirgi o‘zbek adabiy nutqi ikki o‘tmishdoshiga nisbatan o‘z lug‘at tarkibining nihoyatda boyligi, ya’ni so‘z yasalish va hosil bo‘lish imkoniyati kengligi bilan ancha farqlanadi. Uning lug‘at tarkibida arab, fors tillaridangina emas, balki, Yevropa xalqlari adabiy nutqidan ilm, fan, texnika, san‘at, ta‘lim, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, harbiy, adliya, davlatchilik, iqtisod va boshqa sohalarga oid kirib kelgan hamda kelayotgan ko‘plab termin (so‘z)lar uchraydi. Ularni adabiy nutqqa o‘zlashtirish qay darajada maqbul ekanligini ilmiy asoslay olish lozim. Bular barchasini chuqur anglash uchun adabiy nutq ilmini puxta bilish shart.

Demak, komil tahrirchi bo‘lish uchun birinchi bosqich – o‘zbek adabiy nutqi bosqichini mukammal o‘tash lozim. Har bir muharrir mahoratli tahrirchi bo‘lishi uchun hozirgi o‘zbek adabiy nutqini tashkil etuvchi quyidagi bo‘limlar bo‘yicha bilimlarni yaxshi o‘zlashtirishi tablab etiladi:

- hozirgi o‘zbek adabiy nutqining yuzaga kelishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari;
- hozirgi o‘zbek adabiy nutqining tovush tizimi (fonetikasi);
- adabiy nutq asoslangan yozuv;
- adabiy nutqdagi to‘g‘ri yozish qoidalari;
- adabiy nutqdagi to‘g‘ri talaffuz
- adabiy nutq so‘z boyligi (lug‘at tarkibi);
- adabiy nutqdagi frazeologizmlar;
- umumiy, maxsus, tarjima lug‘atlar, o‘z til lug‘atlari;
- adabiy nutq morfemikasi;
- adabiy nutqda so‘z yasalishi;

- adabiy nutq morfologiyasi;
- adabiy nutqdagi so‘z turkumlari;
- adabiy nutqdagi ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklamalar;
- adabiy nutqdagi tinish belgilar, urg‘u va bo‘g‘in ko‘chirish.

Yuqorida qayd etilganlar bo‘yicha puxta bilimga ega bo‘lgach muharrirlik mahoratiga ega bo‘lishning ikkinchi bosqichiga o‘tiladi.

Agar birinchi bosqich bo‘yicha bilimga to‘liq ega bo‘linmasa, ikkinchi bosqichdagi bilimlarni o‘zlashtirish amri mahol!

O‘z bilmini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Qadimgi turkiy til va adabiy nutq haqida nima bilasiz?
2. Xalq tili bilan adabiy nutqning farqi nimada?
3. Adabiy nutqni tashkil etgan lahjalarga ta’rif bering, misollar keltiring.
4. Adabiy nutqning boyishi qanday imkoniyatlarga asoslanadi?
5. O‘zbek adabiy nutq lug‘at tarkibi boyishi bugungi kunda qaysi chet tillar hisobiga bo‘lmoqda?
6. O‘zbek adabiy nutqiga asosan qaysi sohalarga oid terminlar faol o‘zlashmoqda?
7. Chet so‘zlarni o‘zlashtirish qanday qoidalarga ko‘ra amalga oshiriladi?

2-b o b. ADABIY NUTQ USLUBLARI

Reja

1. Adabiy nutq va shevalar.
2. Uslublarning guruhlanishi.
3. Rasmiy-ish yuritish uslubi.
4. Badiiy uslub.
5. So‘zlash nutqi: a) oddiy; adabiy.
6. Funksiyal uslubiyat.
7. Rasmiy-ish yuritish uslubining vazifasi.
8. Ilmiy uslub.
9. Ilmiy-ommabop uslub.
10. Publitsistik uslub.
11. Badiiy nutq.

1-§. Til egasi bo‘lgan xalqning so‘zlashuvi – tabiiy tili zaminda yuzaga keluvchi nutq, avvalo, og‘zaki nutq ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Og‘zaki nutq so‘zlashuv nutqi sifatida talaffuzda tabiiy til ikkisi o‘rtasida hech bir farq sezilmaydi.

2-§. Yozuvning paydo bo‘lishi bilan og‘zaki nutq moddiylashadi va yozuvda belgilarni asosida namoyon bo‘ladi, natijada nutqning ikkinchi ko‘rinishi – yozma shakli yuzaga keladi. Yozma nutq ilk davrida og‘zaki nutq talaffuzi bilan deyarli bir xillikka ega bo‘lgan. Bu haqda Bobur Andijon aholisining tiliga ta’rif berib, ular lafzi bilan yozuvi rost durur, degan edi. Hozirgi zamonda ayrim xalqlari talaffuzi bilan yozuvi mosligi kuzatiladi. Masalan, ispanlarda, shuningdek hech qanday ishlowsiz, adabiy nutq deb qabul qilingan lahjali xalqlarda ham adabiy nutq bilan so‘zlashuv nutqi orasida farq sezilmaydi.

3-§. Alohida olingan bir xalq tilida tarmoqlanishning yuz berishi, bir tilda so‘zlovchi xalq bo‘linishi va hududiy uzoqlashish tufayli umumiy tilda xususiyylanish yuz bera boshlaydi. Natijada ular leksikasida o‘z guruhi tomonidan xos tarzda qo‘llanadigan so‘zlar, ilgari umumiste‘molda bo‘lgan so‘zlarni, qo‘shimchalarni ayricha talaffuz etish, boshqa lahjanikidan farqli sintaktik konstruksiyalar paydo bo‘ladi. Ayrim so‘zlar shaklan bir xil bo‘lsa-da, ma’no jihatidan farqlanadi: *shoti* (tosh. shevasida – aravaning shotisi; farg‘. shevasida – narvon). Ayrim bir xil so‘z bir mamlakat turli hududlarida yashovchi sheva vakillarida o‘ta farqli ma’nolarda qo‘llanadi. Masalan, *toza* (tosh. shev. *pok, yuvilgan, iflos emas*); *ko ‘p, juda, o ‘ta, haddan ziyod, mo ‘l*; farg‘. shev. – *ravish vazifasini bajaradi: toza keldingizmi?* Xorazm shev. – *tozalab turmoq – yoshartirib turmoq*). Ko‘rinadiki, uch mahalliy shevada ayni bir so‘z uch xil (bir-biridan keskin farq qiluvchi) ma’noda qo‘llaniladi. Ayni bir sintaktik konstruksiya turli shaklda bo‘ladi: *keta turib, ketvotib* (tosh.sheva); *ketyatip, ketayotip, ketatip* (farg‘.shevasida).

4-§. Qarindoshlik munosabatiga ko‘ra ayni bir maqomga ega insonni, o‘ziga aloqadorligi turli nomda namoyon bo‘ladi: *oyi, opa, ona* (tosh. shev.); *aba, ena, aya, acha* (farg‘.shev); *shesha* (qipchoq lahja); *ada, doda, ota* (tosh.shev); *dada, ota* (farg‘.shev). Shu va boshqa turlicha til hodisalari mavjudligi ayni bir tildagi turli lahja va sheva vakillari nutqini ham og‘zaki, ham yozma ko‘rinishda bir xilga keltirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ana shu umumxalq tilining qayta ishlangan, silqli langan va muayyan me’yorga solingan (har bir lahja va sheva vakili uchun qaysidir darajada odatiylikdan uzoqlashgan) shakli adabiy nutq tarzida umumiy qabul qilinadi.

5-§. Adabiy nutq umumxalq tiliga oid lahjalar, ularning shevalarini ilmiy-fonetik, leksikologik va grammatick meyorlar asosida umumlashtiradi hamda umumxalq tili vakillari uchun birdek tushunarli shakl oladi.

6-§. Adabiy nutq tushunchasi, odatda, uslublar tushunchasi bilan bog‘lanadi. Ammo bu bog‘lanish bir tomonlama, Chunki nutqdagi uslublarning o‘zi adabiy nutq ko‘rinislari hisoblanadi. Ular adabiy nutq

rivoji tarixida shakllangan muayyan belgilar majmuidan iborat bo‘ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin bu takroriy belgilarning ma’lum shaklda birikishi va vazifasining o‘ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi.

Uslubiyat nima? Uning boshqa filologik fanlar bilan aloqadorligi qanday? Jurnalistika fakulteti talabalariga uslubiyat fanini o‘qitishdan maqsad nima. Fanning vazifasi qanday? Bu va boshqa savollarga biz quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Uslubiyat nutqiy (og‘zaki va yozma) muloqot vaqtida til (til birliklari va kategoriyalari) dan foydalanish haqidagi fandir.

Uslubiyatda, asosan, «til birliklaridan foydalanish yoki «til birliklarining muayyan vazifani bajarishi haqida so‘z boradi. Ana shu vazifa bajarishga ko‘ra u fueksiyaviy (vazifaviy) uslubiyat deb ataladi. «Til vositalaridan foydalanish ... ga tildan foydalanuvchi, ya’ni nutq egasi nuqtai nazaridan qarash lozim.

Til vositalari muayyan vazifa bajarar ekan nutq egasining maqsadiga ko‘ra ma’lum o‘zgarishlarga uchrnaydi. Bu o‘zgarishlar ayrim til birliklari, kategoriyalari, so‘zlar guruhi, grammatik shakllar, konstruksiyalar (tuzilmalar) va fonemalarda yuz beradi.

Uslubiyat tilshunoslik fanlari orasida alohida o‘rinni egallaydi. Boshqa tilshunoslik fanlari tilida *nima* borligini o‘rgansa, uslubiyat til birliklari va kategoriyalardan *qanday* foydalanishini tadqiq etadi. Nutq (og‘zaki, yozma)da fikr, his-hayajon, fikr almashish, informatsiya yetkazish qanday kechadi, mana shular uslubiyatning mohiyatini tashkil etadi. Bir so‘z bilan aytganda *harakatdagi* tilni o‘rganadi.

Tilda shakllangan birliklar va kategoriyalar nutqiy muloqot jarayonida quyidagilarga bog‘liq ravishda muayyan funksiya (vazifa) bajaradi:

- xabarlar mazmuniga;
- matn (umumiyligi nutqiy muloqotiga);
- nutqiy muloqot amalga oshirilayotgan sharoitlarga.

Tilning qanday vositalari birikmaga kirishishi, bir-birlari bilan bog‘lanishi, bir-biriga moslashishi, muloqot sohasi, nutq shakli

(og‘zaki, yozma), matn mavzusi, muhokamaning mohiyati, «gaplas-hish» va h. ko‘ra uslubiyat quyidagilarni aniqlashtiradi:

– tildan kishilarning birgalikda faoliyat olib borishlari, ish yuritishlari, umuman, turmush kechirishlari kabi jamiyatning muhim ehtiyojini qondirishda qanday foydalanilishini;

– har bir til birligi qanday vazifani bajarishini;

– muayyan matn tarkibida (yoki muayyan matn turida), u yoki bu muloqot sharoitda til birliklari mutanosiblashishi yoki bir-biriga ta’sir etishini;

Uslubiyat tilidan foydalanish masalasini aniqlashtiradi, tadqiq etadi. Bu uning predmetini tashkil etadi. Uning tilshunoslikning boshqa fan sifatidagi mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Ana shunga ko‘ra uslubiyat tilshunoslikning funksiyaviy-kommunikativ (vazifaviy-muloqot) turi hisoblanadi va nutq madaniyatini, ortologiya (to‘g‘ri nutq haqidagi fan)ni, til me’yorlari to‘g‘risidagi ma’lumotni, ijtimoiy lingvistikani, adabiy nutq nazariyasini o‘z ichiga oladi.

Uslubiyatga oid mashg‘ulotlarda quyidagilarni a’lo darajada bilish (o‘rgatish) nazarda tutiladi.

1. Til «material»ini, kategoriyalarini birliklarini – uning tizimini tashkil etuvchilarni;

2. O‘zbek tili fonetikasi, leksikasi, grammatika (morphologiya sintaksisi) si, frazeologiyasi, so‘z yasalishi va b. ni;

3. Uslubga ko‘ra ega va kesim moslashuvini.

4. Sodda va qo‘shma gaplar tuzilishini.

5. Tildagi ob‘ektiv va sub‘ektiv munosabatni.

6. O‘timli va o‘timsiz fe’llarni.

7. Qaratqich va tushum kelishiklarining farqini.

8. Mavhum otlar, shakllar omonimiyasi va h. ni.

Uslubiyatda, avval, mikromatn, shuningdek, muallifning umumiyligi fikri, kontekst ta’siriga ko‘ra tahsil etilayotgan matnda til birikmalari foydalanishdagi me’yordan chetlanish – (sintaktik konstruksiyalardagi kamchiliklar, frazeologizmlarning xato qo‘llanganligi, so‘zlarning birikmaga noto‘g‘ri kiritilganligi, so‘zning o‘z ma’nosida

qo'llanilmaganligi, ma'no bo'yog'idan noto'g'ri foydalanilganligi e'tiborga olinadi.

... *Havo bulut edi. Oq bulutlar bo'lganlikdan quyoshning nuri unga kesilmagan, quyosh to'r ro'mol ichida o'tirgan kelinlar kabi yer yuziga suzilib qarar edi* (Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. 222-bet).

«Tabiat manzarasini chizar ekan adib *quyosh kelinlar kabi suzilib qarar edi*». O'xshatish konstruksiyasini tuzadi.

Uslubiy nuqtai nazardan bu konstruksiya e'tiborni o'ziga tortadi. Grammatika bo'yicha mutaxassisning fikriga bu konstruksiya grammatik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Leksikolog esa *suzilmoq* so'zini qo'llashda me'yordan chekinish bor deydi:

Uslubiyat bo'yicha mutaxassis esa mazkur konstruksiyadagi me'yordan chekinishlikni aniqlay boshlaydi: nima uchun, nega? Matn uchun bu nima beradi, muayyan aniq ifodaga yana qanday yangi ifoda (ottenka) bag'ishlaydi.

Mazkur konstruksiya tasviriy tilshunoslik nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, aslida, *quyosh kelinlar kabi qaraydi*. Konstruksiya to'rt komponentdan tashkil topadi: *quyosh*, *kelin*, *kabi*, *qaraydi*. Bu konstruksiyada *quyosh*, *kelin* – ot, *kabi* – ko'makchi, *qaradik* – fe'l (o'tgan zamon). Ulug' adib quyoshning nur taratishini inson qarashiga o'xshatar ekan qarashga xos ko'plab belgilar orasidan faqat bittasini tanlaydi: *suzilib*. Ana endi tasviriy tilshunoslikdan uslubiyatga o'tiladi: nega? Inson qarashiga turli belgilar xos: *kulib qarash*, *xo'mrayib qarash*, *bezrayib qarash*, *tirjayib qarash*, *jilmayib qarash*, *tumshayib qarash*, *tersayib qarash*, *ola qarash*, *irjayib qarash*, *sirli qarash*, *shubhali qarash*, *ishonqiramay qarash*, *ishonib qarash*, *chaqchayib qarash*, *baqrayib qarash*, *yov qarash*, *do'stona qarash*, *bo'zrayib qarash*,

Iljayib qarash, *yotsirab qarash*, *yig'lamisirab qarash* va h.

Nega yozuvchi qarashga xos ko'pgina belgilar ichidan faqat *suzilibni* tanladi. Ana shu tanlash ayni uslubni anglatadi.

Agar *suzilib* so'zi – ravishdoshning nominativ (atash) ma'nosiga e'tibor bersak u insonga xos qarash belgisini anglatadi, ma'no bo'yog'i, tabiiyki, ijobi. Bunday qarashga insonlar yoshi, jinsidan qat'iy nazar

barchasi ham ega bo‘lishi mumkin. Lekin ular barchasi birdek ijobjiy emas. Adib yuqorida ayol zotiga mansub tur – *kelin qarashiga* quyoshning nur sochishini o‘xshatadi. Necha kelinning nega qizlarning, necha katta yoshdagilar kampirlarning ? Vaholanki, ular ham ayol! Chunki qizlarning *suzilib qarashi* – *odobsizlik*, yoshi kattalarniki – yarashma-gan qiliq. Kelinlarning bu xil qarashlari ham ma’lum davrda (yangi kelinlik davrida), shunda ham o‘z jufti halollariga nisbatan bo‘lsa, ijobjiy sanaladi. Yuqoridagi badiiy matn ekanligini hisobga olsak, unda mualif quyosh nurlarini oq bulut to‘sib qo‘yanligi va uning ham yorug‘li-gi xira tortgan hovuri pasayganligi va bu kishiga yoqishlik darajasida ekanligini ta’kid eimoqchi bo‘ladi va buni kelinlarning suzilib boqishi yoqimliligiga o‘xshatadi.

Uslubiyat tildagi bu hodisani tadqiq etarkan tasviriy tilshunoslik bilan o‘zaro jips bog‘liqdir, chunki u mohiyatan tilni tadqiq etishni niho-yasiga yetkazadi. Uslubiyat tilni tizimli-tuzilmaviy tahlil qila olish vazifasi (tasviriy tahlil) dan o‘tib, lingvistika qismlariga asoslangan holda quyidagilarni tadqiq etadi:

1. Fikrni ifoda etishning yondosh (parallel) usullaridan, til vositalari yordamida yuzaga chiqadigan his-hayajonlarni.
2. Turli maqsadlarda va nutqiy muloqot sharoitlarida til vositalari ning turli yo‘sinda birikuvi, qo‘shiluvchi usullari, tartibini.
3. Nutqiy muloqotda, yozma va og‘zaki nutqda til unsurlari, kategoriyalarining amalda qo‘llanilish qonuniyatlari va o‘ziga xosliklarini.

U darvozaga yaqinlashayotgan edi, nimadandir cho‘chib chetga burildi. Chunki darbozadan chiqib qolgan ikki kishini ko‘rib, bularning birini qayin otasi bo‘lib chiqmagidan hurkkan edi.

Mazkur parchadagi jumlalar grammatika nuqtai nazaridan to‘g‘ri ekanligini hech bir tilshunos inkor etmaydi. Faqat leksikolog so‘z qo‘llash xususida me’yordan ma’lum darajada chetlashishi borligini qayd etadi va shu bilan cheklanadi. Faqat uslubiyatchi mutaxassisiga birinchi jumlada *cho‘chimoq*, ikkinchi jumlada *hurkmoq* so‘zining qo‘llanilganiga *nega* deya e’tibor beradi va uning tahliliga kirishadi, bunday ikki xil qo‘llash mohiyatini ochib beradi.

Birinchi jumladagi *cho 'chimoq fe'* lining genetik ma'nosini *kutilmagan holatdan xavotirga tushmoq* ifodasini beradi, ya'ni holat, harakat xavotir bilan bog'liq va bu holat ayni insonlarga xos.

Ikkinci jumladagi *hurkmoq* so'zining genetik ma'nosini jonivorlarga ularning ham muayyan turi – ot, eshak, qora mol, tuyaga xos holat, harakat ifodasini beradi va bu holat, harakat *qo 'rquv* bilan bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi har ikki jumla grammatika qoidalariga muvofiq tuzilgani, ya'ni ega, kesim ikkinchi darajali bo'laklar o'z o'rnida, so'zlarning birikmaga kirishuvchi ham me'yorida ekanligi tasviriy tilshunoslik nuqtai nazaridan to'g'ri deya tan olinadi va bular uning o'rganish ob'ekti hamda predmeti hisoblanadi.

Leksikologlar *cho 'chimoq, hurkmoq* so'zlarining bir-biriga sinonim ekanligi, faqat *cho 'chimoq* so'zi ma'no ifodasi betaraf, ta'kidlash bilan kifoyalanadilar. *Hurkmoq* so'zi ma'no bo'yoqqa egaligini

Uslubiyat bo'yicha mutaxassislar, boshqacha aytganda, semin tahlil bilan shug'ullanuvchi tilshunoslar esa har ikki so'z, garchi sinonim bo'lmasa-da nega qo'llanildi, degan savolni qo'yadi va leksik birliklar grammatik kategoriyalarni semik tahlil qilishga o'tadi. Tilshunoslikdagi semin tahlil adabiy tahrir fanida mantiqiy tahlil – har ikki ibora teng ma'noga ega. Tajribasiz muharrir (uslubiyat, semik tahlil, mantiqiy tahlildan xabarsiz) nega endi insonga xos holat, harakat belgisini jonivorlarga xos holat, harakat belgisini ifoda etuvchi so'z bilan atash kerak, deya *hurkmoq* so'zini *qo 'rqaq* so'zi bilan almoshtirsa yoki konstruksiyanı o'zgartirsa tasviriy tilshunoslik nuqtai nazaridan qoidadan tashqari hisoblanmaydi. Mikrotahrir nuqtai nazaridan ham shunday. Ammo uslubiyat, makrotahrir nuqtai nazaridan qaralsa boshqa holat ayon bo'ladi.

Adib badiiy matn yaratishdan avval, albatta, uning kompozitsiyasi, o'z maqsadi va bu maqsadni amalga oshirishda tildagi vositalardan qanday foydalanish va boshqalar haqida chuqur mulohaza yuritadi. Natiyada muallifning individual uslubi yuzaga keladi.

Abdulla Qadiriy birinchi jumlada *cho 'chib* ravishdoshini qo'llaganining boisi, uni *cho 'chitgan* narsa, hodisa hali ma'lum

emasdi. Ana shu nogahoniy ta'sirdan Otabek cho'chib tushadi. Al-batta, cho'chishlikka qo'rquv sabab bo'ladi. Keyingi jumlada esa *hurkib* ravishdoshi – *cho chibning* sinonimidan foydalanadi. Nega? Uslubiyat ana shu negaligini tadqiq etadi va quyidagi xulosaga keladi:

- *cho chib* so'zi ma'no ifodasida hali *qo'rqish* hissi yo'q, u *xavotirlanish, sergaklanish* ma'no ifodasini beradi;
- *hurkib* so'zi ma'no ifodasida esa *qo'rqish* hissi ma'no ifodasi ayon seziladi;
- birinchi holatda xavotirga solgan, sergaklantirgan ob'ekt noma'lum;
- ikkinchi holatda *qo'rquvga* sabab bo'lgan ob'ekt – ikki kishi ma'lum;
- ikki kishidan biri «qayin otasi bo'lib chiqmog'i».

Otabek, agar har ikki kishi begona ekanini avvaldan bilganda edi *qo'rqib* o'tirmasdi. Chunki ular Otabekka tanish bo'lman bir yo'lovchi sifatida qaror va ahamiyat bermas, To'qnash kelganda ham salom-alikdan nariga o'tmasdi. Lekin, ikki kishidan biri qayin otasi bo'lsachi, ...

Ot, tuya ... lar uncha-munchaga hurkimaydi. Ularni hurkituvchi ta'sir, ya'ni *qo'rqinch* kuchli bo'lishi kerak. Qayin otasi bilan uchrashib qolish Otabek uchun kuchli *qo'rquv* edi. Undagi ana shu *qo'rqinchni* ifoda etish uchun Abdulla Qodiriy *hurkib* ravishdan foydalanadi. Aslida *hurkib* so'zini kishilar tushib qolgan holat va ularga xos harakat ifodasi uchun *qo'llash* faqat salbiy ma'noda bo'lishi mumkin. Lekin Abdulla Qodiriy o'z ijobiylar qahramoniga nisbatan *qo'llaydi* va qayin otasidan qattiq dashnom olib, qattiq izza bo'lgani uchun bunday uchrashuv qay darajada og'ir ekanini ifodalash maqsadida *hurkib* so'zini – ijobiylar ma'no bo'yog'iga ega bo'lishiga «majbur» etadi. Uslubiyat ana shuni tadqiq etadi, adib individual uslubini ochib beradi.

Biz yuqorida uslubiyat nutq madaniyati bilan jips aloqada degan edik. Zero, uslubiyat funksiyaviy kommunikativ fanlar sirasiga kiradi.

Bu fanlarni tilga bo‘lgan umumiy asosiy yondashuv birlashtiradi. Mavz kur fanlar til egalarining nutqiy muulloqot jarayonida til vositalaridan foydalanishlaridagi o‘ziga xoslik va qonuniyatni o‘rganadi.

Demak uslubiyat, nutq madaniyati, ortologiya, ritorika til unsurlari va kategoriyalardan adabiy nutq doirasida oqilona, me’yorida foydalanishni tahlil etadi.

Nutq madaniyai haqidagi ta’limda til birliklaridan kundalik nutqiy muloqotda, yozma va og‘zaki tarzda adabiy jihatlari doirasida foydalanishni ko‘rib chiqiladi.

Nutq madaniyati deyilganda alohida olingen bir kishi va aholi nutq madaniyatining umumiy darajasi ham nazarda tutiladi.

Nutq madaniyati bo‘yicha mutaxassislar amaldagi adabiy nutq me’yorlari tizimi nuqtai nazaridangina emas, balki, individual hamda umumiy nutqiy madaniyatga uning qanchalik mantiqiyli bayonidagi aniq-tiniqlik va ifodalilik (estetik) ekanligini ham nazarda tutadilar.

Adabiy me’yorlar nuqtai nazaridan nutq madaniyatiga qo‘yidagi talablar qo‘yiladi:

- til vositalaridan foydalanishning asoslangan bo‘lishi;
- matn tuzilishi mantiqan izchillikka ega bo‘lishi;
- bayon aniq-tiniq, tushunarli bo‘lishi.

Shunday qilib nutq madaniyati sohasidagi tadqiqot o‘z ichiga faqat adabiy nutqnigina emas balki xalq so‘zlashuv tilini ham to‘liq qamrab oladi, demak, oddiy og‘zaki so‘zlashuv unsurlari, xalq shevalari, jargonlar – jinoyatchilar argosidan tortib, to kasb-hunarga oid nutqdagi bilgan-bilmagan holda og‘zaki, yozma nutqqa, shu jumladan adabiy nutqqa o‘tadigan barcha-barcha unsurlarp tahlil etiladi.

Ayni mana shu masalalar bilan shug‘ullanishiga ko‘ra nutq madaniyati uslubiyatga yaqinlashadi.

Uslubiyat esa nutq madaniyatidan farqli o‘laroq asosiy e’tiborni adabiy nutqqa hodisalarga ular tufayli erishilgan uslubiy samara nuqtai nazaridan qaraydi va unga qanchalik erishilgani (yoki erishilmagani) ni, adabiy nutq me’yorlariga asoslangan matnga qancha o‘rinli yoki o‘rinsiz kiritilganini baholaydi.

Nutq madaniyati tadqiq etadigan adabiy nutqqa xos bo‘lmaidan hodisalar doirasi, uslubiyatdagidan kengdir. Buni kundalik nutqda me’yorlashmagan hodisalar cheklanmagan miqdorda uchrashi bilan izohlash mumkin. Hatto, shaxsiy yozishmalar ham bundan holi emas. Agar kundalik nutqiy muloqotda me’yorlashmagan nutqdan bevosita turmush tashvishlari xususidagi suhbatlarda, nutqiy muloqot vaziyatga ko‘ra bo‘lganda foydalanilsa, adabiy mantga ular muayyan uslubiy maqsadga ko‘ra kiritiladi.

Individual nutq ham, umumiy nutqiy madaniyat ham til egasining saviyasiga, ijtimoiy ongiga, adabiy nutq rivoji va uning hozirgi darajasiga bog‘liq.

Abdulla Qodiriyning hoh katta, xoh kichik asarlaridagi obrazlarning, albatta, hayotda o‘z prototiplari bo‘lgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning o‘g‘li Habibulla Qodiriyning yozishicha Toshpo‘lat tajangning hayotida prototipi bo‘lgan, u ham «gapni xuddi Toshpo‘lat kabi uzuquzuq, chertib-chertib so‘zlar edi» (Otam haqida 45-b.). Polvon ismi bu shaxsning Qodiri bilan suhbatdagi nutqiga e’tibor beraylik.

Shu, degin, Julqunboy uka, – hammayoqni qimorga boy berib, juda abgor bo‘lib yurgan chog‘im edi. Bir kun boshim qotib qotib ko‘chada borayotsam, yonimdan boyvachcha kiyangan yosh bir yigit o‘tib qoldi. «To‘xta», dedim «san boyvachchani yoningdagi pulingni bir sanab ko‘raychi, qancha ekan», dedim ichimda (Otam haqida. 46-b.).

Abdulla Qodiri Polvonning nutqi bilan Toshpo‘lat tajangni so‘zlatishdan maqsadi qahramoni tabiatini, qiyofasini o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantirish maqsadida badiiy uslub talabiga ko‘ra hajviy obraz yaratishdir. O‘tgan asrning 20–30-yillarida, jamiyatda ana shunday nutq egalariga ko‘plab duch kelingan va ular zamonasiga mos edi.

Bugungi kun «Toshpo‘latlar»ining nutqi esa butunlay o‘zgacha:

— Shu, desang, bordim ... nima, gudid qilurasan, etgan gapingga atvechat qimlasanmi, yo‘q, atvechat qilasanmi? Korochchisi, boshqa gudid qima ... sanminan voobshe gaplashmiman, xo‘, tushindimi?

Konchay ... Qo 'q san, o 'zing kimmnan gapplashvotganini bilasanmi? Lyuboyini sindirib qo 'yaman ...

Har ikki nuqtadan uning egasi kim, ongi, saviyasi, madaniyati qay darajada ekanligi, jamiyatda qanday o'rin tutishligi ayon bo'ladi.

Demak, nutq madaniyati, aytish mumkinki, baholovchi fan hisoblanadi. U asoslarini baholaydi, me'yoriylashganlik darajasini aniqlaydi. Muayyan nutqiy vaziyatda mazmunan o'rinni o'rinsiz ekanligini tahlil etadi.

Uslubiyat nutq madaniyati sohasidagi tadqiqotlarga nazariy asos bo'lib hisoblanadi. O'rganilayotgan til unsurlari uslubiyat nuqtai nazaridan aniq tafsifga ega bo'ladi.

«Til madaniyati yoki nutq madaniyati haqidagi fan ham nazariy, ham amaliy fan (yoki tadqiqot sohasi), til uslubiyati va nutq uslubiyati bilan turdosh hisoblanadi!»¹.

Demak nutq madaniyati fani bilan uslubiyat fanining tadqiqot ob'ekti yozma va og'zaki nutq hisoblanadi, nutqni baholash nutq madaniyatining, nutqni adabiy nutq, nutqning turli janrlariga qay darajada mosligi hamda, adabiy nutq me'yorlaridan mosligi hamda, adabiy nutq me'yorlaridan chetga chiqishliklarni o'rganish uslubiyatning predmeti hisoblanadi.

Uslubiyatga bag'ishlangan adabiyotlarda uslublar quyidagicha guruhlanadi:

1. Ilmiy uslub.
2. Badiiy uslub.
3. So'zlashuv uslubi.

7-§. Ilmiy uslub quyidagi sohaviy uslublarni o'z ichiga oladi:

- a) ilmiy-texnikaviy uslub;
- b) ilmiy-tadqiqot uslubi;
- v) ilmiy-ommabop uslub;
- g) ilmiy-publisistik uslub;

¹ Виноградов В.В. Проблемы русского языка. —Москва. 1981. —175-6.

Bular barchasi yozma nutqdagi uslublar bo‘lib, ular bilan bir qator-da og‘zaki nutq uslublari ham bor. Bular: radionutq; kinonutq, telenutq.

Albatta, adabiy nutqni ta’riflash uchun yana boshqa jihatlar ham bo‘lish ehtimoli yo‘q emas. Bu tadqiqot mohiyatiga bo‘lgan yonda-shuv, bayonning maqsadi va vazifasi bilan bog‘liqidir.

8-§. *Ilmiy uslub* fan sohalarida ilmiy bilish uchun amal qiladi, uning asosiy vazifasi ma’lumot (informatsiya) berish. Mazkur uslubda asosan ilmiy terminlardan foydalaniladi. Ular mantiqiy idrok etilgan tushun-chalarni belgilashga xizmat qiladi hamda mantiqiy axborot tashiydi. Bu uslubda asosan umummilliy va mavhum (abstrakt) ma’noli so‘zlar ko‘p uchraydi. Ilmiy uslubda ot turkumiga mansub so‘zlardan foydalaniladi, bu ushbu uslubning nomlash (nominativ) tavsifga egaligi (asosan belgilash, hodisani tavsiflash)ni ko‘rsatadi. Bu uslubda birlikdagi muayyan otlar umumlashgan ma’no kasb etadi, ko‘pgina ajratilgan va ashyoviy-lashgan otlar ko‘plik sonida keladi, birinchi shaxs ko‘plikdagi shakldan va birgalik ma’nosidan faol foydalaniladi, o‘tgan zamon majhul sifat-doshining faol shaklidan, o‘zlik – shaxssiz shakldan, shaxsi noma’lum shakklardan ham foydalaniladi. Sintaktik konstruksiyalar ham grammatik, ham mantiqiy jihatdan to‘laqonli gaplar, odatda, murakkab va murakkablashtirilmagan bo‘ladi, bularda sabab-oqibat aloqadorligining ifodasi ustunlik qiladi, sifatdosh o‘rami, ravishdosh o‘rami uchraydi. Ilmiy uslubda chizmalar, jadvallar, diagrammalar, alohida tenglama-lar, statistika ma’lumotlari ko‘plab uchraydi. Bu uslub qisqa, lo‘nda bo‘lishi, mazmunning aniqligi, ochiqligi, ochiq-oydinligi, ob’ektivligi, mantiqiyligi va isbotlanganligini ta’minlashi zarur.

Rasmiy-ish yuritish uslubi adabiy nutq uslublaridan biri bo‘lib, ish yuritish hamda rasmiy sohada, ishga, huquqqa aloqador munosabatlarda qo‘llanadi. Uning asosiy vazifasi xabar berish, ma’lum qilish, bular barchasi asosan yozma tarzda bo‘ladi.

Mazkur uslubda yoziladigan matnlar rang-barang janrda namoyon bo‘ladi, bir-biridan bayoniga ko‘ra sezilarli farqlanadi (masalan, qonun, qonunchilik hujjatlari, yo‘riqnomma, hisobot, qaror, ariza, tushunti-rish xati, bayonnaoma, ma’lumotnomma va h.).

9-§. Tabiiyki, barcha noshirlik mahsulotlari, jumladan, adabiy asarlar ham ilmiy uslubda yoziladi. Lekin, ular tur nuqtai nazaridan uslub umumiyligi bilan birga o‘ziga xoslikka ham ega bo‘ladi. Masalan, ilmiy adabiyot, ilmiy-ommabop adabiyot, o‘quv adabiyotlari, qomusiy adabiyotlar, sohaviy adabiyotlar, ma’lumotnomalar va h.

10-§. *Badiiy uslub* ham umumxalq tiliga asoslangan adabiy nutq, undagi ilmiy uslub publisistik uslub bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Bu uslub til vositalaridan boshqa barcha uslublarga nisbatan unumli va erkin foydalana olish, shuningdek, boshqa uslublarga xos ifoda etish, sintaktik konstruksiyalar tuzish imkoniyati bilan ajralib turadi.

11-§. Badiiy uslubda adabiy nutq, me’yorlaridan chekinish, grammatika qoidalaridan chetga chiqish (mas, inversiya, tovush tushishi, kelishik qo‘srimchalarini almashtirish va h.), personaj nutqini individuallashtirish (personifikatsiya), jonlashtirish, lahja tarkibiga kirmagan so‘zlarni qo‘llash, arxaizm, istorizm, argo va jargonlardan, frazeologizmlardan, hatto, vulgarizm, varvarizmlardan foydalanish kabi hollar uchraydi.

12-§. Boshqa usulublarda deyarli uchramaydigan tasvir vositalari badiiy uslubda keng qo‘llanadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari – maqol, matal, iboralar va ma’nosи bo‘yoqdir so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Badiiy uslub keng qamrovli bo‘lib, adabiy (me’oriy), og‘zaki so‘zlashuv uslubini, lahja, sheva, shuningdek, kasb-hunarga oid leksik birliklarni , xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘liq qamrab oladi.

13-§. So‘zlashuv nutqi – jonli, har qanday rasmiylikdan holi, erkin tarzda ekstralengvistik (verbal bo‘lmagan) vositalardan ixtiyoriy foydalangan holda bevosita amalga oshiriladigan asosiy aloqaviy og‘zaki muloqot. Adabiy nutq egalari tomonidan shaxslararo muloqot sharoitida amalga oshiriladi (boshqacha aytganda, «gaplashish»ga xizmat qiladi, tanishlararo dialog tarzida kechadi, bundan tashqari do’stlar, oila a’zolari, sinfdosh, kursdosh, bir jamoada ishlovchilar va boshqalar «o‘rtasi»da namoyon bo‘ladi). Bunday muloqotda gap, asosan, mai-shiy, kundalik turmush tashvishlari haqida, faoliyat, xizmatga deyarli

aloqasiz bo‘ladi. Ba’zan, g‘iybat, boshqalarning orqasidan sifatlash tarziga kechadi.

Bu tur so‘zlashuv nutqida tilning muloqot funksiyalaridan biri – norasmiylik sharoitidagi gaplashish, suhbatlashish, nutqiy muloqot ishtirokchilarining, diolog qatnashchisining mutlaqo ochiq-oshkoraliyi, erkinligi kuzatiladi. Bu – og‘zaki nutqning birinchi ko‘rinishi.

14-§. So‘zlashuv nutqining ikkinchisi adabiy nutq turi sifatida namoyon bo‘ladi. U og‘zaki adabiy nutq deb ataladi. Nutqning bu turiga rasmiylik xos, guruhiy, ommaviy muloqotda namoyon bo‘ladi. Muloqot istalgan mavzuda bo‘lishi mumkin. Mazkur nutq garchi og‘zaki bo‘lsada, kitobiy ham deb ataladi. Kitobiy nutqda adabiy nutqning ikki asosiy funksiyasi – xabar (informatsiya) yetkazish va ta’sir o‘tkazish funksiyasi amalga oshadi.

Og‘zaki adabiy-kitobiy nutqdan rasmiy-ish yuritish, ilmiy, publitsistik faoliyatda foydalaniladi. Bundan tashqari badiiy asar, og‘zaki ommaviy muloqot, radio, kino, teatr va televideniye nutqlari ham og‘zaki adabiy nutq turlari hisoblanadi.

15-§. So‘zlashuv nutqining rasmiy, norasmiyligi nutq sodir bo‘ladigan sharoit, vaziyat, xullas, nutqiy muhit bilan bog‘liq. Rasmiy og‘zaki nutq bayonning tartiblanganligi (ko‘pincha mantiq alohida ta’kid etilganligi), odob doirasida, tomonlarda muloyimlikning ustunligi, ovozdagi samimiylilik kabi hislatlarga ega bo‘ladi.

16-§. Norasmiy nutqda dialog ishtirokchilari tomonlar bir-birlari bilan yaxshi tanish (birga istiqomatda bo‘lish va boshqa tomonlardan) yoki ijtimoiy jihatdan (yosh, jinsga ko‘ra) teng bo‘ladilar. Bunday nutq egalari xalq tilida «oddiy insonlar» ham deyiladi. Oradagi munosabating bunday oddiy va samimiyligi suhbatdosh(lar) bilan hech bir tortinmay erkin muloqotda bo‘lishni ta’minlaydi. Ular bir-birlariga hech bir xijolat chekmay o‘z fikrlari, his-tuyg‘ularini bayon etadilar. Ikki yoki guruhiy muloqotning barcha shakllari (xususan, monolog, dialog va h.) aralash-quralash bo‘lib ketadi, noverbal vositalar ham qo‘shiladi. Maqsad – o‘z fikrini «o‘tkazish».

Demak, so'zlashuv (norasmiy) nutq, tuyqus (dabdurus)danligi, dialog ko'rinishida bo'lishi, shaxslar o'rtasidagi muloqot sharoitida o'tishi bilan tavsiflanadi.

Funksional uslubiyat mohiyati.

17-§. Funksional uslubiyat adabiy nutq ko'rinishlari (turlari)ni, ularning shakllanish tamoyillari hamda sabablarini, shuningdek, har bir nutq ko'rinishiga oid matnda foydalanilgan til birligining ichki bog'lanishini, adabiy nutq ko'rinishlarining tabaqalanishini va ularning muayyan adabiy nutqda qo'llanish qonuniyatlarini o'rganadi va o'rgatadi.

18-§. Quyidagilar adabiy nutqning funksiyaviy ko'rinishlari hisoblanadi:

- ilmiy ta'rifni yozma bayon etish;
- ilmiy ma'lumotni yozma bayon etish;
- qonunni yozma tuzish;
- qandaydir shartnomani yozma tuzish;
- siyosiy g'oyani yozma tarzda aniq, tushunarli bayon etish;
- yig'ilishda nutq so'zlash;
- parlamentda matn asosida nutq so'zlash;
- sudda chiqish qilish.

Yuqoridagi nutq ko'rinishlarini yaratishda bayon qilish uchun samarali, mos, eng ta'sirchan til vositalari tanlanadi, maxsus yo'sin mashq qilinadi, ularni qo'llash usuli takomillashtiriladi.

19-§. Adabiy nutqdagi funksional uslublardan yana biri rasmijish yuritish uslubidir. U ijtimoiy maqsadlarga, nutqiy muloqot vazifasiga va muloqot shart-sharoitga mo'ljallangan bo'ladi. Mazkur nutq uslubi ana shu doirada sayqallanadi, takomillashadi. Ma'lumki, ish yuritish ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi, hukumat, davlat idoralarida, madaniy, harbiy, diplomatik, turli jamoatchilik, partiya, tashkilotlarda, uyushmalar, fond va b.larda olib boriladi. Demak, mazkur uslub tarkibi o'z ichida yana turlanadi va har bir bayonda umumiyl jihatlar bilan so'z tanlash sintaktik konstruksiylar tuzishda o'ziga xoslikka ega, bu vazifa, faoliyat bilan bog'liq.

20-§. Rasmiy-ish yuritish uslubi qonunchilik, ish yuritish (ishga aloqador yozishmalar), huquqiy munosabatlarda amal qiladi, shu sohalarda o‘z ifodasini topadi, xabar (informatsiya) yetkazishga xizmat qiladi.

21-§. Rasmiy-ish yuritish uslubi, aytish mumkinki, aqidaviy tavsifga ega. Qonun, qonunchilik hujjatlarning bayoni, davlatlararo shartnomma matnlari, yuridik terminlar – asarlar mobaynida shakllangan: *aybdor, aybsiz, da’vo, elchi, yorliq, farmon, xukm, so’roq, bitim* va h.

22-§. Quyidagilar rasmiy-ish yuritish uslubining vazifasi hisoblanadi:

- ma’lum hujjat, hodisa, shaxs haqida aniq ma’lumot yetkazish;
- chin, xolis, mantiqan puxta, iloji boricha lo‘nda bo‘lish;
- muayyan ishning haqiqiy maqsadi, bitim shartlari, qonunlar, turli qoidalar, yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar va ularning yuridik sharxlari aniq ifoda topishi.

Rasmiy-ish yuritish uslubining bunday funksiyaviy yo‘nalganligi uning nutqiy tuzilishi, bayondagi o‘ziga xosligiga va umumlashganligi, ko‘p jihatdan o‘ziga xosligiga sabab bo‘ladi.

23-§. Rasmiy-ish yuritish uslubida ob’ektivlik, umumlashganlik, bayonning mantiqiy izchilligi, ma’noviy aniqligi, dalillash qat’iy tizimining yaxlitligi va muayyanligi yaqqol ko‘rinadi.

24-§. Bayonning mantiqiy ekanligini ko‘rsatuvchi faol nutqiy vositalardan foydalaniladi. Har bir so‘z ta’bir joiz bo‘lsa, chertib-cherrib aytiladi, har bir jumla, sintagma, so‘z birikmasi aniq-tiniq bo‘ladi, mantiq urg‘usidan unumli foydalaniladi.

25-§. Nutqiy vositalarning qat’iy tanlanganligi, belgilanganligi uni alohida xoslangan nutqligini ko‘rsatadi. Masalan, *Siz quyidagi manzilda yashaysiz: Olmazor ko‘chasi, 44-uy, 4-xonodon.* Norasmiy so‘zlashuv nutqida bayon boshqacha bo‘lishi tabiiy: *Siz Olmazor ko‘chasidagi 44-domda yashaysiz, kvartirayiz 4.*

26-§. Rasmiy ish yuritish uslubida bayon standartlashgan bo‘ladi. Nutqning standartlanishi tabiiy hol. U nutqdan kundalik nutqiy muloqot jarayonida yuzaga keladi. Chunki hayotda bir xildagi, o‘xshash,

stereotip (bir qolip)dagи hodisalar ko‘plab uchraydi. Ana shunday tayyor nutqiy hodisalarning funksiyasi (qanday foydalanish)ni aniq hisobga ola bilish muhimdir. Shunday bilimga ega bo‘lgandagina muayyan vaziyatlarda, yozma va og‘zaki muloqot nutqiy qismida ularni o‘rinli qo‘llash mumkin bo‘ladi.

27-§. Oddiy – so‘zlashuv nutqi turli kutgan, kutmagan vaziyatlarda samarali yuzaga keladigan suhbatlashuvda yuzaga chiqadi. Ikki yoki undan ortiq so‘zlashuv ishtirokchilari yuqori his-hayajonli, zo‘riqqan holatda bo‘ladi. Nutq turli-tuman emotsional-ekspressiv ottenkali vositalarga boy bo‘ladi. Hech bir cheklovsiz piching, kesatiq, o‘xshatishlar, jargon, shaloq, chapanicha so‘zlar, qochiriqlar, hatto, vulgar chet so‘zlar qo‘llanaveradi. Masalan, *dumbul*, *qovoq*, *o‘liginga kuyay*, *so‘tak*, *turs-hak*, *qovun*, *xumpar*, *dayus*, *dardisar*, *stukach*, *karochisi*, *qashqatayoq* va h.

Oddiy so‘zlashuv nutqi nutq birliklarini ekapressiv tavsifiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajraladi: xolis so‘zlashuv nutqi (tarafsiz – oddiy); takallufsiz nutq; sodda – so‘zlashuv nutqi.

28-§. Xolis (tarafsiz) so‘zlashuv nutqi quyidagi tavsiflarga ega:

– ma’no ta’kid etiladigan konstruksiya tuzuvchi so‘zlardan tashkil topadi (*ichim achishib ketvotti* – *qornim ochdi*, *bo‘shangina*, *yag‘ir*, *sovuuqquina* va h.);

– ko‘rsatish olmoshili konstruksiyalar (*mana mashi mani kulum*); bayon tamoyiliga ko‘ra birikmalar juftlashadi (*tur bor*, *choy opke*);

– qo‘srimcha konstruksiyali (*yonimda qo‘srim boridi*, *man uni yonida ketvotuvdim*);

– ismlarning xonaki ifoda etilishi (*Olim+toy*, *kelin+poshsha*);

– ismlar qisqartirib ifoda etiladi (*Dilmurod* – *Dimot*, *Umida* – *Umi*, *Baxtiyor* – *Baxti*, *Bahodir* – *Boho* va h.).

Takallufsiz nutqqa nihoyatda tortinmaslik, fikr, hissiyotni «yalang‘och» ifoda etish, suhbatdosh bilan ochiqchasiga munosabatda bo‘lish, suhbat mazmuniga mutlaqo tanlanmaslik xos. Takallufsiz nutq ikki xil: do‘stona va dag‘al bo‘ladi.

Do'stona, takalluqsiz nutqqa ikki tomonning bir-birlariga tash-layotgan luqmalarining hissiy-ma'noviy bo'yq ijobiyligi, baho samiyimiyligi xosdir. Quyidagidar ana shunday nutq ko'rinishlari hisoblanadi:

- his-hayajonning yuqoriligi (*Voy, nega bunaqa deysiz? Qo'lindan nimayam kelardi?*);
- takror fe'lli (*kutdik, kutdik, ko'zimiz to'rt bo'lib kutdik*);
- ma'no bo'yog'i yuqori fe'lli (*ming'illama, vaqillama – gapirma, qiyvormoq, qoyil qilmoq (gapni), qotirmoq (ishni) va h.*);
erkalovchi – kichraytiruvchi qo'shimchali (*bolakay, pichoqcha, kurakcha, bir burdagina* va h.).

29-§. *Dag'al, takallufsiz nutq qo'pol, ters nutqligi bilan ajralib turadi. Ob'ektga bo'lgan munosabat dag'alroq, dag'al, ya'ni salbiy bo'ladi. Shaxs, narsa, hatti-harakatga beriladigan baho salbiyligi ancha bo'rttiriladi. Albatta, bunday dag'al munosabat «dushmanona» emas, balki xolisona, hatto, do'stona bo'lishi mumkin. Adresat o'z sha'niga qaratilgan nutqni diliqa og'ir olmasligi, uning dag'alligi sababchisi o'zi ekanligini tushungani uchun suhbatdoshga nisbatan g'arazsiz holatda bo'ladi.*

30-§. So'zlashuv nutqining funksiyaviy (vazifaviy) tavsifi uning asosiy uslubiy xususiyati hisoblanadi.

1. Nutq hech qanday tayyorgarliksiz, to'satdan yuzaga chiqadi (jumla, so'z birikmasi, nutqiy konstruksiya): *ahvolla yaxshimi, hayitiz muborak bo'lsin, uy ichila tinchmi? Charchamasdan yuribsizmi?* va h. Yo'lovchi, mijoz, xaridor, sotuvchi nutqida qolip nutq qismlari, tegishli vaziyatga ko'ra yuzaga chiqishi tabiiy holdir.

31-§. So'zlovchi nutqiga induviduallik xos bo'ladi. Sintaktik konstruksiyalar shaklan tum-taroqligi, ya'ni chala-chulpaligi, nutqiy qurilish to'liq emasligi va bu hol bilan bog'liq holda nutq (so'zlashuv) ning uzuq-yuluqligi kuzatiladi: *Man uyga, u yotoqqa; Qachon (kelasan)? – Ertaga (kelaman): Qancha (narxi, xarid qilinadigan narsaga ishora)?* va h.

32-§. So‘zlashuv nutqi uchun ayniqsa elipsis (tovush, so‘z tushish) hodisasi xosdir (*opke – olib kel; ...qarab tur - ukanga qarab tur; ichi-bo ‘ldimi – ichib bo ‘ldimi* va h.).

Bunday tushib qolishda mazmunga putur yetkazmaydigan barcha unsurlar tushib qolishi mumkin. Mazkur nutqda to‘liq jumla deyarli uchramaydi, nutq qismi uchun zarur hamma so‘zlar ham qo‘llanmaydi. Bu – so‘zlashuv nutqining boshqa adabiy-funksiyaviy nutqlardan yaqqol farqi hisoblanadi. To‘g‘ri, kitobiy nutqda ham u yoki bu sintaktik butunlik almashtirilgan jumlalar uchraydi, ya’ni biror gap bo‘lagi tushib qoladi, bu – bayon konteksti sharti bilan bog‘liqdir. Lekin bu hol kitobiy nutqda juda cheklangan. Chunki aniqlashtirish uchun qayta so‘rash imkonи mavjud emas. Faqat o‘quvchi kontekstdan tushib qolgan qism mazmunini ilg‘ab olishi mumkin bo‘lsagina bunga yo‘l qo‘yiladi. So‘zlashuv nutqida ellipsis hodisasi vaziyatga bog‘liq, u nutq jarayonining o‘zida sodir bo‘ladi, nutqning verbal bo‘limgan vositalari imo, ishora bilan bir qatorda yuzaga keladi.

33-§. So‘zlashuv nutq uslubining o‘ziga xos jihatи, ayniqsa, uning sintaksisida ko‘rinadi. Ayni mana shu sintaktik qurilishining o‘ziga xosligida so‘zlashuv nutqining funksiyaviylik xususiyati (qisqa va lo‘ndaligi) yaqqol namoyon bo‘ladi (*gaytdiz* – siz ishdan uyga qaytdizmi? *qaytdim* – men ishdan uyga qaytdim). Bunga sabab dialog ishtirokchisi bo‘lgan ikki tomon bir-biri bilan yaxshi tanish, bir xil vaziyat takrorlanib turadi, shunga ko‘ra, bir-birini tushunish uchun nuqtida sintaktik konstruksiya barcha unsurlarining bo‘lishi talab etilmaydi. Bir sintaktik konstruksiyada ma‘lum bo‘lgan unsurlar ikkinchi konstruksiyada uchramaydi. *U har kuni (shanba, yakshanbadan boshqa) soat to‘qqizda ishga ketadi. Men o‘nda.* Keyingi konstruksiyada yetishmayotgan qism mazmuni oldingi konstruksiyadagi bilan bir xilda tushuniladi. Bu misolda *ketmoq fe’li* – keyingi konstruksiyadagi yetishmayotgan unsurning tushib qolishi sintaktik elipsis, boshqacha aytganda kontekstual elipsisdir. Oddiy so‘zlashuv nutqida tabiiy holga aylanib qolgan konstruksiyalarga quyida misollar keltiramiz:

- jumla tarkibidagi to‘ldiruvchi tushib qoladi. *Manga ko ‘rsatchi* (daftarni, kitobni, suratni va h.);
- narsaning o‘z nomi qolib belgisi ataladi (olmani soberish uchun bir narsa qidirvomman);
- gap bo‘laklarining o‘rni almashadi (gazeta yo‘qmi, bugungi?);
- fe’l kesim tushib qoladi: *Manga ikki kilo shakar* (bering);
- kishilik olmoshi tushib qoladi. (U) keldi, sani so‘radi;
- ism o‘rnida xos belgi ataladi. Bo‘g‘irsoq nima qivossan?
- xususiy nom o‘rnida umumiyl nom ataladi. Polizda edim (qovun, tarvuz va b.).

Oddiy so‘lashuv nutqi uchun yana quyidagi konstruksiyalar xos:

- *San, o‘zin kelasanmi? Ha, mayli, ertaga* (Ikkinch shaxs olmoshi bilan o‘zlik olmoshi birga qo‘llanadi);
- juft fe’l qo‘llanadi: *qaradim-qaradim, butun vujudim bilan qaradim;*
- juft ravishdosh qo‘llanadi: *yig‘ib-terib oldilar; bichib-tikib bo‘ldi.*

34-§. Oddiy so‘zlashuv nutqi uchun so‘zlarni juft qo‘llash ham xosdir. Bunday juft so‘zlar mustaqil ma’noga ega bo‘lgan yoki bo‘limgan ikki so‘zning teng bog‘lanishi asosida hosil bo‘ladi:

- umumlashtiruvchi, jamlovchi juft so‘zlar: *baxt-saodat, xat-xabar, yaxshi-yomon;*
- juft so‘zning ikkinchi komponenti mustaqil ma’noga ega bo‘lmaydi, mustaqil ma’noga ega so‘z ma’nosi ifoda etgan hodisa nar-saga o‘xshash hodisa, narsa ma’no ifodasini beradi: *to‘y-po‘y, qo‘y-po‘y, (to‘y-po‘y bo‘ladimi, qo‘y-po‘y so‘yiladimi?).*

35-§. Oddiy so‘zlashuv nutqining o‘rganishda bu nutq jarayonida yuzaga chiqishi, alohida ohangga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratishi lozim. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi:

- oddiy so‘zlashuvda biz *aytmoq* uchun jumlalarni nutq jarayonida tuzilishini ko‘ramiz;
- *aytish* sintaktik va ma’noviy jihatdan jonli, dialog nutqda yuzaga chiqar ekan ohang (intonatsiya) alohida ahamiyat kasb etadi. Ohang,

ko'pincha ma'no ekspressisligi, bo'yog'ini, sub'ektiv munosabatni ifoda etadi.

36-§. Oddiy so'zlashuv nutqida so'z qo'llash erkin – ixtiyoriy, ta'bir joiz bo'lsa, so'zlar jamlashinuvi yuz beradi. Nutq o'z ichiga ada-biy nutqning boshqa funksiyaviy turlaridan, xalq jonli so'zlashuvidan quyidagi til birliklarini o'z tarkibiga oson oladi:

- shaxslararo oddiy, rasmiy bo'lмаган muloqot sohasida foydalanishga mo'ljallangan so'zlarni;
- tushuncha, narsa, hodisa, voqeа, shaxsni ifoda etishga «ixtisos-lashgan» so'zlarni;
- so'zlovchi his-hayajonini ifoda etuvchi so'zlarni;
- so'zlovchining aytayotganlarini baholovchi so'zlarni;
- so'zlovchining o'z aytayotganlariga bo'lgan munosabatni bildiruvchi so'zlarni;
- muayyan vaziyat, so'zlashuv mohiyatiga, dialog yuzaga kelgan vaziyatga sub'ektiv nuqtai nazarni ifodalovchi so'zlar va h.;
- norasmiy, tortinmay kechadigan muloqot sharoitiga mos so'zlarni;
- dialog tarzida yuz beradigan nutq doirasida qo'llanadigan so'zlarni.

37-§. So'zlashuv nutqi lug'at tarkibining asosiy qismi umumiste'moldagi, betaraf so'zlardan iborat bo'ladi. Mazkur nutqda ma'no bo'yoqdorligi kuchli va kuchsiz bo'lgan so'zlar sezilarli miqdorni tashkil etadi. Bulardan norasmiy sharoitlardagi muloqotlarda tortinmay foydalilaniladi.

38-§. So'zlashuv nutqidagi so'zlarning ma'no bo'yoqdorligi betaraf va kitobiy so'zlar ma'nosi bo'yog'idan kuchliroqdir (qiyos: betaraf – *yig' lamoq, yurmoq*; kitobiy – *ko'z yoshi to'kmoq, qadam tash-lamoq*; so'zlashuv – *xo'ngramoq*. Shuni aytish kerakki, kitobiy nutq – bo'yoqqa egalikni, umuman, so'z ma'nosida salbiy bo'yoqni nazarda tutmaydi.

39-§. Ma'noni ta'kid etuvchi so'zlar bilan bir qatorda betaraf – so'zlashuv lug'ati tarkibida ekspressiv ta'sirchan so'zlar ham mavjud bo'lib, ular ham sub'ektiv munosabat namoyon bo'lish darajasi turlicha

bo‘lgan muayyan narsa, hodisa, harakatni ifoda etadi, lekin sub’ektiv munosabat turlicha bo‘ladi.

Shu bilan birga ekspressiv bo‘yoq tortinishsiz, xonaki nutq doira-sida jonli, qizg‘in, bir-biriga yaqin kishilar (qarindoshlar, do‘stlar, taniishlar) o‘rtasidagi suhbat tarzida bo‘ladi. Suhbat osuda vaziyatda o‘tadi, shu bilan birga, tabiiy, his-hayajondan holi bo‘lmaydi. Masalan, *xavotirlanmoq – tashvishlanmoq, nimadandir qo ‘rqmoq ma’nosida* (*Biz sendan kechadan beri xavotirda edik*); *zing ‘illamoq – men hozir zing ‘illab borib kelaman; uymalashmoq – Bolalar bilan uymalashib, butunlay yoddan chiqaribman; ulgurmoq – Urindim, urindim, hayolimda ulguraman deyman-u, bari bir ke-chikdim; so lmoq (ozib-to‘zib ketmoq, bo‘yi cho ‘kmoq ma’nosida)* – *Bechora, butkul so ‘lib qolipti; nixtalamoq (turtmoq, majburlamoq, undamoq, tinch qo ‘ymaslik, o‘z holiga qo ‘ymaslik va h.) – kishini har daqiqada nixtalamoq* va b.

40-§. Oddiy – so‘zlashuv nutqi, nisbatan kundalik-maishiy mavzularda namoyon bo‘ladi. So‘zlar ham ana shu mavzuga ko‘ra tanlana-di. So‘z ma’nosidagi ekspressiv bo‘yoq, so‘zlovchining narsa, voqeа, hodisaga munosabati kontekstda ayon bo‘ladi. Masalan: *Ha, shayton, bo‘sh kelmaysan! Ha shayton, yana boshladningmi?* Faqat nutq jarayonidagina so‘zning ma’nosidagi emotsiyonal-ekspressiv bahо bo‘yog‘i qaysi qutbga tegishliligi (semasiologik ta’limot – tildagi mantiq – so‘z ma’nosining bo‘yog‘i ikki qutblilagini ko‘rsatadi) so‘zlovchining ob‘ektga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi.

41-§. Oddiy so‘zlashuv nutqida ma’noni ta’kid etuvchi so‘zlar ikki guruhga ajraladi:

– kitobiy nutqqa xos bo‘lgan aniq atamali so‘zlar o‘rnida oddiy – so‘zlashuv nutqida vaziyatga ko‘ra narsa voqeа, hodisani ifoda etuvchi okkazional (tilda namunasi bo‘lgan, nutq jarayonida yuzaga keladigan ma’noli) so‘zlar keng qo‘llaniladi. Masalan: *yengil avtomobil – kitobiy, apparat, toychoq – okkozional; oyoq – kitobiy, qo ‘lontayoq, molapoya – okkozional; qo ‘l – kitobiy, panshaha, kosov – okkazional; bosh – kitobiy, qovoq, hum, guvala – okkazional* va h;

– umumiy, keng ma’noda qo‘llanadigan so‘zlar ko‘p uchraydi.

Bular faqat vaziyatli nutq jarayonida yuzaga chiqadi:

a) ot turkumiga oid so‘zlar, olmosh vazifasida keladi. *Kimsa, nusxa, matoh, mahlug, turq, jonzot, kulba* va h. Bu so‘zlar oddiy so‘zlashuv nutqiga kitobiy nutqdan o‘tgan, lekin ular asosan so‘zlashuv nutqida qo‘llaniladi. Bularda uzual ma’nosi asosida okkazional ifoda yuzaga chiqadi va bu faqat nutq jarayonida, muayyan vaziyatda yuz beradi.

b) umumiyy ma’noda qo‘llaniladigan, so‘zlar: *hashar, tom suvoq, boshpana, kovak, odmi* va h.

42-§. Oddiy so‘zlashuv nutqida tor sohaga oid nutq birliklari (masalan, maxsus terminlar) deyarli uchramaydi. Bu hol so‘zlashuv nutqining lug‘at tarkibi kitobiy nutq lug‘at tarkibidan ko‘ra so‘zga ancha kambag‘alligini ko‘rsatadi.

43-§. Oddiy so‘zlashuv nutqida ma’no bo‘yog‘i turlicha so‘zlar, birkimlar uchraydi:

– shaxsga nisbatan qo‘llaniladi: *kallaxum, mol, latta, so‘qim, shilta, shiqaldoq, mechkay, megajin, mishiqi, qashqatayoq, qoq suyak, latta chaynar* va b. Bular ma’no bo‘yog‘i dag‘al (salbiy), hatto, tahqir, ha-qorat ifodasi.

44-§. Oddiy so‘zlashuv nutqida so‘z ma’nosiga qo‘shimcha baho bo‘yog‘i beruvchi qo‘shimchalar ham xosdir: *bola-gina, qiz+a+loq, Xasan+toy, Hamdam+cha* va h.

45-§. Oddiy – so‘zlashuv nutqida frazeologizm (ibora)lar, maqlalar keng qo‘llanadi: *ammamning buzog‘idek; kuchala yegan itde; oyog‘i kuygan tovuqdek, bo‘zchining mokisidek; sahroda qolgan tuyadek; mosh yegan xo‘rozdek; yaratilgancha qolgan; qo‘ndoqda tekkan; sut bilan kirgan, jon bilan chiqadi; yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi; yomonni o‘ldi desa ishon, yomonligini qo‘ydi desa ishonma; o‘rgangan ko‘ngil o‘rtansa qo‘ymas; mening naqsim balodir, yonar o‘tga solodir; har kimning niyati o‘ziga yo‘ldosh; arpa ekkan arpa oladi, bug‘doy ekkan bug‘doy oladi; pes – pesni qorong‘ida to-padi* va h.

Muayyan nutqiy vaziyatga mos ravishda og‘zaki nutqda shunday iboralar, maqlollar uchraydiki, ular kitobiy nutq doirasida odobdan tash-

qari hisoblanadi va deyarli qo'llanilmaydi: *it yeganini quşadi, itdan it, eshakdan eshak tug'iladi, xaji qiz va h.* Bunday ibora va maqollar asosan badiiy nutqda ko'rinish qoladi, bunga personajga xos nutq yaratish maqsadi sabab bo'ladi. Ular ma'no bo'yog'i haddan ziyod qo'pol (salbiy) bo'lishiga sub'ekt (so'zlovchi)ning ob'ekt – shaxs, hodisa, narsa, voqeaga bo'lgan munosabati sabab bo'ladi. Tabiiyki, bu munosabat salbiy.

46-§. Og'zaki nutqda so'zlar ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanadi va bu hosila ma'no salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Masalan: *Samandarov unga yaqinroq kelib yaldoqilik bilan vishillar edi. Vishillamoq fe'lining genetik (tub) ma'nosini ilonga xos tovush chiqarish ifodasiga ega.* Yuqorida esa odamga xos tovush chiqarish nazarda tutilmoqda, sub'ektning munosabati salbiy. «*Shunga ko'ra disfemistik metafora sodir bo'lgan va yuzaga chiqqan hosila sememadagi pragmatik semada salbiy sub'ektiv munosabat ifoda topgan*»¹.

Ilmiy uslub

47-§. Ilmiy uslubning vazifa (funksiya)si ilmiy ma'lumot (informatsiya), zamonaviy ilm-fanning dalillangan bayonini ta'minlashdan iboratdir.

48-§. Ilmiy uslub o'z vazifasiga muvofiq adabiy nutq barcha imkoniyatlarini – so'z va iboralarini, morfologik, sintaktik vositalarini ilmiy ma'lumot yetkazishga qaratadi. Tushunchani aniqlashtiradi, fikrni shakllantiradi.

49-§. Ilmiy uslub ilmiy ma'lumotni ob'ektiv, aniq, mantiqan izchil va qat'iy, maqsadga muvofiq yetkazadi. Ilmiy matnlarda ularni zarur va yetarlicha axboriy bo'lishi uchun nutq vositalaridan samarali foydalanish ko'zga tashlanadi.

50-§. Ilmiy uslubda, narsa, hodisa, voqealari, muayyan tushunchani ifodalovchi atama o'z tub (genetik) ma'nosida qo'llanadi. Bunga quyidagilarga ko'ra erishiladi:

- ilmiy asarga oid yaxshi o'rganilgan, ishlab chiqilgan terminlar yordamida (albatta, bunda terminlardan to'g'ri foydalanilgan taqdirda);

¹ Tohirov Z.T. Pragmatik sema. –T.: Zar qalam, 2004. -27-b.

• ayrim unsurlar turli o'rinda ayni bir nomda, miqdorda takrorlana-di, shunga ko'ra ular o'rtasida muqobililik saqlanadi.

51-§. Ilmiy matn tuzilishida ilmiy tushunchani ifoda etish – ta'rif asosiy unsurlardan hisoblanadi.

Tarifning bir necha shakli bor, shulardan keng tarqalgani quyida-gilar: *tireli*(–) *bu* ko'rsatish olmoshili, *deb* ravishli va h. Masalan: *Attributiv birikma – aniqlovchi va aniqlanmishdan iborat so'z birikmasi; Ota-onani izzat, hurmat qilish, bu – har bir farzand uchun ham farz, ham qarz; Arxaizmlar deb eskirgan so'zlar ataladi; Oliy ta'lim muassasiga o'qishga kirish uchun hujjat topshiruvchilar, ya'ni abiturientlar tibbiy ko'rikdan o'tganlik haqidagi ma'lumotnomaga ega bo'lishlari shart.*

52-§. Ilmiy uslub o'z navbatida ichki uslublarga ega: janriy – nutqiy turlar va mavzuli – nutqiy turlar. Bular, odatda, ilmiy (akademik), ilmiy – o'quv adabiyotlari, ilmiy ish va ilmiy-ommabop uslublar deb ataladi.

53-§. Ilmiy (akademik) uslub bayonda qat'iy akademikligi bilan ajralib turadi va soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi. Akademik bayon mantiqiy izchillik, dalillar tizimliligi, ilmiy asoslar, hodisalar tarblanganligi, yuqori darajada axboriyligi, fanga oid avvaldan ma'lum bo'lgan va yangi ma'lumotlarga boy bo'ladi. Yangi-yangi ilmiy natijalar nutqdagi mayjud maxsus so'z, so'z birikmalari – terminlar qatoriga yangi maxsus so'zlar kirib kelishiga sabab bo'ladi.

54-§. Ilmiy-o'quv adabiyotlar uslubi mutaxassislar tayyorlashga mo'ljallangan. O'quv adabiyotlari matnining nutqiy tuzilishi keng dailish tizimi bilan birga ilmiy (akademik) uslubdan farqli o'laroq fanda ma'lum bo'lganni asoslashga qaratiladi.

55-§. Ilmiy ish uslubidan referat tarzidagi ishlarda, annotatsiyaviy matnlar yaratishda. Matn yuqori darajada axboriy, bayon qisqa, lo'nda, tizimlashtiruvchi usulda bo'ladi. Jumlalar sodda gaplardan, shuningdek bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda tashkil topadi.

56-§. Ilmiy-ommabop uslubdagi bayon oldindan ma'lum bo'lgan ilmiy ma'lumot (informatsiya)ni mutaxassis bo'lмаганларга

mo‘ljallangan bo‘ladi. Mazkur uslubda ilmiy bilimlar ommalashtiriladi, muayyan ilmiy informatsiya soha mutaxassisni bo‘lmagan o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘ladi.

Publitsistik uslub

57-§. Publitsistik uslub siyosat sohasiga «xizmat» qiladi. Mazkur uslubda yaratilgan matnlardan asosiy maqsad – jamoatchilik ongi-ga ta’sir etish, uni shakllantirishdir. Publitsistik uslubdagi bayonning nutqiy tuzilishi siyosiy g‘oyalarni, faol siyosat, fuqaro nuqtai nazarini, siyosiy tashviqot, siyosiy partiylar, guruhlar o‘rtasidagi qizg‘in munozaralarni ifoda etishga, kundalik turmushda yuz berayotgan hodisalarни yoritishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Mazkur uslubdagi matnlarda ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar, rasmiy muassasalar faoliyati baholanadi. Siyosat-chilar, davlat arboblari, madaniyat xodimlari, jurnalistlar va boshqalarining xatti-harakatlari, bayonotlari, murojaatlari, chiqishlari tahlil etiladi, baholanadi. Umuman kundalik turmushda yuz bergen, berayotgan dolzarb siyosiy ijtimoiy, madaniy ilmiy, e’tiqodiy, iqtisodiy va boshqa masalalar so‘zlar vositasida (verbal) ifoda topadi. Publitsistik uslub ikki ko‘rinishda: yozma va og‘zaki. Har ikkisi ham ta’sir o‘tkazuvchi nutq sohasiga taalluqli. Bu xususiyati bilan publitsistik uslubdagi nutq siyosiy nutqqa yaqinlashadi. Siyosiy nutq og‘zaki ommaviy nutqning bir turi hisoblanadi. Bundan tashqari u radio, televide niye, kino nutqiga ham juda yaqindir. Ana shu uch nutq turi bilan birgalikda publitsistik uslub ommaviy axborot uslubi deb ataladigan turni tashkil etadi.

58-§. Publitsistik uslub funksionallik tabiatini gazeta nutqida, ay-niqla, to‘liq namoyon etadi. Ommabop jurnallar nutqi ham publitsistik uslubda, jurnal nutqidagi materillar asosan ikki janrdagi bo‘ladi: muammoviy-tahliliy va badiiy-publitsistik. Publitsistik uslub o‘z muloqiyligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Mazkur uslubdagi nutqda betaraf va ekspressiv til vositalari aralash qo‘llanadi. Masalan: *demokratiya, jamiyat, prezident, senat, davlat, adolat, inson huquqlari, mustaqillik, ozodlik, erkinlik, muholifat* va h. Bular bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy nutqda so‘z (tarmin)lar borki, ular muayyan bir tushunchani ifoda etish bilan birga, ma’nosi uslubiy bo‘yoqli bo‘ladi: *og‘machi,*

fashist, qo'poruvchi, poraxo'rlik, fashizm, vahshiy, vahshiylik, ochko'zlik, shov-shuv, g'alamislik va h. Mazkur so'zlar publitsistik uslub talabiga ko'ra o'zgacha ma'no ifodasiga ega bo'ladi, boshqa so'zlarga sinonim (kontekstual) bo'lib keladi. Betaraf ma'noli so'zlardan, terminlardan ko'chma ma'noda foydalaniladi: *mahalliy* (*mahalliychilik*), *tanish-bilish* (*tanish-bilishchilik*), *qarindosh-urug'* (*qarindosh-urug'chilik*), *oshna-og'ayni* (*oshna-og'aynilik*) va h.

Badiiy nutq

59-§. Badiiy nutq o'zbek adabiy nutqidagi funksional nutqlar ichida alohida o'rinn tutadi. Buning turli sabablari bor:

- mazkur nutq tilning estetik vazifasi eng to'liq namoyon bo'luvchi adabiy nutqning yagona turi hisoblanadi;
- badiiy asar matnida (barcha yozma uslublar, og'zaki publitsistik nutq va so'zlashuv nutqidan farqli o'laroq) istalgan nutqiy vositalardan, adabiy nutqning xohlagan turidagi nutq birliklaridan, adabiy nutq doirasiga kirmaydigan unsurlardan, so'z va frazeologizmlar va boshqalardan foydalanish mumkin.

60-§. Badiiy asar bayoni murakkab tuzilishga ega yaxlit badiiy nutqqa asoslanadi, shu bilan birga, badiiy asar tur va jinslarga ajraladi: she'riy asar, nasriy asar, dramatik asar; adabiy janrlar - roman, povest, hikoya, masal, qissa va h. uslublari alohidalikka ega, shuningdek, mu-allifning o'z nutqi, uslubi ham mavjud.

61-§. Tur va janrlar xilma-xilligiga qaramay badiiy nutq adabiy nutqning yaxlit funksional bir ko'rinishi hisoblanadi. Badiiy asar nutqining ichki yaxlitligi quyidagi omillarga bog'liq:

- badiiy asar nutqi ichki tuzilishiga ta'sir etuvchi estetik funksiyaga;
- barcha til unsurlarining borliqni obrazli aks ettirish tamoyiliga bo'ysundirilganligiga;
- har bir tur, janr o'z konstruktiv tuzilishiga ega ekanligiga.

62-§. Badiiy asar, ma'lumki, hayot haqiqatini aks ettiradi, hozirgi zamon iborasi bilan aytganda, «borliqning hissiy in'ikosi». Vaholanki, hayotda na Otabek, na Kumush, na Yo'lchi, na Gulnor, na Shum bola, na Zaynab, na Anvar, na Ra'no bo'limgan, kuchli ijodiy xayolat

ta'sirida buyuk yozuvchilarning o'xhashi yo'q badiiy nutq san'atlari, obrazli nutq yaratishdagi yuqori mahoratlari, so'z vositasida yaratgan ijodiy obrazlari, badiiy asarlaridagi butun obrazlar tizimi tufayli biz asar qahramonlarini hayotdagi mavjud insonlar sifatida qabul qilamiz, ular bilan birga kulamiz, ular bilan birga iztirobga tushamiz, yig'laymiz, qayg'uga botamiz.

63-§. Badiiy nutq shunday nutqki, muallif, so'z san'atkori undan, shunchaki dolzarb informatsiyani to'g'ridan to'g'ri yetkazish uchungina foydalanmaydi. Uni shaxslararo munosabat vositasi sifatida qo'llamaydi; u yordamida kundalik turmushning muayyan mavzuini yoritmaydi; unga biror siyosiy, iqtisodiy, davlat ahamiyatiga molik masalani kundalik maqsadda hal etishda kishilar ongiga ta'sir etish vositasi sifatida qaramaydi. Yozuvchi kundalik nutqiy muloqot maqsadini ko'zlamaydi, balki, ayni mana shu nutq yordamida badiiy obraz yaratadi. Badiiy nutqdan ijodkor go'yo mavjud narsa, voqeа, hodisa, shaxslar, aloqa va munosabatlarni, o'z ijodiy tasavvuri, o'z badiiy hayoloti, o'z dunyoqarashi, orzu-umidlarini bayon etishda foydalanadi. Badiiy nutq (uslub)ga xos ayrim unsurlar boshqa nutq (uslub)larda uchrab turadi. Lekin, ular asosiy emas, balki yordamchi, nutqiy «bezak» vazifasini o'taydi.

Birinchi bosqichda o'zlashtirilgan bilimlarga tayanib, ikkinchi bosqichdagи bilimlar o'zlashtiriladi. Muharrirlik mahoratiga ega bo'lish uchun bu bosqichda quyidagilarni puxta bilish talab etiladi:

- uslubiyat va nutq madaniyati;
- uslubiyat va adabiy tahrir;
- funksional uslublar;
- nutq birliklari uslubiyati;
- matn uslubiyati;
- badiiy nutq uslubiyati;
- adabiy nutqning funksional tabaqalanish asoslari;
- rasmiy-ish yuritish uslubi;
- ilmiy uslub;
- publitsistik uslub;

- badiiy nutq uslubi;
- so‘zlashuv nutqi – kitobiy nutq;
- yozma kitobiy nutq;
- og‘zaki kitobiy nutq;
- og‘zaki so‘zlashuv nutqi;
- og‘zaki-rasmiy so‘zlashuv nutqi;
- og‘zaki-oddiy so‘zlashuv nutqi;
- so‘zlashuv nutqining asosiy uslubiy xususiyatlari;
- ilmiy asar uslubi;
- o‘quv adabiyotlari uslubi;
- ilmiy-ommabop asarlar uslubi;
- publitsistik asarlar uslubi;
- ensiklopedik asarlar uslubi;
- ma’lumotnama, yo‘riqnomalar asarlar uslubi va b.

Yuqorida qayd etilganlar to‘liq o‘zlashtirilgandan so‘ng muharrirlik mahoratiga ega bo‘lishning uchinchi bosqichiga o‘tiladi.

O‘z bilmini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Adabiy nutqqa asos bo‘lgan shevalarni ta’riflang.
2. Uslublar qanday guruhlanadi?
3. Rasmiy-ish yuritish uslubi qaysi sohalarda qo‘llanadi?
4. Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqi nimada?
5. Oddiy so‘zlashuv uslubini ta’riflang va misollar keltiring.
6. Qanday uslublar funksional uslublar deylildi?
7. Ilmiy uslub bilan ilmiy-ommabop uslubning farqi nimada?
8. Publitsistik uslub qo‘llaniladigan sohalarni ta’riflang.
9. Adabiy nutqning qanday funksiyaviy turlari bor?
10. Badiiy nutqqa to‘la ta’rif bering.

3- b o b . MATN TAHLILI

Reja

- 1. Matnning mantiqiy tahlili.*
- 2. Qismlararo mantiqiy bog'liqlikni aniqlash.*
- 3. Mulohazalararo bog'lanish.*
- 4. Tushuncha va mulohazalarni qiyoslash.*
- 5. Mantiqiy tahlil qonunlari.*

1-§. Har qanday asar (adabiy, publisistik va h.) qo'lyozmasini tahrir qilishdan oldin, qo'lyozmani qabul qilishdagi bajariladigan amallar tugagandan so'ng, matn mantiqiy tahlil etiladi. Mohiyatiga ko'ra matnning mantiqiy jihatdan tahlil qilishda muharrir asar mundarijasini anglab yetadi va muallif o'z mulohazalarida mavzudan chetga chiq-qan-chiqmaganligini tekshiradi. Natijada muharrir muallif o'z xulosalari, ta'riflari, ilgari surgan ilmiy qonuniyatlarida mantiq me'yorlariga to'la rioxaga qilganligi, to'g'ri mulohaza yuritganligini aniqlaydi. Yuqoridagilar bo'yicha muharrir xulosasi (taqrizi)ga ko'ra muallif mantiq qonunlari va qoidalaridan chetga chiqqanligini sezadi, matn mazmu-niga tegishli o'zgartishlar kiritadi, matnning isbotlanganlik va aniqlik jihatlari yanada oshadi.

2-§. Lekin mantiq qonunlari va qoidalarini bilmay, ularni tadbiq etishning uddasidan chiqmay matnni mantiqiy jihatdan to'laqonli tahlili haqida o'ylash ham mumkin emas. To'g'ri ba'zan muharrirlar (tah-rirchilar) mantiq qonun va qoidalaridan xabarsiz o'z bilim va tajriba-lariga tayanib mazmuniy tuzatishlarni amalga oshiradilar. Biroq ular mazmuniy o'zgartirishlarni anglagan holda, ilmiy asosda bajarsalar na-tija tamomila o'zgacha bo'ladi.

3-§. Mantiq qonunlarini bilish qo‘lyozma tahlilini osonlashtiradi, muharrirga mantiqiy tuzatishlarni amalga oshirishda qat’iyat, ishonch baxsh etadi, o‘z hukmi adolatli ekanidan xotirjam bo‘ladi va muallif e’tirofi, hurmatiga sazovor bo‘ladi.

4-§. Muharrir mantiq qonun va qoidalarini o‘zlashtirib oladi ham deylik. Lekin ularni bilish boshqa, amalda qo‘llash boshqa. Chunki mantiq ilmida mulohazalar, tushunchalar, shaklga solingan, oydinlashgan bo‘ladi. Muallif matnida (yozma nutqda) esa kontekstual mantiqiy shakllar aksariyat hollarda yashirinchadir. Mantiqiy xulosaning barcha bo‘g‘inlari ham yetarli bo‘lmaydi, So‘zlar erkin tartibda joylashgan, ko‘chma ma’noda qo‘llanganligidan uning ma’no bo‘yog‘ini ko‘p o‘rinda aniqlashga to‘g‘ri keladi. Bu hol muharrir uchun qiyinchilik tug‘diradi, albatta. Mazkur vaziyatda to‘g‘ri yechim topish matnni tahlil qilish uchun samarali uslubdan foydalanish, muayyan malaka hamda tajribada sinovdan o‘tgan ko‘nikma asqotadi. Shundagina muallif fikrini mantiq qonunlari va qoidalariga ko‘ra tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Quyidagi misollarga e’tibor beraylik.

«Beixtiyor ko‘zingga nomahramning yuzi tushsa, zinxor, uning yuziga ikkinchi bor qarama» (Odamiylik mulki, 498-b.). «...so‘lig‘imsan Vatanim» (qo‘sinqidan). Birinchi misolda muallifning aytmoqchi bo‘lgan fikrini ifoda etuvchi so‘zlar *ko‘z* va *yuz*. Muallif ular orqali *qaramoq* harakatini baholamoqchi. Fikrdan anglashiladigan ma’no ana shunda. Lekin, mantiq nuqtai nazaridan bu to‘g‘rimikan? E’tibor qilaylik; *ko‘zingga nomahramning yuzi tushsa*. Qarash harakati yuzdan ko‘zga tomon. Vaholanki, yuz ko‘rish xususiyatiga ega emas-ku! Aslida harakat mantiqan ko‘zdan yuzga tomon bo‘lishi kerak, misolda esa buning aksi. Bunday hol yuz berishiga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi – *ga* noto‘g‘ri o‘rindaligi sabab bo‘lgan. U harakat yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash uchun *ko‘z* so‘ziga emas, balki *yuz* so‘ziga qo‘shilishi kerak edi. Ya’ni: ...*ko‘zing nomahramning yuziga tushsa...* Shunday bo‘lishi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishini jumlaning keyingi bo‘lagi «...uning yuziga ikkinchi bor qarama» tasdiqlaydi. Bunda *qarama* deb ko‘zning egasiga murojaat etilmoqda, yuzning egasiga emas. Bu mantiqiy xatolikka ada-

biy nutq ilmidan, ya'ni kelishik qo'shimchasining vazifasi (funksiyasi) dan yaxshi xabardor emaslik sabab bo'lgan.

Ikkinchisi misolda *so'liq* so'zi mantiqan xato qo'llangan. *So'liq* so'zining ma'no ifodasi ot, eshak kabi hayvonlar jilovining bir qismini anglatadi. U zanglamaydigan metall – misdan ishlanadi, ot, eshak og'ziga solinadi va ularni boshqarishga xizmat qiladi. Demak, muallifning Vatanni so'liqqa tenglashtirishi to'g'ri emas. Buni har ikki so'zning genetik ma'nosini va har ikki so'zdan anglashilayotgan ikki ob'ektning bir-biriga o'xshatilishi mantiqqa zid!

5-§. Yuqoridagi kabi mulohazalar aks etgan matnni baholashda muharrir ikki asosiy vazifani bajarishi kerak bo'ladi. Birinchi vazifa – idrok etish, tushunchalar yoki mulohazalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik har bir holatini anglab yetish, bu bog'liqliknini fikran aniqlash hamda qayd etish.

Ikkinchisi vazifa – aniqlangan va qayd etilgan mantiqiy bog'liqlikning to'g'ri ekanligini tekshirish.

6-§. Mantiqiy bog'liqliknini aniqlash usullari matndagi u yoki bu mantiqiy bog'liqliknini aniqlashda yordam beradi, matnni tahlil qilish va baholashga ishora qiladi. Bularsiz matnni mantiqiy jihatdan tahlil qilish amalga oshmaydi. Aniqlanmagan mantiqiy bog'liqlik muharrir nazoratidan chetda qoladi.

7-§. Tushunchalar yoki mulohazalar orasidagi munosabat matnda so'z yoki tinish belgi yordamida ifoda topgan bo'lsa, mazkur munosabati bildiruvchi so'z yoki tinish belgi fikran qayd etiladi, ta'kidlanadi.

8-§. Agar tushunchalar yoki mulohazalar o'rtasidagi munosabat so'z yoki tinish belgi yordamida ifoda etilmagan bo'lsa, ular qanday mantiqiy aloqaga kirishganligini aniqlash uchun tushunchalar va mulohazalar taqqoslanadi. Shu yo'l bilan ular qanday mantiqiy bog'lanishda ekanligi aniqlanadi.

9-§. Mulohazalar o'rtasidagi bog'lanish ko'pgina bog'lovchilar yoki bog'lovchi so'zlar vositasida yuz beradi: *va, ham, hamda, va-holanki, zero, biroq, lekin, ammo, shunga qaramay, go'yo, oqibatda, natijada, shunday qilib, shunga ko'ra, avvalo, shu sababli, shu sa-*

babdan, chunki va b. Bunday so‘zlar, agar ular farqlansa, mantiqdagi mantiqiy bog‘liqlikdan darak beradi. Ular muharrirni ogohlantiradi: Hushyor bo‘l! Bunda qandaydir mantiqiy bog‘liqlik bor. U to‘g‘rimi? Bunday ishorani ilg‘ab olishga muharrirlar har doim ham muvaffaq bo‘lavermaydilar.

Xo‘sh, so‘zlarni alohidalash nima degani? Uni qanday amalgaloshirish kerak? Amalga oshirganda ham matnni to‘g‘ri idrok etishdan chalg‘itmasdan, aksincha, u matnni tushunishga ko‘maklashsin.

Matnni o‘qish mobaynida har bir bog‘lovchining mantiqiy ma’nosini fikran qayd etilsa, u albatta matnda alohida bo‘lib turadi hamda tushunchalar yoki mulohazalar matnda muayyan mantiqiy bog‘liqlik mavjud ekanligiga ishora qiladi. Kontekstdagi bog‘lovchilarni alohidalash tushunchalar yoki mulohazalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliknini aniqlash uchun quyidagi misolga e’tibor beraylik.

Tabiiyki, ijodiyot sohasida yangi avlodning paydo bo‘lishi bilan yaqin yoki uzoq o‘tmishdagi ijodiyot yoki ijodchi (yoki ijodchilar) dan tarixan uzilish yuz beradi, vaqt o‘tishi bilan bu uzilish tobora chuqurlasha boradi.

Mazkur misolda tushunchalar va malohazalar o‘rtasidagi bog‘liqlikka ishora qiluvchi tinish belgilari va verbal bog‘lovchilar uchraydi. Bular:

- vergul (*tabiiyki* so‘zidan keyin kelgan);
- vergul (*yuz beradi* birikmadan keyin kelgan);
- bilan (*paydo bo‘lishi* birikmasidan keyin kelgan);
- va/yoki (*ijodiyot so‘zidan* keyin kelgan);
- yoki (*qavs ichida* kelgan);
- bilan (*vaqt o‘tishi* birikmasidan keyin kelgan);

Kirish so‘zni keyingi konstruktiv sintagmadan ajratib turgan *vergul* (,) ning vazifasi *tabiiyki* so‘zi anglatayotgan tushuncha bilan *ijodiyot sohasida yangi avlodning paydo bo‘lishidan* anglashiladigan tushuncha o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikka ishora etish. Vergul o‘zidan keyingi qismdan anglashiladigan jarayonning sodir bo‘lishi sun‘iy emas, balki hech kim, hech narsa aralashuvi, ta’sirisiz yuz berishi *ta’kidlanadi*.

Agar «» tushirib qoldirilsa, unda *tabiiyki* – kirish so‘zning ham ahamiyati yo‘qoladi, uni kontekstga kiritishga zarurat qolmaydi.

*Bilan bog‘lovchisi «... avlodning paydo bo‘lishi» konstruksiyasi-dagi mulohaza va «...uzilish yuz beradi» konstruksiyasidagi mulohaza o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikka ishora qiladi. Bilan bog‘lovchisi uzi-
lish yuz beradigan vaqtini ham mantiqan anglatishga xizmat qilmoq-
da. Ya’ni *uzilish ... paydo bo‘lish* bilan bir vaqtida yuz beradi. Agar kontekstdan *bilan bog‘lovchisi* tushirib qoldirilsa yoki qisqartirilsa, unda butunlay boshqacha mantiqiy tushuncha yuzaga chiqadi: «... yangi avlodning paydo bo‘lishi yaqin yoki uzoq o‘tmishdagi ijodiyot yoki ijodkor (yoki ijodchi)lardan tarixan uzi-
lish yuz beradi». Mazkur konstruksiya diqqat bilan o‘qilsa, «...yangi avlodning paydo bo‘lishi» konstruksiyasi hamda «...uzilish paydo bo‘ladi» konstruksiyasi o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik uzilgani ayon bo‘ladi. Mantiqiy bog‘liqlikni tiklash uchun tahrir amalini bajarish talab etiladi.*

Kontekstda qo‘shaloq (juft) bog‘lovchi – *va/yoki* uchraydi. U «... yaqin yoki uzoq o‘tmishdagi ijodiyot...» bilan «...ijodchi (yoki ijodchi-
lar)dan» konstruksiyasi o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikka ishora qila-
di. Birinchi bog‘lovchi – *va* teng biriktiruv bog‘lovchi, u ikki qismni teng bog‘laydi. Ikkinci bog‘lovchi – *yoki* ayiruvchi bog‘lovchi. Ikki tur bog‘lovchini qo‘llashdan maqsad nima? Mobodo bog‘lovchi va-
zifasida *va* ning o‘zi kelsa, unda uzi-lish ham yaqin yoki uzoq ijodiyot, ham ijodkor (lar) bilan bugungi kun ijodiyoti hamda ijodchi(lar) i orasidagi uzi-lish tushuniladi. Agar *yoki* bog‘lovchisi qo‘llansa, ikki ob‘ektdan biri anglashiladi: ijodiyot yoxud ijodchi(lar). Buni mantiqan qanday izohlash kerak? Agar ijodiyot va ijodkorlar tarixan tahviliga tortilsa, unda shunday mulohaza yuzaga chiqadi. O‘tmishdagi ijodiyot va ijodkorlar bilan bugungi kun ijodiyoti hamda ijodkorlari o‘rtasida uzi-
lish mavjudmi? Ham ha, ham qisman ha. *Ha* ligi shundaki, Nizomiddin Amir Alisher Navoiy hamda Zahriddin Muhammad Bobur ijodiyoti bilan bugungi kun ijodiyoti orasida uzi-lish mavjud. Hech bir shoир ijodi ularnikiga tenglasha olmaydi, hech bir shoир ularniki kabi asar yarata olmaydi (har holda yarata olmayapti). Ammo ijodiyotlar orasida uzi-

lish bo‘lgani holda ijodkorlar orasida uzilish ko‘rinmaydi. Ikki mumtoz, zabardast shoir ijodini o‘rganish, ularni hamisha yodda tutish, ular bilan faxrlanish, ularga ergashish, barcha, o‘zini qaysidir darajada shoir deb biluvchi ijodkorga xosdir. Demak, ijodiyotlar o‘rtasida uzilish yuz beragan bo‘lsa-da, ijodchilar orasida uzilish sodir bo‘lman. Ana shu ikki mulohaza o‘rtasidagi ikki xil mantiqiy bog‘liqlikka va hamda yoki bog‘lovchisi ishora qiladi. Shuning uchun tahrir jarayonida har ikki bog‘lovchi juft qo‘llangan va bu mantiqan to‘g‘ri.

Agar muharrir bog‘lovchilarga e’tibor bermasa, ular alohida-alohida mantiqiy tahlil qilinsa, yuqoridaq matn mutlaqo o‘zgacha shakl va mazmun-mundarijaga ega, muallif bayon usuli, individual uslubi o‘zgargan bo‘ladi. Bundan yana bir mantiqiy xulosa chiqadi: tinish belgililar va bog‘lovchilarni mantiqiy tahlil qilish muallifga xos individual bayon usuli hamda uslubni aniqlash va saqlashga ko‘maklashar ekan.

Quyida yana bir matnni mantiqiy tahlil etamiz.

Filologiya ta’lim muassasasi talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma barcha tilga qiziquvchilar va til tarixi bilan tanishishni xohlovchilar uchun tushunarlidir.

Annotatsiya tarzidagi bu matnni o‘qir ekan muharrir *til bilan qiziquvchilar* hamda *til tarixi bilan tanishishni xohlovchilar* o‘rtasidagi va bog‘lovchisiga diqqat-e’tiborini jalb etmasa, u bog‘lagan har ikki tushuncha bir-birini istisno etmasligini ilg‘ab ololmaydi.

Vaholanki, *til tarixi bilan tanishishni xohlovchilarning anchagina qismi*, agar, deyarli hammasi bo‘lmasa ham *tilga qiziquvchi* bo‘ladi. Demak, ikkinchi tushuncha o‘z ko‘لامи asosiy qismi bilan birinchi tushuncha ko‘lamи tarkibiga kiradi.

Balki matnda so‘z faqat *til tarixi bilan tanishishni xohlagan til bilan qiziquvchilar haqida borar?* Zero filologiya ta’lim muassasasining talabalari qo‘llanma tushunarli bo‘lganlar toifasiga kirmaydi. Mutaxassislar (tilchilar, tilshunoslar) allaqachon muayyan darajada *til bo‘yicha ma‘lumot egasi* bo‘lganlardir, demak ularni *til tarixi bilan tanishishni xohlovchilar* qatoriga qo‘sib bo‘lmaydi.

Unda yana kim tilga qiziquvchilardan hisoblanmaydi-yu, o‘quv qo‘llanma bo‘yicha til tarixi bilan tanishishni xohlashi mumkin? Aytish mumkinki bundaylar topilmaydi. Hamon shunday ekan, unda quyida-gicha yozish kerak.

...barcha tilga qiziquvchilar, uning tarixi bilan tanishishni xohlov-chilar...

Va bog‘lovchisi tahvilga bergan ishora natijasi shunday chiqadi.

10-§. Tushunchalar va mulohazalarni qiyoslash, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik tinish belgilarsiz va so‘zlarsiz yuzaga chiqishi ham ko‘plab uchrab turadi. Bunday hollarda muharrir tushuncha va mulohazalarni qiyoslamay o‘tkazib yuborsa, ichki mantiqiy bog‘liqliklari tekshirilmagan matn bosmadan chiqishiga yo‘l qo‘yan bo‘ladi. Vaholanki, ular orasida xatolari ham yo‘q emas.

«... 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she‘rlarni o‘qib, yod ola boshlagan. O‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan (O‘zME, 1-j.-217-b.).

Agar yuqoridagi ikki jumla bir-biriga mantiqiy jihatdan qiyoslanmasa, ular orasidagi bog‘liqlik ayon bo‘lmasligi mumkin. Bu bog‘liqlik na tinish belgisi, na bog‘lovchi (so‘z) tomonidan ifoda topmagan. Har ikki jumladagi mulohaza bolaning tillarni o‘rganishi xususida.

Birinchi jumladan bola «turkiy va forsiy tildagi she‘rlarni o‘qib, yod ola boshlagan»i mulohazasi anglashilsa, ikkinchi jumladan «...o‘zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan»i mulohazasi anglashiladi. Muharrir har ikki mulohazani o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikka e’tibor bermagan, ya’ni ikki mulohaza qiyoslanmagan. Demak, matn mantiqiy tahvilga muhtoj, tahrir talab. Xo‘s, ikki mulohaza o‘rtasidagi uzilgan mantiqiy bog‘liqlikni tiklash uchun nima qilish kerak?

Hamon har ikki jumlada so‘z til xususida borar ekan, shu haqdagi ikki tushunchani qiyoslash lozim. Buning uchun tushuncha ifoda etuvchi terminlar qiyoslanishi talab etiladi.

Birinchi jumlada *turkiy, forsiy til*, ikkinchi jumlada *o‘zbek, forsiy til* qayd etiladi.

Muharrir har ikki jumladagi asosiy tushunchani ifoda etuvchi terminlar – *turkiy, forsiy, o'zbek, forsiyni* qiyoslaganda edi ular o'rtaсидаги мantiqiy bog'liqliкni tiklagan bo'lardi:

Turkiy, forsiy – turkiy, forsiy.

Muharrir tuzatish qilmagan bunga sabab u mantiqiy tahlil amalini bajarishlikni bilmaganligidan tashqari, xalqining tili qaysi davrda *turkiy til-u*, qaysi davrda *o'zbek tili* atalganidan ham xabarsiz ekanlidir.

Vaholanki, Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning o'zлari e'tirof etishlaricha, ul zot turkiy hamda forsiy tilda ijod etganlar.

Agar muharrir ikki mulohazani qiyoslay olganida edi bunday mantiqiy chalkashlik yuz bermas edi.

11-§. Mantiqiy bog'liqlik na tinish belgilari, na bog'lovchi (so'z) yordamida ifoda etilmagan bo'lsa, unda tushshunchalar yoki mulohazalar o'rtaсидаги mantiqiy bog'liqliкni tekshirib ko'rish kerak. Mulohazalar o'rtaсидаги bog'liqlik boshqacha mantiqqa asoslangan bo'lishi mumkin. Agar tahlil natijasida mulohazalar o'rtaсидаги bog'liqlik buzilgan bo'lsa, unda buning sababini aniqlash va to'g'rilash talab etiladi.

Ommaviy axborot vositalarining demokratik ahamiyati haqida ortiqcha izoh berish shart emas. U jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlardan tortib, ijro hokimiyati ustidan keng nazorat qilish imkoniyati va salohiyatiga ega bo'lgan siyosiy demokratik institutlar qatoriga kiradi (O'zbekiston matbuoti, 2014, 5-s. 57-b.).

Yuqoridagi ikki jumladagi mulohazalar o'rtaсидаги mantiqiy bog'liqlik, bir qarashda, me'yorida tuyuladi. Ammo diqqat bilan tahlil etilsa, fikrni bayon etish tartibi buzilgani seziladi. Birinchi jumlada «...ortiqcha izoh berish shart emas» degan xulosaviy fikr berilgan ekan, demak, qaysidir darajada izoh berilgan-u, endi boshqasiga hojat yo'q degan tushuncha yuzaga chiqadi. Shunday ekan keyingi mulohaza mantiqan avvalgisini davomi emas. Chunki, *shart emas* degan tushunchadan keyin berilmoqda. Vaholanki, avval ozmi-ko'pmi izoh berish kerak, so'ng ortiqcha izoh shart emas deya xulosalash kerak.

Muharrir mazkur matnni tahrir qilishda mulohazalar o‘rni alma-shib qolgani, shu tufayli mantiqiy bog‘liqlik buzilganini tahlil etib ko‘rmagan (payqamagan).

Agar har ikki mulohazaning o‘rni almashtirilsa, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik o‘z o‘rnida qoladi, buning uchun matnni bir oz tahrirdan chiqarish lozim.

Ommaviy axborot vositalari jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlardan tortib, ijro hokimiyyati ustidan keng nazorat qilish imkoniyati va salohiyatiga ega bo‘lgan siyosiy demokratik institutlar qatoriga kiradi. Uning demokratik ahamiyati haqida ortiqcha izoh berish shart emas.

12-§. Aniqlovchi-aniqlanmish tartibida birikmaga kirishgan ikki so‘z anglatgan tushunchada har doim ham so‘zlarning ma’nolari mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lavermaydi. Bir qarashda so‘z birikmasi shaklan grammatika qoidasiga muvofiq birikkan so‘zlardan iborat. Lekin ma’noviy jihatdan ...

Bu mumtoz inson tiriximizning eng murakkab, eng jozibador, eng dramatik siymolaridan biridir. (Boburiynoma, 3-b.).

Jumla tarkibidagi *mumtoz inson* birikmasini tashkil etuvchi so‘zlar ma’no ifodasiga ko‘ra – mantiqan bog‘liqlikka ega emas. Ular muallif tomonidan sun’iy yasalgan. Muharrir tahrir jarayonida mantiqiy tahlilni chetlab o‘tgan, natijada bir qarashda me’yoriy tuyulsa-da, aslida so‘zlar mantiqqa zid tarzda birikmaga kirishtirilgan. Shu jumla tarkibida yana bir shunday mantiqqa zid holdagi so‘z birikmasi bor: «... *tariximizning ... siymolaridan...*». Bunda *tarix* so‘zi bilan *siymo* so‘zi birikmaga kirishtirilgan. Agar so‘zlar mantiqan tahlil etilsa, ular ma’no ifodasi ayon bo‘ladi: *tarix – o‘tmish davr, siymo – shaxs* ma’nosiga ega. Har ikki so‘zni yuqoridagi tarzda birikmaga kiritilishi, ya’ni so‘z birikmasi hosil qilish mantiqqa zid. Zero *tarixning siymosi* bo‘lmaydi. Agar muharrir mazkur ikki so‘z qaratqich va qaralmish munosabatiga ko‘ra birikmaga kirishtirilsa, ular o‘rtasida mantiqiy birikuv yuz bermasligini mantiqiy tahlil qilganda edi ikki so‘zning birikmaga kirishuvi boshqacha munosabatga ko‘ra yuz berardi: tarixiy siymo (shaxs); tarixdagi siymo (shaxs). Zinhor *tariximizning siymolaridan* emas.

13-§. Agar yo‘l qo‘yilgan xatolik biror qismning tushib qolishi bilan bog‘liq bo‘lsa, uni tiklash usulini qo‘llash lozim. Bu usulda mantiqiy xatolik ayonlashadi. Agar xatoga muallif yo‘l qo‘ygan, sillogizmda mulohazadan biri tushib qolgan bo‘lsa, unda xatolik deyarli sezilmaydi.

Insonning axborotlarni qabul qilishda sezgi a’zolarining ishtirok etish darajasiga qarab belgilanadi.

Matnni tahlil qilishda, avvalo, tushib qolgan mantiqiy bo‘g‘inni taklash, hamda mavjud bo‘g‘in bilan tiklangan bo‘g‘in o‘rtasida bevosita bog‘liqlik bor-yo‘qligini aniqlash kerak.

Chunki, tiklangan bo‘g‘in mantiqan to‘g‘ri bo‘lmasligi, xatoga yo‘l qo‘yishga sabab bo‘lishi mumkin. Yozma aralashuvga hojat yo‘qdir. Yuqorida jumlaning mantiqiy tahlili bu masalaga oydinlik kiritadi. Muharrir yetishmayotgan bo‘g‘inni aniqlash uchun gapdagi *ega* va *kesimni* va ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliknini fikran tiklashi kerak. Gapda ega vazifasini bajaruvchi bo‘g‘in yetishmaydi. Kesim mavjud – *belgilanadi*. Grammatika qoidasiga ko‘ra *kesimga* savol berib *egani* aniqlash mumkin. *Belgilanadi*. Nima? Afsuski, bu savolga javob beruvchi unsur gap tarkibida yo‘q, uni topish ham amri mahol! Muharrir savolni boshqacha qo‘yishi kerak. ... *axborotlarni qabul qilishda sezgi a’zolarining ishtirok etish darajasiga qarab insonning nimasi belgilanadi???*

Bu savollarga javob topish uchun yana grammatika qismiga murojaat qilamiz. *Inson so‘ziga -ning* qo‘shimchasi qo‘shilgan ekan u *qaratqich* vazifasini bajaradi va *qaralmish* vazifasini bajaruvchi so‘z bilan birikmaga kirishadi, ya’ni *insonning* (...). Ammo muallif tuzgan jumлада бuning iloji yo‘q. Qaratqich-qaralmish munosabatiga ko‘ra qaralmish vazifasini bajaruvchi so‘z jumla tarkibida mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra jumla muharrir tomonidan tugal qayta tuzilishi yoki qisqartirilishi lozim.

14-§. Muharrir mantiqiy xatolar o‘tib ketmasligi uchun, ularni aniqlashda matndagi mantiqiy bog‘liq bo‘g‘inlarni taqqoslashi kerak.

Matndagi turli unsurlarni taqqoslash muharrirlik tahlilining ko‘p qo‘llanadigan mantiqiy tahlil usullaridan biridir.

Matn tahririda asos materiallarning mantiqiy o‘zaro bog‘liqligini tekshirish ular xatoligini samarali tuzatish imkonini beradi. Ayni mana shu yo‘l bilan bir qism, bir bob yoki umuman bitta asar doirasida bir-biriga zid holatda asos material xato ekanligi aniqlanadi. Ayni bir annotatsiyadan olingan quyidagi parchaga e’tibor beraylik. Annotatsiyaning uchinchisi abzatsi:

Shuningdek, qo‘llanmaga sohaga oid amaldagi qonunlar ...

Annotatsiyaning to‘rtinchi abzatsi:

Ushbu uslubiy qo‘llanma bu boradagi ilk tajriba sifatida taqdim etilayotganligi sababli ... (Noshirlik faoliyati: mohiyat, mahorat, mas’uliyat).

Ayni bir asos material har ikki abzasda ikki xil ketgan. Bunda adabiy tahrirning *ayniyat* qonuni buzilgan. Demak muallif(lar) hamda muharrir, qolaversa noshirga mas’ullar tahrir qonunlaridan xabardor emas.

Ayni shu annotatsiyada yana bir mantiqiy xato ko‘zga tashlanadi.

... me’yoriy-normativ hujjatlar, davlat standartlarining ilova qilinishi...

Matnda ayni bir asos material qandayligi ikki so‘z (juft so‘z) yordamida ifoda etiladi. Mazkur birikma mantiqiy tahlil etilsa uch tur konstruksiya mavjudligi ayon bo‘ladi:

- 1) me’yoriy hujjat;
- 2) normativ hujjat;
- 3) me’yoriy-normativ hujjat.

Ulardan qay biri mantiqqa to‘g‘ri? Bu uch birikmaning qay biri to‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun ularni taqqoslash (sillogizm) usulidan foydalilanildi: *me’yoriy hujjat – normativ hujjat – me’yoriy-normativ hujjat.*

Har bir birikmadan anglashiladigan tushunchaning qay biri to‘g‘ri degan savolga to‘g‘ri javob ikkita: birinchi va ikkinchi birikmadan anglashiladigan tushuncha mantiqan to‘g‘ri. Lekin ayni bir jumla, abzas, umuman bir asar tarkibida ikkisidan biri qo‘llanilishi tahrir man-

tiqiga ko'ra to'g'ri bo'ladi: yoki huquqiy hujjat yoki normativ hujjat; uchinchisi bo'lishi mumkin emas. Bu tahrir mantiqiy qonunidan yana biri – *uchinchisi istisno* qonuni bilan isbotlangan.

Asos materiallar taqqoslanib, amalda, mantiqiy xatoliklar aniqlanadi va shunday qilib, ular tutib qolinadi. Ko'rindiki, mantiqiy usullar matndagi asos materiallarni aniqlash vositasi ekan.

15-§. Bir xil yoki bir-biriga yaqin mulohazalarni bir asar miqyosida taqqoslash bilan muharrir ziddiyatsizlik qonuni buzilishining oldini olishi mumkin. Mazkur qonunga ko'ra ikki hukmdan biri tasdiqlasa-yu, ikkinchisi rad etsa, unda ulardan biri yolg'ondir.

Tarixiy va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra «Avesto»ni eng qadimgi yozma manbalardan biri sifatida tilga olish mumkin. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» miloddan avvalgi VII-VI asrlarda qadimiy O'rta Osiyo hududida yaratilgan.

Kiyik terisiga yozilgan mazkur asar ajodolarimiz aql-idrokining bu-yuk ifodasidir.

... u sigir terisiga tilla suvi bilan yozilgan.

«Avesto» – Birinchi kitob – Ilohiy ne'mat» sarlavhasi ostidagi, bir betda joylashgan, bir abzas ichidagi ikki mulohazani taqqoslab ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik tahlil etilsa, ayni bir narsa xususidagi ikki fikr zidligi ayon bo'ladi.

Birinchi o'rinda «Avesto» kiyik terisiga yozilgan deyiladi. Ikkinchisida – *sigir* terisiga. Qay biri to'g'ri?

Avesto xususidagi barcha boshqa manbalarda u 12 ming mol terisiga yozilgani haqida ma'lumot beriladi. Sigir ham qoramol to-ifasidan ekanligini e'tiborga olsak, unda ikkinchi mulohaza haqiqatga yaqin.

Demak, amalga oshirilgan tahlilga ko'ra chiqarilgan xulosaga asosan mantiqiy xatoni tuzatib, zidlikni asos material xatoligini tuzatish ko'p mehnat talab etmaydi. Shunda muharrir adabiy tahrirning yana bir – ziddiyatsizlik qonuniga amal qilgan bo'ladi.

16-§. *Teleko 'rsatuvarlar dasturida huquqbazarlikning oldini olish, profilaktik ishlarni takomillashtirish chora-tadbirlari yoritilishi.*

Bu sarlavha – jumlada ikki tushuncha mavjud: birinchisi – *huquqbuzarlikning oldini olish*; ikkiinchisi – *huquqbuzarlikka oid profilaktika ishlarini olib borish*.

Agar matn mantiqiy tahlil etilsa har ikki tushuncha mantiqan bir xil: *huquqbuzarlikning oldini olish*. Chunki *profilaktik ishlar* birikmasining o‘zi *oldini olish ishlari* ma’no ifodasini beradi.

Shunday qaytariq kerakmi? Yo‘q, bu bayon mantiqiga zid. Mantiqiy urg‘u birinchi iboraga tushgan. Ikkinchisi esa har ehtimolga qarshi birinchisining tushunchasiga ishora qiladi.

Biror so‘z yoki biror iboraning ma’nosи haqida fikr bildirishda uning turli muqobillari bilan izohlash mumkin. Tilshunoslik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, «pishib yetilmagan» so‘zlarni ikkinchisi, ya’ni maqbul varianti bilan almashtirib yoki o‘rnini, ifodasini o‘zgartirib erkin birikmaga kirishida farqlanishini kuzatish darkor.

Yuqoridaagi ikki jumladan iborat matn muharrir tomonidan mantiqiy tahlil qilinsa, albatta, ular har birida ilgari surilgan fikr (tushuncha) izoh talab ekanligi ayon bo‘ladi.

Biror so‘z yoki biror iboraning ma’nosи haqida fikr bildirishda uning turli muqobillari bilan izohlash mumkin degan fikr ilgari suriladi, lekin izohlanmaydi.

Tilshunoslik tajribasi shuni ko‘rsatadiki,... kuzatish darkor deyiladiyu, ammo, ilgari surilayotgan fikr dalillanmaydi.

Agar muallif biror fikrni ilgari surar ekan, u albatta dalillanishi lozim. Aks holda matndagi mantiqiy izchillik uziladi, da’vo «quruq» bo‘lib qoladi. Buni muharrir matn mantiqiy tahlili natijasida aniqlashi va tegishli tuzatishni amalga oshirishi kerak. Bunga qanday erishiladi? Agar muharrir tahrir mantiqiy qonunlaridan yana biri – yetarli asos qonunidan xabardor bo‘lsa, matndagi bu kamchilikni oson bartaraf etish mumkin. Agar bunga muallif norozilik bildirgan taqdirda ham uni qonunga asoslanib ishontira biladi. Demak, matn mantiqan to‘g‘rilangan holda o‘quvchiga yetib boradi.

17-§. Uyushgan bo‘laklar qatorini tashkil etuvchi so‘zlar yoki umumlashtiruvchi so‘z bilan uyushgan bo‘lak tarkibidagi biror

so‘zni o‘zaro taqqoslash (tahlil qilish) ham ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi.

Shu sababli uning (Boburning) bu boradigi noyob tajribalari Attila, Yuly sezar, Bonapart Napoleon, Amir Temur singari mumtoz davlat arboblarining nomlari bilan bir qatorga qo‘yib o‘rganiladi (Boburiy-noma, 4-b.)

Muallifning bu matnini muharrir mantiqan to‘la-tukis deya qabul qilgan va o‘tkazib yuborgan. Haqiqatan ham uyushiq bo‘lakni (bir qatorni) tashkil etuvchi so‘zlar o‘zaro taqqoslanmasa, shunday. Ammo diqqat bilan mantiqiy tahlil etilsa, unda qatorni tashkil etuvchi so‘zlar tartibi noto‘g‘ri ekanligi ayon bo‘ladi. Buni aniqlash uchun uyushiq bo‘lakda bir qatorni tashkil etuvchi so‘z(ism)lar o‘zaro davr nuqtai nazaridan taqqoslanadi.

Ismlar tartibi mantiqan to‘g‘ri, ya’ni davrga ko‘ra ketma-ketlikda joylashtirilishi, uchun muharririga ensiklopedik lug‘at(lar)ga qarash kifoysi edi. Shunda so‘zlarni joylashtirish tartibi ayon bo‘ladi.

Yuly sezar – mil.av.102 yoki 100 – 44.

Attila - ...? – 453.

Amir Temur – 1336 – 1405.

Napoleon Bonapart – 1769 – 1821.

Demak uyushgan bo‘lakdagi so‘z (ism)lar tartibi jumla ichida quydagicha:

Shu sababli uning bu boradagi noyob tajribalari Yuly sezar, Attila, Amir Temur, Bonapart Napoleon singari mumtoz davlat arboblarining nomlari bilan bir qatorga qo‘yib o‘rganiladi.

18-§. Matnni mantiqiy tahlil qilish malakasiga ega bo‘lish uchun muharrir yuqorida qayd etilgan barcha usullarni bajarish bo‘yicha timmay mashq qilishi kerak. Qo‘lyozma ustida ishslash jarayonida har bir uchragan (garchi arzimasdek tuyulsa ham) kamchiliklar, noaniqliklar sababini aniqlashga erishishi shart. U shunday malakaga erishishi kerakki, barcha tur xato va kamchiliklarni, ortiqchalik, yetishmovchilikni darhol payqab olishi mumkin bo‘lsin. Aks holda har bir mantiqiy usulni bajarishga ko‘p vaqt sarflashga to‘g‘ri keladi. Matnni baholash

(yoki tanqid qilish)da, unga har jihatdan yondashishga to‘g‘ri keladi. Bu uzoq vaqt talab etadigan jarayondir. Vaholanki, matn ko‘p tomonlama (matiqqa ko‘ra, asos materiallar bo‘yicha til, uslub, janr va b.), shuningdek turlicha (har bir jihat miqyosida) tahlilga tortiladi.

Tahlil usullari o‘z-o‘zidan ko‘nikmaga aylanmaydi, balki amalda (har biri bilan alohida va maxsus shug‘ulanganda), qunt bilan mehnat qilgandagina muharrir kerakli ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Malaka har bir usul bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalda keng qo‘llash jarayonida, matnni aniq maqsadda o‘qish vaqtida, **birinchi holatda** – so‘z yoki tinish belgisi ishorasiga ko‘ra, **ikkinchi holatda** – unsurlar mantiqiy munosabatini so‘z yoki tinish belgisi ishtirokisiz, **uchinchchi holatda** – mantiqiy unsurlar bog‘langan (so‘zlararo, birikmalararo, shuningdek gap bo‘laklariaro, bitta umumlashtiruvchi so‘z birlashtirgan) so‘zlar qatorini aniqlash, ayni bir asos material matnda umuman asarda bir xildaligini aniqlab, **to‘rtinchchi holatda** – barcha sabab va oqibatni taqqoslab, **beshinchchi holatda** – barcha yetishmayotgan qismlarni tiklab erishiladi.

Yuqorida qayd etilgan mantiqiy tahlil usullaridan tashqari muharrir adabiy tahrirning mantiqiy to‘rt qonunidan yaxshi xabardor bo‘lishi shart. Bular quyidagilar:

1. Ayniyat qonuni;
2. Ziddiyatsizlik qonuni;
3. Istisno qonuni;
4. Yetarli asos qonuni.

Eslatma: Yuqoridagi to‘rt qonun haqida O‘zbekiston oliv va o‘rta mahsus ta’lim vazirligi jurnalistika fakultetlari uchun adabiy tahrir fani bo‘yicha tavsiya etgan «Adabiy tahrir» darsligida to‘liq ma’lumot berilgan. (Z.T.Tohirov. Adabiy tahrir. «Tafakkur –Bo‘stoni», Toshkent – 2012).

Muharrirga matn tahlili bo‘yicha asqotadigan boshqa ilmiy ishlar adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan.

O‘z bilmini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Matn nima uchun mantiqiy tahlil qilinadi?
2. Jumlalar, qismlararo mantiqiy bog‘liqlik qanday belgilanadi?
3. Mulohaza nima?
4. Tushuncha nima?
5. Mulohaza va tushunchani qiyoslash qanday tahlil hisoblanadi?
6. Ayniyat qonunini ta’riflang va misol keltiring.
7. Ziddiyatsizlik qonunini misollar bilan ta’riflang.
8. Uchinchisi istisno qonuni haqida nima deya olasiz?
9. Yetarli asos qonunini ta’riflab bering.
10. Mantiqiy tahlil qilish malakasiga qanday erishiladi?

4-bob. Adabiy tahrir

Reja

- 1. Tahrirning ikki bosqichi.*
- 2. Matnni til va uslubga ko'ra tahrirdan chiqarish.*
- 3. Matnning mantiqiy tahlil asosida tahrir qilish.*
- 4. Muallifning bayon uslubi.*
- 5. Adabiy tahrir mezonlari.*
- 6. Matnda tuzatishlarni amalgalashirish.*
- 7. Muharrirning ixtisoslashuvi.*

1-§. Adabiy tahrir – muallif asariga uni nashrdan chiqarish uchun muharrir tomonidan adabiy ishlov berish jarayoni. Muallif qo'lyozmasi ustida tahrir amalini bajaruvchi muharrir (tahrirchi) mazkur to'rtinchi bosqichga o'tishdan oldin, avvalgi uch bosqich talablariga to'liq javob berish darajasiga erishgan bo'lishi kerak. Agar muharrir oldingi bosqichlarda bayon etilgan nazariy bilimlar bo'yicha malakaga ega bo'lmasa, unda to'rtinchi bosqichga o'tmagani, tahrir amali bilan shug'ullanmagani ma'qul. Zero *adabiy nutq*, *adabiy uslubllar* va *matn mantiqiy tahlili* bo'yicha nazariy bilimga, amaliy ko'nikmaga ega bo'lмаган nashriyot, matbuot, radiotelevideniye tahrirchisi o'z sohasining mohir mutaxassis – komil muharrir bo'la olmaydi.

2-§. Bugungi kunda nashriyotlarda filologiya, ximiya, matematika, tarix, til, adabiyot, hatto, texnika va b. sohalardan oliy ma'lumotli mutaxassislar muharrirlik qilmoqdalar. Ular (filologlardan tashqari) o'z ixtisosliklari bo'yicha mutaxassis sifatida sohaga oid tushuncha va mu-lohazalar aniqligini kafolatlashlari mumkin, lekin til, uslub va mantiqiy tahlil borasida hamin qadar.

3-§. Noshirlik ishida, ommaviy axborot vositalarida matn tahriri bilan shug‘ullanuvchilar tahrir nima ekanligini to‘liq idrok etadilarmi? Shu savolni ular o‘zlariga berib ko‘rsalar va vijdonan ichki nidolari ga qulqoq tutsalar, javob juda ham qoniqarli bo‘lmaydi. Tahrir haqida so‘z borganda ko‘philikning fikri bir joydan chiqadi: bu – muallif yo‘l qo‘ygan imlo, til, uslubga oid xato va kamchiliklarni tuzatish.

Agar shunday bo‘lganda edi, ya’ni tahrir muallifning xato, kamchiliklarini tuzatishdan iborat bo‘lganda edi, unda muharrir o‘z vazifasini a’lo darajada bajargan va o‘quvchi xatolarsiz asarni qo‘lga kiritgan bo‘lar edi. Albatta, bu yomon emas. Lekin kamlik qiladi. Demak, nashriyot mutlaqo xatolardan xoli kitobni nashrdan chiqaradi, gazeta axboriy yoki tahviliy material e’lon qiladi. Shunday mualliflar borki, ular o‘z qo‘lyozmalarini mutlaqo xatosiz yoza oladilar. Lekin ... o‘quvchi oxirgi jumlanli o‘qib bo‘lib, ketgan vaqtiga achinadi, nimani o‘qidim, deya o‘ziga o‘zi savol beradi.

Demak tahrirning mohiyati bunda emas! Xo‘s, unda nimada? Keling, quyidagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqing.

«Hozir respublikamizda 100 dan ortiq nashriyotlar bor. Ularning yarmidan ko‘pi xususiy nashriyotlar. Aslida, bu quvonarli hol, lekin ular chop etayotgan kitoblar bugungi kun talablariga javob beradi-mi? Nafaqat sifatlari chop etilishi, poligrafik ijrosi, (garchi bu ham o‘ta muhim jihatlardan sanaladi) dizayn, korrektura, sahifalash, adabiy tahrir borasida mutlaqo talabga javob bermaydi. Qo‘lyozmalarning g‘oyasi, badiiy jihat, ko‘targan mavzusi haqida ijobjiy fikr aytish qiyin. Otasi haqida, onasi haqidagi qoralamalar, rayondagi paxta yoki asfalt zavodi rahbarlari haqidagi madhiyalar (kitob chiqquncha ularning ko‘pi yo‘shdan ketadi yo‘q qamaladi), sulolasi haqidagi «oilaviy album» – kitoblar, yosh qizchasini birorta mukofotga ilintirish uchun «zakaznoy» she’riy kitobchalar va hokazo. Noshirchilik tarixida 7-sinfda o‘qiyotganda 3 ta she’riy kitobi chiqqan qiz bormi? Dunyoda yo‘q bo‘lsa kerak, bizda bor. Men nega bu gaplarni gapiraman. Xususiy nashriyotlarda xusumati bor ekanmi, deb o‘ylamang. Aslo. Lekin, ba’zi bir xususiy nashriyotlarning chop etayotgan kitoblarini ko‘rib, tan be-

raman, qoyil qolaman. Afsuski, undaylar kam. Nega deysizmi? Mutaxassis yo‘q. Muhammirlar yo‘q. Ayrim nashriyotlarda sobiq buxgalterlar, ishdan ketgan yurist, xullas nimaiki kasb egasi bo‘lsa bor, malakali mutaxassis yo‘q».

Bu parcha nashrdan chiqqan to‘plam (Noshirlik faoliyati: mohiyat, mahorat, mas’uliyat) dagi maqola (Noshir mas’uliyati, 8-9-b.)dan olin-di. Albatta, kitobning chiqarilishi haqidagi ma’lumotlar orasida muhammirlar, musahhihaning ham ismi, familiyasi berilgan. Demak ular matnni «qunt» bilan o‘qib, biror-bir xato, kamchilik uchratmaganlar.

Muhammirlar, musahhih(a) til va uslubga ko‘ra matnni to‘g‘ri deb hisoblaganlar (ikkita tinish belgisi va bitta so‘zni istisno etganda), «hayotga» deb imzo qo‘yanlar, to‘plam dunyo yuzini ko‘rgan. Agar *poligrafik ijrosi* birikmasidan keyingi vergul *sanaladi* so‘zidan keyin yopilgan qavsdan so‘ng, *yo ishdan ketadi yo qamaladi* konstruksiyasida ikkinchi ayiruvchi bog‘lovchi yo dan oldin vergul qo‘yilsa, *rayon* so‘zi *tuman* so‘zi bilan almashtirilsa, matn til, uslubga ko‘ra xatolardan butkul holi hisoblanishi mumkin edi.

Adabiy tahrirni ayrim mutaxassislar shartli ravishda ikki bosqichdan iborat deya ta’kidlaydilar. «Mikrotahrir va makrotahrir, boshqacha aytganda, so‘z va so‘z birikmalar yuzasidan tahrir; to‘liq matn yoki uning qismi miqyosidagi tahrir»¹.

Yuqorida keltirilgan matn tahriri birinchi bosqich bilan cheklangan. Tinish belgilari joyida, imlo xatolar yo‘q, so‘z, so‘z birikmalar leksi-kologiya va grammatika qoidalariga muvofiq tarzda. Go‘yo yuqorida eslatganimiz vergullar va istorizmga aylangan so‘z tahrir etilsa, bas! Shu bilan muhammirlilik ishi tugaydi.

Endi yuqoridagi muallif matni bilan uning quyidagi variantini taq-qoslang.

Respublikamizda 100 dan ortiq nashriyot bo‘lib, yarmidan ko‘pi xususiy. Achinarlisi shundaki, xususiy nashriyotlar chop etayotgan kitoblar faqat poligrafik ijrosi jihatidangina emas, balki bezatilishi, ada-

¹ Беззубов А.Н. Введение в литературное редактирование. – Санкт-Петербург, 1997. – 1-6.

biy tahrir jihatidan ham mutlaqo bugungi kun talabi darajasida emas. Qo'lyozmalarning mavzui, g'oyasi, badiiy saviyasi xususida ijobjiy fikr aytish qiyin. Ular mualliflarning otasi, onasi yohud sulolasi haqidagi qoralamalar, shuningdek, tumandagi ba'zi amaldorlar – paxta, asfalt zavodi rahbarlari xususidagi madhiyalardan iborat. Kitob dunyo yuzini ko'rguncha asar «qahramoni» – rahbarlardan ba'zilari yo ishdan olingen yoki javobgarlikka tortilgan bo'ladi. Ba'zi kitoblar farzandini biron bir mukofotga ilintirish maqsadida ota-onada tomonidan buyurtma asosida chiqarilgan. Masalan, 7-sinfda o'qiydigan bir qizcha 3 ta she'riy to'plamini nashrdan chiqarishga muvaffaq bo'lgan! Mening bu qadar keskin so'zlarimdan, maqola muallifining xususiy nashriyotlarda xusumati bor ekan, degan fikrga bormang. Aslo, bunday emas. Ba'zi xususiy nashriyotlarning chop etayotgan kitoblarini ko'rib, tan beraman, qoyil qolaman. Afsuski, undaylar kam. Nega deysizmi? Mutaxassis yo'q. Muharirlar yo'q. Ayrim nashriyotlarda sobiq buxgalterlar, ishdan ketgan yuristlar, xullas, nimaiki kasb egasi bo'lsa bor, malakali mutaxassis yo'q.

Matn punktuatsiya, leksikologiya va grammatika qoidalari asosida qayta tuzib chiqildi. Muharrir muallif matnni tuzatmagandek, uni o'ziniki bilan almashtirib qo'ygandek tuyuladi. To'g'ri, matn sezilarli darajada o'zgartirilgan. Lekin, muhim, mazmun muallif fikrmulohazasiga zid emas, balki aniqlashtirilgan, matn ancha tushunarli va ishonarli bo'lgan.

Ammo yuqoridagi mikrotahrir hali yetarli emas. Galdagi makrotahrirni amalgalash oshirish lozim. Bunga sabab matn qismlariaro mantiqiy zidlikning mavjudligi sabab. Agar muharrir ushbu zidlikni aniqlasa va uni tuzatsa, shundagina tahrir to'laqonli amalgalash oshirilgan hisoblanadi.

Muallif ...ular (demak, barcha xususiy nashriyotlar) *chop etayotgan kitoblar bugungi ko'p talablarga javob beradimi?* - deya savol qo'yadi-da, o'z savoliga o'zi javob beradi: ...*poligrafik ijrosi, (garchi bu ham o'ta muhim jihatlardan sanaladi)* dizayn, korrektura, sahifalash, adabiy tahrir borasida mutlaqo talabga javob bermaydi. Qo'lyozmalarning g'oyasi, badiiy jihat, ko'targan mavzusi haqida ijobjiy fikr aytish qiyin.

Yuqoridagi hukmdan o‘quvchi, demak, xususiy nashriyotlar biron ta
ham talab darajasida kitob chiqarmas ekan-da, degan fikrga keladi.

Muallif xususiy nashriyotlar ishini obdan tanqid qilib, uni mutlaqo
qoniqarsizga chiqaradi-da, birdan bu fikridan qaytadi: ...*Lekin ba’zi bir
xususiy nashriyotlarning chop etayotgan kitoblarini ko’rib, tan ber-
man, qoyil qolaman...* va yana ta’kidlaydi: *Afsuski, undaylar kam.*

Bitta qism (23 satr) ichida bunday biri ikkinchisiga zid fikrga duch
kelganda muharrir qanday yo‘l tutishi kerak? Ikki fikrdan qay biri chin,
qay biri yolg‘on?

Agar muharrir ikki fikrning birini shartta qisqartirib, tahrirni amal-
ga oshirsa, xatoga yo‘l qo‘yishi tayin. Chunki, u muallif emas, shuning
uchun qay birini qisqartirsa ham ishonarli bo‘lmaydi. Bunday paytda
muallif fikrini so‘rash, so‘ng tuzatishni amalga ishirish kerak.

Matnda muharrirning muallif bilan maslahatlashib, aniqlashtirib
amalga oshirilishi, ya’ni to‘g‘rlanishi, to‘ldirilishi talab etiladigan fikr-
lar, tushunchalar yana uchraydi.

Avvalo, muallif bayon usulubini aniqlashtirish kerak. Parchadan
shu narsa ayon bo‘ladiki, material – tahliliy.

Annotatsiyada asar – to‘plam turi *uslubiy qo’llanma* deb ko‘rsatiladi.

Demak, uslub ilmiy yohud ilmiy-ommabop bo‘lishi kerak. Lekin ayrim
unsurlar material uslubi so‘zlashuv uslubiga yaqinligidan darak beradi.

1. *Hozir respublikamida 100 dan ortiq nashriyotlar bor.*
2. ..., *lekin ular chop etiyotgan kitoblar, bugungi ko‘p talablarga
javob beradimi?*
3. *Nafaqat sifatlari chop etilishi, poligrafik ijrosi...*
4. *(kitob chiqquncha ularning ko‘pi yo‘ishdan ketadi, yo qamaladi).*
5. *Yosh qizchasini birorta mukosotga ilintirish uchun «zakaznoy»
she’riy kitoblar va hokazo.*
6. *Noshirlik tarixida 7-sinfda o‘qiyotganda 3 ta she’riy kitobi chiq-
qan qiz bormi? Dunyoda yo‘q bo‘lsa kerak, bizda bor.*
7. *Men nega bu gaplarni gapiraman.*
8. *Lekin ba’zi bir xususiy nashriyotlarning chop etayotgan kitobla-
rini ko’rib, tan beraman, qoyil qolaman.*

9. *Mutaxassis yo 'q. Muharrirlar yo 'q.*
10. *Ayrim nashriyotlarda sobiq buxgalter, ishdan ketgan yurist, xullas nimaiki kasb egasi bo 'lsa bor, malakali mutaxassis yo 'q.*

Yuqorida qayd etilgan jumlalar bayoni adabiy nutqqa xos so'zlashuv uslubida emas, odatiy (jonli) so'zlashuv ekanini payqagan bo'lsangiz kerak. Bu – muallifning uslubi, dersiz. Balki..!

Deylik, uslub ham matn mohiyatiga ko'ra ilmiy yoxud ilmiy-om-mabopga o'tkazildi, albatta, muallif matnining mazmuniga putur yet-kazmagan holda.

Lekin, bu ham hali hammasi emas. Muallif matnida shunday fikrlar borki, ular asoslanishi kerakkina emas, balki shart. Masalan:

Hozir respublikamizda 100 dan ortiq nashriyotlar bor.

Nega nashriyotlar sonini aniq aytish mumkin emas!! O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida ular soni aniq qayd etilgan-ku!

Ularning yarmidan ko'pi xususiy nashriyotlar. Xususiy nashriyotlar soni ham aniq! Ko'rindiki, muallif asos materiallardan foydalangan, ularni aniqlashga xafsala ham qilmagan. Demak bu vazifani bajarish muharrir zimmasiga tushgan, muharrir esa buni unutgan yoki ko'z yumgan.

Muallif da'vo qiladi: *Otasi haqida, onasi haqidagi qoralamalar, rayondagi... rahbarlar haqidagi madhiyalar... sulola haqidagi «oilaviy album»- kitoblar,... «zakaznoy» she'riy kitobchalar va hakazo. ...7-sinfda o'qiyotganda 3 ta she'riy kitobi chiqgan...*

Biroq, bu da'volarning birortasi ham dalillanmaydi!!

Lekin, ba'zi bir xususiy nashriyotlarning chop etayotgan kitoblarini ko'rib, tan beraman, qoyil qolaman.

Muallif tan beradi, qoyil qoladi-yu, lekin qaysi nashriyotning qaysi kitobi... lom-mim demaydi, o'z fikrini dalillamaydi. Muharrir ham tahrir jarayonida asos materiallar yetishmasligini e'tibordan chetda qoldiradi.

Vaholanki, *«undaylar kam»* ekan, nashriyot nomi, asar nomi, hatto, muallif ismi, familiyasini aytib o'tish mushkul emas-ku! Agar, da'vo chin bo'lsa!

Muallif fikrida davom etadi: *Mutaxassis yo‘q. Muharrirlar yo‘q.* Ajabo, mayli, sifatidan qat’iy nazar, nashriyot mavjud, kitob chiqarib turibdi. Mutaxassis, muharrir yo‘q bo‘lsa, kitobni kimlar nashrdan chiqarmoqda?! Savodsiz, malakasiz «ishchi»larmi? Axir har bir kitobning chiqarilishi haqidagi ma'lumotlar beriladigan sahifada bosh muharrir, muharrir, musahhih(a) va boshqa kasb egalarining ism-familiyalari yozib qo‘yilgan bo‘ladi-ku! Ular mutaxasis, muharrir emasmi? Unda kim?

Bu savolga muallif javob bergandek bo‘ladi.

...sobiq buxgalter, ishdan ketgan yurist, xullas, nimaiki kasb egasi bo‘lsa bor, malakali mutaxassis yo‘q.

Mantiqan shunday savol tug‘iladi: *sobiq buxgalter, ishdan ketgan yurist* mutaxassis emasmi?

Muharrir yo‘q. Ba’zi xususiy nashriyotlarda «...nimaiki kasb egasi bo‘lsa» muharrirlik lavozimida ishlamoqdalarimi?

Nihoyat, *«...malakali mutaxassis yo‘q?»* Malakali mutaxassis – kim? Muharrirmi, musahhih(a)mi, dizaynermi, texnik muharrirmi, badiiy muharrirmi, grafikachi, rassommi, bosh muharrir yo direktormi...

Yuqorida bildirilgan mulohazalar (aslida bular adabiy tahrir mezonlari) asosida matn qayta ishlansa hamda muallif matni bilan qiyoslansa, shu narsa ayon bo‘ladiki, muallif, avvalo, bunday matnni yaratmagani ma’qul. Hamon yaratgan ekan u tahrirdan chiqarilishi lozim edi. Yuqoridagi matnni tahrir qiluvchi esa adabiy nutq, adabiy nutq uslubiyati va matn mantiqiy tahlili bo‘yicha chuqur nazariy bilimni amalda qo‘llay olishi kerak. Ba’zilar, agar tahlilga asosan matnga yondashiladigan bo‘lsa, matnni deyarli boshqatdan tuzish kerak bo‘ladi-ku, deyishlari mumkin. Ha, shunday bo‘lishi mumkin. Bunda ikki yo‘ldan biri tanlanadi: matnni muallifga qayta ishlash uchun qaytarish; muallif roziligi bilan muharrir tomonidan qayta ishlash. Qaybiri ma’qul?

Agar muharrir matnni qayta ishlashga kirishsa, unda muallif bajarishi lozim bo‘lgan bir qator ishlarni amalga oshirishiga to‘g‘ri keladi.

1. Respublikada faoliyat olib borayotgan barcha, davlat tasarrufida-gi va xususiy nashriyotlar umumiy hamda har bir tur sonini aniqlash;
2. Qoralamalar, madhiyalar, «oilaviy albom» – kitoblar, «zakaznoy» she’riy kitobchalar va hokazolar nomi, muallifining ismi-famili-yasi, uni chop etgan xususiy nashriyot nomi, muharrir, musahhihi ismi-familiyasi va boshqalarni aniqlash;
3. Tan berilgan, qoyil qolingga kitob nomini, muallifi kimligini, al-batta, bu kitobni chop etgan nashriyot nomini qayd etish;
4. Qaysi nashriyotda sobiq buxgalter, ishdan ketgan yurist, nimai-ki kasb egasi qanday ish (balki muharrirlik) bilan shug‘illanayotganini aniq aytish;
5. Qanday malakali mutaxassisiga talab qandayligini (miqdori jihat-dan) ko‘rsatish.

Shular e’tiborga olinadigan bo‘lsa, birinchi yo‘lni tanlash – yuqoridagi shartlar asosida matn (qo‘lyozma)ni muallifga qaytarish adabiy tahrir qoidasiga muvofiq bo‘ladi. Chunki yuqoridagi asos unsurlarni aniqlash, matnga kiritish muallifning zimmasdagi vazifa, ularni teks-hirish (chin, yolg‘onligini aniqlash) muharrirning vazifasi. Asarning sifatli bo‘lishi tomonlarning har biri o‘z vazifasini aniq bajarishiga bog‘liq. Adabiy tahrirning talabi ham shu!

4-\$. Yuqoridagi tahlillardan shu narsa ayon bo‘ladiki, har ikki tur tahrir amalda bir-biri bilan jips bog‘liq. Lekin bugungi kun tahrir amaliyotida asosiy e’tibor matnga qaratiladi, mikrotahrir, makrotahrir jarayonida yo‘l-yo‘lakay, shunchaki, imloviy, tinish belgilari bo‘yicha xatolarni tuzatib ketish, ba’zi so‘zlarni to‘g‘rilash, almashtirish, o‘rnini o‘zgartirishdan iborat deb tushuniladi. Bunday tahrirni amalga oshirish uchun punktuatsiya, imlo, leksikologiya va grammatikadan o‘zlashtirilgan bilimlar kifoya qiladi. Shunga ko‘ra mikrotahririga adabiy tahrir ilmini o‘zlashtirishning birinchi bosqichi sifatida qarash kerak. Keyingi bosqichga o‘tish uchun punktuatsiya, orfografiya, morfologiya sintaksis va uslubiyat bo‘yicha matnda uchraydigan barcha xato, kamchiliklarni to‘liq idrok etish lozim. Chunki bularsiz keyingi bosqich bo‘yicha adabiy tahrir ilmini o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Chunki

mikrotahrir jarayonida matn bir butunlikda yaxlit yoki bo‘lmasa muayyan qismlar bo‘yicha to‘liq tasavvur etilishi muharrirning tahrirdagi mahoratining asosini tashkil etadi.

5-§. Muharrir tahrir jarayonida faqat matnda uchraydigan ayrim-ayrim qismlarni tuzatish, to‘g‘rilash bilan shug‘ullanmaydi, balki muallifga bu xatolar, kamchiliklarni tushuntiradi va ularni bartaraf etish zarurligini ham isbotlaydi. Aks holda muallif muharrir fikriga qo‘silmasligi, kamchiliklar tuzatilmay qolishi mumkin. Demak muharrir matn bilangina emas, balki muallif bilan ham ishlashi kerak.

6-§. Adabiy tahrir matnni nashrnga tayyorlash bo‘yicha amalgalashiriladigan tahrirning bir turi. Ko‘pincha uni qisqacha tahrir deb qo‘ya qolinadi. Vaholanki, shunday nashrlar borki, ularni nashrnga tayyorlashda ilmiy muharrir, mahsus muharrir, mas’ul muharrirlar qatnashadi. Ba’zi asarlar kimningdir umumiy tahriri ostida chop etiladi. Ularning barchasi o‘ziga xos vazifani – tahrirni amalgalashiradi. Adabiy tahrir shularning biri, ammo eng ma’uliyatligi. Chunki adabiy tahrirni amalgalashiruvchi muharrir matnni nashrnga tayyorlar ekan nashrnga aloqador boshqa barcha mutaxassislar bajargan ishlarning sifati uchun javobgar hisoblanadi. Adabiy tahrir bilan shug‘ullaniuvchi muharrir matnni nashr etishga rahbarlik qilmaydi. Matn ustida (muallif bilan birgalikda) ishlaydi.

7-§. Matn tahrir qilishdan oldin tanqidiy tahlil etiladi. Sifatli tahlil esa asarning mohiyatini, auditoriyasini, vazifasini va nashr etishdan maqsadni yaxshi bilishga bog‘liq.

Tanqidiy tahlil asosida asar baholanadi, uning taqdiri hal etiladi. Agar asar qo‘lyozmasi xususidagi fikrlar taqozo etsa, asarni qayta ishlash muallifga taklif etiladi, hatto qo‘lyozma nashrnga loyiq emas deb topiladi.

8-§. Qo‘lyozma tahrir uchun qabul qilinsa, tuzatishlarni asosan ikki muharrir amalgalashiradi. Ilmiy muharrir muayyan soha bo‘yicha mutaxassis hisoblanadi, u ilgari surilayotgan g‘oya, keltirilayotgan asos materiallar (dalillar), xulosa va natijalar va h.larning to‘g‘ri ekanligini ilmiy baholaydi va ilmiy tahrirni amalgalashiradi. Adabiy tahrirda

matn asar tuzilishi (kompozitsiyasi), tili, uslubiga ko‘ra tahlil etiladi, baholanadi va takomillashtiriladi.

9-§. Ilmiy, adabiy, badiiy, texnik tahrirdan so‘ng muallifning qo‘lyozmasi nashriyot asl nusxasiga aylanadi. Matnni bosish, sahifalash jarayonida matnda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish uchun musahhihlik o‘qishi amalga oshiriladi.

10-§. Bugungi kun noshirlik ishidagi musahhihlik amaliyotida universallik yuz bermoqdi: musahhih muharrir vazifasini, muharrir musahhih vaxifasini bajarish kuzatilmoqda. Aslida har bir mutaxassis o‘z ishini qilgani ma’qul.

Musahhih – *o‘qib tuzatuvchi*, u tinish belgilari imlodagi xatolarni tuzatadi, nomlar, atamalar, terminlarni bir xillikka keltiradi, qisqartmalar, jadvallar, izohlar to‘g‘ri ekanligini tekshiradi va h.

Musahhih – *solishtirib o‘quvchi*, u bosilgan matnning nashriyot asl nusxasiga mos ekanligini tekshiradi, xatolarni tuzatadi.

11-§. Tahririy tuzatishlar adabiy tahririga oid manbalarda to‘rt turga ajratiladi.

1. **Qisqartirib tuzatish.** Bunday tuzatish joy yetishmasligi (masalan, gazetalarda) tufayli yoki muallif ortiqcha so‘zligi tufayli amalga oshiriladi.

2. **Ishlab tuzatish.** Mazkur tuzatishda ma’noviy, mantiqiy, uslubiy xato-kamchiliklar matnni tubdan o‘zgartirmay amalga oshiriladi.

3. **O‘qib tuzatish.** Bunda matnni bosishga tayyorlash vaqtida yo‘l qo‘yilgan texnik xato-kamchiliklar tuzatiladi. Bu tahrirning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

4. **Qayta ishlab tuzatish.** Bu tur tuzatish tahririy tuzatishlar orasida alohida o‘rinni egallaydi. Mazkur tur tuzatishda muallif matnnini tubdan qayta ishslash (o‘zgartirish) nazarda tutiladi. Matn g‘oyaviy, masifikaviy, ilmiy jihatdan kuchsiz yoki noshirlik me’yorlari darajasida bo‘lmasa, shunday tahrir amalga oshiriladi. Muharrirlar ommaviy nashrlarda, ilmiy nashrlarni ilmiy-ommabopga aylantirishda, muallif bilan kelishgan holda qo‘lyozmani tahrirdan chiqaradilar.

11-§. Bugungi kunda shunday xususiy nashriyotlar borki, unda na musahhih, na muharrir, na texnik muharrir, na grafikachi, na rassom va b. bor. Yolg‘iz kompyuterda ishlovchi operator bor. Adabiy muharrir, musahhih, texnik muharrir vazifalarini muallif bajaradi yoki kichkina bosmaxona mavjud-ku, ammo tahririyat yo‘q, tahririyatning barcha vazifasini muallif bajaradi.

12-§. Nashr jarayoniga kompyutering kirib kelishi, texnologiyaga o‘zgartirish kiritda, ammo, nashr jarayonining mohiyati aslicha qoldi. Muallif matni kompyuterda terila boshlandi, matnni terish tugagach u tahririyat kompyuteriga uzatiladi. Muharrir matnni displayda tahrir qiladi. Tahrirdan chiqqan matn yana matnni teruvchi kompyuteriga qaytariladi. Operator muharrir tuzatishlarini asl nusxaga kiritadi. Bu hol bir necha bor qaytarilishi, to tahrir oxiriga yetguncha takrorlanishi mumkin.

Nihoyat, alohida yuqori quvvat va imkoniyatga ega kompyuterda elektron maket ishlanadi, undan bir necha nusxa chiqariladi va ulardan biri bosishga imzolanadi, shundan keyin bosmaxona ishlari boshlanadi. Bir qarashda bular barchasi yaxshi. Muharrir, musahhih, texnik muharrir ishlari osonlashgan, tezlashgan, kam chiqim bo‘lgandek tuyuladi. Aslida ham shunday. Ammo, ana shu ammosi borki, buni e’tiborga olmaslikning iloji yo‘q.

Muharrirlar elektron noshirlik texnologiyasida tezda shunga amin bo‘ldilarki, display ekranidagi matnni (o‘qish) qog‘ozdagi matnni o‘qishdan murakkab, xato va kamchiliklar (ko‘zxato) larni ilg‘ab olish qiyin ekan. Shunga ko‘ra elektron tahrirning boshqa yo‘li topildi. Matn teruvchi kompyuteridagi matnni qog‘ozga chiqaradi, muharrir tuzatishlarni matn aks etgan qog‘ozda bajaradi.

13-§. Muharrir matnni muallifdan qog‘ozda, fleshka yoki diskda (elektron variantida) oladimi har ikki holda ham uni tahrirdan chiqarishi, ya’ni mikro- va makrotahrirni amalini bajarishiga to‘g‘ri keladi.

An’anaviy – qog‘ozdagi matnni – tahrir qilish ma’qulmi yoki displaydagi matnnimi? Bu boradagi tajribadan ma’lumki, displaydagi matnda mikrotahrirni amalga oshirish, makrotahrirdan ko‘ra oson kechadi.

Agar yiriklashtirilsa punktuatsion, orfografik xatolarni muharrir ko'zi oson ilg'aydi, so'zlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Makrotahrir jarayoni esa ancha murakkab kechadi. Sababi ko'z charchaydi, xotira susaya-di, mantiqiy xatolarni tuzatish yoki qismlararo solishtirish, taqqoslash uchun ko'pgina operatsiyalarni bajarishga to'g'ri keladi. Bular barchasi tahrir sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Muharrir qog'ozdag'i matnni tahrir qilish jarayonida diqqat-e'tiborini faqat mikro va makrotahrir amallarini bajarishga qaratadi, uni chalg'ituvchi omillar deyarli uchrasmaydi. Endi, tasavvur qiling, ekran displayidagi matnni har jihatdan puxta va to'laqonli tahrirdan chiqarish uchun muharrir «sichqoncha» bilan, klaviaturada qanchadan qancha operatsiyalarni bajarishiga to'g'ri keladi. Bular barchasi muharrirni asosiy ishidan chalg'ituvchi omillar bo'lib, shubhasiz, ko'zni, aqlni toliqtiradi. Demak, muharrir kompyuterda matn ustida ishslash texnologiyasi bilan yaxshi tanish va yetarli darajada malaka hamda ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.

14-§. Mikrotahrirni amalga oshirish uchun til, uslubni yaxshi bilish kerak. Bu borada filolog mutaxassislar uchun muammo deyarli yo'q. Faqat ta'lif vaqtida til va uslub bo'yicha olgan nazariy bilimlarini adabiy tahrir sohasida tajbiq eta olish kerak. Bundan tashqari adabiyotshunoslikda o'tilgan janrlardan tashqari ommaviy axborot vositalari (gazeta, radio, televideniye) ga xos janrlarni bilishlari lozim. Chunki, har bir janr o'ziga xos uslubni talab etadi. Masalan, matbuotdagi axborriy hamda tahliliy janrlar, radiossenariy, telessenariy va h.lar, albatta, muayyan uslubda bo'ladi. Bularning farqini anglash, ularni muvaffaqiyatli qo'llash uchun nazariy bilimlardan tashqari amaliy malaka va ko'nikmaga ega bo'lish kerak. Amaliy malaka hamda ko'nikma hosil bo'lishi uchun yillar (5-10 yil) mobaynida qunt bilan ishslash zarur.

Noshirlik sohasida mohir tahrirchi bo'lish uchun muharrir ixtisoslashuvi maqsadga muvofiqdir. Chunki adabiy tahrirning har ikki turi (mikro-, makrotahrir) bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmadan tashqari fan-texnikaning muayyan sohasi yoki sohalaridan yaxshi xabardor bo'lish, tahrir sifatiga sezilarli ta'sir etadi. Masalan, muharrir, garchi filologik soha mutaxassislik bo'lsa-da, texnikaga yoki fanning filolo-

gik bo‘lماган бирор соҳаси (масалан, тиббиёт, экология, ҳуқуқ)га оид фанларни чукур о‘злаштірмаса-да, лекин о‘зи икситослашуви керак бо‘лған соҳага оид илмиy, аyniqsa, илмиy-оммабоп адабиётлар билан, ўнгликлар билан мунтазам танишиб борishi керак.

15-§. Нашрийотлarda, gazeta, radio, televideniye тархирiyatlarida matn тархiri bilan shug‘ullanayotgan filologiya, журналистика bo‘yicha mutaxassisligi bo‘lماганлар o‘z соҳалари bo‘yicha qanchali yetuk bilimli bo‘лmasinlar til, uslub, адабиј тархирга оид илмиy, илмиy-оммабоп, o‘quv адабиётларини мунтазам мутолаа qilib borishlari komil тархирchi bo‘lish imkonini beradi.

16-§. Muхarrir garchi tugallangan asarni o‘qisa-da, лекин muallif kitobi o‘quvchilar qo‘liga borib yetguncha унга muхarrirning fikr-mulohazasi, xulosasi, bir so‘z bilan aytganda tanqidi asosida turli o‘zgartishlar kiritadi. Muхarrir muallifga yordam berish maqsadida asarni tanqid qiladi. Bundan maqsad – asarni ham mazmun, ham shakl jihatdan mukammal bo‘lishiga erishish. Adabiy tanqiddan muхarrir tanqidining farqi shundaki, asar o‘quvchining qo‘liga hali yetib borishidan oldin muallif qo‘lyozmasiga tegishli tuzatishlarni kiritish, to‘ldirish, qisqartirish, yangilash имконига eга bo‘ladi. Demak, muхarrir o‘z xulosasi bilan nashriyot tanqidchisi vazifasini o‘taydi. Bu vazi-fani uddalash учун muхarrir qo‘lyozmani til, uslub va adabiiy тархир nuqtai nazaridan baholay olish malakasiga eга bo‘lishi zarur.

Adabiy tanqidchi esa адабиј асар nashrdan chiqqandan so‘ng унга baho beradi. Bu nima учун va kimga керак? Avvalo, o‘quvchi асар bilan адабиј tanqidchi yordamida chuqurroq танишади, bu o‘quvchi асар xусусида mulohaza yuritishiga yordam beradi. Qolaversa, адабиј tanqidchining асар xусусида bildirgan fikr-mulohazalari muхarrir учун o‘zi тархirdan chiqqargan kitobga begona ko‘z bilan qarashga majbur qiladi. Asarning ijobjiy yoki salbiy jihatlari yanada oydinlashadi. Muхarrir адабиј tanqidga ham e’tiborli bo‘lishi, undan o‘rganishi керак. Zero, kelgusida qo‘lyozma тархiri vaqtida tanqidiy taqrizda aytiganchalar muхarrirlik ishining yanada samarali bo‘lishiga turtki bo‘ladi. Yana shuni alohida ta’kid etish joizki, адабиј tanqid асар dunyo yuzini ko‘rgандан

so‘ng bildirilgan fikr sifatida asar o‘quvchilarining mulohazasi maqomiga ega bo‘lishi ham mumkin. Demak, muharrir asar o‘quvchilarining ehtiyoji, qiziqishi, dunyoqarashi, xullas, xohish, istagi bilan ham tanishadi. Demak, muharrir qo‘lyozmaga nashriyot taqrizi yozishdan tashqari adabiy-tanqidiy taqrizni tahlil qilish, uni baholashdan ham xabar-dor bo‘lishi kerak.

17-§. Tahrir sifati va samaradorligini asosiy shartlari nimalardan iborat? Agar muharrir tahrirga kirishishdan oldin asar qo‘lyozmasiga tanqidiy yondashib uni aqliy faoliyat bilan bog‘liq psixologik qonuni-yatlar, tahrir mohiyatidan kelib chiqib, chuqur tahlil qilsa, albatta tahrir sifatli chiqadi.

Adabiy tahrirning noshirlik nuqtai nazaridan to‘laqonli bo‘lishi qu-yidagilarga bog‘liq:

- muayyan asar qo‘lyozmasi mazmuniga ko‘ra ahamiyatga ega ekanligiga;
- muharrirning asar mohiyatini qay darajada (chuqur, o‘rtacha, yuzaki) idrok etishiga;
- muharrirning asarni tanqidiy tahlil qila olishlik malakasiga;
- muharrirning asarni o‘quvchilar qanday qabul qilishlarini qay darajada tasavvur eta olishiga;
- muharrirning muallif ilmiy, badiiy salohiyati, individual uslubini aniqlay olishiga;
- asarda sohaga oid mavjud muammolar qay darajada yoritilganligi (asarning ilmiy yangiligi), yaqin kelajakda yuz beradigan muammolar qay darajada hisobga olinganligini aniqlay olishga;
- muharrir nashr etilayotgan, ya‘ni tahrir qilishi lozim bo‘lgan qo‘lyozma mavzuiga yaqin, avval nashr etilgan adabiyotlar bilan tanishganligiga;
- muharrir tahrir qilishi lozim bo‘lgan asar taalluqli bo‘lgan soha-dan qancha chuqur va atroficha ma’lumotga ega ekanligiga;
- tahrir etilishi lozim bo‘lgan asarda ilgari surilayotgan ilmiy yangilik bilim sohasining rivojiga qay darajada hissa qo‘sha olishini mu-harrir tasavvur eta olishiga;

— muharrirning asarni, u mo‘ljallangan o‘quvchilariga qay darajada ta’sir etishini belgilay olishiga.

18-§. Qo‘lyozmani tahrir qilishdan oldin muharrir qo‘lyozmani o‘qiydi. O‘qishdan maqsad qo‘lyozmaning nashr etishga loyiq yoki loyiq emasligini aniqlash, ishning yutuq, kamchiliklarini ko‘rsatish va muallifga asarni yanada mukammalashtirishga yordamlashishdir.

19-§. Qo‘lyozmani muharrirlik o‘quvi, muharrirlik tahriri usuli asar mazmunini chuqur anglash va idrok etishga asoslanadi. Lekin, bunda asarning barcha jihatlariga (ayniqsa ensiklopedik asarlarda) bir vaqtda e’tiborni qaratish asosiy maqsad bo‘lmasligi kerak. Agar qo‘lyozmani o‘qish vaqtida e’tibor bir jihatigagina qaratilsa (aytaylik, so‘z shakllari, tinish belgilarga yoki faqat mantiqiy jihatga), unda boshqa jihatlar anglashilmay qoladi. Demak, matnga tanqidiy yondashuvga erishilmaydi.

Qayta-qayta o‘qish esa tahrir jarayonining cho‘zilishiga olib kela-di. Nima qilish kerak? Qo‘lyozmani necha marta o‘qish kerak va bi-rinch navbatta nimalarga e’tibor berish kerak? Muharrirlik tajribasi-dan ma’lumki, har ikki tur – mikro- va makrotahrir bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Qo‘lyozma birinchi galda tinish belgilari, imlosi, so‘z shakllari bo‘yicha o‘qilganda, albatta, makrotahrirga oid jihatlar ham e’tiborni tortadi. Chunki, noto‘g‘ri qo‘yilgan vergul ham, so‘zga noto‘g‘ri qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi ham, kelishik qo‘shimchasi ham maz-munga putur yetkazadi.

Muharrir uchun matnni anglash, idrok etish mazmunni ilg‘ab olish uchun qiyinchilik tug‘diradigan omillardan yana biri so‘zlarning biri-kuvi, jumla tarkibidagi turlicha sintaktik bog‘lanishlardir.

20-§. Aniqlovchi va aniqlanmishdan tashkil topgan, hol bilan hol-lanish o‘rtasidagi munosabatga asoslangan, tartib va intonatsiya orqali bog‘langan so‘z birikmalari, ega va kesim moslashuvi, gap ikkinchi darajali bo‘laklari – aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holning jumla tarkibida joylashuvi (kelishi) va h. shunday omillar hisoblanadi.

21-§. Muharrir bular barchasi to‘g‘riligini nazorat qilishi, agar uning diqqat-e’tibori matnni asoslovchi unsurlar ishonchliliginini aniq-lashga qaratilgan bo‘lsa, albatta qiyin kechadi. Lekin, shunga qaramay

tajribali muharrir buni g‘ayrishuuriy tarzda bajaradi. Bunga u ilgari qayta-qayta duch kelgani, ya’ni so‘z birikmalari, ega, kesim, gapning ikkinchi darajali bo‘laklarining ega yoki kesimga bog‘lanishi to‘g‘ri ekanligini tekshirgani (yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatgani) uchun bu hol uning ongida mustahkamlanib qoladi (albatta, agar muharrirning xotirasi mustahkam, eslash qobiliyati yuqori, umuman xotirasi kuchli bo‘lsa).

Yuqorida aytilganlar bo‘yicha xatolarni tuzatishni muharrir, ta’bir joiz bo‘lsa, avtomatik bajaradi.

22-§. Muharrir tajribali bo‘lsa, matndagi har bir jumla haqiqatda to‘g‘ri tuzilganini tekshirish chog‘ida uslubiy xatolarni payqay oladi va tuzatib ketadi, bunga ortiqcha zo‘riqish, qunt qilishlarsiz muvaffaq bo‘ladi. Bunga erishish esa uzoq vaqt mobaynida hosil qilingan malaka tufayli mumkin bo‘ladi.

23-§. Matnni tahrir qilish jarayonida bajarilishi lozim bo‘lgan barcha amallar bo‘yicha malaka aniq maqsadni ko‘zlab, ongli harakat tufayli hosil qilinadi. Demak, muharrirdan tahrir jarayonida bajarilishi shart bo‘lgan turli amallar har biri ustida qunt bilan mashq qilish talab etiladi. Ta‘lim jarayonida mashqlar barcha turi bo‘yicha malaka to‘liq hosil bo‘lmaydi. To‘la-to‘kis malakaga muharrir uzoq davom etgan amaliyot jarayonida xatoliklarga yo‘l qo‘yib, adashib, «qoqilib-suqilib» ega bo‘ladi.

Muharrirlik malakasi asosida tanqidiy xushyorlik nimanidir mudom kutish, ba’zi o‘rinlarda xato bo‘lishi tayin ekanligini zimdan his etish bo‘ladi. Matnni muharrirona tahlilidan foydalanish malakasi amalda matndagi ayrim xato, kamchiliklarni avtomatik tahlil qilish hamda bahoresh tajribali muharrirlarga xosdir. Ular bunga odatiy holga aylanib qolgan til, uslub, matn mantiqiy qoidalaridan chetlanishlar yaxshi tanish bo‘lgani uchun erishadi.

24-§. Nashr mahsuloti bo‘lajak o‘quvchisining talabi, qiziqishini qunt bilan o‘rganish, asarning ular ongiga ta’sirini aniqlash muharrir tahlili va tahriri samaradorligi va sifatining garovidir. Bu borada muharrir qancha chuqur bilim va tajribaga ega bo‘lsa, tahrir qilinayotgan

matn o'quvchiga ta'sirini shunchalik aniq, ravshan his etadi, demak asar yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.

25-§. Umuman kitob o'quvchilarning ehtiyoji, qiziqishi, istak, xohishi, talabi bugungi kunda ilmiy asosda na nashriyotlar (alohida ilmiy-tadqiqot muassasasi haqida gapirmasa ham bo'ladi), na yakka tartibda muharrirlar tomonidan deyarli o'rganilayotgani yo'q. Agar yetakchi nashriyotlar tomonidan, aslida, O'zMAA tomonidan kitob o'quvchilarning talabi ilmiy asosda tadqiq etilsa, nashriyotlardagi tahrir ishida sezilarli sifat va samardorlik yuz beradi, bu muharrirlar tayanishi mumkin bo'lgan metodik asos vazifasini o'taydi.

Tahrir ishi qat'iy ilmiy-ob'ektiv tavsifga ega bo'lishi uchun muharrirlarning fikrlash qobiliyatini o'stirish, nashriyotlarni nashriyotmatbaa ijodiy uyi sifatida shakllartirish kamlik qiladi. Buning uchun nashriyot kitob o'quvchilarning xatlari, kitob haftaligida, konferensiyalarda bildirgan fikrlarinigina o'rganuvchi emas, balki kitobshunoslik – kitobat ishi bo'yicha to'liq ilmiy-tadqiqot olib boruvchi laboratoriyaaga ega bo'lishi kerak. Albatta, kitob o'quvchilarning talabi, ehtiyojini o'rganish ishi faqat nashriyot qoshidagi laboratoriya bilan cheklanmasligi kerak, chunki, har bir laboratoriya (agar nashriyotda tuzilgan taqdirda ham) faqat o'zi tasarrufida bo'lgan nashriyot miqyosida tadqiqiy ish olib boradi. Tadqiqot ishi tom ma'noda umuman noshirlik ishi, xususan tahrir ishini yuqori darajaga ko'tarishi uchun barcha nashriyotlarga xizmat ko'rsatuvchi alohida ilmiy-tadqiqot muassasasi tomonidan alohida ilmiy-tadqiqot muassasasi tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-tadqiqot muassasi nashriyotlar ilmiytadqidiy tadqiqot faoliyatining nazariyasi va metodologiyasini ishlab chiqishi, uning natijalarini umumlashtirishi, nashr mahsulotlari tahlili bilan shug'ullanuvchilar xulosalaridan foydalanishi, ularni noshirlik ishiga tadbiq etishi, matnni tahlil qilish, baholash va tahrir qilishning yangi mezonlarini joriy etishi kerak.

26-§. Tahrir samaradorligini oshiruvchi omillardan yana biri muharrir muallifning ma'naviy dunyosi, ilmiy salohiyati, bilim saviyasi, o'z sohasining qay darajada bilishini idrok eta olishidir. Asar qo'lyozmasini

tahrir qilishda, muallifga xos individual jihatlar bilan hisoblashmaslik ham mumkin emas. Demak, tahrirchi muallif shaxsini o'rganish usulidan xabardor bo'lishi, o'rganish natijasidan esa tahrir jarayonida, amalda foydalana olishi lozim.

27-§. Adabiy tahrir sifati va samarasи yuqori bo'lishi uchun muharrir tahrirdan chiqarayotgan asar o'zi taalluqli bo'lgan sohada mavjud yoki yaqin kelajakda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan muammo-
lar haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari shu mavzuda yoki unga yaqin bo'lgan mavzularda yaratilgan asarlar bilan tanishgan, tahrir etilayotgan asarning ulardan qay darajada yangiligi, kitob o'quvchilari uchun foydaliligini ham baholay bilishi zarur.

Demak, har bir matn tahriri bilan shug'ullanuvchi komil tahrirchi bo'lishi uchun 4-bosqich, ya'ni adabiy tahrir bosqichida o'z bilimi, malakasi va ko'nikmasini takomiliga yetkazish hamda bilim, ko'nikma va malakasidan tahrir jarayonida unumli foydalananish uddasidan chiqo
lishi talab etiladi.

O'z bilmini tekshirish uchun savol va topshiriqlar.

1. Birinchi bosqichda qanday ishlар bajariladi?
2. Ikkinci bosqichda matn qanday tahlil qilinadi?
3. Matnni qayta ishslash kim yoki kimlar tomonidan amalga oshiriladi.
4. Tanqidiy tahlil nima uchun kerak?
5. Mikrotahrirni amalga oshirish uchun qanday bilim kerak?
6. Adabiy tahrir to'laqonli bo'lishi nimalarga bog'liq?
7. Sifatli tahrirni amalga oshirish uchun muharrir qanday malakaga ega bo'lishi kerak?

Adabiy tahrir bo'yicha

amaliy mashqlar

Tahrir amalini bajarish uchun berilgan misollar ustida ishlash tartibi quyidagicha:

1. Matn (sarlavha) diqqat bilan o'qib chiqiladi.
2. Mustaqil ravishda tahrirdan chiqariladi.
3. Mustaqil tahriringiz tahrirdan chiqqan namuna tarzidagi mikro-tahrir 1-talqin bilan solishtiriladi.
4. O'z tahriringiz namunaviy makrotarhrir – 2-talqin bilan qiyoslanadi.

1-mashq

Milliy-siyosiy tashkilotlarning faoliyatini yoritib beradigan matbuot materiallarini bir necha guruhga ajratish mumkin:

Turkiston musulmonlarining quriltoy materiallari;

Siyosiy jarayonlarni yoritishga bag'ishlangan materiallari;

Mahalliy taraqqiyparvarlarning u yoki bu muammolar haqidagi maqolalar;

Siyosiy jamiyatlarning faoliyatini ochib berishga xizmat qiladigan turli xil xabarnomalar (7-bet).

2-mashq

Axborot olishga bo'lgan huquqlarni amalga oshirish mexanizing mazmuni quyidagi uchta bosqichdan, ya'ni birinchi bosqich – bu fuqarolarning axborot bilan bog'liq huquq va majburiyatlarning yuzaga kelishi, ta'minlanishi va kafolatlanishini belgilab beradigan tegishli normativ-huquqiy bazaning mavjudligi, ikkinchi bosqich – bu axborot sub'ektlari o'rtasidagi munosabatlar, uchinchi bosqich – bu fuqarolarning axborot olishga bo'lgan huquqlarining buzilishining oldini olish, agar shunday holatlar bo'lsa, ularning qonuniy manfaatlari va huquqlarini tiklash bilan bog'liq jarayonlardan iborat (17-bet).

3-mashq

Milliy matbuotimizda jamiyat hayotining turli jabhalarini yorituvchi axborot janridagi materiallar katta hajmda berib boriladi. Matbuot va boshqa axborot tarqatuvchi kanallarning ortishi auditoriyaning ham muayyan talablarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi bosma nashrlarda axboriy xarakterdagi materiallarda janriy talablarga rioya etmaslik, aniq faktlarning kamayib ketayotgani, axborotning tartibsiz joylashtirilishi, bir qolipdagi materiallarning berilishi auditoriya qatlamida matbuotga bo'lgan qiziqishni bir oz bo'lsa-da susayishiga sabab bo'lmoqda (23-bet).

4-mashq

Axborot urushi – raqib sanalgan mamlakat rahbariyatiga, uning jamoatchilik yoki diniy tashkilotlariga va ular qabul qiladigan qarorlariga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy fikr va jamoatchilik ongini o'ziga kerakli yo'nalishda shakllantirishga urinishdir (40-bet).

5-mashq

Milliy marosimlarining transformatsiyasi xususida

Mintaqa xalqlari orasida asrlar davomida saqlanib kelayotgan diniy urf-odatlar, ularning tarixi, kelib chiqishi, mohiyati, xususan, xalqimiz hayotida tutgan o'rni va uning ta'siri aksariyat hollarda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan. Xususan, zardushtiylik urf-odatlari, marosimlari va ularning mintaqa xalqlari turmush tarzi hamda islom dini an'analarini bilan sinkretik tarzda saqlanib kelayotgan ko'rinishlari tahvilini avvalo ma'naviy qadriyat sifatida saqlanayotgan an'analar jamiyatimizning turli marosimlaridan ko'zga tashlanishini kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan, U. Qoraboev «O'zbek xalq bayramlari» asarida «O'zbek xalqi urf-odatlari ichida zardushtiylik, buddaviylik va boshqa islomgacha mavjud diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bayramlar, tomoshalar, marosimlar bo'lgan. Chunonchi, bu bayramlarda zardushtiylik g'oyalari sezilib, ularda Axuramazda, Mitra, Anaxita, Mirx kabi timsollar ulug'langan, muqaddas olov atrofida raqs tushib, tomoshalar ko'rsatilgan», – deb yozadi.

Masalan o‘zbek xalqi ma’naviyatida oila muqaddas hisoblanib, u bilan bog‘liq marosimlarga katta ahamiyat berib kelingan. Asrlar davomida shakllangan zardushtiylik oila, turmush an’analari keyinchalik islam dini kirib kelgan davrda ham oilaviy marosimlarda o‘z ko‘rinishini yo‘qotmagan holda, hattoki sinkretik tarzda saqlanib qolganligini kuza-tish mumkin (123–124-betlar).

6-mashq

Avestoshunos olim H. Homidovning keltirib o‘tishicha manbalar-ning alohida variantlarida Axura Mazdaning kelin-kuyovlarga nasihat-lari keltirib o‘tiladi (124-bet).

7-mashq

Suvqalampir (polygonum hudropiper L.) ning shifobaxshlik xususiyatlari

Nurota tog‘ tizmasida tarqalgan alkaloid saqlovchi o‘simliklardan biri bu suvqalampiridir. Suvqalampiri tibbiyot sohasida keng ko‘lamda ishlatalishi ko‘pchilikka ma’lumdir. Suvqalampir (polygonum hudropiper L.) qadim zamonalardan beri insonlar tomonidan dorivor o‘simlik sifatida qo‘llanilib kelingan (247-bet).

8-mashq

Ikkita muammo – nutq axloqiyligi va tinglovchi pozitsiyasi, bir qarashda, bir-biriga mutanosib emasdek, tuyuladi. Aslida esa, ular uzviy bog‘liq. Inson shunday tuzilganki, muloqot paytida u ong osti zonasidagi axborotni, odatda, yashira olmaydi. Ong osti zonasi – insonning sotqini: U har doim ochiq. Atrofdagilarga nisbatan ichki hissiyotlar muloqot paytida uning istagidan qat‘iy nazar ko‘rinadi yoki eshitiladi. Asosan ko‘rinadi, chunki Body Languade (tana tili: imo-ishora, jestlar, poza va sh.o‘.) ong ostining belgilari tizimi – tabiiy til (tinglovchi qu-loq pardasiga kelib tushayotgan tovush to‘lqini) bilan parallel mavjud. Tabiiy til – ongning belgilari tizimi, shuning uchun uni amalga oshirish intellektual to‘g‘rilashga muhtoj (masalan, inson birovni aldashi, ya’ni,

maqsadga muvofiq bo'lsa, noto'g'ri axborot berishi mumkin). Body Languade belgilarni tizimini amalga oshirishda aldashning iloji yo'q, inson nima his qilayotgan bo'lsa, yo yuzida, yo turishida, yo harakatida qandaydir aks etadi. Tinglovchilarning ba'zilari nutqingiz orqali nima demoqchililingizni teran tushunmasliklari mumkin, biroq, shubhasiz, barcha tinglovchilar Siz (ya'ni, notiq) qanday inson (shaxsiy fazilatlar egasi) ekanligingizni va o'z nutqiga (mavzuga, kasbiga, qilinayotgan ishiga) va tinglovchilarga munosabatini osongina bexato anglab yetadilar. Bu yerda insoniy muloqotning nostandard imkoniyatlari ochiladi. Nima haqida gapirishingizdan qat'iy nazar, tinglovchi o'ziga nisbatan munosabatni his etadi (307-308-bet).

Sarlavhalar

1. «Jamiyat» gazetasida ekologik mavzuni yoritish iqtisodiy yondashuv (18-bet).
 2. Radio – ijtimoiy-siyosiy axborotlar manbai sifatida. («Toshkent» radiokanalni eshittirishlari misolida) (31-bet).
 3. «Jamiyat» gazetasida ichimlik suvi muammosining yoritilishi (36-bet).
 4. Zamonaviy axborot urushlarida OAVning o'rni va roli (40-bet).
 5. Ona tili ta'lmini o'qitishda til o'qitish dasturlarining o'rni (43-bet).
 6. Milliy marosimlarining transformatsiyasi xususida (123-bet).
 7. O'rta Osiyoda sovet hokimiyatining milliy-huquqiy chegaralaniш siyosati masalasiga doir (130-bet).
 8. Islom manbalarida rahbarga itoat qilish masalasi (139-bet).
 9. Milliy g'oya targ'ibotining oliygoh talabalari o'rtasida amalga oshirishning metodologik asoslari (176-bet).
- Eslatma: 1- va 8-mashqlar «IMPRESS MEDIA» MChJ bosmaxonasi (2016 y.) da chop etilgan (Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy). «Yosh tadqiqotchilar ilmiy maqolalari to'plami»dan olindi, fagaqt betlar ko'rsatildi.

9-mashq

Press-reliz – ishonchli axborot manbai

Biror anjuman haqida teleko‘rsatuv yoki radioeshittirishlar tayyorlayotgan jurnalistlar uchun eng ishonchli manba – ... «Press-reliz hisoblanadi... Press-relizni tayyorlash uchun axborot xizmati xodimi ni malarga e’tibor berishi kerak?

1. Qog‘oz tepasiga katta-katta harflar bilan press-reliz deb yozilgach, tashkilotning to‘liq nomi, manzili, telefon raqami, elektron pochtasi, oxirida esa tayyorlangan sanasi ko‘rsatilishi zarur.

2. Press-relizda, avvalo, tashkilot haqida qisqacha ma’lumot berish so‘ng o‘sha anjumanga oid fakt va raqamlar, anjuman o‘tkazilishidan maqsad hamda uning mohiyati yoritilishi lozim.

3. Press-relizni o‘qigan kishi bu material nima haqida, anjuman qachon va qaerda bo‘lishi, uning jamoatchilik uchun qanday ahamiyati borligi aniq aks etishi kerak. Bir yoki ikki bet hajmda (A-4 formatda bir intervalda) tadbir o‘tkazishdan maqsad asosiy mavzu to‘la aks ettilishi taqozo etiladi.

4. Press-relizda kishilarning ismi shariflarini to‘liq va to‘g‘ri yozish shart.

5. Press-relizni mutasaddilar bilan maslahatlashgan holda tayyorlashi va tashkilot rahbariga ko‘rsatib olishi lozim.

10. Press-realizni talab darajasida tayyorlay olmagan xodimlar Axborot xizmatida ishlashga noloyiq deb hisoblanadi ... OAV ga tarqatiladigan press-reliz tahrirtalab bo‘lishi nafaqat Axborot xizmati xodim, balki tashkilotning ham obro‘siga putur yetkazadi.

Soha mutaxassislaridan biri ... bu mavzuda quyidagi ma’lumotlarni taqdim etgan:

O‘tkazilayotgan tadbirlarning press-relizi risoladagidek bo‘lishi uchun birinchi galda nimalarga ahamiyat berish zarur? Press-relizni tayyorlash taxminan 15 ta talabdan iborat:

1. Predmet, voqeа, harakat (shaxs, partiya, dastur ...) haqidagi ma’lumot matnning birinchi jumlasida bo‘lishi shart;

2. Birinchi jumlada voqeanning qisqacha mazmuni bo‘lishi kerak;
3. Press-relizning mazmuni yettita asosiy savolga javob berishi zarur:
 - a). Tadbir predmeti (voqeа ...).
 - b). Tashkilot (uning nomi).
 - v). Tashkilot qaerda joylashgan (uning manzili).
 - g). Yutuqlar nimalardan iborat (tadbir nega o‘tkazilmoqda).
 - d). Ilova (qo‘srimcha ravishda yana nimalardan foydalanish mumkin?).
 - e). Detallar (raqamlar, miqdorlar, o‘lchovlar, ranglar ...).
 - j). Predmet manbasi (manzilning to‘liq nomi, telefon, bog‘lanish mumkin bo‘lgan shaxs, elektron manzil va h.k.).
4. Press-reliz asosan elektron shaklda tarqatiladi, bu usul oson, qulay, tezkor va keng qamrovli.
5. Press-reliz tashkilot nomi aks ettirilgan varaqqa (blank)da tayyorlangani ma’qulroq.
6. Press-reliz yorqin, jonli sarlavha zarur.
7. Press-reliz qog‘ozning bir tomonida 1,5 intervalda bosiladi.
8. Abzaslar qisqa, 5-6 qatordan bo‘lishi kerak.
9. Press-reliz hajmi 200 – 220 so‘zdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.
10. Zarur bo‘lganda press-reliz ikki variantda tayyorlanadi:
 - umumiy va ixtisoslashgan press-relizlar.
11. OAV qo‘srimcha materiallar so‘rashi mumkin, bunga tayyor bo‘lib turish kerak.
12. Agar rasmlar va boshqa shunga o‘xshash ilova (chizmalar, diagrammalar bo‘lsa, bu haqda press-relizza aytish zarur va so‘ralganda yuborish mumkin).
13. Odatda press-reliz imzolanadi, ya’ni, kimning nomidan yuborilayotgani ko‘rsatiladi.
14. Matn oddiy matn shaklida yuborilishi maqsadga muvofiqdir.
15. Mavzuning rus va ingliz tillarida takrorlanishi maqsadga muvofiq.

Press-relizda imloviy, punktuatsion va stilistik xatolar bo'lmasligi zarur (169-172-b.).

10-mashq

Shuni ta'kidlash zarurki, xalqimizning ma'naviy birligiga zarba berishga yoshlarimizning ishonch-e'tiqodini buzishga, ular ongi va qalbiga buzg'unchi g'oyalar singdirishga urinayotgan destruktiv kuchlar ham mavjudki, ular turli xil buzg'unchi g'oyalar ostida ayrim irodasi zaif yoshlarni o'z saflariga tortib, o'z yurtiga, ona Vataniga, otanonasiga, aka-ukasiga, do'st-birodarlariga qarshi kurashga undamoqda (173-bet).

11-mashq

Bugungi axboriy bosim davrida inson e'tiborini qaratishi, uni ishontirish biroz qiyinroq kechadi. Negaki, kunda kitob, gazeta, ma'ruba, reklama, kino ko'rinishidagi axborotlarga duch kelar ekan, inson ularning hammasini idrok eta olmaydi va ularga qarshi ruhiy himoya vositalarini shakllantiradi (176-bet).

12-mashq

Ko'rinib turibdiki, mamlakat Internet auditoriyasi bugun jo'g'rofiy sarhadlardan oshdi. (20 satrdan so'ng) ...

Ammo farqli jihatlari shundaki, Internet OAV auditoriyasi geografik va vaqt jihatidan chegaralarni tan olmaydi (180-bet).

13-mashq

Zamonaviy auditoriya ehtiyojlari internetdan bir necha maqsadda foydalanishidan kelib chiqadi:

- Siyosiy, ijtimoiy, sport va boshqa mavzularda axborot olish;
- Ta'limiy mavzularda ma'lumot olish;
- Hordiq chiqarish;
- Vaqt o'tkazish (180-bet).

14-mashq

Umuman olganda veb nashrlarda ikki holat kuzatiladi:

- 1 – o‘quvchini faol dialogga chorlovchi materiallar,
- 2 – bosma nashr talablari asosida yozilgan samarali interaktiv elementlardan foydalanimagan maqolalar (181-bet).

15-mashq

Afsuski, ikkinchi ko‘rinishdagi materiallar ko‘pchilikni tashkil etadi, birinchi turdagি maqolalar nisbatan kamroq bo‘lsada, o‘quvchilar e’tiborini tortgan axborot borasidagi mulohazalar turlicha:

- juda siniq, ba’zan faqat birgina ijobiy jumla bilan chegaralanadi,
- keng hajmli ammo hissiyotlardan, ko‘p hollarda e’tiroz tarzidagi mulohazalar.
- mavzuni rivojlantiruvchi, qo‘srimcha fakt va misollarni ifodalovchi izohlar,
- maqola mavzusi emas, balki uni taqdim etish usuliga nisbatan munosabatni ifodalovchi fikrlar (181-bet).

16-mashq

Leksik mazmunli so‘zlar leksikologiyada, grammatick mazmunli so‘zlar esa grammatika (so‘z turkumlari bilan bog‘liq) da o‘rganiladi (188-bet).

17-mashq

Ommaviy muloqot turlarining har bir turi o‘ziga xos lisoniy-uslubiy xususiyatga ega (17-bet).

18-mashq

Televidenye – bu shunday bir ommaviy axborot vositasiki, uning yordamida mamlakatdagi vaziyatga, odamlarning qarashlariga ta’sir ko‘rsatish, u yoki bu g‘oyalarni targ‘ib qilish va odamlarga axborot yetkazish mumkindir (6-bet).

19-mashq

... telematirlarni:

axborot uzatuvchi (jurnalist yoki suxandon tomonidan) o'qib beriladigan, telesuhbatlarda bayon qilingan va, tayyorlangan va xotirada saqlangan matnni qayta ifodalovchi turlarga guruhlash mumkin (19-bet).

20-mashq

Hozirgi kunda televideniyeda telesharhlovchilik «Sport» telekanalida ancha taraqqiy etgan (33-bet)

21-mashq

Lekin kutilmagan vaziyatlar ham bo'ladiki masalan yaqindagina yoshlari o'rtasida Osiyo championating chorak finalida o'zimiz kuzatgan vaziyat: jamoamiz a'zolari Koreya futbolchilariga qarshi to'p surdilar (34-bet).

22-mashq

Hozirgi audivizual jurnalistikada radioning ta'sirchanligiga erishishi uchun radiojournalislardan katta mahorat talab qilinadi.

Eshittirishlarda tanlangan mavzuning ham aktual ham tarbiyaviy xarakterga ega bo'lishi uchun teran ilm va ijodiy mehnat talab qilinadi. Radiojournalistika – bir butun organizm. Unda bir necha kasb egalarining ijodiy mehnati mavjud (41-bet).

23-mashq

Bugungi kunda telekanallarning eng katta g'oyaviy targ'ibot va tashviqotga ega ekanligi tufayli ommaviy axborot vositalari ichida auditorianing axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan asoslanadi. Dunyodagi barcha davlatlarda aholining deyarli 70–80% o'zi uchun kerakli axborotni aynan televideniyeden oladi. Bu ham fikrimizning dalili. XXI asrda sun'iy yo'l dosh orqali axborot qabul qilish va ularni

uzatish jarayoni butunjahon teletarmoqlari imkoniyatlarini nihoyatda oshirib yubordi (104-bet).

24-mashq

Asosan, maqolalarda audiovizual jurnalistikaning nazariyasi va amaliyoti masalalari o‘z ifodasini topgan (2-bet).

25-mashq

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plami O‘zbekistonning bugungi teleradiosi, kanal va dasturlari hamda jurnalistikaning nazariyasi va amaliyoti masalalariga oid dolzarb muammolar bilan birga jurnalistlar uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy fanlar mavzularini o‘z ichiga olgan (2-bet).

26-mashq Sarlavhalar

1. Teleko‘rsatuvlarda boshlovchi va muharrir mahorati muammolari (6-bet).
 2. Televideniyeda sharh va sharhlovchi (11-bet).
 3. Radio va telemuloqot uslublarining o‘ziga xosligi (17-bet).
 4. Televideniyeda rekreativ chiqishlarning o‘rni va tijoratlashuvi (22-bet).
 5. Televideniyeda sharhlovchilik mahorati (33-bet).
 6. Televizion dasturlardagi o‘ziga xos izlanishlar (36-bet).
 7. Zamonaviy radiojurnalistika va ta’lim (41-bet).
- Eslatma:* 9 – 25-mashqlar va sarlavhalar «O‘zbekistonning bugungi teleradiosi: nazariya va amaliyoti» mavzuidagi Respublika III ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan olindi, faqat betlar ko‘rsatildi. To‘plam 22.08.2016 yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida chop etilgan.

Javoblar

(1-talqin mikrotahrir, 2-talqin makrotahrir)

1-mashq

1-talqin

Milliy-siyosiy tashkilotlar faoliyati yoritilgan matbuot materiallari-ni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) Turkiston musulmonlarining quriltoy materiallari;
- 2) siyosiy jarayonlarni yoritishga bag‘ishlangan materiallar;
- 3) mahalliy taraqqiparvarlarning u yoki bu muammolar haqidagi maqolalari;
- 4) siyosiy jamiyatlarning faoliyatini oolib beruvchi xabarlar.

2-talqin

Milliy siyosiy tashkilotlar faoliyatiga bag‘ishlangan matbuot materiallarini quyidagicha guruhashlash mumkin:

- 1) Turkiston musulmonlar quriltoying materiallari;
- 2) siyosiy jarayonlar haqidagi materiallar;
- 3) mahalliy taraqqiyiparvar ziyolilarning ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan maqolalari;
- 4) siyosiy jamiyatlar faoliyati xususidagi xabarlar.

2-mashq

1-talqin

Axborot olishga bo‘lgan huquqni amalga oshirish quyidagi omillaga bog‘liq:

- fuqarolarning axborot bilan bog‘liq huquq va majburiyatlarining yuzaga kelishi, ta’minlanishi, kafolatlanishi belgilab qo‘yilgan me’oriy-huquqiy negizning mavjudligi;
- axborot sub’ektlari o‘rtasidagi munosabatlari;
- fuqarolarning axborot olishga bo‘lgan huquqlari buzilishining oldini olish, agar shunday holatlar bo‘lsa, ular qonuniy manfaatlari va huquqlarini tiklash.

2-talqin

Ma'lumotlar olishga bo'lgan fuqaro huquqining amalga oshishi qu-yidagi omillarga bog'liq:

- fuqaro ma'lumot olishga bo'lgan huquqi va burchi kafolatlangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi;
- ma'lumotlar beruvchi va oluvchi sub'ektlararo munosabat;
- fuqaro ma'lumotlar olishga bo'lgan huquqi buzilganda qonunc-hilik hujjatlariga asosan tiklanishi.

Eslatma: fuqaro – arabcha so'z, faqirning ko'plikdagi shakli. Faqir – grajdani; fuqaro – grajdalar.

3-mashq

1-talqin

Milliy matbuotimizda jamiyat hayotining jahbalarini yorituvchi axborot janridagi materiallar katta hajmda berib boriladi. Matbuot va boshqa axborot tarqatuvchi kanallarning ortishi auditoriyaning ham muayyan talablarining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ba'zi bosma nashrlardagi materiallarda janriy talablarga rioxal etmaslik, aniq faktlarning kamayib ketayotgani, axborotning tartibsiz joylashtirilishi, bir qolipdagi materiallarning berilishi auditoriyada matbuotga bo'lgan qiziqishni bir oz bo'lsa-da, susayishiga sabab bo'lmoqda.

2-talqin

Matbuotda jamiyat hayotiga oid axborot janrlardagi materiallar ko'plab uchraydi. Gazeta va jurnallar sonining tobora ortib borishi, axborot ayirkoshlashning jadallahsuvi matbuotda ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqqda. Masalan, ayrim bosma nashrlarda axboriy janrlar talabiga amal qilmaslik, ob'ektiv, dalillangan va ishonarli materiallar yetishmayotgani, turli janrdagi materiallar bir qolipda ketayotgani ku-zatilmoqda. Bular barchasi auditoriyaning matbuotga bo'lgan qiziqishi susayishiga sabab bo'lmoqda.

4-mashq

1-talqin

Axborot urushi raqib mamlakat rahbariyatiga, uning jamoat-chiligi yoki diniy tashkilotlariga va ular qabul qiladigan qarorlarga ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy fikr, jamiyat a'zolari ongini o'ziga kerakli yo'nalishda shakllantirishga urinishdir.

2-talqin

Axborot urushi – ijtimoiy-g'oyaviy hodisa. Siyosiy maqsadga erishish uchun mafkuraviy kurash vositasi. Raqib mamlakat rahbariyati, jamoatchiligi, xalqining diniy e'tiqodi, urf-odatlari, dunyo-qarashi, umuman ijtimoiy ongiga ta'sir etish yo'li bilan o'z mafku-rasini singdirishga qaratilgan xatti-harakat. Bugungi kunda internet, televideniyening eng qudratli vositasiga aylangan.

5-mashq

1-talqin

Milliy marosimlarning transformatsiyasi xususida

Mintaqa xalqlari orasida asrlar davomida saqlanib kelayotgan diniy urf-odatlari, ularning tarixi, kelib chiqishi, mohiyati, xusan, xalqimiz hayotida tutgan o'rni va uning ta'siri aksariyat hol-larda dolzarb mavzulardan biri bo'lgan. Xusan, zardushtiylik urf-odatlari, marosimlari va ularning mintaqa xalqlari turmush tarzi hamda islom dini an'analar bilan sinkretik tarzda saqlanib kelayotgan ko'rinishlari tahlilini, avvalo, ma'naviy qadriyat sifatida saqlanayotgan an'analar jamiyatimizning turli marosimlarida ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan U.Qoraboev «O'zbek xalq bayramlari» asarida «O'zbek xalq urf-odatlari ichida zardushtiylik, buddaviylik va boshqa islomgacha mavjud diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bayramlar, tomoshalar, marosimlar bo'lgan. Chunonchi, bu bayramlarda zardushtiylik g'oyalari sezilib, ularda Axuramazda, Mitra, Anaxita, Mirx kabi timsollar ulug'langan, muqaddas olov atrofida raqs tushib, tomoshalar ko'rsatilgan», – deb yozadi.

Masalan, o‘zbek xalqi ma’naviyatida oila muqaddas hisoblanib, u bilan bog‘liq marosimlarga katta ahamiyat berib kelingan.

Asrlar davomida shakllangan zardushtiylik oila, turmush an’analari keyinchalik islam dini kirib kelgan davrda ham oilaviy marosimlarda o‘z ko‘rinishini yo‘qotmagan holda, hattoki, sinkretik tarzda saqlanib qolganligini kuzatish mumkin.

2-talqin

Diniy marosimlar transformatsiyasi

Asrlar davomida saqlanib kelayotgan diniy urf-odatlarning tarixi, mohiyati va ularning muayyan xalq hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Masalan, zardushtiylikka oid marosim, urf-odat unsurlarining, garchi, xalqimiz islamga e’tiqod qilayogan bugungi kunda ham ayrim milliy urf-odatlarda ko‘zga tashlanayotgani diqqatga sazovordir.

«O‘zbek xalqi urf-odatlari ichida zardushtiylik, buddaviylik va boshqa islomgacha mavjud diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq bayramlar, tomoshalar, marosimlar bo‘lgan. Chunonchi, bu bayramlarda zardushtiylik g‘oyalari sezilib, ularda, Axuramazda, Mitra, Anaxita, Mirx kabi timsollar ulug‘langan, muqaddas olov atrofida raqs tushib, tomoshalar ko‘rsatilgan»¹

O‘zbek xalqi qadim-qadim zamonlardan beri oilani muqaddas bilib, u bilan bog‘liq urf-odatlarga qat’iy amal qilib kelmoqda. Shunga ko‘ra bugun oila qurish, uni mustahkamlash ham dunyoviy, ham islo-miy aqidalarga asoslangan bo‘lsa-da, lekin zardushtiylik urf-odatlariiga xos unsurlar ular bilan sinkretik (qo‘shilib ketgan) tarzda davom etib kelmoqda, Masalan ...

Eslatma: garchi iqtibos ham chuqr tahlil va tahrirga muhtoj bo‘lsa-da, unga qalam tekkizilmaydi. Chunki, iqtiboslar qanday bo‘lsa, shunday berilishi shart.

¹ Корабоев У. Ўзбек халқ байрамлари. – Т.: Шарқ, 2002. – 44-6.

6-mashq

1-talqin

Avestoshunos olim H.Homidovning keltirib o'tishicha manbalarning alohida variantlarida Axura Mazdaning kelin-kuyovlarga nasihatlari uchraydi.

2-talqin

Avestoshunos olim H.Homidov, ba'zi manbalarda Axura Mazda ning kelin-kuyovlarga o'gitlari uchrashini, aytadi.

7-mashq

1-talqin

Suvqalampirning shifobaxshlik xususiyatlari

Nurota tog' tizmasida tarqalgan alkaloid saqlovchi o'simliklardan biri, bu – suvqalampirdir. Suvqalampir tibbiyot sohasida keng ko'lamba ishlatalishi ko'pchilikka ma'lum. Suvqalampir (*polygonum hudropiper L.*) qadim zamonlardan beri insonlar tomonidan dorivor o'simlik sifatida qo'llanilib kelgingan.

2-talqin

Shifobaxsh suvqalampir

Nurota tog' tizmasida alkaloidli o'simliklardan biri suvqalampir (*polygonum hudropiper L.*) uchraydi. Bu shifobaxsh o'simlikdan xalq tabobatida qadimdan foydalanib kelgingan ...

8-mashq

1-talqin

Nutq axloqiyligi va tinglovchi pozitsiyasi, bir qarashda, bir-biriga mutanosib emasdek tuyuladi. Aslida, ular uzviy bog'liq. Inson shunday tuzilganki, muloqot paytida u ong osti zonasidagi axborotni, odatda, yashira olmaydi. Ong osti zonasi – insonning sotqini: u har doim ochiq. Atrofdagilarga nisbatan ichki hissiyotlar muloqot paytida uning istagidan qat'iy nazar ko'rindi, chunki Body Language (tana tili: imo-ishora, jestlar, poza va sh.o') ong ostining belgilar tizimidir. Mazkur belgilar tizimi nutqda tabiiy til (tinglovchi quloq pardasiga

kelib tushayotgan tovush to‘lqini) bilan parallel mavjud. Tabiiy til – ongning belgilar tizimi, shuning uchun uni amalga oshirish intellektual to‘g‘rilashga muhtoj (masalan, inson birovni aldashi, ya’ni maqsadga muvofig bo‘lsa, noto‘g‘ri axborot berishi mumkin). Body Language belgilar tizimini amalga oshirishda aldashning iloji yo‘q, inson nima his qilayotgan bo‘lsa, yo yuzida, yo turishida, yo harakatida qandaydir aks etadi. Tinglovchilarning ba‘zilari nutqingiz orqali nima demoq-chililingizni teran tushunmasliklari mumkin, biroq, shubhasiz, barcha tinglovchilar Siz (ya’ni, notiq) qanday inson (shaxsiy fazilatlar egasi) ekanligingizni va o‘z nutqiga (mavzusi, kasbiga, qilayotgan ishiga) va tinglovchilarga munosabatini osongina, bexato anglab yetadilar. Bunda insoniy muloqotning nostrandart imkoniyatlari ochiladi. Nima haqda gapirisingizdan qat’iy nazar, tinglovchi o‘ziga nisbatan munosabatni his etadi.

2-talqin

Nutqiy axloq va tinglovchi vaziyati, go‘yo aloqasizdek tuyulsa-da, lekin bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Inson o‘z tabiatiga ko‘ra shakllanib yetilmagan fikrni yashira olmaydi. U insonning yuz-ko‘zi, hatti-harakati, o‘zini tutishida ayonlashadi. Shu ma’noda ongga yetib bormagan bunday fikr noverbal tarzda oshkor bo‘ladi, insonni fosh etib qo‘yadi, bu albatta, beixtiyor yuz beradi. Muloqot chog‘ida atrofidagilarga nisbatan bo‘lgan ichki hissiyot nutq egasining xohish-istagidan qat’iy nazar oshkor bo‘ladi.

Body Language (ing. vody – *tana*, language – *til* bo‘lib, noverbal nutq, til ma’no ifodasini beradi) – ongga yetib bormagan fikrlarning so‘zsiz ayon bo‘lish belgilari tizimidir. Mazkur belgilar tizimi verbal nutq (eshituvchi quloq pardasiga urilayotgan tovush to‘lqini) bilan bir vaqtida yuzaga keladi. Verbal nutq ongga yetib kelgan belgilar tizimidir, shuning uchun uni ayonlashtirish ongli ravishda (birovni aldash yoki noto‘g‘ri ma’lumot berish) aqliy amalga oshiriladi.

Body Language belgilari tizimida esa aldash mumkin emas, chunki inson nimaiki his etayotgan bo‘lsa, ko‘z qarashi, yuzdag‘i ifodasi, xattiharakati, o‘zini tutishida ayonlashadi.

Nutqingiz orqali nima demoqchi ekanligingizni tinglovchilarning ba'zi birlari to'liq tushunib yetmasligi mumkin, biroq, barcha tinglovchilar, shubhasiz, Siz (notiq) qanday inson (shaxsiy fazilat egasi) ekanligingizni, o'z nutq (mavzu, kasb, faoliyat)ingiz va tinglovchilarga bo'lgan munosabatingizdan osongina payqay oladilar.

Bunday hollarda insonlararo muloqotning g'ayriodatiy jihatlari yuzaga chiqadi. Mavzu nima haqidaligidan qat'iy nazar tinglovchi o'ziga bo'lgan sizning munosabatingizni idrok etadi.

Sarlavhalar Makro- va mikro tahrir

1. «Jamiyat» gazetasida ekologik muammolarni yoritishga iqtisodiy yondashuv.
2. «Toshkent» radiokanalida ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar.
3. Ichimlik suvi muammosi.
4. Axborot urushi: OAVning o'rni va ahamiyati.
5. Ona tili fani dasturini takomillashtirish masalalari.
6. Diniy marosimlar transformatsiyasi.
7. Sobiq sovet hokimiyatining Turkistonni parchalash siyosati haqidagi.
8. Rahbarga itoat etish bo'yicha islom ta'limoti.
9. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga milliy g'oyani singdirishning metodologik asosi.

9-mashq

1-talqin

Press-reliz – ishonchli manba

Biror anjuman haqida teleko'rsatuv yoki radioeshittirishlar tayyorlayotgan jurnalistlar uchun eng ishonchli manba – Press-reliz hisoblanadi.

Press-relizni tayyorlash uchun axborot xizmati xodimi nimalarga e'tibor berishi kerak?

1. Varaq tepasida yirik harflar bilan PRESS RELIZ yozuvi bo'ladi, tashkilot nomi, manzili, telefon raqami, elektron pochtasi to'liq yoziлади, pastida tayyorlangan sana ko'rsatiladi.

2. Press-relizda, avvalo, tashkilot haqida qisqacha ma'lumot beriladi, so'ng o'sha anjumanga oid fakt va raqamlar, anjuman o'tkazishdan maqsad hamda uning mohiyati yoritilishi lozim.

3. Press-relizni o'qigan kishi bu material nima haqda, anjuman qachon va qaerda o'tishi, uning jamoatchilik uchun qanday ahamiyati borligini aniq tasavvur etishi kerak. Bir yoki ikki bet hajmda (A-4 for-

matda, bir intervalda) tadbir o'tkazishdan maqsad, asosiy mavzu to'la aks ettiriladi.

...

5. Press-relizda shaxslarning ismi shariflarini to'liq yozish shart.

...

10. Press-relizni mutasaddilar bilan maslahatlashgan holda tayyorlash va tashkilot rahbariga ko'rsatib olish lozim. Press-relizni talab darajasida tayyorlay olmagan xodimlar axborot xizmatida ishlashga noloyiq hisoblanadi.

...

OAVga tarqatiladigan press-reliz tahrir talab bo'lsa, tayyorlagan jurnalist va tayyorlatgan tashkilot obro'siga putur yetadi.

Soha mutaxassislaridan biri ... press-relizga oid quyidagi larni ta'kidlaydi:

O'tkazilayotgan tadbirlarning press-relizi risoladagidek bo'lishi uchun birinchi galda nimalarga ahamiyat berish zarur? Press-relizni tayyorlash taxminan 15 ta talabdan iborat:

Predmet, voqeа, harakat (shaxs, partiya, dastur ...) haqidagi ma'lumot matnning birinchi jumlasida bo'lishi shart;

Birinchi jumlada voqeanning qisqacha mazmuni bo'lishi kerak;

Press-reliz yetti savol javobidan iborat bo'lishi kerak:

a) tadbir predmeti nimalan iborat?

b) qaysi tashkilot?

v) tashkilot qaerda joylashgan?

g) tadbir yutug'i nimada?

d) nimalar ilova etildi?

ye) asos (faktik) materiallar bormi?

j) bog'lanish uchun ma'lumotlar aniqmi va h.?

4. Press-reliz asosan elektron tarzda tarqatiladi. Bu – oson, qulay, zud va keng qamrovli.

5. Press-reliz tashkilot blankida tayyorlangani ma'qul.

6. Press-reliz yozuvni yorqin, jonli bo'lsin.

7. Press-reliz varaqaniga bir tomoniga 1,5 intervalda yoziladi.

8. Abzaslar qisqa, 5-6 satrdan bo‘lishi kerak.
9. Press-reliz 200-220 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.
10. Zarur hollarda press-reliz ikki variantda bo‘ladi: umumiy; ixtisoslashgan.

11. Adresatlar qo‘sishimcha ma’lumot so‘rashlari ehtimoli borligiga ko‘ra, unga tayyor turish kerak.

12. Ilova (tasvir, chizma, diagramma)lar haqidagi ma’lumot berilishi lozim. Talab bo‘lsa, ular jo‘natiladi.

13. Press-reliz imzolanadi, yuboruvchi nomi ko‘rsatiladi.

14. Matn odatdagi ko‘rinishda bo‘ladi.

15. Mavzu rus va ingliz tillarida ham takrorlanadi.

Press-relizda imloviy, punktuatsion va stilistik xatolar bo‘lmasligi zarur.

1-talqinda matn mikrotahrirdan chiqariladi. Aslida, matnni to‘plamga kiritish uchun qabul qilmaslik kerak edi. U mutlaqo maqsadga muvofiq emas. Hamon qabul qilingan ekan, juda bo‘lmasa, yuqoridaqidek mikrotahrirni amalga oshirish lozim edi.

Enda makrotahrirga o‘tamiz.

2-talqin

Press-reliz qanday tayyorlanadi?

Muayyan tadbir haqida teleko‘rsatuvi, radioeshittirish yoki matbuot uchun xabar tayyorlayotgan jurnalist, albatta press-reliz bilan tanishib chiqadi. Demak, press-reliz jurnalist uchun muhim ma’lumot manbai hisoblanadi:

Shunday ekan uni tayyorlashda axborot xizmati xodimi quyidagi-larga e’tibor qaratishi kerak.

1. A-4 formatli varaq yuqori qismida yirik (rangli) harflar bilan PRESS-RELIZ yoziladi. Uning tagida mayda harflarda tadbir o‘tkazilayotgan tashkilot nomi, manzili, telefon(lar)i, elektron pochtasi to‘liq ko‘rsatiladi.

2. Band muallifdan aniqlashtiriladi.

3. Press-reliz haqidagi xabar matni bir, ko‘pi bilan ikki bet bo‘ladi,

1,5 intervalda yozidadi. Matnda tadbir qachon, qaerda va nima to‘g‘risida ekanligi, maqsadi, amaliy ahamiyati qisqa va lo‘nda bayon etiladi.

4-band muallifdan aniqlashtiriladi.

Shaxslarning ismi, familiyasi va agar, bo‘lsa otasining ismi to‘liq beriladi.

6-, 7-, 8-, 9-bandlar muallifdan aniqlashtiriladi.

Tashkillashtiruvchilar hamkorlikda tayyorlaydi va tashkilot rahbari bilan kelishiladi.

...

Tadbir press-relizi mukammal bo‘lishi quyidagi talablar bajarilishi-ga bog‘liq:

15 ta talabning barchasi, 3-bandagi 7 ta savol javobi muallifdan aniqlashtirilishi kerak.

Press-reliz tinish belgilariga oid, imloviy, uslubiy xatolardan holi bo‘lishi kerak.

Albatta, press-reliz mutlaqo xato, kamchiliklardan holi bo‘lishi shart, bu – aksioma!

Shu bilan birga press-reliz qanday bo‘lishi haqidagi maqola ham tinish belgilariga oid, imloviy, uslubiy xatolardan holi bo‘lishi esdan chiqmasligi kerak. Xato qilmaslik haqida, xatoga to‘la materialni chop etishlik maqsadga muvofiq emas.

10-mashq

1-talqin

Shuni ta‘kidlash zarurki, xalqimizning ma’naviy birligiga zarba berishga, yoshlarimizning ishonch-e‘tiqodini buzishga, ular ongi va qalbiga zararli g‘oyalarni singdirishga urinayotganlar ayrim irodasi zaif yoshlarni o‘z saflariga tortib, o‘z yurtiga, ona Vataniga, ota-onasiga, aka-ukasiga, do‘stilariga qarshи kurashga undamoqda.

2-talqin

O‘zbekiston xalqlari birligi, ma’naviyatiga zarba berish uchun, birinchi galda yoshlar ongiga ta’sir etib, o‘z g‘arazli maqsadlari-

ga erishmoqchi bo‘lgan buzg‘unchi kuchlar yetarli hayot tajribasiga ega bo‘lmas, irodasi zaif yigit, qizlarni, hatto o‘smlarlarni ham o‘z to‘dalariga qo‘sib olish uchun ularni o‘z yurtlari, ota-onasi, do’stlari, tug‘ishganlariga qarshi qayramoqdalar.

11-mashq

1-talqin

Bugungi axboriy bosim sharoitida inson e’tiborini qaratish, uni ishontirish bir oz qiyinroq kechmoqda. Chunki, kunda adabiy asar, gazeta, ma’ruza, reklama, kinofilmlar singari manbalar barcha axborotini inson idrok eta olmaydi va ularga qarshi ruhiy himoya vositalarini shakllantiradi.

2-talqin

Bugungi axborot shiddatli oqimi sharoitida kishilar ongi turli mavzu va shakldagi xabar hamda ma’lumotlarning barchasini to‘liq idrok eta olmaydi. Gazeta, radio, televide niye, internet, uyali telefon, bular barchasi har daqiqada o‘nlab, yuzlab xabar va ma’lumotlarni istalgan masofaga, istalgan vaqtida yetkazib bera olish imkoniga ega vositalardir. Bunday axborot tig‘izligi, kishida ruhiy himoyani instinktiv ravishda yuzaga keltiradi. Natijada insonlardagi axbortga bo‘lgan qiziqish susayadi, e’tiborsizlik kuchayadi.

12-mashq

1-talqin

Ikki jumladan biri qisqaradi. Buni muharrir muallif bilan kelishib bajaradi. Har ikkisi bo‘yicha mikrotahrir quyidagicha:

Ko‘rinadiki, mamlakatdagi internet aloqasi geografik chegaralardan oshib o‘tgan.

Ammo farqli jihat shundaki, internet auditoriyasi geografik hudud va vaqt chegarasini tan olmaydi.

2-talqin

Internet auditoriyasi makon va zamonda cheklanmagan.

13-mashq

1-talqin

Zamonaviy auditoriya ehtiyoji internetdan bir necha maqsadda foydalanishdan kelib chiqadi.

- siyosiy, ijtimoiy, sportga oid va boshqa mavzularda axborot olish;
- ta’limiy mavzularda ma’lumot olish;
- hordiq chiqarish;
- vaqt o’tkazish.

2-talqin

Internet auditoriyasi ehtiyojlari xilma-xil ekanligiga ko’ra undan turli maqsadda foydalanadi:

- siyosiy xabarlar, ma’lumotlar olish;
- iqtisodga oid xabarlar bilan tanishish;
- ijtimoiyatga taalluqli materialllar bilan tanishish;
- sport xabarlarini ko‘zdan kechirish;
- ta’limga oid ma’lumotlar olish;
- hordiq chiqarish;
- bo’sh vaqtini to‘ldirish.

14-mashq

1-talqin

Umuman olganda vebnashrlarda ikki holat kuzatiladi:

- 1) o‘quvchini faol dialogga chorlovchi materiallar;
- 2) bosma nashr talablari asosida yozilgan samarali interaktiv elementlardan foydalanimagan maqolalar.

2-talqin

Vebnashrlardagi materiallarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) o‘quvchini faol dialogga chorlovchi materiallar;
- 2) bosma nashr talablariga javob bermaydigan, interfaol unsurlaridan holi maqolalar.

15-mashq

1-talqin

Afsuski, ikkinchi ko‘rinishdagi materiallar ko‘pchilikni tashkil etadi, birinchi turdagি maqolalar nisbatan kamroq bo‘lsa-da, o‘quvchilar e’tiborini tortgan axborot borasidagi mulohazalar turlicha:

- juda siqiq, ba’zan faqat bиргина ijобијумла билан cheгараланади;
- keng hajmli ammo hissiyotlardan, ko‘p hollarda e’tiroz tarzидаги mulohazalar;
- mavzuni rivojlantiruvchi, qo’shimcha fakt va misollarni ifodalovchi izohlar;
- maqola mavzusi emas, balki uni taqdim etish usuliga nisbatan munosabatni ifodalovchi fikrlar.

2-talqin

Ikkinchi guruhga oid materiallar ko‘pgina. Birinchi guruhga oidlari oz bo‘lsa-da o‘quvchilar e’tiborini tortishlik borasidagi fikrlar turlicha, masalan:

- juda siqiq;
- aksakriyat hollarda bиргина jumla билан cheklangan;
- hajmi katta;
- hissiyotlardan holi;
- e’tirozli mulohazalardan iborat;
- mavzuni ochib berishga qaratilgan qo’shimcha asos materiallar va misollarning izohları;
- maqolada yoritilayotgan mavzuga emas, balki uni taqdim etish usuliga bo‘lgan munosabat.

16-mashq

1-talqin

Leksik mazmunli so‘zlar leksikologiyada, grammatik mazmunli so‘zlar esa grammatikada (so‘z turkumlari bilan bog‘lab) o‘rganiladi.

2-talqin

Leksik ma'noga ega so'zlar leksikologiyada, grammatick ma'noga ega so'zlar grammatikada so'z tarkumlari bilan bog'liqlikda o'r ganiladi.

17-mashq

1-talqin

Ommaviy muloqot turlarining har biri o'ziga xos lisoniy-uslubiy xususiyatga ega.

2-talqin

Ommaviy muloqotning har bir turi til va uslubga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega.

18-mashq

1-talqin

Televideniye, bu – shunday bir ommaviy axborot vositasidirki, uning yordamida mamlakatdagi vaziyatga, odamlarning qarashlariga ta'sir ko'rsatish, u yoki bu g'oyani targ'ib qilish va odamlarga axborot yetkazish mumkin.

(Go'yo boshqa OAV bunday xususiyatga ega emasdek).

2-talqin

Televideniye ommaviy axborot vositalari orasida ijtimoiy vaziyatga, kishilar ongiga ta'sir etish, muayyan g'oyani singdirish maqsadida axborot uzatishda o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, ...

19-mashq

1-talqin

... telematnlarni;

1) axborot uzatuvchi (jurnalist yoki suxandon tomonidan) o'qib beriladigan;

2) telesuhbatlarda bayon qilingan va;

3) tayyorlangan va xotirada saqlangan matnni qayta ifodalovchi turlarga guruhash mumkin.

2-talqin

Telematnlar quyidagi turlarga ajratilishi mumkin:

- 1) axboriy, direktor tomonidan o'qib beriladigan;
- 2) tetesuhbat tarzidagi;
- 3) oldindan yod olingan (yodaki).

20-mashq

1-talqin

Bugungi kunlarda telesharhlovchilik «Sport» telekanalida ancha taraqqiy etgan.

2-talqin

Mohiyatiga ko'ra «Sport» telekanalida sharh janridan boshqa telekanallardagiga nisbatan ancha keng foydalaniladi.

21-mashq

1-talqin

Lekin kutilmagan vaziyat ham bo'ladiki, ... masalan, yaqindagina yoshlari o'rtasida Osiyo championatining chorak finalida o'zimiz kuzatgan vaziyat: jamoamiz a'zolari Koreya futbolchilariga qarshi to'p suradilar.

2-talqin

Shunday vaziyat ham bo'ladiki, unda ... Masalan, yoshlari o'rtasidagi Osiyo championati chorak final uchrashuvida futbolchilarimiz koreyalik tengdoshlariga qarshi maydonga chiqadilar.

22-mashq

1-talqin

Bugungi audiovizual jurnalistikada radioning ta'sirchanligiga erishish uchun radiojurnalistlardan katta mahorat talab qilinadi. Eshittirishlarda tanlangan mavzu ham aktual, ham tarbiyaiy xarakterda bo'lishi uchun teran ilm va ijodiy mehnat talab qilinadi. Radiojurnalistika – bir butun organizm. Unda bir necha kasb egalarining ijodiy mehnati mavjud.

2-talqin

Radioeshittirishlar ta'sirchanligini yanada oshirish uchun jurnalist ahlidan yuksak mahorat talab qilinadi. Eshittirishlar mavzui dolzarb bo'lish bilan birga tarbiyaviy kuchga ham ega bo'lishi lozim. Buning uchun radioda faoliyat olib boruvchi ham ijodiy, ham texnik xodimlar chuqur bilim va tajribaga ega bo'lishlari kerak.

23-mashq

1-talqin

Bugungi kunda telekanallar katta g'oyaviy targ'ibot va tashviqotga egaligi tufayli ommaviy axborot vositalari ichida auditoriyaning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan asoslanadi.

Dunyodagi barcha davlatlarda aholining deyarli 70-80 foizi o'zi uchun kerakli axbortni aynan televtideniedan oladi. Bu – fikrimizning dalili.

XXI asrda sun'iy yo'ldosh orqali axborot qabul qilish va ularni uzatish jarayoni butun jahon teletarmoqlari imkoniyatini nihoyatda oshirib yuboradi.

2-talqin

Axborot asri deya atalgan XXI asrda sun'iy yo'ldosh orqali teleko'rsatuvlarni uzatish nihoyatda rivoj topgani tufayli auditoriyaning xabarlarg'a bo'lgan ehtiyojini qondirishda, kuchli tashviqot va targ'ibot olib borishda telekanallar yuqori samaraga erishdi. Dunyodagi aholining 70–80% o'zini qiziqtirgan xabar va ma'lumotlarni, aynan telekanallar orqali olayotgani fikrimizning yorqin dalilidir.

24-mashq

1-talqin

Maqlolarda, asosan, audiovizual jurnalistikaning nazariyasi va amaliyoti masalalari o'z ifodasini topgan.

2-talqin

To'plamdan, asosan radioeshittirish hamda teleko'rsatuvlar nazariyasi va amaliyotiga oid maqlolalar joy olgan.

25-mashq

1-talqin

Maqolalar to‘plami O‘zbekistonning bugungi teleradiosi, kanal va dasturlari hamda jurnalistika nazariyasi, amaliyoti masalalariga oid dolzarb muammolar bilan birga jurnalistlar uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy fanlar mavzularini o‘z ichiga olgan.

2-talqin

To‘plam teleradio kanallari, dasturlari, jurnalistika nazariyasi, amaliyotining dolzarb masalalariga va jurnalistika ta’limiga aloqador fanlarga oid mavzulardagi maqolalarni o‘z ichiga olgan.

26-mashq

Sarlavhalar

1. Teleko‘rsatuvda boshlovchi mahoratlari bo‘lishi tabiiy. Muhrir qanday mahoratga ega bo‘lishi kerak?
2. Televideniyeda sharh va sharhlovchi bo‘lsa, boshqa OAV da yo‘qmi?
3. Radiomuloqot va telemuloqotning umumiyligi va farqli jihatlari.
4. Rekreativ ko‘rsatuvlar: mohiyat va tijorat.
5. Telesharhlovchi mahorati.
6. Teledasturlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar.
7. Jurnalistika ta’limi va radioda jurnalistika.

Ensiklopedik asar tahriri

Muallif matni

Boburnoma

Buyuk davlat arbobi, shavkatli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi, nosir va iste'dotli shoir Zahiriddan Muhammad Boburning qomusiy ko'lamli, tarixiy, ilmiy va badiiy-voqeiy asari. Amir Temur va temuriy hukmronlarga bag'ishlangan «Zafarnoma», «Humoyunnoma», «Akbarnoma» kabilarga taqlidan hamda mohiyatiga ko'ra muallifning boshidan kechirmishlarini tarixiy aniqlik bilan yilma-yil va tartibli qayd etilishidan shartli «Boburnoma» nomi bilan jahonda shuhrat tutgan.

Avvalida «Tuzuki Boburiy», «Voqeoti Boburiy», Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi turlicha nomlar bilan yuritilgan. Boburga kichik zamondosh asarni oqqa ko'chirgan kotib uni «Boburiya», deb, Gulbadanbegim esa «Voqeanoma» deb ataganlar.

Boburning o'zi asariga nisbatan «Vaqoe» va «Tarix» atamalarini ishlatgan. Ruboiylarining birida o'z shaxsiy hayoti, ko'rgan-bilganlarini va ruhiy kechinmalari bayon etilishini ta'kidlab shunday yozadi:

Bu olamda ajab alamlar ko'rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko'rdum,
Har kim bu «Vaqoe»ni o'qup – bilgaykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g'amilar ko'rdum.

Chindan ham, asar, avvalo va bиринчи navbatda, buyuk tarixiy shaxsning boshidan kechirganlarining jonli bayonnomasi bo'lib, unda ibratomuz voqealarga boy va nihoyatda murakkab hayotining eng muhim sahifalari, parvoz va inqirozlar, zafar quvonchi va mag'lubiyat alamlari, erishgan shonu shavkat, shodu xurramlik va yuzlangan xor-u zorlik, qayg'u tashvishlar sovuqqonlik bilan haqqoniy yoritilgan. «Boburnoma»da muallifning o'z jonli siyoshi butun ulug'vorligi va salobati bilan, ayni zamonda, butun murakkabligi va ojiz belgilari bilan o'quvchi ko'zi oldida ravshan gavdalaniadi. U qomusiy bilim sohibi,

o‘tmishning ilmiy-badiiy merosini chuqur o‘zlashtirgan, joriy hayot g‘ov-to‘siqlari va bosh yo‘nalishlarini teran idrok etuvchi Komil Inson; u shonli zafarlardan g‘ururlanmaydigan va mag‘lubiyatdan umidsizlanmaydigan nihoyatda faol va tinib-tinchimas sheryurak va g‘ayratli shaxs; u o‘ta samimi, nomusli va ochiqyuz, mehribon va o‘rnii bilan qahrli, beshafqat; u diniy ta‘limotga katta hurmat va to‘la ishonch bilan qarovchi, islomiy e‘tiqodi butun, pok iymonli va ayni zamonda, bid‘at-xurofatni qat‘iy qoralovchi, nodonlik va jaholatni ayovsiz fosh etuvchi muboriz; «Boburnoma» muallifi o‘z qimmatini, sha’nu shavkatini baland qadrlaydi, yirik g‘alabalaridan faxrlanadi va ayni zamonda, qilmishlariga tanqidiy nazar bilan boqadi, behuda kekkayish va sun‘iy g‘urur, manmanlik va maqtanchoqlik, xudparastlik va takabburlik unga tamoman begona.

O‘quvchi butun «Boburnoma» davomida o‘n ikki yoshida taxtga o‘tirgan, katta bobosi sohibqiron Amir Temur kabi kuchli davlat tuzish ishtiyoqida bo‘lib, dadil siyosiy rejalar tuzgan va qat‘iylik bilan amalga oshirishga kirishgan, Afg‘onistonni zabt etib, Hindistonda buyuk boburiylar sultanatiga mustahkam asos sola bilgan donishmand davlat arbobi va siyosatchi bilan, harb ishlarida, qo‘shin tuzish, qurollantirish va boshqarishda o‘z davridan ancha ilgarilib ketgan, urush olib borish usullari va sir-sinoatini mukammal egallagan, oz kuch bilan ko‘p sonli raqiblarini tor-mor etgan muzaffar va tadbirkor sarkarda bilan yuzlas-hadi.

Asarda Bobur gul-u gulshan va go‘zallik shaydosi, bahor tarovati va hatto «xazon sayri»dan zavq-shavq topuvchi, tabiat sahovati va hayot nashidasidan bahramandlikni targ‘ib etuvchi hayotsevar va nekbin shaxs sifatida, she’riyat nazariyasi va amaliyotini bilimdoni, noziktab va iste’dodli shoир, ijod va san‘at ahlining homisi sifatida o‘quvchi ongiga ko‘chadi. «Boburnoma» da Vatan sog‘inchi, ona yurtni qo‘msash, do‘st-u diyor tomon talpinish va chin sadoqat afg‘on va hind tuprog‘ini e‘zozlash va unga samimi muhabbat tuyg‘ularini ifodalovchi lavhalar bilan uyg‘un-omuxta ifodasi topgan Muallif o‘zi muqim o‘rnashgan viloyatlarga kelgindi yoki istilochi ko‘zi bilan qa-

ramaydi, aksincha, ko‘ngil qo‘yadi, mevazoru polizlar ochadi, bir so‘z bilan aytganda, buniyodkorlik ishlarini amalga oshiradiki, bu tarixiy haqiqat «Boburnoma»da qayd etilgan ko‘plab dalillar bilan isbotlanadi.

Ammo, ta’kidlash lozimki, asar faqat yakka shaxs hayoti va ruhiy kechinmalarining tafsiloti emas – muallif tomonidan «Vaqoe» («Tarix») deb atalishining o‘ziyoq asarning mazmunan keng qamroviga va murakkab qurilmasiga hamda voqeiy-tarixiylik yo‘nalishiga aniq ishora etadi. «Boburnoma» matni hijriy 936 (milodiy 1529–30) yil voqealarida Humoyun Mirzoning xastalanishi ham Boburning valiahd farzandining dardini olish evaziga o‘z jonini tasadduq etishi bayonida yozilgan. «... Uch qatla boshidan o‘rgulub dedimki: - «Men ko‘tardim har ne darding bor!» O‘shal zamon men og‘ir bo‘ldim, ul yengil bo‘ldi. Ul sihhat bo‘lib qo‘pti. Men noxush bo‘lib yiqildim...»

Demak, asar xuddi shu yilda, voqeа-hodisalarni izma-iz qayd etish, peshma-pesh qog‘ozga tushirish jarayonida yakunlangan. Ammo, uning qachondan boshlab yozishga kirishilgani biror tarixiy manbada qayd etilgan emas. Mutaxassislarning taxminlariga ko‘ra asarning ilk fasllari 1518–19 yillarda afg‘on o‘lkasida yozila boshlagan va 1530 yil o‘rtalarida hind tuprog‘ida oxirgi sahifalariga nuqta qo‘yilgan. Bir qator belgilarga, jumladan bayon usuliga ko‘ra Boburning hijriy 899, (milodiy 1483) yildan to 914 hijriy (milodiy 1508–09) yilgacha kechgan hayot yo‘li, ko‘rgan-bilganlari va taassurotlari, o‘tmishni eslash, xotirotlarni tiklash asosida yozilgan, deb hisoblaydilar. «Boburnoma»ning bu qismida voqeа-hodisalar bayonida muxtasarlik, lo‘ndalik, ortiqcha tavsiotga berilmasdan umumlashtirishga moyillik seziladi. Hijriy 925 (milodiy 1519) voqealariga bag‘ishlangan fasldan boshlab aksincha, bayonda mufassallik va o‘ta aniqlik ustunlik qiladi, har bir voqeа-hodisani keng sharhlash, kichik nuqta-unsurlarigacha tasvirlash old o‘ringa ko‘tariladi. Ayrim fasllarda voqealar hafta kunlari va hatto kunning qismlariga qadar shanba kuni «rajab oyining yettisida» ... «odina kuni muharram oyining uchida...», «yakshanba namozi digari...», «tonglasi namozi peshindan so‘ng», «chorshanba kechasi og‘iz ochib» va hokazo, aniq va barcha tafsilotlari bilan qog‘ozga tushiriladi.

«Boburnoma»ning asl nusxasi shu kunga qadar topilgan emas. Mavjud barcha qo‘lyozmalarda voqealari tavsioti uchramaydi, hijriy 914 (milodiy 1508) va 926 (milodiy 1520) yil voqealari bayoni chala. Uzoq yillar davomida va asosan safar noqulayliklari bilan bog‘liq sharoitda yozilganligi, bu jarayonda ba’zan noxush hodisalar yuz ber-gani inobatga olinsa «Boburnoma» matnidagi bunday uzilish va kem-tiklik sabablari anglashilgandek tuyuladi. Masalan, hijriy 935 (milodiy 1528) yil voqealariga bag‘ishlangan faslda Bobur kunlarning kechga yaqin nogahon qo‘zg‘algan kuchli shamol va boshlangan qattiq jaladan qo‘lyozmaga jiddiy zarar yetganini shunday yozadi:

«Men xirgoh (chodir-A.A.) ichida kitobat (yozish, kitob ko‘chirish-A.A) qiladur edim, qog‘oz va ajzoni (jamlanmagan das’hatlar ma’nosida-A.A.) yig‘ishtirguncha fursat bo‘lmadi – xirgohni peshxona bila-o‘q mening boshimga yiqti... Kito va ajzo g‘arq o‘l (ho‘l-A.A.) bo‘ldi. Tashvish bila yig‘ishtiruldi... Mashaqqat bila o‘t yondurub tong otguncha uxlamay, avroq (varaqlar-A.A.) va ajzoning qurutmog‘iga mashg‘ul eduk».

Ana shunday kutilmagan hodisa va tasodiflar oqibatida «Boburnoma» matnining ayrim qismlari o‘sha yillardayoq yo‘qolib ketgan bo‘lishi mumkin.

Qattiq shamol va kuchli jala voqeasidan bir necha hafta ilgari, Boburning o‘z guvohligiga ko‘ra, asardan bir nusxa Agradan Kobulga jo‘natilgan: «Hoja Kalon Xoja Yahyoning nabirasi mendin bitityturgan «Vaqoe»ni tilaydur edi – istiktob (nusxa ko‘chirmoq –A.A.) qildurib erdim – Sharhrakdin yiborildi».

Ko‘rinadiki, Boburning asar ustida ishlayotgani yaqinlari va jamo-atchilikka ma’lum bo‘lgan va u uzil-kesil yakunlanmagan holda ham ayrim nusxalarda tarqalgan. Ehtimolki, Shahruk orqali yaqin kishiga yuborilgan matn barcha o‘tmish yillar voqealari bayonini jamlagan mukammal nusxa bo‘lgan. Hozirgi nusxalar qariyib qirq sakiz yil umr

ko‘rgan buyuk siyoning faqat yigirma ikki yili voqe-a-hodisalarining bayonini o‘zida jam’ qiladi.

«Boburnoma» o‘rtta asrlarda yaratilgan tarixiy asarlar va xotirotlar majmualaridan o‘zining qator betakror fazilatlari bilan ijobjiy farqlanib turadi. Bobur bu asarida XV asrning oxirgi o‘n yilligidan tortib to XVI asrning o‘ttizinchi yillariga qadar Movarounnahar, Afg‘oniston, Huroson va Hindistonda yuz bergan, shaxsan o‘zi faol qatnashgan hamda jonli guvoh bo‘lgan juda ko‘plab tarixiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealarga ham, necha o‘nlab yirik tarixiy shaxslar shajarasni, amaliy-ijtimoiy faoliyati, inson sifatidagi tabiatni, xulq-atvori, nuqson-fazilatlari, qiziqish doirasi va farzand-avlodlari tavsifiga ham keng o‘rin ajratadi.

Asarda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishidan boshlab, Movarounnahrdagi yagona va kuchli davlat tuzish yo‘lida olib borgan kurashlari, qudratli va ko‘p sonli Shayboniyxon qo‘sishlari tazyiqida ona yurtdan Afg‘oniston tomon otlanishga majbur bo‘lishi va Kobulda barqaror davlat qurishi, u yerda mamlakatni birlashtirish va obodonlashtirish, shuningdek, kasbu hunar va qishloq xo‘jaligini oyoqqa turg‘izish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlari birnchi shaxs tilidan dalilli va maroqli bayon etiladi. «Boburnoma»da Hindistonni zabit etish maqsadida bir necha bor uyuştirilgan harbiy yurishlarga ham, nihoyat Panipat janglarida Dehli sultonni Ibrohim Lo‘diyni tor-mor etib, Shimoliy Hindistonning qo‘liga kiritilishi va hind o‘lkasidagi ijtimoiy xayrli faoliyatlarini tafsilotlariga ham, shu tariqa buyuk boburiylar saltanatiga asos solinishiga ham necha yakunlovchi fasllar bag‘ishlangan.

«Boburnoma» to‘la ma’noda qomusiy qavmrovli kamyob yodgorlik. Unda, masalan, ijtimoiy-tabiiy fanlarning qator yetakchi sohalariga (tarix, falsafa, fiqh, diniy ta’limot, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, polizchilik va h.) oid nihoyatda aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, asoslangan xulosalar keltiriladi.

Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik janglar manzaralari katta mahorat bilan xolisona chizilgan. Muallif o‘sha davrdagi qo‘sish tuzilishi, urish taktikasi, jang

usullari, qamal holatlari, qurol va yarog‘ turlari, qo‘rg‘onbuzar qurilmalar qatorida ko‘plab harbiy atamalarni (bulong‘or, juvongor, g‘ul, irovulyasol, o‘ron, «itl», to‘lg‘oma va h.) tegishli izohlar bilan keltiriladiki, bu hol uning harbiy soha tarixi bo‘yicha ham muhim manba‘ sifatida tavsiflashga asos beradi. Muallif Mavarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistonlar o‘tmishi va joriy holati, u yerlarda yashovchi turli xalqlar va o‘nlab qabilalar, ularning tili, madaniyati, kasbu hunari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, ananaviy tadbir-marosimlari bo‘yicha, shuningdek, o‘sha jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarga tegishli ishonchli ma’lumotlarni qiziqarli bayon etadi. Zikr etilgan mintaqalardagi Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar viloyatlarning jug‘rofiy-ma’muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, cho‘l-adirlari, tog‘-sahrolari, bog‘u rog‘larining tavsiliy tavsifi qatorida tabiatini va iqlimi, hayvonot dunyosi va nabobot olami, tabiiy boyliklari haqida «Boburnoma»da jamlangan ma’lumotlar o‘z aniqligi va ilmiyligi bilan mutaxassislar diqqatini hamon tortib kelmoqda.

«Boburnoma»ning shuhratini olamga yoygan va barcha tadqiqotchilar tomonidan, beistisno, qayd etilgan fazilatlaridan biri uning haqqoniyligi, voqeiyligi va tarixan asoslanganligidir. Muallif voqe-a-hodisalarini zikr etish va baholashda, o‘zini, eng yaqin kishilarini, do‘sst-u dushman, yor-u raqib bo‘lgan tarixiy shaxslar tabiatini, xulqi-atvori, faoliyat-amaliyoti va demishlarini bayonida nihoyatda halol va odilona zaminda turadi, hech qanday yuz-xotir qilmay, qo‘shmay-bo‘yamay, hayotda-amalda qanday bo‘lsa, shundayligicha xolis qog‘ozga tushirildi, ijobiy va salbiy jihatlarini boricha tasvirlaydi. Haqqoniylilik, hayotiylik va rostbayonlik «Boburnoma»ning bosh mezoni bo‘lib, butun asarning ilmiy-tarixiy qimmatini belgilaydi. Bobur bu masalaga alohida ahamiyat bergen va asarning bir necha o‘rnida maxsus ta’kidlashni lozim ko‘rgan. «Bu bitilganlardan g‘araz... rost hikoyatdurkim,- bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘on-lardin maqsud o‘zning ta’rifi emas, - bayoni voqe bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu «Tarix»da andoq iltizom (majburiyat olish, rioya qilish, lozim topish –A.A.) qilinibturkim, har so‘zning

rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota og‘adin har yaxshilig‘ va yomonlig‘kim shoe edi, tahdir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hunarkim bayoni voqe‘ edi – tahrir ayladim. O‘qig‘uvchi ma‘zur tutsun, eshitguvchi taarruz maqomidin o‘tsin!»... «Bu bitilganlardin maqsad o‘zini ortturmoq emas, rosti, bu edikim, mastur bo‘ldi» – deb yozadi yana boshqa bir munosabat bilan.

Bobur xuddi ana shu nihoyatda odilona zamindan o‘z asari davomida Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy hayotida ko‘rinarli faoliyat ko‘rsatgan necha o‘nlab tarixiy shaxslarga, o‘z qarindosh-urug‘lariga, davlat arboblari va taxt da‘vogarlariga, sarkardalar va bek-hokimlarga, kasb-hunar ahli va olimu fozillarga xolis va tarixan haqqoniy munosabat-baho va ta’riflar beradi. O‘quvchi «Boburnoma» davomida, masalan, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mas‘ud Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Husravshoh, Tanbal, Uzun Hasan, Ali Do‘st tag‘oyi, Sulton Maxmudxon, Sulton Husayn Mirzo, Boysung‘ur Mirzo, Badiuzzamon, Ibrohim Lo‘diy kabilarning har birining shajarasи, avlodи, tashqi gavda-qiyofasi, fahmu idroki, yurish-turishi, xulq-atvori, odat-qiliqlari, bola-chaqassi, amaliy-ijtimoiy faoliyatи, jamiyatda tutgan o‘rnи va boshqa-boshqa muhim belgi jihatlari yuzasidan muhim ma‘lumotlar topa oladi, yetarli tasavvur hosil qiladi.

Uch katta mintaqada faoliyat ko‘rsatgan Boburga zamondosh ijod, san‘at va kasbu hunar ahli, olimu fuzalolar haqida ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin. «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husan Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhamad Solih kabi o‘nlab ijodkorlar, Hoja Abdullo Marvariy, Qul Muhammad Udiy, Shayx Nayiy, Yusuf Ali, Mulla Yorak, Shohquli G‘ijjakiy, Xusayn Uliy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko‘plab san‘atkorlar zikr etilib, ular ijodiy faoliyatlariga xolis baho-munosabat bildiriladi. Umuman, «Boburnoma»ning adabiyot tarixi bo‘yicha ham muhim manba‘ ekanligini, unda adabiyotshunoslik va she’riyat nazariyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar mavjudligini alohida ta’kidlash lozim. Unda xususan, Alisher Navoiy va uning ijodiy-ijtimoiy faoli-

yati to‘g‘risida, yaratgan yirik asarlari va yurt obodonchiligi yo‘lidagi amaliy ishlari, shuningdek, o‘zaro boshlangan yozishma haqida alohida muhabbat va chuqr ehtirom bilan so‘zlanadi:

«Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r ayitbutlar, - hech kim oncha ko‘p va ho‘b aytqon emas», kabi lo‘nda, ammo nihoyatda purma’no yuksak bahosi ilk bor shu «Boburnoma»da bitilib, o‘sha davr va keyingi asarlarda shuhrat topgan.

«Boburnoma» muallifning o‘tmish she’riyatdan chuqr bilimini namoyish qiluvchi hujjat hamdir. Uning sahifalaridan Firdavsiyning «Shohnoma», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston» asarlaridan, Xoja Hofiz devonidan iqtiboslar o‘rin olgan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy «Hamsa»lari, Jaloliddin Rumiy masnaviyi, shuningdek, zamondosh ijodkorlarning o‘nlab badiiy asarlari zikr qilinadi, ko‘plab tarixiy kitoblarga ishoralar uchraydi.

«Boburnoma» muallifning shoir sifatidagi ijodiy faoliyatini tatqiq etishda, ijodiy yuksalish jarayonini yilma-yil kuzatishda ham eng ishonchli manbadir. Shuni aytish kerakka, unda Boburning «Mubayyin», Risolai Voldiya», «Xatti Buburiy» kabi asarlarining, «Topmadim», «Qoldimu?», «Yaxshilik» radifli g‘azallarining, shuningdek, o‘nlab ruboiy va qit‘alarining qog‘ozga tushish tarixini, yaratilishiga bevosita turtki bo‘lgan hayotiy voqe-a-hodisalarining tafsilotini uchratamiz.

«Boburnoma» ayni zamonda XV asr o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunasi hamdir. Gap shundaki, qomusiy obida bo‘lgan «Boburnoma»da sof badiiy lavhalar, o‘quvchini o‘ziga maftun etuvchi jonli tasvirlar, an‘anaviy badiiy san’atlar bilan zeblangan lirik chekinishlar kam emas. Nasriy matn davomida ko‘plab keltirilgan she’riy parchalar ham uning badiiyligini oshiradi, alohida joziba bag‘ishlaydi.

O‘rta asrlar tarixchilari va xotiranavislariga xos bo‘lgan bayonda jimjimadorlik, shaklbozlik va dabdbabali ohang, havoiy bilimdonlik va nasihatgo‘ylik, murakkab va balandparvoz mubolag‘alar, o‘xshatish-qiyoslashlar, til g‘alizligi va ko‘psozlik «Boburnoma» uchun bata-mom begona. Aksincha, u boshdan-oyoq xalqchil uslub va samimiyl ohangda nihoyatda sodda va ravon yozilgan, uning tili tushunarli, jo-

zibali va shirador. Turli-tuman badiiy tasviriy vositalardan, jumladan, aytishuv-dialog shaklidan mahorat bilan foydalanish, mantiqiy va uslubiy izchillik «Boburnoma»ning qator o‘rinlarini voqeiy badiiy hikoyat saviyasiga ko‘taradi, zavq va maroq bilan o‘qilishini ta’minlaydi, bayonga sur’at bag‘ishlaydi. Butun asar davomida ustalik bilan qo‘llagan «ishonmagil do‘stingga, somon tiqr po‘stinga», «ko‘zlarini tuz tutti», «Muqarrardur: har kim ko‘p aytur – parishon aytur», «dushman ne demas, tushga ne kirmas», «el oyoq bila borg‘onda – biz bosh bila borg‘oymiz, el tayoq bila borg‘onda – biz tosh bila borg‘oymiz», «Yomon ot bil tirilgandin – yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq» kabi ko‘plab maqol-matallar, xalq iboralari, ibratli o‘gitlari» alohida fayz va xalqona ruh bag‘ishlaydi.

Tabiat manzaralarining, bahor go‘zalliklarining, uyg‘onish faslining latofati va jonasbaxsh fazilatlarining tasvirida, tarixiy shaxslarning tashqi qiyofasini chizish va ruhiy olamini ochishda tarixchi-xotiranavis Boburdan ijodkor Boburning ustunligi ko‘zga aniq tashlanadi – bunday lavhalar bayonida muallif iste’dodli adib kabi qalam tebratadi.

«Boburnoma» uning muallifi nomini butun dunyoga mashhur etdi, umuminsoniyat tarixida faxrli o‘rnlardan biriga ko‘tardi. Hech bir mubolag‘asiz aytish mumkinki, avvalo xuddi shu asar tufayli jahon boburshunosligi shakklandi va tobora keng quloch yoymoqdi. «Boburnoma» XVI asrdan boshlaboq to shu kecha-kunduzgacha dunyoning barcha tillariga (fors, ingliz, golland, fransuz, rus, nemis, italyan, hind, urdu ...) bir necha marotabalab tarjimalar qilindi, keng sharh-izohlar bilan nashr etildi. Asarning olamshumul tarixiy-ilmiy va adabiy qimmati hamda qomusiy mundarijasi haqida ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Xususan, Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab rivojlangan mamlakatlar olimlari (Vitsen, D. Derbelo, J. Leyden, V. Erskin, M.R. Kaldekot, S. Leyn Puul, E. Xolden, Bakye-Grammon, A. Pave de Kurteyl, F.G. Talbot, A. Denison Ross, A.S. Bevirij, Ko‘prulizoda, N.I. Ilminskiy, N.N. Pantusov, N.I. Veselovskiy, V.Bartold, A.N. Samoylovich, M. Sale, Ahmad Ali Ko‘xzod, Abdulxay Habibiy, Zokir Xusayn, Muni La’l,

A.S. Sharmi, R.P. Tripatxi, Muxibbul Hasan va b.)ning ilmiy asarlari-da «Boburnoma» insoniyat yaratgan buyuk qadriyatlar qatorida turishi qayd etiladi.

«Boburnoma»ga, umuman Bobur faoliyati va ijodiy merosiga dunyo miqyosida qiziqish tobora ortib bormoqda, Asarning prof. V.Takston tomonidan Amerikada (Kembridj, 1993 y.) hamda ikki jild hajmda, mu-kammal so‘zlik, ko‘rsatkichlar va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kio-to, 1995–96 yillar) ilmiy-tanqidiy matnining nashr etilishi ana shundan guyohlik beradi.

Shu ham e'tiborga loyiqliki, «Boburnoma» asosida bir qator milliy adabiyotlarda badiiy asarlar yuzaga kelgan.

Boburnoma – Adabiy-tarixiy, ilmiy asar. *Boburning* bu qomusiy asari turkiy adabiy an’ana («Temur tuzuklari», «Zafarnoma» va b.) asosida, shu bilan birga o’ziga xos tarzda yozilgan, bunda, muallifning o’z boshidan kechirmish-lari, ko’rgan va eshitganlari yilma-yil tadrijiy suratda bayon etilgan..

«B» «Tuzuki Boburiy», «Voqeqoti Boburiy», Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlarga ega bo’lgan. Uni oqqa ko‘chirgan kotib «Boburiya», *Gulbadanbegim* esa «Voqeanoma» deb ham ataganlar.

Bobur esa «Vaqoe» va «Tarix» degan nomlarni ishlatgan; ruboilyaridan birida shunday yozadi:

Bu olamda ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu «Vaqoe»ni o‘qup – bilgaykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum.

Lekin asar jahonda «Boburnoma» nomi bilan mashhur.

«Boburnoma» qachondan yozila boshlagani biror tarixiy manbarda qayd etilgan emas. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra uning ilk fasllari 1518-19 yillarda Afg‘on o‘lkasida yozila boshlagan va 1530 y. o‘rtasida Hindistonda tugallangan. Bayon usuliga ko‘ra 899 h. (mil. 1483) y. dan to 914 h. (mil. 1508-09) y. gacha qismini Bobur hayot yo‘li, ko‘rgan-bilganlari va taassurotlari, o‘tmishini eslash, xotiralari ni tiklash asosida yozgan, deb hisoblash mumkin. «Boburnoma»ning bu qismida voqea-hodisalar bayonida muxtasarlik, lo‘ndalik, ortiqcha tavsiotlarsiz umumlashtirish seziladi. 925 h. (mil. 1519) voqealariga bag‘ishlangan fasldan boshlab, aksincha, bayonda mufassallik va o‘ta aniqlik ustunlik qiladi. Ayrim fasllarda voqealar hafta kunlari va hatto kunning qismlariga qadar: (shanba kuni, rajab oyining yettisida..., odina kuni, muharram oyining uchida...), «chorshanba kechasi, og‘iz ochib» va b.) aniq tafsilotlar mavjud.

«Boburnoma»ning asl nusxasi shu kunga qadar topilgan emas. Mavjud barcha qo‘lyozmalarda voqealari hodi salarning yilma-yil izchil bayonida bir necha uzilish bor. Qo‘lyozmalar matnida, masalan, 910 h. (mil. 1504–05), 915–924 h. (mil. 1509–18), 927–931 h. (mil. 1520–24) y. lar voqealari tafsiloti uchramaydi, 914 h. (mil. 1508) va 926 h. (mil. 1520) y. voqealarining bayoni tugal emas. Buning sababini Boburning quyidagi so‘zlaridan anglash mumkin.

«Men xirgoh ichida kitobat qiladur edim, qog‘oz va ajzo (qo‘lyozmalar)ni yig‘ishtirguncha fursat bo‘lmadi – xirgohni peshxona bila-o‘q mening boshimg‘a yiqti... Kitob va ajzo g‘arq o‘l (ho‘l) bo‘ldi. Tashvish bila yig‘ishtiruldi... Mashaqqat bila o‘t yondurub tong otg‘uncha uxmlamay, avroq (varaqlar) va ajzoning qurutmog‘iga mashg‘ul eduk».

Ana shunday kutilmagan hodisa va tasodiflar oqibatida «Boburnoma» matnining ayrim qismlari yo‘qolgan bo‘lishi ham mumkin.

«Boburnoma» o‘rta asrlarda yaratilgan xotirot, tarixiy asarlardan o‘zining hech bir adabiy janrga o‘xshamagan fazilatlari bilan farqlanadi. Unda XV.ning oxirgi o‘n yilligidan tortib to XVI asrning 30-yillariga qadar Movarounnahr, Afg‘oniston, Huroson va Hindistonda yuz bergen, shaxsan o‘zi qatnashgan, guvoh bo‘lgan tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy voqealarga, o‘nlab yirik tarixiy shaxslar shajarasi, amaliy-ijtimoiy faoliyati, tabiatni, xulq-atvori, nuqson-fazilatlari, qiziqish doirasи, avlodlari tavsifiga keng o‘rin berilgan.

«Boburnoma» to‘la ma’noda keng qamrovli qomusiy noyob yodgorlik. Unda, ijtimoiy-tabiiy fanlar (tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va b. ga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltilirildi.

Asarda bevosita Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzarasi katta mahorat bilan xolisona chizilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari, qo‘rg‘onbuzar qurilmalar bilan

bir qatorda ko‘plab harbiy atamalar (bulong‘ir, juvong‘ir, g‘ul, xirovul yasol, o‘ron, «til», to‘lg‘ama va b.)ga izohlar beriladi. Bundan tashqari Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasbu hunari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, an‘anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek, o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma‘lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar, viloyatlarning jug‘rofiy-ma‘muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, cho‘l-adirlari, tog‘-sahrolari, bog‘u-rog‘lar, tabiat, iqlimi, hayvonot va o‘simpliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma‘lumotlar beriladi. Bundan tashqari, 15-16-a.da Turkiston (Movarounnahar)da yashagan turkiy qabilalar (qipchoq, barlos, mang‘it, bahrin, do‘lday, bekchik, uyg‘ur, ulug‘ yuz, ming, dug‘lat, o‘tarchi, charos, mo‘g‘ul, qora quyunli va b.) nomlari, ularning urf-odatlari, tirikchilik tarzi, harbiy salohiyati to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar ham borki, bular hozirgi o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz va boshqa turkiy xalqlar etnik o‘tmishini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

«Boburnoma»ning jahon tadqiqotchilari tomonidan tan olingan fasilatlaridan biri uning haqqoniyligi, voqeiyligi va tarixan asoslanganligidir. Bobur bunga alohida ahamiyat bergenligini bir necha o‘rinda maxsus ta’kidlagan. «Bu bitilganlardan g‘araz... rost hikoyatdurkim, - bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘onlardin maqsud o‘zning ta’rifi emas, - bayoni voqeい bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu «Tarix»da andoq iltizom (majburiyat olish, rioya qilish, lozim topish –A.A.) qilibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota, og‘adin har yaxshilig‘ va yomonlig‘kim shoe edi, taqdir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hunarkim bayoni voqe‘ edi – tahrir ayladim. O‘qig‘uvchi ma‘zur tutsun, eshitguvchi taarroz maqomidin o‘tsin!»... Haqiqatdan ham, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mas‘ud Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Husravshoh, Ahmad Tanbal, Uzun Hasan, Ali Do‘st tag‘oyi, Sulton Maximudxon, Sulton Husayn Mirzo, Boysung‘ur Mirzo, Badiuzzamon,

Ibrohim Lo'diy kabilarning har birining shajarasi va avlodi, gavda tuzilishi, qiyofasi, fahmu idroki, yurish-turishi, xulq-atvori, avlodi, amaliy-ijtimoiy faoliyati, jamiyatda tutgan o'rni va muhim sifatlari yuzasidan muhim ma'lumotlar keltiriladi.

«Boburnoma»da *Alisher Navoiy*, *Abdurahmon Jomiy*, *Shayxim Suhayliy*, *Husan Ali Tufayli*, *Osafiy*, *Binoiy*, *Sayfiy Buxoriy*, *Ohiy*, *Muhammad Solih* kabi o'nlab ijodkorlar, Hoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mulla Yorak, Shoh-quli G'ijjakiy, Xusayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ular ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi. Xususan, Alisher Navoiy va uning ijodiy-ijtimoiy faoliyati to'g'risida, yaratgan yirik asarlari va yurt obodonchiligi yo'lidagi amaliy ishlari, shuningdek, o'zaro boshlangan yozishma haqida shunday deyiladi:

«Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r ayribturlar, - hech kim oncha ko'p va ho'b aytqon emas».

«Boburnoma» muallif she'riyat tarixidan ham chuqur bilimga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Unda Firdavsiyning «Shohnoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asarlaridan, Xoja Hofiz devoni dan iqtiboslar o'rin olgan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy «Hamsa»lari, Jaloliddin Rumiy masnaviyi, shuningdek, zamondosh ijodkorlarning o'nlab badiiy asarlardan namuna keltiriladi, ko'plab tarixiy manbalar ga havolalar uchraydi.

«Boburnoma» muallifning podshoh sifatidagi faoliyatining emas, balki shoir sifatidagi ijodiy faoliyatini ham tadqiq etishda ishonchli manbadir.

«Boburnoma» XV asr o'zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an'anaviy badiiy san'atlar bilan jilolangan lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan she'riy parchalar uning badiyligini yanada oshiradi, o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. Butun asar davomida mahorat bilan qo'llangan «Ishonmagil do'stingga, somon tiqr po'stingga», «Ko'zlarini tuz tutti», «Muqarrardur: har kim ko'p aytur – parishon aytur», «Dushman ne demas, tushga ne kirmas», «El oyoq bila borg'onda – biz bosh bila borg'oybiz,

el tayoq bila borg‘onda – biz tosh bila borg‘oybiz», «Yomon ot bila tilgandin – yaxshi ot bila o‘lgan yaxshiroq» kabi xalq maqol-mattallari, iboralari, ibratli o‘gitlari «Boburnoma»ga alohida fayz va xalqona ruh bag‘ishlaydi.

«Boburnoma» dek shoh asar mubolag‘asiz aytish mumkinki, Boburni ijodchi sifatida jahonga tanitdi shu asar tufayli jahon boburshunosligi shakllandni va tobora keng quloch yoymoqdi. «Boburnoma» XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning barcha yetakchi (ingliz, golland, fransuz, rus, fors, nemis, italyan, hind, urdu va b.) tillariga bir necha marta tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab rivojlangan mamlakatlar olimlari (Vitsen, D.Derbelo, J.Leyden, V.Erskin, M.R.Kaldekot, S.Leyn Puul, E.Xolden, Bakye-Grammon, A. Pave de Kurteyl, F.G.Telbot, A. Denison Ross, A.S.Bevirij, Ko‘prulizoda, N.I. Ilminskiy, N.N.Pantusov, N.I.Veselovskiy, V.Bartold, A.N. Samoylovich, M. Sale, Ahmad Ali Ko‘xzod, Abdulxay Habibiy, Zokir Xusayn, Muni La’l, A.S. Sharmi, R.P. Tripatxi, Muxibbul Hasan va b.)ning ilmiy tadqiqotlarida «Boburnoma» insoniyat yaratgan buyuk qadriyatlar qatorida alohida ta’kidlanadi.

«Boburnoma»ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826 y.da J.Xayden va V.Erskin amalga oshirdi. F. G. Telbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909 y.) uning qisqartirilgan nashrlarini chop etdi. 1921 y.da esa atoqli ingliz sharqshunosi Annet Bevirij xonim «Boburnoma» ni mustaqil suratda asl nusxdan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida «Boburnoma» tarjimalari 9 marta chop etilishi unga qanchalik katta e’tibor qaratilganidan dalolat beradi.

«Boburnoma»ga, umuman, Bobur ijodi va faoliyatiga jahon miqyosida qiziqish tobora ortib bormoqda. Asarning ilmiy-tanqidiy matni prof. V. Takston tomonidan Amerikada (Kembrij, 1993 y.) hamda ikki jild hajmda, mukammal so‘zlik, ko‘rsatkichlari va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995–96 y.) nashr etildi.

Bundan tashqari, yana shuni ta'kidlash joizki, garchi «Boburnoma» salkam 36 yillik voqealar bayonini o'z ichiga olgan bo'lsa-da lekin bu voqealar silsilasidan turli sabablarga ko'ra tushib qolgan voqealar umumiyl muddati 18 yilga tengdir. Bir o'rinda 10-11 yillik, ikkinchi bir o'rinda 4-5 yillik va boshqa o'rinda 5 oylik uzilishlar bor. Mana shu uzilish bo'lgan o'rirlarni ingliz sharqshunoslari boshqa manbalar («Tarixi sultanati Afg'ona», «Tarixi Rashidiy», «Humoyunnoma», «Ak-barnoma», «Tabqoti Akbariy», «Tarixi Farishta», «Labbu Tavarik», «Tarixi Olamaroiy», «Tarixi Badyuniy», «Tarixi Sind» va b.) asosida ma'lum darajada tiklaganlar.

Ingliz tadqiqotchisi F.Telbot «Boburnoma» so'z boshisida (1909) shunday yozadi: «Hozirgi Hindistonni o'rganmoqchi bo'lgan kishi ishni eng yaxshisi, Bobur xotiralarini mutoala qilishdan boshlagani ma'qul». Bu shubhasiz «Boburnoma»ga berilgan yuksak bahodir.

O'zbekistonda ham qomusiy yodgorlik bir necha bor chop etilgan, S. Azimjonova, V. Zohidova, B. Axmedov, X. Nazarova, B. Valixo'jaev va b. ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Ad.: S.Azimova. Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii. Moskva. 1977; O'zbek adabiyoti tarixi. III jild. –T., 1978; B.Ahmedov. Istoriko-geografi-cheskaya literatura Sredney Azii XVI–XVIII v.v (Pismennye pamyatniki). T., 1985; Boburnoma, –T., 1960; Le Livre de Babur, Parij, 1985; Babur-name, –T., 1993.

UMUMIY XULOSA

Terminologiya va tahrir masalasini o'rganish mavzuini tadqiq etish jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, bugungi kun noshirlik ishida, umuman, matniy muloqotda terminlarni qo'llash borasida ayrim kamchiliklar uchraydi. Bunga sabab, terminlarni qo'llashda adabiy tahrir ilmi talablaridan chetga chiqishlik, ko'proq bu masalaga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashishlikdir. Achinarlisi shundaki, o'z tilimizda muayyan narsa, hodisa va voqeani aniq ifoda etuvchi termin (so'z va so'z birikmasi) bo'lgani holda o'zga tildagi terminlardan foydalanishga ruju qilinadi. Bu holni hech bir sabab bilan oqlab bo'lmaydi. Masalan, *ko'klam – bahor* (for.); *bordiyu – agar*; *magar* (for.), *mobodo* (ar.); *bosqinchı – tajovuzkor* (ar.); *yoziq – gunoh* (for.), *ayb, jinoyat* (ar.); *quv – hiylagar* (for.), *ayyor, mug'ombir, makkor* (ar.); *yetuk – komil, barkomol* (ar.); *tutqin – bandi* (for.), *asir* (ar.); *tentak – go'sxo'r* (for.), *ahmoq* (ar.); *yot, o'zga – begona* (for.) va h.

Bu hol hazrati Navoiy aytganlaridek tilga ixtiyorsizlik. Chet so'zlarni qo'llashlikning yana bir sababi asl turkiy terminlar ma'no ifodasidan xabarsizlik. Masalan, *ochar – bozor* (for.); *budun – xalq* (for.); *yel – shamol, sabo* (for.); *yurt – vatan* (ar.), *o'tik – dazmol* (for.); *kir-pich – g'isht* (for.) va h.

O'z tildagi ichki imkoniyatlар asosida termin yasashga nisbatan quntsizlik. *Xolodilnik* (rus.) – *sovugdon*; *kipitilnik* (rus.) – *qaynatgich*; *morojennoe* (rus.) – *muzlatma* va h.

Chet tilga xos termin (so'z)lar ma'no ifodasidan xabarsizlik. Masalan, *axborot* (ar. – *xabarlar*); *fuqaro* (ar. – *faqirlar*); *bo'lkanon* (fr. – *bulka – non*); *inson* (ar. – *unutgan*) va h.

Terminlarni qo'llashda adabiy tur, uslubni yaxshi farqlamaslik. Masalan, ilmiy, ilmiy-ommabop matnlarda ayni bir xil terminlarni

qo'llash. Masalan, *aybsizlik*, *prizumpsiyasi*, *elektorat*, *respondent*, *lid*, *kontent*, *kreativ* va h. Shularni e'tiborga olib, matn tahririda amal qilish lozim bo'lgan quyidagi tavsiyalar maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Matnga kiritilgan terminlarning umumxalq tushunadi-gan va qo'llaydigan yoki muayyan tor ixtisoslik doirasidagina qo'llanadigan, faqat soha mutaxassislari uchun tushunarli ekanligini aniqlash.
- O'zga tildan o'zlashgan terminlar etimologiyasini ko'rsatish.
- O'zga tillardan kirib kelayotgan terminlarning muqobilini adabiy nutq lug'atidan topish, bordi-yu, topilmasa, shevalardan yoki umumtur-kiy tildan izlash.
- Muqobili bo'limgan chet termin (so'z, so'z birikmasi)ni to'liq yoki qisman kalkalab olish.
- Chet termin o'z tilida qanday bo'lsa shunday olish.
- Chet terminni o'z nutq talaffuziga moslab olish.
- Chet terminlarni, ular ma'no ifodasiga ko'ra o'z tilga oid unsur-lar yordamida o'zlashtirish.
- Adabiy tur talabiga ko'ra terminlarning qo'llanish doirasini bel-gilash.
- Terminlarni matnga kiritishda auditoriya saviyasini hisobga olish.
- Termin qo'llash bilan termin o'zlashtirishni farqlash.
- Ilm, fan, texnika, madaniyatga oid chet so'z, so'z birikma-si (termin)larni o'zbek adabiy nutq lug'atiga kiritish masalasi bilan shug'ullanuvchi maxsus terminologik byuro (qo'mita, bo'lim, guruh) tuzish.
- Adabiy nutq (ilmiy, ilmiy-ommabop, siyosiy, ommaviy-siyosiy, rasmiy-idoraviy va diplomatik nutqlarda davlat tilidan foydalanish, terminologik byuro tomonidan tasdiqlangan terminlardan foydalanish majburiyatini qonun yo'li bilan mustahkamlash.
- O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti (O'zME DIN) ishini yanada jonlantirish uchun sohalar bo'yicha ilmiy tahririylar, so'zlik va adabiy nazorat bo'limlarini tiklash.

- O‘zME DIN tarkibida terminshunoslik (so‘zlik bo‘limida) bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis – katta ilmiy xodim lavozimini joriy etish.
- Terminshunos katta ilmiy xodim zimmasiga O‘zME DIN miq-yosida terminlar bilan ishlashda uyg‘unlik (bir xildalik)ni ta‘minlash mas‘uliyatini yuklash.
- Terminologik byuro va O‘zME DINning terminshunoslik bo‘yicha ilmiy-amaliy hamkorligini o‘rnatish.
- Termin ijodchiliqi hamda chet tillardan termin (so‘z, so‘z birik-masi) o‘zlashtirishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarish.
- O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi (O‘zMMA) rahbarligi va homiyligida noshirlilik ishi, kitobshunoslik, kitob savdosi terminlarning izohli lug‘atini tayyorlash va nashrdan chiqarish.
- O‘zMMA hamda O‘zMU jurnalistika fakulteti hamkorligida «Adabiy tur, tahrir va terminologiya muammolar» mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya(lar) o‘tkazish.

ADABIYOT

I. Rahbariy adabiyot

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘qituvchi, 2005.– 84 b.
2. «Noshirlik faoliyati to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasining qonuni. –T.: O‘zbekiston, 1998.

II. Asosiy adabiyot

3. *Tohirov Z.T.* Adabiy tahrir. Darslik. –T.: Tafakkur Bo‘stoni – Cho‘lpion nomidagi NMIU, 2012. – 320 b.
4. *Tohirov Z.T.* Nashr jarayoni asosiy bosqichlari. Darslik. –T.: Tafakkur Bo‘stoni. 2015. – 272 b.

III. Qo‘sishma adabiyot

5. *Tohirov Z.T.* Pragmatik sema. –T.: Zarqalam. 2004. 96 b.
6. *Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A.* va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 1980. –127–131-b.
7. O‘zbek tili leksikologiyasi. O‘zFA til va adabiyot in-ti. –T.: Fan, 1981. – 17–40-b.
8. *Hojiev A.* Lingvistik terminlar izohli lug‘ati.–T.: O‘qituvchi, 1985. – 144 b.
11. *Nakoryakova K.M.* Literaturnoe redaktirovanie. –Moskva: Ikar, 2002. – 432 b.
12. *Golub I.B.* Konspekt leksiy po literaturnomu redaktirovaniyu. –Moskva: Ayris press, 2004. – 432 b.
13. Stilistika i literaturnoe redaktirovanie. Pod.red.prof. V.I.Maksimova.–Moskva: Gardariki, 2004.– 350 b. VI. Ilmiy maqola
14. Tohirov Z.T. Axborot globallashuvi va milliy ma’naviyat / Axborot globallashuvi va xalqlar ma’naviyati (Ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: O‘zDJTU, 2011.– 46–48-b.

15. Omonov R. Matn turlari, tuzilishi va lingvistik xususiyatlar/ Ommaviy axborot vositalarida til, uslub va tahrir masalalari (Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). – T.: O'zMU, 2013.– 59–63-b.
16. Tohirov Z.T. OAV matnlarida til, uslub va tahrir / Ommaviy axborot vositalarida til, uslub va tahrir masalalari (Ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari). –T.: O'zMU, 2014. – 24–27-b.
17. Tohirov Z.T. Matbuotda til va uslub masalalari // O'zbekiston matbuoti, 2014 yil, 1-son. – 18–21-b.
18. Tohirov Z.T. Mantiqiy tahlil – adabiy tahrir asosi // O'zbekiston matbuoti, 2014 yil, 5-son. – 60–62-b.
19. Tohirov Z.T. Asos material xatoligi muqarrar...?! // O'zbekiston matbuoti, 2015 yil, 1-son. – 33–36-b.
20. Tohirov Z.T. Badiiy asar tilini o'rganish // O'zbekiston matbuoti, 2015 yil, 4-son. – 30–33-b.
21. Tohirov Z.T. Ommaviy-siyosiy adabiyotlar tahriri// O'zbekiston matbuoti. 2015, 5–6-son.
22. Tohirov Z.T. Ilmiy-ommabop adabiyotlar tahriri// O'zbekiston matbuoti, 2015. 5–6-son.
23. Tohirov Z.T. Telenutq, tasvir va tovush uyg'unligi// O'zbekiston matbuoti. 2016. –son 22–25-b.

Asosiy adabiyotlar:

- S. Azimjonova. Gosudarstva Babura a Kabule i a Indii. M. 1977.
- O'zbek adabiyoti tarixi. III jild. T.1978.
- B.Ahmedov. Istrika-geograficheskaya literatura Sredney Azii XVI-XVIII v.v (Письменные памятника). T., 1985;
- G'aybullox as Salom, Ne'matulloh Otajon. Jahongashta «Boburnoma». T. 1996 y. Yana: Zahriddin Muhammad Bobur maqolasida berilgan. Abdurashid Abdug'afforov.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I QISM. Adabiy tur, termin va tahrir	
1-bob. Matn, adabiy nutq, uslub va adabiy tahrir	6
2-bob. Adabiy nutq uslubiyati va so‘z qo‘llash mahorati	13
3-bob. Matn tahlilida terminlar bilan ishlash	26
4-bob. Muayyan tur asarlari va ularda terminlarning berilishi	32
5-bob. Ommaviy-siyosiy matnlarda terminlardan foydalanish va ular tahriri	42
6-bob. O‘quv adabiyotlarida terminlarning	51
7-bob. Ensiklopedik asarlardagi terminlar ustida ishlash.....	61
II QISM. Muharrirlik mahorati nazariyasи va amaliyoti	
1-bob. Til, sheva, lahja, so‘zlashuv, talaffuz va adabiy nutq.....	76
2-bob. Adabiy nutq uslublari	91
3-bob. Matn mantiqiy tahlili.....	120
4-bob. Adabiy tahrir.....	136
Adabiy tahrir bo‘yicha amaliy mashqlar	154
Javoblar	164
Ensiklopedik asar tahriri. Muallif matni.....	182
Matn tahriri	192
Xulosa	198
Adabiyot.....	201

Annotatsiya

Ushbu qo‘llanma 5220100 – Jurnalistika yo‘nalishi bo‘yicha Adabiy tahrir, 5A 2201104 – Noshirlik ishi va muharrirlik ixtisosligi bo‘yicha Adabiyot ayrim iurlari tahriri fanlaridan jurnalistika fakulteti bakalavriantlari, magistrantlari hamda oliy jurnalistika kurslari tinglovchilariga mo‘ljallangan.

Аннотация

Данное учебное пособие предназначено для бакалавриатов и магистрантов обучающихся по специальности «Издательское дело и редактирование» факультета журналистики. Здесь представлен материал для работы с терминами в некоторых видах литературы.

Summary

This tutorial is intended for the master course students of the specialty «Publishing and editing». It presents the material on the work with terms in some literary styles.

Заглавие

Введение	3
I часть. Виды литературы, термины и редактирование	
1 глава. Текст, литературная речь, стиль и литературное редактирование	6
2 глава. Стилистика литературной речи	13
3 глава. Работа над терминами при анализе текста	26
4 глава. Некоторые виды литературы и терминология	32
5 глава. Использование терминов в общественно-политической литературе	42
6 глава. Работа над терминами в учебной литературе	51
7 глава. Работа над терминами в энциклопедических изданиях .	61
II часть. Теория и практика редакторского мастерства.	
1 глава. Язык, диалект, говор, разговорная речь, произношение и литературная речь	76
2 глава. Стили литературной речи	91
3 глава. Логический анализ текста	120
4 глава. Литературное редактирование	136
Задачи по литературному редактированию	154
Ответы	164
Редактирование энциклопедического текста	182
Авторский текст	192
Отредактированный текст	198
Общие выводы. Литература	201

Contents

Introduction	3
Part I. Styles in literature, term and editing	
Chapter 1. Text, literary speech, style and literary editing	6
Chapter 2. Style of literary speech	13
Chapter 3. Work with terms in text analysis	26
Chapter 4. Some styles of literature and terminology	32
Chapter 5. Terms use in the mass and political literature	42
Chapter 6. Work with terms in the training literature	51
Chapter 7. Work with terms in the encyclopedic editions	61
Part II. Theory and practice of the editing art	
Chapter 1. Language, dialect, speech, oral practice, pronunciation and literary speech.....	76
Chapter II. Styles of literary speech	91
Chapter III. Logical analysis of a text.....	120
Chapter IV. Literary editing.....	136
Tasks. Problems on literary editing	154
Answers.....	164
Editing of an encyclopedic text	182
Author's text	192
Edited text.....	198
General Conclusions. Literature	201

Z.T. TAXIROV

**ADABIY TUR,
TERMIN, TAHRIR
VA MUHARRIRLIK
MAHORATI**



ISBN 978-9943-5485-5-8

9 789943 548558